

Muassis:
TERMIZ IQTISODIYOT VA
SERVIS UNIVERSITETI

TISU ilmiy tadqiqotlari xabarnomasi
Ilmiy-uslubiy jurnal

Bosh muharrir:

Sattarov Abdusamat
Umurqulovich

Bosh muharrir o'rinbosari:

Qobulov Eshbolta Atamuratovich

Mas'ul kotib:

Allamuratov Shuxrat Ashurovich

Dizayner:

Meyliqulov Shahboz
Xolmamatovich

Jurnal har chorakda bir marotaba
chop etiladi

Jurnal O'zbekiston Respublikasi
Prezidenti Administratsiyasi
huzuridagi Axborot va ommaviy
kommunikatsiyalar agentligining
2023-yil 1-martdagi
№ 066379- raqamli guvohnomasi
bilan ro'yxatga olingan.

Jurnal "PRINTWELL" MCHJ
bosmaxonasida chop etildi.
Manzil: Toshkent shahri
Muqimiy ko'chasi, 170/14

Bosishga ruxsat etildi:
30.05. 2024.

Qog'oz bichimi: 60x84 1/8
"Times New Roman" garnitiruasi.
Ofset bosma.

Ofset bosma usulida bosildi.
Shartli bosma tabog'i: 11.
Adadi 100 nusxa.
Bahosi kelishilgan narxda.
Buyurtma № 4.

Jurnalning elektron shakli bilan
<https://scientific.tues.uz>
web saytida tanishish mumkin.

Tahririyat manzili:

Surxondaryo viloyati,
Termiz sh., "Yulduz" MFY,
"Ibn Sino" ko'chasi.

TAHRIR HAY'ATI A'ZOLARI:

Ixtisham Ul-Haq – i.f.d., prof. (Pokiston)
L. Narrada Gamage – i.f.d., prof. (Shri Lanka)
Vohidov Sh.X. – t.f.d., prof. (Tojikiston)
Xudoyqulov S.K. – i.f.d., prof.
Jo'rayev A.S. – i.f.d., prof.
Hatamov O.Q. – i.f.d., prof.
Tursunov S.N. – t.f.d., prof.
Xoliqova R.E. – t.f.d., prof.
Eshov B.J. – t.f.d., prof.
G'afforov.SH.S. – t.f.d., prof
Mirsabirov M. – f.-m.f.d., prof.
Allakov I. – f.-m.f.d., prof.
Turayev E.Y. –f.-m.f.d., prof.
Turayev X.X. – k.f.d., prof.
Qulmamatov D. – f.f.d., prof.
Bakirov P.U. – f.f.d., prof.
Teshabayeva D.M. – f.f.d., prof.
Esanov.A – f.f.f.d. (PhD)
Qodirov U.D. – psix.f.d., prof.
Otamurodov F.A. – tib.f.d., dots.
Otamurodov Sh.N. – i.f.d., dots.
Eshqurbonov F.B. – k.f.d., dots.
Tursunov N.N. – t.f.d., dots.
Xudayberdiyev U.T. – t.f.f.d. (PhD).
Xayrullayev I.N.– f.-m.f.n., dots.
Rasulov H.M. – s.f.n., dots.
Yormatov F.J. – t.f.n., dots.
Allanov.Q.- g.f.n, dots.
Mamadjanova T.A. – i.f.f.d. (PhD), dots.
Eshkarayev S.Ch. – k.f.f.d. (PhD)
Bazarov S.B. – f.f.f.d. (PhD)
Sattarova Y.A. – f.f.f.d. (PhD)
Eshkurbanov S.B. – t.f.f.d. (PhD)
Saloxitdinova N.M. – p.f.f.d. (PhD)
Madiyeva M.Y. – f.f.f.d. (PhD)
Babamuratov B.E.-t.f.f.d. (PhD), dots.
Turopova S.K.-f.f.f.d. (PhD), dots.
Xoliyorov E.Ch. f.-m.f.n., dots.

MUNDARIJA

TARIX FANLARI

O.BO'RIYEV, D.PARDAYEV

Rus elshunos olimi G.P.Snesarev xorazmliklar qadimiy e'tiqodlarining zukko tadqiqotchisi sifatida.....4

B. KABULOV

Termiz arxeologiya muzeyi va uning faoliyati tarixi.....10

E.A.QOBULOV, B.B.TOSHIMOV

Imom Termiziy hayoti va ilmiy merosi.....15

IQTISODIYOT FANLARI

Z.I.HAKIMOV, F.X.XUDOYNAZAROV

Kichik biznes subyektlari faoliyatini rivojlantirishining o'ziga xos xususiyatlari.....22

SH.S.MUZRAPOVA

Moliyaviy hisobotlarning xalqaro standartlari asosida investitsion mulklarni hisobga olish.....28

N.X. DO'SMUXAMEDOVA

Hudud soliq potensialini oshirish imkoniyatlari.....36

A.A.SHODIYEV, M.O'.CHORSHANBIYEVA

Korxonalarda ichki audit xizmatini tashkil etish asoslari.....39

I.CH.SAPAROV

Kambag'allikni qisqartirish va aholi bandligini ta'minlashda tadbirkorlik faoliyatining o'rni.....44

FILOLOGIYA FANLARI

E.A.CATTAPOBA

Некоторые национально-культурные особенности эвфемизмов русского и узбекского языков в сопоставительном плане.....50

M.Y.MADIEVA

Translation problems of English brand names in Uzbek.....55

H.I.JABBOROVA

Специфика национально-культурных особенностей тематических групп

гендерной лексики русского и узбекского языков.....61

M.Y.MADIEVA, SH.B.XAYITMURODOVA

Navigating the mind: understanding mental health.....65

Z.M. ALLAYEV

Semantic and structural analysis of oneirosphere lexicon in English and Uzbek languages (based on collections of dream interpretations).....67

Z.B.MUSTAFAKULOVA

Semantic analysis of anglicisms in uzbeck pedagogical terminology.....69

S.B.YADIGAROVA

The role of games in teaching grammar.....74

F.U.RAHMONQULOVA

Surxondaryo jurnalistikasi tarixi: ilk nashrlar va ularning jamiyatdagi o'rni.....77

E.A.CATTAPOBA, O.B. КИСЕЛЁВА

Особенности замены табу в процессе эвфемизации речи при преподавании русского языка.....81

PEDAGOGIKA FANLARI

G'.Y.SALOMOV

Yuqori sinf o'quvchilariga invariant sinf soatlarini zamonaviy ta'lim texnologiyalari asosida tashkil etishning pedagogik asoslari..... 86

A.S.ABDUSAMATOV, D.F.TO'RAYEVA

Qadriyatlar kategoriyasi va uning falsafasi.....94

N.SH.TOSHPULATOVA, H.I.RAXMATOVA

Boshlang'ich sinf o'qituvchilarini ona tili fanida raqamli texnologiyalardan foydalanishga o'rgatishning metodik tizimi.....98

N.M.SALOXITDINOVA, R.I.ESONOVA

"Tabiiy fanlar" darslarini "4K" modeli asosida tashkil etishning metodik asoslari (boshlang'ich sinflar misolida).....105

N.N.SHODIYEVA

Yoshlar o'rtasida nikoh qurishda milliy qadriyatlarini o'rnini baholash.....110

SH.T.TOSHOVA

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida inklyuziv ta'limni tashkil etish.....114

N.X.XOLMURODOVA

Talabalar didaktik-metodik kompetentligining motivatsion-nazariy sohasini rivojlantirish yo'llari.....120

TIBBIYOT FANLARI

R.K.SULTONOV, O.O.ODILJONOV

Surxondaryo viloyatida ko'kyo'tal kasalligi asoratlarini solishtirma tashxisoti.....124

O.A.ESHQOBILOV, Y.M.KENJAYEV

Gipertoniya va uning global tarqalishi: turli xalqlardagi farqlar..... 128

B.E.BABAMURATOV, S.SH.BOYQOBILOV

Teri leishmaniozi: hayot sikli va biologik xususiyatlari..... 132

R.A.MUHAMMADIYEV, Z.F.ALIMOVA

Change in blood flow velocity in the central vein of the retina in intracranial hypertension.....136

R.X.ERDANAYEV

Surxondaryo viloyati bo'yicha Tez tibbiy yordam ko'rsatish xizmati holati.....138.

FIZIKA-MATEMATIKA FANLARI

S.B.BO'RIYEV

Ta'lim tizimida bulutli texnologiyalar: innovatsion o'zgarishlar va yangi imkoniyatlar.....144

PSIXOLOGIYA FANLARI

S.B.ALMARDANOVA

Talabalarning kasbiy shakllanishida kasbiy yo'nalganlik xususiyatlarining namoyon bo'lish darajalarini aniqlash.....148

D.O.AMINOVA

Professional ta'lim muassasasi o'quvchilarida kasbiy imij diagnostikasi.....152


TARIX FANLARI

07.00.00

TARIX

FANLARI





"TISU ilmiy
tadqiqotlari
xabarnomasi"
ilmiy-uslubiy jurnali

<https://scientific.tues.uz>
ISSN 2992-9016

Ochil Bo'riyev, Qarshi davlat universiteti professori
Do'stmurod Pardayev, Qarshi davlat universiteti magistranti

RUS ELSHUNOS OLIMI G.P.SNESAREV XORAZMLIKLAR QADIMIY E'TIQODLARINING ZUKKO TADQIQOTCHISI SIFATIDA

Annotatsiya: Ushbu maqolada taniqli rus elshunos olimi G.P.Snesarevning "Xorazmliklarning musulmonlikdan avvalgi marosimlari va urf-odatlari" monografiyasining mohiyat-mazmuni yoritilgan. Tayanch so'zlar: Xorazm, etnografiya, G.P. Snesarev, islomdan avvalgi marosimlar, urf-odatlar, Xorazm arxeologik-etnografik ekspeditsiyasi, S.P.Tolstov, Etnografiya instituti, ibtidoiy, diniy, demonologiya, shomonlik, "Avesto", e'tiqodlar.

Г.П. СНЕСАРЕВ КАК ВЕДУЩИЙ ИССЛЕДОВАТЕЛЬ ДРЕВНЕХОРАЗМИЙСКИХ ВЕРОВАНИЙ

Аннотация: В данной статье рассматривается содержание монографии известного русского этнографа Г.П. Снесарева «Доисламские обряды и обычаи хорезмийцев». **Ключевые слова:** Хорезм, этнография, Г.П. Снесарев, доисламские обряды, обычаи, Хорезмская археолого-этнографическая экспедиция, С.П. Толстов, Институт этнографии, первобытный, религиозный, демонология, шаманизм, «Авеста», верования.

RUSSIAN ETHNOLOGIST G.P. SNESAREV AS A PERCEPTIVE RESEARCHER OF THE ANCIENT BELIEFS OF THE KHOREZMIANS

Annotation: This article covers the essence of the monograph "Rites and customs of the people of Khorezm before Islam" by G. P. Sensarev, a well-known Russian ethnologist. **Keywords:** Khorezm, ethnography, G. P. Sensarev, pre-Islamic rituals, traditions, Khorezm archaeological-ethnographic expedition, S. P. Tolstov, Institute of Ethnography primitive, religious, demonology, shamanism, "Avesta", beliefs.

Kirish. Sovet jamiyatida XX asrning 50-60 yillaridan boshlab sodir bo'lgan siyosiy o'zgarishlar tufayli o'zbek xalqining qadimiy e'tiqod va marosimlariga sinfiylik nuqtai nazaridan yondashish boshlandi, natijada tub aholining diniy va milliy marosimlari unutilayozdi. Lekin bu tub aholi urf-odatlariga bo'lgan qiziqishni aslo to'xtata olmadi. Shu davrda rus va mahalliy tadqiqotchilar tomonidan bir qator ilmiy ishlar amalga

oshirildi (K.L. Zadixina, O.A. Suxareva, G.P. Snesev, K.Shoniyoov H.Ismoilov, C.Mirhosilov, so'nggi davrda A.Ashirov, B.Xolmurotov, F.Abdalov, A. Azizov). XX asr 60 -yillari o'rtalaridan etnografiya fanida bu yo'nalishda yangi ma'lumotlar bilan boyitgan asarlar paydo bo'ldi. Bular orasida rus elshunosi G.P. Snesevning (1910-1989) tadqiqotlari alohida ahamiyatga molik deyish mumkin. Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Taniqli rus elshunos olimi Gleb Pavlovich Snesev 1910-yil 15-iyunda Sankt-Peterburg shahrida shifokor oilasida tavallud topgan. 1926-1930-yillarda Moskva Davlat universitetining tarix-falsafa fakultetida o'qigan. 1931-1936-yillarda Samarqand shahridagi O'zbekiston Markaziy davlat muzeyida ilmiy xodim sifatida ishlagan. 1936-1945-yillarda Moskvadagi Din tarixi va ateizm muzeyida ilmiy xodim, islom dini bo'limi mudiri vazifalarida mehnat qilgan. 1952-1958-yillarda sobiq Ittifoq FA Etnografiya institutida ilmiy xodim sifatida faoliyat ko'rsatgan va shu davrda Xorazm arxeologiya va etnografiya ekspeditsiyalarida ishtirok qilgan. 1970 yilda "Xorazmliklarning musulmonlikdan avvalgi marosimlari va urf-odatlari qoldiqlari" monografiyasi asosida nomzodlik dissertatsiyasini himoya qilgan, Etnografiya institutida 1979 yilgacha ishlagan. U 1989-yil 2-oktyabrda Moskvada vafot etgan. G.P.Snesev qariyb 30 yil davomida Xorazm vohasining Darg'onotadan to Ko'hna Urganchgacha bo'lgan barcha qishloqlarini ba'zan piyoda, ba'zan eshak, so'ngra mashinada aylanib chiqib, boy etnografik ma'lumotlar to'plagan. Uning ilk bor 1932-yilda Xorazm vohasi aholisi etnografiyasi

bo'yicha ilmiy tadqiqotlari boshlangan. U mashhur sharqshunos olim S.P.Tolstov rahbarligida tashkil etilgan Xorazm arxeologik-etnografik ekspeditsiyasida muntazam ravishda ishtirok qilgan. Tahlil va natijalar. Uzoq yillar davomida to'plagan materiallar asosida uchta monografiya nashrettirgan:

1. Реликты домусульманских верований и обрядов у узбеков Хорезма. -М.: Наука, 1969 ("Xorazmliklarning musulmonlikdan avvalgi marosimlari va urf-odatlari").

2. Под небом Хорезма. -М.: Наука, 1973-160 с. ("Xorazm osmoni ostida" (Etnografik lavxalar).

3. Хорезмские легенды как источник по истории религиозных верований Средней Азии - М.: Наука, 1983. -212 с. ("Xorazm afsonalari O'rta Osiyo diniy inonchlar tarixi bo'yicha manba sifatida"). Bundan tashqari, olimning Xorazm etnografiyasi bo'yicha 30 taga yaqin maqolalari e'lon qilingan. G.P.Snesevning yirik asari "Xorazmliklarning musulmonlikdan avvalgi marosimlari va urf-odatlari" monografiyasi o'zining salmoqli, noyob dalillarga boyligi, chuqur ilmiy tahlilga asoslanganligi bilan alohida ajralib turadi. Monografiya kirish olti bob va xulosadan iborat. Birinchi bob – "Xorazm demonologiyasi va shamanlik marosimlari" deb nomlangan. Ushbu bobda Xorazm demonologiyasi doirasiga kiruvchi ajina, pari, dev, ajdaho, alvasti kabi ruhlarning islom dinidan avvalgi tasavvurlarga daxldor ekanligi dalillangan va bu majmuani "xalq dini" deb baholangan. Bob davomida "ko'z tegish, irimi doirasidagi fetishlar, temir (pichoq, qaychi va b.)" bilan bog'liq homiylik inonchlari, tabiblarning suq chiqarish, "alas" usuli turli misollar asosida tahlil etilgan. Olimning shomon (Xorazmda "po'rxon" deb ham yuritiladi) marosimlarini tavsif etishi ham qiziqish tug'diradi. Shomonlarning kasb-kori, asboblari, ayimlari, erkak va ayol po'rxonlar, ularning bu kasbga kirib kelish sabablari, ular o'tkazgan seanslar mazmuni mazkur bobda atroflicha yoritib berilgan. O'z navbatida, ular O'rta Osiyoning boshqa hududlaridagi o'sha an'analar bilan qiyoslangan. Bobning oxirgi qismi po'rxon amaliyotiga bag'ishlangan. G.P.Snesev shomonlik an'alarini tarixiy jihatdan chuqur ilmiy tahlilga tortgan. Parilarning erkak va ayol



toifasi, ularning inson zotiga o'chligi turli misollar vositasida bayon etilgan. Bog'otdagi Qal'ajiq po'rxonlarning tabarruk maskani ekanligi xususidagi ma'lumotlar, ayniqsa, qiziqarlidir. Ushbu tahlil jarayonida "Avesto"ga murojaat qilinib, demonologiyaga daxldor qator masalalar tahlil doirasiga tortilgandi. Nihoyat, shunday xulosaga kelinadiki, demonologiyaning Xorazm varianti O'rta Osiyonikiga qaraganda chuqur ildizlarga ega. Chunki Xorazm po'rxonlari ilon bilan "o'yin" ko'rsatganlarki, ushbu masala hindlar bilan aloqaga kirishib, eng qadimgi urf-odatlariga daxldordir[1]. Monografiyaning ikkinchi bobi – "Oilaviy-maishiy marosimlardagi sehr-jodular" masalasiga bag'ishlangan. Ma'lumki, urf-odatlar, udumlar, marosimlar, asosan, oila doirasida amalga oshiriladi. Eng avvalo, to'y marosimlaridagi seyr-joduga aloqador qadimgi marosim va urf-odatlar tahlilga tortilgan. Kelin tushirish va kuyov ishtirokida o'tadigan barcha tadbir jarayonlari muallif tomonidan bosqichma-bosqich bayon etilgan. O'z navbatida, har bir mintaqadagi o'zaro farqlar yoritilgan. Ayniqsa, ko'shayana, unda chiroq yoqish, chimildiqqa mevali daraxtlardan tayoqchalar kesish, aravani olov ustidan o'tkazish, kelinni po'stin ustiga tushirish, kuyov-kelin to'shagiga bola yotqizish, poyandoz to'shash kabi qator marosimlar tegishli misollar, ashyoviy dalillar vositasida qiziqarli tafsilotlar bilan bayon etilgan. Bu jarayonda turli sehrli ziyon yetkazish usullaridan saqlanish borasidagi tadbirlarga ham to'xtalib o'tilgan. Nikoh qiyish paytida qulfni ilish, eng xavfli seyr-joduga aloqador hodisa sanalib, bu xususiyat g'arb xalqlari hayotida

ham mavjudligi misollar vositasida dalillangan. Befarzand ayollarning nikoh to'yiga yaqinlashtirmaslik bilan bog'liq qiziqarli tafsilotlar keltirilgan. Shundan keyin farzand tug'ilishi, enagalar faoliyati, chaqaloqni yuvintirish va boshqa udumlar xususida rang barang lavhalar keltirilgan, nazr qilingan bolalar taqdiriga oid ma'lumotlar alohida qiziqish tug'diradi. Soch to'yi, sunnat to'yi marosimlari borasidagi marosimlar ham etnograf olim nazaridan chetda qolmagan. Bu urf-odatlarining tub ildizlarini ochish

uchun olim ko'plab etnografik materiallarni, unga doir ilmiy manbalarni qiyosiy o'rgangan va mazkur marosimlarning deyarlik barchasi ibtidoiy dinlar bilan aloqador qoldiq an'analar ekanini isbotlab bergan. Tadqiqotning uchinchi bobi "Dafn marosimlaridagi ibtidoiy din shakllari va zardushtiylik qoldiqlari" deb tahlil etilgan. Muallif, dastlab, Xorazmdagi dafn marosimlarida hozirgi davrda to'la musulmoncha an'analar faoliyat ko'rsatayotganini e'tirof etadi. Shu bilan birga, ushbu marosimlar zamiriga yashiringan ibtidoiy din qoldiqlarini sinchkovlik bilan kuzatadi. Bu yerda asosiy e'tibor yer usti va yer osti dafn turlarining asosiy sabablarini ochishga qaratiladi. Asosan Janubiy Xorazmda yer ustiga dafn qilish odat tusiga kirgan. Shimoliy Xorazmda har ikkala holat ham uchraydi. Etnograf bu muammoni zardushtiylik an'analari bilan bog'liq holda yechib bergan. Zardushtiylikda jasadni yerga ko'mish yerni iflos qilish, deb tushunilar ekan, shu sababli murda yer ustiga qo'yilsa ham, uni yerdan betaraf qilish uchun tagiga nimadir to'shalar ekan. Qarangki, shu an'ana hozirgacha davom etib kelayotgan ekan. Holbuki, hukmron din qoidasi bo'yicha jasad yer ostiga ko'milishi kerak. Bu odatning Janubiy Xorazmda barqaror saqlanib kelishini muallif aholining etnik tuzilishiga bog'laydi va bu hududda qadimiy xorazmiylarga mansub avlodlar yashab kelayotganini to'g'ri baholagan.

Muammolar tahlili davomida kadingi ostadonlar, sag'analar, so'nggi musulmonlik davrida paydo bo'lgan gumbazlar arxitekturasi o'zining ilmiy asosga egaligi bilan e'tiborga loyiqdir. Dafn qilish marosimlarining har bir bosqichi o'ziga xos an'analar ega bo'lib, ularning barchasiga to'la tavsif berilgan. Ayniqsa, jon, ruh, qon, jasad va ularning o'zaro aloqasi xususida asosli xulosalar taqdim etilgan. Etnograf olimning sinchkovligi shundaki, jasad xonadondan chiqarilayotganda nima uchun bo'sag'aga tobut uch marta qo'yib olinadi, degan savolga ham ilmiy javob topishga harakat qilgan. Bu an'ananing musulmon dinida yo'qligiga e'tibor qaratilgan va yana ibtidoiy din qoldiqlariga murojaat qilinib, uning sababi aniqlangan. O'lik chiqqandan keyin 3, 7, 40 kunlik va bir yillik osh berishlarning sabablari atroflicha yoritilgan. Xorazmdagi ibtidoiy odatlar tarixi ham yaxshi ochib berilgan. O'likni it va qushlarga yedirib, suyaklarni ostodonga joylashtirish usulidan tortib hozirgacha bo'lgan bosqichlar to'la tahlil etilgan. Shu doirada professional yuvguvchilar (g'assol) toifasining ildizlari ochib berilgan va bu kasb egalarining "Avesto"dagi izlarini yoritib beradi. O'lik yuvg'uvchilar, sartaroshlar, ko'ncilar, qassoblar, zargarlar va qator kasb egalarining "7 bom" doirasiga kiritilish sabablari va ularning nega "past" tabaqaga mansub, deb qaralishi xususida asosli fikrlar yuritilgan. Mazkur bobda inson vafotidan so'ng uning joni (ruh) qush shaklida tanadan chiqib uchib ketadi, degan aqidaga keng to'xtab o'tgan. Jon va ruhning farqi ham ochib berilgan. Shu joyda olim Xorazm folkloridagi bir afsonada asar qahramonlari yonib halok bo'lgach, ularning joni kaptar qiyofasiga kirib o'chib ketadi, degan ma'lumotni keltirgan. Ammo uning qaysi asarda ekaniga e'tibor qaratmaydi. Ushbu lavha "Asil va Karam" dostoni finalida yorqin tasvirlangan. Kitobning to'rtinchi bobi – "Ishlabchiqarish vaturmushda hosildorlik inonchlariga oid qoldiq e'tiqodlari" deb nomlangan. Muallif, dastlab, Xorazmning hayot

manbai bo'lgan Amudaryo va unga aloqador inonchlardan so'z boshlagan. Shundan keyin olov va unga bo'lgan inonchlar tavsifi berilgan, keyin esa yer, tuproqning e'zozlanishi xususida ko'plab urf-odatlar tahliliga o'rin ajratilgan. Tahlil davomida daraxtlar inonchi, na'matak, yong'oq, jiyda, ilishtirik, tut va ularga xos ilohiy xususiyatlar o'z tahliliga ega bo'laboradi. Navro'z bayrami, "Qizil gul" bayrami kabi Xorazmda tabiat uyg'onishi bilan aloqador tadbirlarning asl mohiyatini ochib berish uchun olim Oziris, Adonis, Attis kabi qadimiy ma'budlar tarixiga murojaat qilib, ularni Xorazmdagi muqobil hodisalar bilan taqqoslagan. Xorazmdagi sumalak sayli, go'ja tayyorlash, unda 7 ta don turining ishtirok etishi kabi urf-odatlar tavsifi ham e'tiborga loyiqdir. Ayniksa, bug'doy ekish, uni yig'ishtirish, xirmon uyish, non yopishdagi sehrli udumlar, Bobodehqon, Xizr bilan aloqador odatlar kitobxonda katta qiziqish tug'diradi. Amudaryo, u bilan aloqador aranglar (eranlar), toshqin, dagish va daryoga qurbonlik qilish, bu odatlarni "Avesto"ga bog'lab tahlil qilish, Anaxita obrazining qirralarini ochib berish, uning Anbar ona obrazining paydo bo'lishiga ta'siri kabi tafsilotlar istagan bir kishi e'tiborini o'ziga jalb etadi. Daryodagi qayiqchilar, ularning piri Nuh payg'ambar, qayiq tuzatishdagi turli an'anaviy udumlar ham tahlil jarayonida o'z ifodasiga ega bo'lgan. Hakim ota, o'g'li Sulton Xubbi, uning g'oyib bo'lishi xususidagi afsonalar yunon afsonalari bilan muqobillik kasb etishini yoritish esa ishning ilmiy qimmatini yanada oshirgan. Tadqiqotning beshinchi bobi – "Muqaddas shaxslar inonchlarida



musulmonlikdan avvalgi alomatlar” deb nomlanadi. O’rta Osiyoda iloh sifatida tan olingan avliyo shaxslar bilan aloqador ziyoratgohlar juda ko’p. Muallif ushbu ziyoratgohlarning barchasida bo’lib, uzoq yillar davomida o’sha yerdagi aholi, qadamjodagi shayxlar, xizmatchilar bilan muloqotlar o’tkazgan, natijada ushbu muqaddas sanalgan shaxslar haqida ko’plab afsona va rivoyatlar yozib olgan. Olim ushbu bobda musulmon diniga daxldor ilohlar hayotini kuzatar ekan, ularning shaxslariga sig’inishda musulmonlikdan oldingi e’tiqodlar ham hukmron din ichiga singib ketganini qayd qilgan. Tahlil jarayonida ziyoratgohlardagi barcha amaliyotga tavsif berilgan. Masalan, Sulton bobo ziyoratgohida baliqlar yurgan hovuzcha, undan sal naridagi xarsanglar, befarzand ayollarning kirib chiqadigan toshdagi xalqako’rinishidagi teshikcha, qoya toshli tepalik barchasi ilohiy lashtirilgan. Bularning hammasi ibtidoiy dinlardan qolgan qoldiqlar bo’lib, xukmron dinga aloqasi yo’q. Ular qadimgi tabiat inonchlariga daxldor hodisalardir. Shuningdek, Xonqadagi Gullibiyi ziyoratgohida bemorni “davolash” udumi ham ibtidoiy xususiyatga ega. Olimning bayon qilishicha, bu yerda jaxr vositasida xuddi po’rxonlar faoliyatiga o’xshash “davolash” usuli amal qiladi. Hukmron din esa bu usulni qoralaydi. Shuningdek, Xorazmda daraxtlar, buloqlar, quduqlar, g’orlar, g’alati shakldagi xarsang toshlar xam muqaddas ziyoratgoh sifatida e’tirof etiladiki, bu yerda xam animistik hodisalarga duch kelinadi. Bundan shunday xulosa chiqadiki, xalq orasidagi qadimgi e’tiqodlar turmush bilan shunday uzviy bog’langanki, ular an’ana shakliga aylanib, turmush, oila doirasida konservativ hodisaga aylanib qolgan. Uni hech bir tazyiq xalq ongidan chiqarib tashlay olgan emas. Monografiyaning oxirgi oltinchi bobi – “Xorazm marosimlari majmuidagi hayvonlar inonchiga doir qoldiqlarning tutgan o’rni deb nomlangan. Inson hayoti tabiat va undagi barcha

jonzotlar bilan chambarchas bog’langanligi ma’lum. Ibtidoiy davrlardan oq totemizm an’anasi xalq ongida mustahkam saqlangan. Ammo elshunos olimning ta’kidlashicha, hayvonlarni e’zozlash odatini hamisha totemizmga bog’lash unchalik to’g’ri emas. Islom dinida zoolatriya (hayvonlarga inonch sifatida sig’inish) hodisasi deyarli uchramaydi. Ma’lumki, Xorazmda ming yillar avval dehqonchilik va chorvachilik to’la izga tushgan, buni “Avesto”dagi madhiyalar tasdiqlaydi. Shu sababli bu vohada yirik shoxli mollar, qushlar, baliqlarga bo’lgan inonchlar ham mavjud. Bu vohada dehqonchilik madaniyati yuksak darajada rivojlanganligi sababli yer haydash ishlarida yirik shoxli mollarga extiyoj kuchli bo’lgan. Shu sababli xalq orasida buqaxo’kizlarning e’zozlanishi alohida ko’zga tashlanadi. Monografiyada bu masala ham atroflicha yoritilib, undagi ma’lumotlarga ko’ra, mollarga isvand tutatilgan, tumor osilgan, kasal mollar qabriston atrofidan aylantirilgan. “Avesto”daham yirik shoxli mollar dehqonchilik madaniyatining tayanchi ekanligi ta’kidlangan. Gleb Pavlovich Xiva yaqinidagi G’ovik ko’li nomining birinchi bog’inini ham (“Gov”) xorazmiy tiliga aloqadar bo’lib, “mol” ma’nosiga ega ekanligini aytib o’tgan. Xorazmda e’zozlanadigan qo’chqor haqida monografiyada ko’plab tafsilotlar berilgan. Uning shoxlari ilgari paytlarda uylarning darvozalari, eshiklari ustidan joy olganligi, biror kamchilik bilan tug’ilgan bolalarga shu nomning berilishi xususida anchagina rivoyatlar keltirilgan. Hatto tushgan tish ham qo’chqor ostiga tashlangan. Tuya haqidagi berilgan ma’lumotlar, ayniqsa, diqqatga sazovor. Xorazmda tuyani e’zozlash qadimdan mavjud. Uning junidan to’qilgan tolalar ilonboshga birlashtirilib bolalar do’ppisiga va ko’ylaklar yag’irnisiga osib qo’yilgan. Ayollar uning tevarigidan aylanishib, qorni tagidan o’tishgan, bu udum tug’ruqni osonlashtirgan. Etnograf mazkur hayvon doirasidagi barcha ikir-chikirlargacha qiziqqan va uning

ildizlarini yana "Avesto"da mavjudligini qayd qilgan. Shu narsani ham qayd qilish kerakki, tuya Zardusht (Zaratushtra) nomi aloqador bo'lib, Zaratushtra sariq tuya egasi ma'nosini bildiradi. Uningushbu hayvon bilan aloqadorlik xususiyati Sul-ton bobo ramziga ko'chgan[2]. Xorazmliklarning itga bo'lgan munosabati ham asarda o'z ifodasini topgan. Tadqiqotda berilgan ma'lumotlarga ko'ra, it o'tmishda xorazmliklarning eng e'zozli hayvonlaridan biri bo'lgan. Itning xonakilashtirilishi ham ushbu hudud bilan aloqador. Yosh bolalarga "it ko'ylak kiydirish, eshni it oldiga tashlash" odatlari hozirgacha saqlangan. Ammo musulmon qoidalarida itga bo'lgan munosabat juda salbiy. Hatto bir vaqtlarda Xivada itlarni yoppasiga o'ldirish hollari mavjud bo'lgan. So'nggi davrlarda it muqaddas shaxslarning yaqin yo'ldoshiga aylangan. Najmiddin Kubro, Shomun nabi kabi shaxslar hayoti bunga misol bo'la oladi. Monografiyada ot inonchi bilan aloqador tafsilotlar juda qiziqarli voqealarni o'z ichiga oladi. Bu hayvon o'tmishda juda e'zozli bo'lgan. Uning bosh suyagi darvozalar peshtoqiga qo'yilgan, tuyog'idan olingan parcha tumor ichiga solingan. Ammo vaqt o'tishi bilan otning marosimlardagi o'rne bo'shab qolgan. Muallif tipratikan, xo'roz, tovuq kabijnozotlarga aloqador inonchlarni xam nazardan chetda qoldirmagan. Ayniqsa, baliq inonchiga katta e'tibor qaratilgan. Baliq Xorazmda qadimdan xo'jalik faoliyatining mustaqil sohasiga aylangan. Bu an'ana hozirgacha o'z ahamiyatini saqlab kelmoqda. Baliq inonchi turmushda juda ko'p. Masalan, baliq tanglayi bolalar do'ppisiga osib qo'yilgan, isiriq tutatilganda, unga baliq suyagi tashlangan, baliq quritilib, ayollarga yedirilgan, bu udum bola tug'ish, ularning salomatligi bilan daxldordir. Monografiyada baliqchilar piri Sochli ota haqida juda qiziq ma'lumotlar qayd qilingan. Tadqiqotchi hayvonlar inonchi masalasida arxeologik qazishmalar natijasida topilgan ashyolardagi rasmlar xususida ham chuqur ilmiy tafsilotlarni o'rtaga tashlagan.


Xulosa. Asar so'nggida chuqur ilmiy xulosalar berilganligi diqqatga sazovordir. Shu kitob oxirida mazkur asar tarjimoni

professor S.Ro'zimboyevning muxtasar so'ngso'zi va nomlar ro'yxati keltirilgan. Bu yerda kitobning tarjimoni professor S.Ro'zimboevning ko'pyillik mashaqqatli mehnatini alohida ta'kidlash o'rinlidir[3].

G.P.Snesarevning mazkur kitobi 30 yillik mehnati mahsuli sifatida ro'yobga chiqqan jiddiy tadqiqotidir. Sho'ro davrida shunday bir mukammal tadqiqotga fan nomzodi ilmiy darajasi berilgan, xolos. Vaholanki, bu asar o'sha davrda bemalol doktorlik ilmiy darajasini olishga arzir edi. Elshunos G.P.Snesarevning yuqorida qisqacha sharhlangan monografiyasini (M.,1969) markaziy shaharlardagi kutubxonalardan topish mumkin, xalos. Istiqlol yillari boshida sovet davrida nashr etilgan kitoblarning ko'pi yo'qotildi yoki tashlab yuborildi. Mazkur monografiya Urganchda 2018 yilda 500 nusxada nashr etilgan. Bu mavjud ehtiyojni aslo qondirmaydi, albatta. Shu boisdan kitobga zaruriyatni hisobga olib, ko'p adadda chop etish maqsadga muvofiqdir. Xullas taniqli rus elshunosi G.P.Snesarevning yuqorida qisqa sharhlangan samoqli monografiyasi va boshqa asarlari Xorazm, qolaversa, O'rta Osiyo xalqlari etnografiyasi bo'yicha noyob adabiyotlar sirasiga kirib, elshunoslarning stoli ustidagi qo'llanmaga aylangan. Muallif esa O'rta Osiyoda ibtidoiy din shakllari va e'tiqodlar majmuasini ilk bor ilmiy tadqiq etgan kashshof elshunos olim sifatida fan tarixida abadiy muhrlanib qolganligi ayni haqiqatdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Холмуротов Б. Снесарев Г.П. Хоразм ўзбеклари қадимий диний эътиқодларини ўрганишдаги ўрни. -Хоразм тарихи замонавий тадқиқотларда. -Урганч, «Наврўз», 2019. Б. 419-420.
2. Холмуротов Б. Кўрсатилган асар. Б.419-422; Рўзимбоев С., Снесарев Г.П. ва унинг "Хоразмликларнинг муслмонликдан аввалги маросимлари ва урф-одатлари" китоби ҳақида. Снесарев.-Хоразмликларнинг муслмонликдан аввалги маросим ва урф-одатлари. Урганч, УрДУ, 2018. Б. 324-339.



"TISU ilmiy
tadqiqotlari
xabarnomasi"
ilmiy-uslubiy jurnali

<https://scientific.tues.uz>
ISSN 2992-9016

Kabulov Bobomurod, Termiz iqtisodiyot va servis universiteti
E-pochta: bqobilov@gmail.com. Tel.: +998 (91) 574-48-41

TERMIZ ARXEOLOGIYA MUZEYI VA UNING FAOLIYATI TARIXI

Annotatsiya: Maqola Termiz arxeologiya muzeyining ochilishi va uning faoliyati tarixiga bag'ishlanib, muzey ilmiy hodimlari tomonidan amalga oshirilgan ishlar tahlil rtilgan.
Tayanch so'zlar: Arxeologiya, moddiy madaniyat, muzey, Surxondaryo, arxeologik ekspeditsiyasi.

ТЕРМИЗСКИЙ АРХЕОЛОГИЧЕСКИЙ МУЗЕЙ И ИСТОРИЯ ЕГО ДЕЯТЕЛЬНОСТИ

Аннотация: Статья посвящена истории открытия Термезского археологического музея и его деятельности, а также анализируются работы, проводимые научными сотрудниками музея.
Ключевые слова: Археология, материальная культура, музей, Surxandarya, археологическая экспедиция.

TERMEZ ARCHAEOLOGICAL MUSEUM AND THE HISTORY OF ITS ACTIVITIES

Abstract: The article is devoted to the history of the opening of the Termiz Archaeological Museum and its activity, and the works carried out by the scientific staff of the museum.
Key words: Archeology, material culture, museum, Surkhondarya, archaeological expedition.

Kirish. Dunyoda millatlar borki o'zligini anglash va taraqqiyot sari intilar ekan, doimo tarixga nazar tashlab, mavjud urf-odatlar, an'analar va qadimiy yodgorliklarni o'rganishga hamda saqlab ulardan ma'naviy quvvat olishga intilishi tabiiy. Shuningdek bu borada muzeylarning o'рни beqiyos. Chunki muzeylar o'tmishdan kelgan tarixiy madaniyat, ma'rifat, tabiat yodgorliklarining yaxlit tizimiga solingan yig'indisi hisoblanadi. Bu esa yoshlar qalbida ota-bobolarimiz qoldirgan merosga hurmat, e'zoz va muhabbat tuyg'usini uyg'otish bilan birga, ularda aziz Vatanga munosib farzand bo'lish tuyg'usini ham shakllantira oladigan maskan. Muzey (qadimgi yunoncha: μουσείον, musion – "muzalarga bag'ishlangan joy") – tarixiy, moddiy va ma'naviy yodgorliklarni to'plash, saqlash, o'rganish va targ'ib qilish ishlarini amalga oshiruvchi ilmiy, ilmiy-ma'rifiy muassasa. Muzey xazinasida, asosan, moddiy va tasviriy narsalar, shuningdek, san'at asarlari jamlanadi, shu bilan birga yozma manbalar (qadimdan hozirgi davrgacha bo'lgan tarixiy qimmatga ega qo'lyozmalar, bosma hujjatlar, kitoblar) saqlanadi. 18-may kuni butun dunyo Xalqaro muzeylar kunini nishonlaydi, ushbu sana 1977-yilda ICOM (International Council of Museums – Mejdunarodnyy sovet muzeev) Xalqaro muzeylar kengashi tomonidan tashkil etilgan. 1992-yil O'zbekiston ushbu xalqaro tashkilotga a'zo bo'lib kirdi. Ma'naviyat va ma'rifat markazi bo'lgan muzeylar yosh avlodga xalqimizning qadimiy va boy tarixi, o'ziga xos madaniyati, istiqlol g'oyalarini yanada teran anglashga

ko'maklashmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1998-yil 12-yanvardagi "Muzeylar faoliyatini tubdan yaxshilash va takomillashtirish to'g'risida" PF-1913-son Farmoni, 2008-yil 12-sentabrda O'zbekiston Respublikasining Muzeylar to'g'risidagi O'RQ-177-son Qonuni qabul qilinib 8 bob 36 moddadan iborat. Keyingi yillarda muzeylar faoliyatini yanada takomillashtirish bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 11-dekabrda "2017 – 2027-yillarda davlat muzeylari faoliyatini takomillashtirish va moddiy-texnik bazasini mustahkamlash bo'yicha kompleks chora-tadbirlar dasturini tasdiqlash to'g'risida"gi 975-son qarori muhim qonun hujjati bo'ldi [2]. Termiz Arxeologiya muzeyi va uning faoliyatini yoritishda Ismoil Botirov va Tuxtash Annaev tomonidan 2002-yilda o'zbek tilida "Sharq" nashriyotida chop qilingan "Surxondaryo viloyati Arxeologiya muzeyi" deb nomlangan risola Germaniyaning Konrad Adenaur fondining Toshkentdagi vakolatxonasi homiyligida nemis tilida chop qilindi. Tadqiqot metodologiyasi. Maqolada umumiy qabul qilingan metodlar-xolislik, tarixiy tahlil, qiyosiy-mantiqiy tahlil, xronologik ketma-ketlik tamoyillari asosida Termiz Arxeologiya muzeyi faoliyati tarixini ilmiy manbalar asosida yoritib berishdan iborat. Tahlil va natijalar. Termiz Arxeologiya muzeyi O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidentining 1998-yil 12-yanvardagi "Muzeylar faoliyatini tubdan yaxshilash va takomillashtirish to'g'risida"gi Farmoni, Vazirlar Mahkamasining 1998-yil 5-martdagi "Muzeylar faoliyatini qo'llab-quvvatlash masalalari to'g'risida" gi 98-sonli va 1999-yil 27-dekabrda "Termiz shahrining 2500 yilligini nishonlashga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish to'g'risida" gi 545-sonli qarorlari asosida tashkil etildi[3]. Arxeologiya muzeyining tematik-ekspozitsion rejasi 2001-yil 14-fevraldagi "O'zbekmuzey" jamg'armasining arxeolog olimlar ishtirokidagi kengaytirilgan

majlisida tasdiqlanib, Madaniyat ishlari vazirligining muzey ishlari boshqarmasi tomonidan qayta tahrir o'tkazilib, Madaniyat ishlari vazirligiga taqdim etildi. O'zbekiston Respublikasi Madaniyat ishlari vazirligining 2001-yil 24-oktyabrdagi 231-sonli Buyrug'iga asosan "Arxeologiya" muzeyining fondini yangi eksponatlar bilan boyitish ustida talay ishlar qilindi. Muzeyning kadrlar bo'limi o'z faoliyatini 2001-yil boshlagan bo'lib, hozirgi kunda muzeyda 65 kishidan iborat shtatlar jadvaliga muvofiq 54 kishi ishlab kelmoqda. Muzey direktori – tarix fanlari nomzodi, dotsent, "Do'stlik" ordeni sohibi Ismoil Botirovich Temirov faoliyati bilan bog'liq. Arxeologiya muzeyi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2001-yil 16-oktyabrdagi bayonnomasiga muvofiq, Madaniyat ishlari vazirligi tasarrufiga o'tkazildi va Madaniyat ishlari vazirligining 2001-yil 24-oktyabrdagi buyrug'iga asosan vazirlik tizimiga kiritildi. 2003-yil Termiz shahar Arxeologiyamuzeyi fondidagi eksponatlarning umumiy soni 27346 ta edi. 2004-yil davomida esa Arxeologiya muzeyi fondidagi eksponatlarning umumiy soni 27457 taga etdi. Shundan 19 824 tasi numizmatika fondiga tegishli tangalar bo'lib hisoblanadi. Hozirgi kunga kelib, muzeyda jami bo'lib, 8.500 ga yaqin arxeologik ashyoviy topilmalar, 19 824 dona numizmatika fondiga oid turli davrlarga xos tangalar mavjud. Muzeyda saqlanayotgan ashyolar asosan Yunon-Baqtriya va Kushonlar davriga oid. Bodxi daraxti ostida



o'tirgan Budda yoki Kushon shahzodasining boshi kabi ba'zi artefaktlar aslida nusxalar bo'lib, ularning asl nusxasi Toshkent tarix muzeyi va Sankt-Peterburgdagi Ermitaj muzeyida saqlanadi. 2004-yil davomida muzeyning ilmiy xodimlari Sh. Shaydullayev, Sh. Raxmonov, T. Annayev, Z. Xoliqovlar, shuningdek, R. Boltayeva, B. Toshpo'latov, B. Xamrayevlar Jarqo'ton, Chingiztepa, Fayoztepalarda o'tkazilgan arxeologik ekspeditsiyalarda ilmiy-tadqiqot ishlarini olib bordilar. Kampirtepa yodgorliklarida o'tkazilgan qazishmalar natijasida Arxeologiya muzeyi fondi bir qancha topilmalar bilan boyitildi. Termiz shahridagi "Shoymardon ota" qabristonidan topilgan eksponatlar ham shuningdek, Sherobod tumanining Jarqo'ton yodgorligidan topilgan 42 dona eksponat muzey fondiga keltirildi. O'zbekiston-Chexiya xalqaro arxeologik ekspeditsiyasi 2010-yil sentyabr oyida Surxondaryo viloyati Sherobod tumanida Ekspeditsiyaga Chexiya tomonidan L. Stancho boshchilik qilgan bo'lib, O'zbekiston tomonidan ekspeditsiya rahbari Sh. Shaydullayev, a'zolari T. Annayev (TerDU), A. Shaydullayev (O'zbekiston Milliy universiteti) faol ishtirok etishdi. 2010-yildagi tadqiqotlarda shuningdek Petro Tushlova boshchiligidagi Klassik arxeologiya yo'nalishi talabalari Viktoriya Chistyakova, Vera Dolejalkova, Treza Maxachikovalar Sherobod tumanidagi pasttekisliklarni tizimli ravishda o'rganish dasturida faol ishtirok etishdi. 2010-yilda ish boshlanishdan oldin arxeologik yodgorliklar ro'yxatida 93 ta yodgorlik kiritilgan bo'lsa, mavsum oxiriga kelib

37 ta yodgorlik qo'shildi. Shuningdek ushbu o'rganishlar natijasida ekspeditsiya a'zolari tomonidan 53ta yodgorlik joyida o'rganildi[4]. Bundan tashqari so'ngi yillarda amalga oshirilgan arxeologiya ekspeditsiyalar moddiy madaniyat yodgorliklarini dala-tadqiqot yo'li bilan o'rganish natijasida 2012-yilgi O'zbek-Fransuz arxeologik ekspeditsiyasining Eski Termizdan 5 dona Alauddin Muhammad Xorazimshoh tomonidan Termizda zarb etilgan kumush qoplangan mis tangalari, 2018-yilgi O'zbek-Fransuz arxeologik

ekspeditsiyasining Eski Termizdan 15 donadan iborat bo'lgan Alauddin Muhammad Xorazimshohning Termizda zarb etilgan kumush qoplangan mis tangalari xazinasi, 2021-yilning bahorida Termiz tumanani "Yangiariq" QFY xududidan Maxalliy aholi tomonidan bir dona Alauddin Muxammad Xorazimshoh oltin tanga-dinori aniqlanadi[5]. Termiz Arxeologiya muzeyi katta ilmiy xodimi Tuxtash Annayev 2008-yilning 28-sentyabridan – 10-oktyabrigacha Hindistonda ilmiy safarda bo'lib, Dehlidagi "Xalqaro markaz" va Banoras universitetida Kushonlar arxeologiyasiga bag'ishlangan ilmiy seminarda ishtirok etdi. Termiz Arxeologiya muzeyining "Tosh davri" bo'limi katta ilmiy xodimi Sh.B. Shaydullayev esa 2009-yili Ashxobod shahrida o'tkazilgan Xalqaro konferensiyada "Дехистан на парогe раннеклассового общества" nomli ma'ruzasi bilan qatnashdi. Shu yilning 18 may – Xalqaro muzeylar kunida Termiz Arxeologiya muzeyida fransiyalik professor Jerar Fussman "Kushon davlati tarixi haqida yangi izlanishlar" mavzuida ma'ruza qildi. Shuningdek, fransiyalik professor J. Fussmanning amaliy yordami

bilan numizmatika fondida saqlanayotgan turli davrlarga mansub tangalarning qaysi davrga mansublik darajasi va yozuvlarini aniqlashtirish ishlariga yordam berdi[6]. 2012-yil O'zbekiston muzeylarining ilmiy xodimlari ko'plab xalqaro anjumanlarda ishtirok etgan yil bo'ldi. Masalan, Termiz Arxeologiya muzeyi "Numizmatika" bo'limining katta ilmiy xodimi J. Mirzayev 2012-yil 1-5-oktyabr kunlari Ozarbayjon Respublikasida bo'lib o'tgan Yevroosiyo arxeologiyasi xalqaro konferensiyasida "Evroosiyo hududida arxeologik tadqiqotlarning istiqbollari va arxeoturizm" mavzusidagi, shu yilning 22-23 martida Toshkent shahrida bo'lib o'tgan O'zbekiston va Germaniya davlatlarining o'zaro kelishuviga muvofiq "Ta'lim va fan – O'zbekiston va Germaniya o'rtasidagi ko'priki" mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjumanda ishtirok etdi. O'zbekistonda muzeylar faoliyatini turli ko'rinishlarda jahon miqyosida targ'ib etishga ahamiyat qaratildi. Masalan, 2012-yilda O'zbekiston

Havo yo'llari avia kompaniyasi yo'lovchilari uchun nashr qilinadigan maxsus jurnalda rus va ingliz tillarida Termiz Arxeologiya muzeyi haqida "Археологический Клондайк" nomli maqola chop etildi. Maqolada muzey zallaridagi 12 ta eksponatlarning suratlari ham chop etilgan. Ushbu jurnal 25 ming nusxada chop etilgan bo'lib, 100 dan ortiq mamlakatlarga O'zbekiston Havo yo'llari aviakompaniyasi reyslari orqali tarqatildi[7]. Maqolaning chop etilishi ko'plab xorijiy sayyohlarning vohaga jalb etilishida muhim ahamiyatga ega bo'ldi. 2018-yil 14-sentyabr Termiz Arxeologiya muzeyida Fransiyaning Ekol Normal Supermer universitetining Sharq va G'arb arxeologiya va filologiya laboratoriyasi

arxeologi Segolen de Pontbriand va Termiz Arxeologiya muzeyi ilmiy xodimlari bilan o'zaro tajriba almashishdi. Shu yilning 25-sentyabrida Termiz Arxeologiya muzeyiga Parijdagi Luvr muzeyining "Islom madaniyati" bo'limi boshlig'i Yanik Lindts, muzey xodimi Rokko Rante keldi. Luvr muzeyi va O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi o'rtasida o'zaro ilmiy hamkorlik qilish va xalqaro ko'rgazmalar tashkil

etish bo'yicha shartnoma imzolandi. Luvr muzeyi ilmiy xodimlarining Termiz Arxeologiya muzeyiga tashrifidan asosiy maqsad 2020-2021-yillarda Luvr muzeyida O'zbekiston tarixi va Islom davri arxeologiyasiga oid xalqaro ko'rgazma tashkil etish rejalashtirildi. Ushbu ko'rgazmaga O'zbekiston muzeylarida ekspozitsiyaga qo'yilgan va zahira fondlarida saqlanayotgan eksponatlarni ilmiy tadqiq etgan holda Luvr muzeyida tashkil etiladigan xalqaro ko'rgazmaga eksponatlarni saralash ishlari rejalashtirildi. Rejaga muvofiq Luvr muzeyi ilmiy xodimlari tomonidan Termiz Arxeologiya muzeyidagi noyob eksponatlar ilmiy tadqiq etildi[8]. O'zbekistondagi Germaniya elchixonasining 1-kotibi Novak, Mannxeym shahri muzeyi xodimlari va Gunvor Lindstrum ishtirokidagi guruh a'zolari bilan Termiz Arxeologiya muzeyi ma'muriyati "Buyuk Aleksandr va Osiyo madaniyati" mavzusida amaliy uchrashuvlar va muloqotlar olib bordi. Uchrashuv chog'ida muzeyda xalqaro ko'rgazmaga tanlab olingan 67 ta eksponat 2009-yil 2-noyabrdan 2010-yil 10-fevralgacha Germaniya Federativ Respublikasining Mannxeym shahri Reiss-Engelxorn muzeylarida "Buyuk Aleksandr va Osiyo madaniyati" xalqaro ko'rgazmasida qatnashdi. Xulosa. Muzeylar faoliyati sohasida ilmiy tadqiqotlarni qo'llab-quvvatlash davlatimiz



tomonidan berilayotgan e'tibor va mablag'lari eng avvalo tarixiy – moddiy shayolarni asrab-avvaylab, buz-butun kelajak avlodga etkazib berishdan iborat sanaladi. Har yili muzeylarga ajratiladigan Davlat byudjeti mablag'lari va qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobidan muzeylar sohasida faoliyat olib boruvchi mutaxassislarning kamida 10 nafarini chet elga malaka oshirish va tajriba almashish uchun yuborish majburiy yo'lga qo'yiladi. Har yili kamida 2 ta madaniy meros sohasidagi tashkilot, shu jumladan, muzey hamda 100 nafar mutaxassisga Madaniy meros jamg'armasi mablag'lari hisobidan Xalqaro muzeylar kengashiga (ICOM), Yodgorliklar va diqqatga sazovor joylarni muhofaza qilish xalqaro kengashiga (IKOMOS) a'zolik badalini to'lab berish amaliyoti joriy etildi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. <https://lex.uz/docs/-1391728>.
2. <https://www.lex.uz/uz/>
3. Халқсўзи. 1999 йил 28. декабрь №47-358.
4. Абдуллаев К. (2013) Историко-географическая справка. В кн. Абдуллаев К., Станчо Л., Шайдуллаев А., Тушлова П. Археологическое исследование Джандавлаттепа и Шерабадского района. 10 лет Чешско-Узбекской археологической экспедиции. Прага. Философский факультет Карлова университета.
5. Termiz arxeologiya muzeyi, TAM 34284-34288.
6. Termiz arxeologiya muzeyi, TAM 35401/47.
7. Termiz arxeologiya muzeyi, TAM 37113.
8. Surxondaryo viloyati Termiz arxeologiya muzeyi joriy arxivi. Muzeyning 2018-yildagi ish faoliyati to'g'risidagi yozma hisoboti papkasi, 14-varaq.
9. Ўзбекистон Республикаси Маданият вазирлиги жорий архиви, Термиз Археология музейининг 2018 йилдаги иш фаолияти то'ғрисида ёзма ҳисоботи папкаси, 77-варақ.

10. Surxondaryo viloyati Termiz arxeologiya muzeyi joriy arxivi. Muzeyning 2018-yildagi ish faoliyati to'g'risidagi yozma hisoboti papkasi, 14-varaq.



“TISU ilmiy tadqiqotlari xabarnomasi” ilmiy-uslubiy jurnali

<https://scientific.tues.uz>
ISSN 2992-9016

Toshimov Bahodir Termiz iqtisodiyot va servis universiteti,
Tarix yo'nalishi 1-bosqich talabasi
Ilmiy rahbar: **Qobulov Eshbolta Atamurodovich**
tarix fanlari doktori (DSc), professor

IMOM TERMIZIY HAYOTI VA ILMIY MEROSI

Annotatsiya. Mazkur maqolada buyuk muhaddis Imom Termiziyning hayoti, ilmiy faoliyati va uning boy ilmiy merosi yoritiladi. Uning hadis ilmi rivojiga qo'shgan hissasi, yozgan asarlari va ularning bugungi islom ilmidagi ahamiyati tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida tarixiy manbalar, hadis ilmi bo'yicha muhim ilmiy asarlar va zamonaviy tadqiqotlardan foydalanildi. Imom Termiziyning asarlari va ularga yozilgan sharhlarning o'рни ham yoritiladi.
Kalit so'zlar: Imom Termiziy, hadis ilmi, “Al-Jome as-Sahih”, “Ash-shamoil an-nabaviya”, ilmiy meros, islom ilmi.

ЖИЗНЬ И НАУЧНОЕ НАСЛЕДИЕ ИМАМА АТ-ТЕРМИЗИЙ

Аннотация. В данной статье освещается жизнь, научная деятельность и богатое научно-наследие великого хадисоведа Имама ат-Термизий. Анализируется его вклад в развитие науки хадисоведения, написанные им труды и их значение в современном исламском знании. В ходе исследования были использованы исторические источники, важные научные работы по хадисоведению и современные исследования. Также освещается роль произведений Имама ат-Термизий и комментариев к ним.
Ключевые слова: Имам Ат-Термизий, хадисоведение, «Аль-Джами ас-Сахих», «Аш-Шамаиль ан-Набавия», научное наследие, исламское знание.

THE LIFE AND SCIENTIFIC HERITAGE OF IMAM TERMIZI

Annotation: This article explores the life, scholarly contributions, and rich intellectual legacy of the great hadith scholar Imam al-Termizi. It analyzes his role in the development of hadith science, his renowned works, and their significance in contemporary Islamic studies. The research is based on historical sources, key scholarly works on hadith, and modern academic studies. Additionally, the importance of Imam al-Termizi's works and the commentaries written on them is highlighted.

Key words: Imam al-Termizi, hadith science, “Al-Jami'as-Sahih, As-Shama'il an-Nabawiyya, scholarly legacy, Islamic studies.

Kirish. Imom Termiziy islom dunyosining yirik muhaddislaridan biri bo'lib, u hadis ilmining rivojiga ulkan hissa qo'shgan. Uning ilmiy merosi nafaqat Markaziy Osiyo, balki butun musulmon olamida muhim o'ringa ega. X-XII-asrlar Musulmon dunyosida ilm-fan, madaniyat va ma'rifat uning eng rivojlangan davri bo'ldi. Bu davrda nafaqat ilm-fan balki Islom dini rivojiga, Movarounnahrda yetishib chiqqan Imom al-Buxoriy, Abu Mansur al-Moturiydiy, Qaffol ash-Shoshiy, Mahmud az-Zamaxshariy kabi allomalimiz o'zining munosib hissalarini qo'shishgan. Mana shunday allomalimizdan biri Imom Termiziy hisoblanadi. Imom Termiziy nafaqat bizning diyorumizda balki butun musulmon dunyosida ham mashxur bo'lgan allomalardan biri hisoblanadi. Butun dunyoda tan olingan oltita eng mashxur muhaddislardan biri va juda ham ahamiyatga molik asarlar



muallifi ekanligini ta'kidlash joiz. Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqot tarixiy manbalar hadis ilmi bo'yicha yozilgan asarlar va ilmiy maqolalarga tayanib olib borildi. Imom Termiziy haqida islom olamidagi yirik muhaddis va tarixchilarning fikrlari tahlil qilindi. Xususan, Ibn Hajar al-Asqaloni, Abu Saad as-Samaviy va Shamsuddin az-Zahabi kabi mualliflarning asarlaridan foydalanildi. Shuningdek, O'zbekistondagi tarixiy qo'lyozmalar va arxeologik tadqiqot natijalari ham hisobga olindi. Tahlil va natijalar: Buyuk muhaddis Imom Termiziyning to'liq ismi Abu Iso Muhammad ibn Savra ibn Muso ibn ad-Dakkoh as-Sullamiy at-Termiz bo'lib u hijriy hisobda 209 (milodiy 824)-yilda Termizda o'rtahol oilada tavallud topdi [1; 471-B]. Markaziy Osiyolik mashhur tarixchi Abu Saad Abulkarim as-Samaviy (1113-1167) at-Termiziy Bug' qishlog'ida vafot etganligi uchun al-Bug'iy taxallusi bilan ham atalgani, olimning umrini oxirlarida ko'zi ojiz bo'lib qolganligidan Az-zariy (ko'zi ojiz) taxallusini olganligini ham qayd etadi [1; 471-B]. Sullamiy deb nisbat berilishiga sabab bobolaridan biri sullam degan arab qabilasiga do'st tutingan [7; 40-b]. Imom Termiziyning oilasi va ota-onasi haqida manbalarda aniq ma'lumotlar keltirilmagan. Tarixchilar uning "bobom asli Marvlik edi, u kishi Lays Ibn Sayyor zamonida yashagan so'ng esa u yerdan Termizga ko'chib kelgan" degan fikrini keltirish bilan chegaralangan [2; 22-B.]. Imom Termiziy yoshligidan o'zining aql-zakovati idroki va yodlash qobiliyati yuqoriligi bilan boshqa tengqurlaridan ajralib turgan. Imom Termiziyning zexnini o'tkirligi hamda

quvvayi xofizasi kuchliligi xususida tarixiy manbalarda ko'plab misollar, rivoyatlar keltiriladi. Jumladan, arab tarixchisi Shamsuddin az-Zaxabiyning (1274- 1347) "Tazkirat ul – xuffoz" (Xofizlar haqida tazkira) nomli asarida quyidagi hikoya keltiriladi: Abu Iso Muhammad at-Termiziy Makkaga hajga borayotganida yo'lda mashhur muhaddislar bilan muloqotda bo'ladi va ularning biridan xadislardan saboq berishini iltimos qiladi. U olim "Bo'lmasa qog'oz-qalam ol" degan. Aksiga olib shu payt at-Termiziy qalam topa olmagan va olim ro'parasida o'tirib eshitgan xadislarni yozib olayotgandek qog'oz ustida qo'lini harkat qildiravergan.

Olim esa turli-tuman xadislardan yetmishga yaqin hikoya qilgan. Shu orada olim qog'ozga qarab unda hech qanday yozuv yo'qligini ko'rgan va at-Termiziyning bu ishidan jahli chiqqan. At-Termiziy shunda bamaylixtir "Siz aytgan xadislaringizni yoddan aytib beraymi?" – deb hozirgina olimdan eshitgan hadislarning birin-ketin takror aytib bergan. At-Termiziyning xotirasi kuchliligidan o'sha olim

xazratlari qoyil qolganligini bildirgan [5; 8-B.]. Ilmga qiziqqanligi bois o'sha davrning ko'pgina ilmlari bilan bir qatorda hadis ilmini ham o'rganishga kirishgan. U zot yoshlik vaqtlaridan boshlab Termiz, Samarqand, Marv va O'rta Osiyoning boshqa shaharlarida istiqomat qilgan mashhur ulamo va muhaddislarning asarlarini e'tibor bilan o'rgana boshlagan, keyinchalik qo'shni Balx va Xayraton shaharlaridagi ilm ahllari bilan ilmiy-amaliy aloqalar o'rnatilishiga hissa qo'shgan. Ilm fanga tashna Imom

Termiziy 850-yildan boshlab uzoq yurtlarga, ko'plab xorijiy mamlakatlar va shaharlarga safar qilgan. U kishi 20 yoshga yetganida Xurosonga borib, u yer shayxlaridan Isxoq ibn Roxvayix Marvaziy va boshqalardan

ilm o'rgandi. So'ng 25-26 yoshlarida Iroqqa (Basraga) borib u yerdagi allomalardan dars oladi. Undan so'ng Xijozga - Makkai Mukarrama va Madinai munavvaraga ketadi [5; 16-B.]. Mazkur shaharlarda ko'plab muhaddislar, ulamolar bilan muloqotda bo'lib, ta'lim oladi, qizg'in ilmiy munozara va baxslarda ishtirok etadi. Uzoq yillar davom etgan safarlari chog'ida Termiziy nafaqat hadis ilmidan, balki ilm al - qiroat, ilm al-bayon, fiqh, tarix va fanning boshqa sohalaridan ham ko'plab ustozlardan saboq olib, o'z bilimlarini oshiradi. Bu harakatlarning hammasi Imom Termiziyning o'z davrning yirik olimi darajasiga yetishida mustahkam zamin tayyorlaydi. Lekin manbalarda u zotning Bag'dod, Misr va Shomga borgani haqida xabar keltirilmagan. Bunga o'sha vaqt bu yurtlardagi notinchlik sabab bo'lgan degan fikr bor. Bu sayohatlar ko'p yillar davom etdi, Imom Termiziy Termizga xijriy 250 (milodiy 864) yilda qaytib keladi. Shunga qaraganda, taxminan 20 yil davomida o'zga yurtlarda xadislarni o'rganib, yig'ib yurgan. Imom Buxoriy bilan Nishopurda (xijriy 250- yil) uchrashib, ko'p xadislar xususida muzokaralar olib borgani haqida ma'lumotlar bor [5;17-b]. Buyuk muhaddis Imom al-Buxoriy Termiziyga qarata: ..sen mendan foyda olganingdan ko'ra men sendan ko'proq foyda oldim deganlar. Bundan ko'rinib turibdiki, Imom Termiziyning ilmi, bilimi naqadar kuchli ekanligini bilamiz. 868-yil xorij safaridan o'z yurtiga qaytgan Termiziy ilmiy-

ijodiy ish, shogirdlar tayyorlash bilan mashg'ul bo'ldi va yirik muhaddis olim, imom sifatida shuhrat qozondi. Taqvodorlik, islom dini va o'z obro'siga gard yuq turmaslikga intilish, dunyo mol- matosi va boylikka beparvo qarash, oxiratning g'amini yeyish Termiziyning hayot tarzi bo'lgan. Imom Termiziyning shogirdlari uning ishlarini davom ettirdi. Shogirdlari ichida Makhul ibn al Fadl, Muhammad ibn Mahmud Anbar, Hamod ibn Shokir, Abd ibn Muhammad Nasafiy, Haysam ibn Kulayb Shoshiy, Ahmad ibn Yusuf Nasafiy kabilarni ko'rsatib o'tish mumkin [7; 41-B.]. U hijriy 279(milodiy 892)-yilda Termizdan

uzoq bolmagan Bug' qishlog'ida vafot etadi va shu yerda dafn qilinadi[1;472-B.].

Imom Termiziyning ilmiy merosini aksariyati bizgacha yetib kelgan. "Al-Jome" (jamlovchi) "Sunan at-Termiziy" deb ham nomlanadi, "Ash-shamoil an-nabaviya" (Payg'ambarning alohida fazilatleri), "Al-ilal fil-Hadiys" (Hadislardagi og'ishishlar) "At-tarix" (Tarix) "Kitob az-Zuhd" (Taqvo haqida kitob) [1.472-B.]. Imom Termiziyning "Al-Jome as-sahih" nomli asari 6 sahih hadis to'plamlaridan biri hisoblanadi tarixchi ibn Hajar al-Asqaloniyning yozishicha Imom Termiziy ushbu asarni milodiy 884 yilda ya'ni qariyb 60 yoshlarida ilm -fanda katta tajriba orttirib, imomlik darajasiga erishgandan keyin yozib tugatgan "Al Jome as Sahihning" qo'lyozmalari dunyoning bir qancha shaharlarida mavjud, jumladan Toshkentda O'zbekiston fanlar akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik institutida ham saqlanmoqda. Eng avvalo shuni aytish kerakki muallif o'z asarini alohida boblarga bo'lib, imkoni boricha, har bir hadis roviylarining keltirib, har bir hadisdan keyin uning ishonchli yoki ishonchsizlik darajasini aniqlab, alohida ko'rsatadi. Oldinroq biz mazkur asarningasarning "As-Sunan" (Sunnatlar) nomi bilan atalishini ham eslatib o'tgan



edik. Bu nom bilan atalishiga sabablardan biri, unda fiqh masalasiga doir ahkom hadislar juda ko'p keltirilganligidir. Shu bilan birga, asarda pand nasixat, axloq - odob, go'zal xulqu fazilatlar xususida ham ko'p hadisi shariflar keltirilgan, bu darajadagi hadislar hech bir muallif asarida uchratilmaydi desak, mubolag'a bo'lmasa kerak [6; 23- B.].

Imom Termiziyning bu muhim asariga bir qator sharhlar ham yozilgan bo'lib, ulardan Ibn al Arabiy (vafoti 543 / 1148) nomi bilan mashxur bo'lgan Imom Xofiz Abu Bakr Muhammad ibn Abdulla al-Ashbilyning "Oridat al-Avxaziy ala kitob at-Termiziy" nomli 13 juzdan(qism) iborat asari eng muhim sharxlardan hisoblanadi. Imom Xofiz Abu Ali Muhammad Abdurahmon ibn Abdurahim al - Muborakfuriy (1866 -1935) qalamiga mansub yana bir sharx ham "Tuxfat al-Axvaziy bi-sharxi ataladi -Termiziy" deb ataladi. To'rt juzdan iborat bo'lgan bu asar 1979-yilda Bayrutda nashr qilingan (Hindistonda ham nashr qilingan). Misrlik olim va adib JamoliddinJamoliddin Abdurahmon ibn Abu Bakr as-Suytiyning (1445-1505) at-Termiziy asariga yozgan sharxida "Qut al- Mug'tasiy ala Jomi at-Termiziy" (undan ikki qismi nashr qilingan) deb atalgan. (6.23-b). Imom Termiziyning yana mashhur asarlaridan biri "Ash-Shamoil an-nabaviya" (Payg'ambarning alohida fazilatlar) asari bo'lib nomidan ham ko'rinib turibdiki bu asar Payg'ambarimiz Muhammad sallallohu alayhi vasallamning shaxsiy hayotlari, u kishining surat va siyratlari, ajoyib fazilatlar, odatlariga oid 408 ta hadisi sharifni o'zichiga qamragan manbadir [1;473-B.]. Ushbu asar Musulmon dunyosida eng ko'p nashr etiladigan kitoblardan biri sanaladi. Kezi kelganda shuni ham ta'kidlash kerakki, asarni tili oddiy va ravon bo'lib, uslubi soddaligi bilan ham ko'pchilikning asarlaridan ajralib turadi. Muhim tarixiy manba sifatida "Ash-Shamoil an-nabaviya" fors va turk tillariga ham tarjima qilingan. 1248-xijriy yili Xisomiddin an-Naqshbandiya tomonidan turkiy tilga qilingan

tarjimasi arab tilini bilmaydigan turkiy xalqlar uchun g'oyatda foydali qo'llanma bo'lib xizmat qiladi. At-Termiziyning ushbu asariga sharx yozgan shayx Ibrohim al-Bojuriy: "Imom al-Buxoriy Termiziyning Ash-Shamoil an-nabaviya" kitoblari o'z bobida yakkayu yagona asardir. Tartibi va o'z ichiga olgan mavzulari jihatidan yagona bo'lib, nodir kitoblar jumlasidan hisoblanadi. Uning ovozi Marg'ibu Mashriqqa borib yetdi deya ta'kidlaydi. Mashxur olim Ali Ibn Sulton al -Xaraviy al -Qoriy o'zining "Jamu - l - vasoil fi - sharx ash - Shamoil" nomli sharxida at-Termiziyning ushbu asari hususida shunday yozadi: "Rasululloh sallollohu alayhi vasallamning fazilatlar, axloqlari haqida tasnif etilgan musannafotlarning eng chiroylisi va yaxshi". Bu Imom at-Termiziyning Payg'ambar siyratlari haqidagi mukammal va muxtasar kitobidir. Bu kitobni mutolaa qiluvchi janobi Payg'ambar sallollohu alayhi vasallamni ko'rganday va ul zotning har bobdagi mahosini shariflardan bahramand bo'lganga o'xshaydi. Oldinroq eslatib o'tganimizdek asarning Saudiya Arabistonida istiqomat qilgan vatandoshimiz Sayid Mahmud Taroziy tomonidan ona tilimizga qilingan muxtasar tarjimasi 1990-yili Imom at-Termiziyning 1200 yillik yubileyi munosabati bilan Toshkentda qaytadan nashr qilindiki, bu hol buyuk muhaddisning qimmatli asarini o'rganishda katta ahamiyat kasb etishi shubhasizdir [6; 26-B.]. Imom Termiziyning qabri ustida maqbara, allomaning vafotidan so'ng 150 yildan keyin hozirgi Sherabod tumani yaqinida qurilgan.

Allomaning maqbarasini XV asrda, Mirzo Ulugʻbekning oʻgʻli Abdulatif tomonidan taʼmirlatilganligi haqida maʼlumotlar mavjud [3.80-B].

Maqbara Sherobod tumani markazidan janubiy-sharqida joylashgan boʻlib, 4 hadli binodan tashkil topgan. Hozirgi kunda maqbara bir biridan ravoqlar orqali oʻtuvchi 4 xonali bulmadan iborat. Xonalar tarxi 4,3x4,5 mni tashkil etadi. Shimoliy-sharqiy qismida ayvon qurilishi sabab keyinchalik toʻsilgan. Shuningdek, uch xonali boʻlma murabba tarxli, ulardan janubdagisi goʻrxona, unda marmar sagʻana uch pogʻanali boʻlib, mukarnas naqsh va yozuvlar bilan pardozlangan. Goʻrxonadan tor uzun yoʻlka orqali xonaqohga oʻtiladi. Xonaqoh gumbaz tomli va mehrobdan iborat boʻlib, yonidagi ikki xonadan shimoliy-sharq tarafga chiqiladi. Xonaqoh oldidagi uch ayvonli gumbaz, qalqonsimon bagʻalli devorlari ganchkor bezaklar bilan pardozlangan. Maqbaraning bosh tarzini koʻshksimon gumbazli qurilma egallagan. Maqbaraning markaziy zali va masjid mehrob bilan janubdan goʻrxona tarafdin esa gʻishtli peshtoq bilan shimol tomonidan keng ayvon bilan oʻralgan. Uchinchi zal ham 8 qirrali peshayvon va 3 va 8 qirrali naqshlar bilan bezatilgan.

Maqbara ustki qismi gumbaz bilan va toʻrtta xonasi esa toʻgʻri uslubda yopilgan boʻlib, xonaqoh kvadrat shakldagi 24-25x4, 5-5 smli pishiq gʻishtdan loy qorishmasi orqali qad koʻtargan. Binoning umumiy maydoni 19,3x6,8 metrni, uchta xona bir xil 4,3x4,3 metrni tashkil etadi. Turli davrlarda bino talofotlarga uchrab, 15-asrda shimoliy-gʻarbga qarab yunaltirilgan hamda majmua shimoliy-gʻarb tomondan ancha shikastlangan. Maqbaraning old tarafiga 20-asr boshlarida ustunlari oʻymakor boʻlgan ayvon qurilgan. Imom Termiziy maqbarasi qurilishi boʻyicha dastlab D. N Logofet, 1945-yilda V. A Varonin, 1968-yilda arxeolog Z.A. Xakimov, 1977-yilda A. Akimenko, I. Gudnov va V. A. Arshavskayalar tadqiqot ishlarini olib borishdi [3.81-B].

Maqbara Amir Temur tavalluding 660 yilligi munosabati bilan taʼmirlash ishlari olib borildi. Sagʻanasi va ganchkor panjarasi qayta oʻrnatildi. Majmua epigrafik matermateriallarning barchasi (shu jumladan, sagʻanadagi bitiklar ham) 2000-2001-yillardagi taʼmirlash jarayoniga oid. Xivalik usta Sohbnazar Shomurodov tomonidan loyhasiz va eskizsiz qayta tiklangan bitiklar paleografiyasi eskiz muallifida tajriba yuqligini bildirib turibdi. Boz ustiga, tanlab olingan matnlarni qayta tiklash uchun yetarlicha tarixiy asarlar ham koʻzga tashlanmaydi. Qayta tiklangan barcha bitiklarda mahoratdan nishona yoʻq, matnlarda xatolar ham mavjud. (4-159-B). Imom Termiziy bobomiz bizga boy va katta ilmiy meros qoldirgan. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning 2017 yildagi qaroriga asosan Termiz shahrida “Imom Termiz” xalqaro ilmiy tadqiqot markazi tashkil etilib Imom Termiziy va termiziy allomalarining boy ilmiy merosi tadqiq qilinmoqda. Undan tashqari Imom Termiziy nomidagi oʻrta maxsus islom taʼlim muassasasi hamda Islom instituti tashkil etildi. 2024-yilning 17-18 oktyabr sanasida Imom Termiziy tavalludining 1200 yilligi munosabati bilan “Imom Termiziy ilmiy



merosi Islom sivilizatsiyasida tutgan oʻrni” mavzusiga bagʻishlangan yirik xalqaro ilmiy-amaliy anjuman boʻlib oʻtdi. Anjumanda dunyoning 10 ortiq davlatlaridan 50 ga yaqin ulamolar, olimlar va nufuzli oliy gohlarning professor-oʻqituvchilari qatnashib, Imom Termiziyning ilmiy merosi va uning Islom dunyosida tutgan oʻrni haqida juda ham yaxshi fikrlarni aytishdi. Shundan soʻng anjuman qatnashchilari, allomaning muborak maqbarasini ziyorat etishdi.

Xulosa. Imom Termiziy islom dunyosining buyuk muhaddislaridan biri boʻlib, uning ilmiy merosi bugungi kunda ham katta ahamiyatga ega. U hadis ilmining rivojiga ulkan hissa qoʻshib, “Al-Jome as-Sahih”, “Ash-shamoil an-nabaviya” kabi asarlarini yaratgan. Uning hadislarni tasniflash va tahlil qilishdagi yondashuvi islom ilmlarining taraqqiyotiga katta taʼsir koʻrsatgan. Bugungi kunda ham uning asarlari oʻrganilib, ilmiy merosi chuqur tahlil qilinmoqda. Imom Termiziyning boy ilmiy merosini asrab-avaylash va keyingi avlodlarga yetkazish muhim vazifalardan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati:

1. Sagdullayev A. S .Oʻzbekiston tarixi 1- kitob. – Toshkent: Donishmand ziyosi, 2021. – 623 b.
2. Ibn Kasiyr . Al-Bois al hasiys. – 22 b.
3. Joʻrayeva S. Surxondaryo ziyoratgohlari tarixi. – Toshkent, 2021. – 224 b.
4. Oʻzbekiston obidalaridagi bitiklar. Surxondaryo. – Toshkent, 2015. – 301 b.
5. Uvatov U. Ikki buyuk donishmand. – Toshkent, 2020. – 424 b.
6. Uvatov U. Buyuk yurt

allomalari. – Toshkent, 2006. – 80 b.
7. Aminov M., Hasanov F. Buyuk Ajdodlarimiz. – Toshkent, 2010. – 208 b.

IQTISODIYOT FANLARI

08.00.00

IQTISODIYOT

FANLARI





“TISU ilmiy tadqiqotlari xabarnomasi” ilmiy-uslubiy jurnali

<https://scientific.tues.uz>
ISSN 2992-9016

Hakimov Zafar Ibragimovich, *Termiz iqtisodiyot va servis universiteti Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)*

Xudonazarov Faxriddin Xaitovich, *Termiz iqtisodiyot va servis universiteti 2-bosqich magistranti*

KICHIK BIZNES SUBYEKTLARI FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Annotatsiya. Maqolada O'zbekistonda kichik biznes subyektlari faoliyatining hozirgi holati tahlil qilinadi. Unda kichik biznesning mamlakat iqtisodiyotidagi o'рни, YAIMdagi ulushi va hududlar kesimidagi ko'rsatkichlari o'rganilgan. Muallif sohadagi mavjud muammolarni aniqlab, ularni bartaraf etish uchun bir qator takliflar beradi. Jumladan, hududlar o'rtasidagi farqlarni kamaytirish, soliq imtiyozlari tizimini takomillashtirish, moliyaviy qo'llab-quvvatlashni kuchaytirish, innovatsiyalarni joriy etish va eksportni rag'batlantirish kabi chora-tadbirlar tavsiya etilgan.
Tayanch so'zlar: Kichik biznes, xususiy tadbirkorlik, eksport, import, yalpi ichki mahsulot.

ОСОБЕННОСТИ РАЗВИТИЯ МАЛОГО БИЗНЕСА

Аннотация. В статье анализируется современное состояние бизнеса малых предприятий в Узбекистане.

Анализируется роль малого бизнеса в экономическом развитии страны, его роль в ВВП и возможности в трансграничном секторе. Автор внес ряд предложений по устранению имеющихся в этой сфере проблем. Рекомендуется ряд мер, направленных на сокращение различий между границами, развитие системы концессий, стимулирование экономического развития, поощрение инноваций и увеличение экспорта.
Ключевые слова: малый бизнес, частное предпринимательство, экспорт, импорт, валовой внутренний продукт.

FEATURES OF SMALL BUSINESS DEVELOPMENT

Abstract. The article analyzes the current state of business of small enterprises in Uzbekistan. The role of small business in the economic development of the country, its role in GDP and opportunities in the cross-border sector are analyzed.

The author makes a number of proposals to eliminate the existing problems in this sphere. A number of measures are recommended to reduce differences between borders, develop a system of concessions, stimulate economic development, encourage innovation and increase exports.
Key words: Small business, private entrepreneurship, export, import, gross domestic product.

Kirish. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik iqtisodiyotni rivojlantirish, aholi bandligi va daromadlarini oshirishda muhim omildir. Hozirgi kunda tadbirkorlar, o'rta va kichik biznes jahon mamlakatlarida iqtisodiyotning barqaror rivojlanishi uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Rivojlangan davlatlarda tadbirkorlik subyektlari umumiy korxonalar sonining 90,13 foizdan ziyodini tashkil etadi va mehnatga layoqatli aholining 50 foizdan ortig'ini ish bilan ta'minlaydi. 2022-yilgi holatga ko'ra, O'zbekistonda mehnat bilan band aholining 74,2 foizi shu sohada ishlaydi. Tadbirkorlik

subyektlari taraqqiy etgan mamlakatlarning yalpi ichki mahsuloti tarkibida ham salmoqli o'ringa ega. O'zbekiston yalpi ichki mahsulotida mazkur soha ulushi 54,9 foizdir. Shuningdek, so'nggi yillarda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subektlarining tashqi savdodagi dinamikasiga e'tibor qaratsak, 2022-yilda mamlakat umumiy eksportidagi tadbirkorlik subyektlarining ulushi 2010-yilga nisbatan qariyb 2 barobarga oshgan bo'lsa, mamlakat importida esa 2010-yilda 35,8 % dan 2022-yilga kelib 62,6 % ga (yoki 1,7 barobar) yetgan. Eksport ko'rsatkichlarning bunday keskin o'sishiga asosiy sabab so'ngi yillarda eksport uchun yaratilayotgan qulay sharoitlar, valyuta bo'yicha cheklovlarining olib tashlanganligi, xususiy tadbirkorlik subyektlarini huquqiy savodxonligi oshganligi bo'lsa, importdagi ulushining oshishiga kichik biznes subyektlarini moliyalashtirish masalalarining yanada mukammallashtirish, "Har bir oila – tadbirkor" va "Yoshlar kelajagimiz" kabi dasturlar doirasida kreditlar ajratilishi hamda ushbu mablag'lar hisobidan xorijdan asbob-uskunalar va boshqa texnologiyalarni xarid qilinayotganligi sabab bo'lmoqda. Mamlakatimizda tadbirkorlik va kichik biznesni rivojlantirish bugungi kunda davlat siyosatining eng ustuvor yo'nalishlaridan. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning so'zlari bilan aytganda, biz faqat faol tadbirkorlik, tinimsiz mehnat va intilish orqali taraqqiyotga, farovon hayotga erisha olamiz. Tadbirkorlarni qo'llab-quvvatlash va biznes muhitini yaxshilash bo'yicha amalga oshirilayotgan tub islohotlar natijasida, Jahon bankining "Biznes yuritish – 2022" hisobotida O'zbekiston 7 pog'onaga ko'tarilib, 69-o'rinni egalladi va dunyoning eng yaxshi 20 ta islohotchi davlati qatoridan joy oldi. Yangi korxonalar ochish qulayligi bo'yicha yurtimiz ilk bor dunyoda sakkizinchi o'ringa ko'tarildi. Bugungi kunda mamlakatimizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishga alohida e'tibor berilmoqda. Chunki kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish davlatimiz iqtisodiy siyosatining strategik vazifasidir. Hozirgi kunda ushbu soha nafaqat iqtisodiyotning o'sish sur'atlarini jadallashtirishda, balki mamlakatimiz uchun nihoyatda muhim bo'lgan bandlik va aholi daromadlarini

oshirish masalalarini hal etishda ham yetakchi o'rin tutmoqda. Bejizga, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev "Faqat katta korxonalar qurib, aholi bandligini va daromadini oshirish, byudjet tushumlarini ko'paytirish masalalarini to'liq hal eta olmaymiz. Turmush darajasini oshirishning eng muhim yo'li tadbirkorlik va kichik biznesni rivojlantirishdir" deb ta'kidlab o'tmaganlar. O'zbekiston iqtisodiyotining barqaror rivojlanishida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasi muhim o'rin tutadi. So'nggi yillarda bu soha mamlakat iqtisodiyotining lokomotiviga aylandi, aholi bandligini ta'minlash va farovonlikni oshirishda yetakchi rol o'ynamoqda. Davlatimiz tomonidan qabul qilinayotgan qonun va qarorlar tadbirkorlik faoliyatini yanada rag'batlantirishga qaratilgan. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 14-sentyabrdagi PQ-306-son qarori kichik biznesni moliyaviy va institutsional jihatdan qo'llab-quvvatlashning yangi mexanizmlarini joriy etdi.[1] Bu qaror asosida kichik biznes sub'ektlariga imtiyozli kreditlar ajratish hajmini oshirish ko'zda tutilgan. Kichik biznesning YAIMdagi ulushi yildan-yilga oshib bormoqda. 2022-yilda bu ko'rsatkich 55,7 foizni tashkil etdi. Bu rivojlangan davlatlar darajasiga yaqinlashayotganimizni ko'rsatsa-da, hali foydalanilmagan imkoniyatlar mavjud. Masalan, AQShda kichik biznesning YAIMdagi ulushi 50%, Yevropa Ittifoqida esa 60% atrofida. Rivojlangan davlatlarda bu soha yalpi ichki mahsulotning asosiy qismini tashkil etishini hisobga olsak, bu yo'nalishda oldimizda turgan vazifalar ko'pligini anglaymiz. Mamlakatimizda tadbirkorlik jadal rivojlanayotgani,

uni yanada rivojlantirish yo'llarini aniqlash va ustuvor yo'nalishlarini belgilash bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqish dolzarb masala bo'lib qolmoqda. Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Tadbirkorlik faoliyatining nazariy jihatlarini va mohiyatini yorituvchi, [2] zamonaviy sharoitda mamlakat va mintaqalar iqtisodiyotini rivojlantirishda kichik va o'rta biznesning roli va o'rnini ochib beruvchi, [3] shuningdek, tadbirkorlikni rivojlantirishda boshqarishning turli jihatlarini yorituvchi ilmiy nashrlarning tahliliy sharhi, [4] iqtisodchi-tadqiqotchilarning tadbirkorlikga bo'lgan ilmiy qiziqishi susaymayotganidan dalolat beradi. Stofarandova V.V. kichik va o'rta biznes muammolarini tadqiq qilar ekan, uni mintaqalarni innovatsion rivojlantirishning kaliti sifatida ko'rib chiqadi. [5]. Boboyev A.Ch. "Tadbirkorlik" tushunchasi XVIII asrda shakllangani, uning evolyutsiyasi hozirgi kunda ham davom etayotgani haqida ma'lumot beradi. "Tadbirkorlik" faoliyati bo'yicha A.Smit, A.Tyurgo, P.Samuelson, R.Xizrich, I.Shumpeter va MDH mamlakatlari olimlari A.I.Arkipov, Ye.F.Borisov, A.V.Busigin, Yu.M.Osipova, M.A.Sajina, O'zbekistonda S.S.G'ulomov, Sh.Sh.Shodmonov, A.V.Vahobov, H.P.Abulqosimov kabi yetakchi iqtisodchi olimlar tomonidan chuqur o'rganilayotganini ta'kidlaydi. [6] Tahlil va natijalar. O'zbekiston Respublikasining "Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risida"gi qonuniga murojaat qilsak, unda — "Tadbirkorlik — tadbirkorlik faoliyati subyektlari tomonidan qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladigan, tavakkal qilib va o'z mulkiy javobgarligi ostida daromad (foyda) olishga qaratilgan tashabbuskor faoliyat", deb ta'rif beriladi. Biroq, jadal ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar sharoitida aholi farovonligini ta'minlashning yangi jihatlarini ochib berish, farovonlik darajasiga bevosita ta'sir etuvchi omillarini, jumladan, tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishning aholi farovonligi va turmush tarziga ta'siri yo'nalishlarini aniqlash, bu borada vujudga keladigan o'zgarishlarni baholash zarurati mazkur sohada ilmiy tadqiqotlar olib borishni taqozo etmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 4-apreldagi "Iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishda ilmiy yondashuvlarni kengaytirish va boshqaruv kadrlarini tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish choratadbirlari to'g'risida" PQ-108-son Qarorining

2-ilovasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Biznes va tadbirkorlik oliy maktabi faoliyatining ustuvor yo'nalishlari etib: 1. "Biznesni boshqarish" (MBA) va iqtisodiyotning talab yuqori bo'lgan boshqa mutaxassisliklar bo'yicha magistrlar tayyorlash, shuningdek oliy ta'limdan keyingi ta'limni amalga oshirish. 2. Zamonaviy iqtisodiy bilimlar bo'yicha vazirlik va idoralar, mahalliy hokimiyat vakillari, hokim o'rinbosarlari hamda iqtisodiyot tarmoqlarida kadrlarning malakasini oshirish va qayta tayyorlash. 3. Mahallada tadbirkorlikni rivojlantirish, aholi bandligini ta'minlash va kambag'allikni qisqartirish masalalari bo'yicha tuman (shahar) hokimlarining yordamchilari malakasi va ularning faoliyati samaradorligini oshirishga qaratilgan trening, seminar va master-klasslar tashkil etish, ularga aholi bilan samarali ishlashni o'rgatish, bir mahallada yuqori samara ko'rsatayotgan tajribalarni boshqa mahallalarga qo'llash amaliyotini joriy etish. 4. "Yashil" texnologiyalarni joriy etishning institutsional asoslarini rivojlantirish, ilmiy va innovatsion tadqiqotlarni amalga oshirish hamda mazkur sohada kadrlar malakasini oshirishda yetakchi xorijiy ta'lim muassasalari va ilmiy-tadqiqot markazlari bilan hamkorlikni yo'lga qo'yish. 5. Kichik innovatsion biznes va startap g'oyalarni loyiha darajasiga yetkazishda konsalting xizmatlarini ko'rsatish, shu jumladan biznes ekotizimini shakllantirish, menejment, marketing, buxgalteriya, huquqiy masalalar hamda boshqa

professional mutaxassislarning mentorlik xizmatlarini ko'rsatish. 6. Qo'shma ikki diplom (dual degree) dasturlari bo'yicha Quacquarelli Symonds (QS) va Times Nigher Education (TNE) hamda boshqa xalqaro reytinglarda yetakchi bo'lgan rivojlangan mamlakatlarning oliy ta'lim muassasalari va ilmiy markazlari bilan hamkorlik aloqalarini kengaytirish. 7. Tadbirkorlik ekotizimi, kadrlar salohiyati va ijtimoiy-iqtisodiy masalalar bo'yicha tahliliy ma'lumotlar hamda ekspertlik xulosalarini tayyorlash va natijalarini davriy chop etib borish. kabi vazifalar belgilandi.[7]

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning "Faol tadbirkor deganda, biz raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarishga qodir, eng muhimi, yangi ish o'rinlari yaratib, nafaqat o'zini va oilasini boqadigan, balki butun jamiyatga naf keltiradigan ishbilarmon insonlarni tushunamiz" deb belgilab berishi mazkur sohaning aholi farovonligini ta'minlashdagi roli ahamiyatli ekanligini ko'rsatadi. [8] Shunga ko'ra, 2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot Strategiyasining" 29-maqсадida: Tadbirkorlik faoliyatini tashkil qilish va doimiy daromad manbalarini shakllantirish uchun sharoitlar yaratish, xususiy sektorning Yalpi ichki mahsulotdagi ulushini 80 foizga va eksportdagi ulushini 60 foizga yetkazish. Har yili O'zbekiston Respublikasi Prezidentining tadbirkorlar bilan "Ochiq muloqoti"ni o'tkazish. Hududlarda 200 ta yangi sanoat zonalarini tashkil etish va biznesinkubatorlar tizimini rivojlantirish. Sharoiti og'ir bo'lgan tumanlarda tadbirkorlikni

rivojlantirish uchun yanada qulay shart-sharoitlar yaratish. Ilg'or xorijiy tajriba asosida faktoring amaliyotini rivojlantirish.

2026-yilga borib tadbirkorlik subyektlariga soliq yuklamasini yalpi ichki mahsulotning 27,5 foizidan 25 foizi darajasiga kamaytirish. Hududlarda tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash, ishsizlik va kambag'allikni qisqartirish bo'yicha mavjud tuzilmalar faoliyatini takomillashtirish. Tadbirkorlik subyektlari o'z faoliyatini boshlashi uchun zarur ma'lumotlarni erkin foydalanishga chiqarish. Qurilish faoliyatida qurilish nuqsonlari yoki muammolarining oldini olish. Iqtisodiyotda davlat ishtirokini qisqartirish va xususiy sektorga keng yo'l ochish. Iqtisodiy munosabatlarda erkin bozor tamoyillarini joriy etishni kengaytirish kabi muhim vazifalar belgilab berilgan. O'zbekiston Respublikasidakichikbiznes sub'ektlarining umumiy soni 2023-yil 1-sentyabr holatiga 605230 tani tashkil etgan bo'lsa, 2024-yilning shu davriga kelib 643851 taga yetib, yillik o'sish sur'ati 6,4 foizni tashkil etgan. Shu bilan birga, faoliyat yuritayotgan kichik biznes sub'ektlari soni 2024-yil 1-sentyabr holatiga 394712 tani tashkil etib, umumiy ro'yxatga olingan sub'ektlarning 61,3 foizini tashkil etmoqda. Bu ko'rsatkichlar mamlakatda kichik biznesning miqdor jihatdan o'sish dinamikasini ko'rsatib bersa-da, ularning faollik darajasi nisbatan pastligidan dalolat beradi. O'zbekiston Respublikasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining jami YAIMdagi ulushi foiz hisobida [7].

1-jadval

	2021	2022	2023	2024- Q1	2024- Q2
O'zbekiston Respublikasi	54,1	51,8	51,2	42,7	47,5
Qoraqalpog'iston Respublikasi	56,3	56,6	58,7	49,0	52,7
Andijon viloyati	72,2	69,5	66,0	56,4	64,0
Buxoro viloyati	75,9	74,1	71,7	62,2	69,5
Jizzax viloyati	80,1	78,4	73,7	65,6	68,3
Qashqadaryo viloyati	69,9	68,1	68,4	57,6	64,6
Navoiy viloyati	27,1	26,8	26,0	18,6	21,5
Namangan viloyati	73,8	72,8	72,8	64,4	68,0
Samarqand viloyati	74,1	71,4	72,8	68,2	69,8
Surxondaryo viloyati	77,0	76,8	75,9	69,5	75,2
Sirdaryo viloyati	69,1	65,4	63,6	52,3	60,7
Toshkent viloyati	45,6	46,5	48,7	45,2	47,4
Farg'ona viloyati	69,8	68,9	69,5	64,0	68,0
Xorazm viloyati	73,7	71,6	69,7	63,0	66,6
Toshkent shahri	48,8	46,8	49,8	49,7	48,4

Ushbu ma'lumotlarga asoslanib, O'zbekistonda kichik biznes faoliyatiga quyidagicha baho berish mumkin:

- 2023-yildan 2024-yilning 2-choragiga qadar deyarli barcha hududlarda kichik biznes ulushi pasayish tendensiyasiga ega bo'lgan.
 - Kichik biznesning YaHMdagi ulushi bo'yicha hududlar orasida sezilarli farqlar mavjud. Masalan, Surxondaryo viloyati eng yuqori ko'rsatkichga ega (75,2%), Navoiy viloyati esa eng past ko'rsatkichga ega (21,5%).
 - Surxondaryo, Samarqand, Buxoro, Namangan va Jizzax viloyatlarida kichik biznesning ulushi nisbatan yuqori bo'lib, bu hududlarda kichik biznesni qo'llab-quvvatlash siyosati samarali ekanligini ko'rsatadi.
 - Navoiy viloyati, Toshkent shahri va Toshkent viloyatida kichik biznes ulushi past.
 - O'zbekiston bo'yicha o'rtacha ko'rsatkich 2024-yil 2-choragida 47,5% ni tashkil etgan, bu ko'pgina rivojlangan mamlakatlar ko'rsatkichlariga yaqin. O'zbekistonda tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish va uni aholi farovonligini oshirishda muhim omil sifatida ko'rib chiqqanimizda quyidagilar yaqqol ko'zga tashlanadi.
1. Tadbirkorlik faoliyati qonuniy asosda tartibga solingan va daromad olishga qaratilgan.
 2. Hukumat tomonidan tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish bo'yicha bir qator muhim chora-tadbirlar, jumladan, Biznes va tadbirkorlik oliy maktabi faoliyatining ustuvor yo'nalishlari kabi, belgilangan.
 3. Prezident Sh. Mirziyoyev faol tadbirkorlarning jamiyat farovonligiga qo'shadigan hissasini alohida ta'kidlagan.
 4. 2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot Strategiyasida tadbirkorlikni rivojlantirish, xususiy sektorning ulushini oshirish, soliq yukini kamaytirish va boshqa muhim vazifalar belgilangan. O'zbekistonda tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish orqali aholi farovonligini oshirish borasida keng ko'lamli islohotlar olib borilayotgani ma'lum bo'ladi. Buesa mamlakatning iqtisodiy o'sishi va aholi turmush darajasini yaxshilashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa va takliflar. O'zbekistonda kichik biznes sezilarli o'rin tutadi, ammo hududlar orasida

katta farqlar mavjud. Umumiy pasayish tendensiyasi kichik biznesni qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar zarurligini ko'rsatadi. Yuqoridagi tahlil natijalariga asoslanib, quyidagi takliflarni berish mumkin.

- Kichik biznes ulushi past bo'lgan hududlar (Navoiy viloyati, Toshkent shahri va Toshkent viloyati) uchun maxsus rivojlantirish dasturlarini ishlab chiqish lozim. Bu dasturlar mahalliy sharoitlarni hisobga olgan holda, kichik biznesni rag'batlantirishga qaratilishi kerak.
- Kichik biznes ulushi yuqori bo'lgan hududlar (Surxondaryo, Samarqand, Buxoro) tajribasini o'rganish va boshqa hududlarga tarqatish mexanizmlarini yaratish.
- Kichik biznes subyektlari uchun soliq imtiyozlari tizimini qayta ko'rib chiqish, ayniqsa past ko'rsatkichli hududlarda qo'shimcha rag'batlantiruvchi mexanizmlarni joriy etish.
- Kichik biznes subyektlari uchun imtiyozli kreditlar, grantlar va boshqa moliyaviy yordam turlarini kengaytirish.
- Kichik biznes rivojlanishi uchun zarur bo'lgan infratuzilmani (transport, logistika, kommunikatsiya) yaxshilash, ayniqsa qishloq joylarda.
- Kichik biznesda innovatsion texnologiyalarni joriy etishni qo'llab-quvvatlash, raqamlashtirish jarayonlarini jadallashtirish.
- Kichik biznes mahsulotlarini ichki va tashqi bozorlarga chiqarishga ko'maklashish, eksportni rag'batlantirish mexanizmlarini takomillashtirish.
- Tadbirkorlik ko'nikmalarini

rivojlantirish uchun ta'lim dasturlarini kuchaytirish, ayniqsa yoshlar va ayollar orasida.

- Kichik biznes rivojlanishini doimiy ravishda kuzatib borish va tahlil qilish uchun samarali monitoring tizimini yaratish.
- Yirik korxonalar va kichik biznes o'rtasidagi hamkorlikni rag'batlantirish, klasterlarni rivojlantirish. Bu takliflarni amalga oshirish orqali O'zbekistonda kichik biznesning YAIMdagi ulushini oshirish va hududlar o'rtasidagi farqlarni kamaytirish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Адаманова З.О. Теоретические аспекты развития предпринимательства в условиях цифровой экономики // Учение записки Кримского инженерно-педагогического университета. – 2022. – № 2(76). – с. 27–31. – DOI: 10.34771/УЗСЕПУ.2022.2.76.006.
2. Кинзябулатова Г.И. Интеграция науки и предпринимательства как фактор развития инновационного потенциала России // Вестник Астраханского государственного технического университета. – 2022. – № 1. – с. 84–93. – DOI: 10.24143/2073–5537–2022–1–84–93.
3. Васючкова А.С. Региональный аспект управления предпринимательской активностью на примере женского предпринимательства в дальневосточном регионе // Студенческий вестник. – 2020. – № 20–7(118). – с. 41–45.
4. Стофарандова В.В. Анализ проблем развития предпринимательства как дополнительного ресурса

- инновационного развития региона (на примере Республики Дагестан) // Региональные проблемы преобразования экономики. – 2020. – № 12(122). – с. 59–66. – doi: 10.26726/1812–7096–2020–12–59–66.
5. Boboyev A.Ch. “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali. № 2, mart-aprel, 2017 yil.
 6. Xakimov Z.I. Improving financial support mexanizmini of landowners costs of farmland // In volume 3, Issue 6 European Scholar Journal (EJS), June 2022. ISSN (E):2660-5562. (Impact factor: 7.234) – P. 144-149 (08.00.00 №17).
 7. Xakimov Z.I. Aholi tomorqalaridan foydalanishni moliyaviy qo'llab-quvvatlash yo'nalishlari // O'zbekiston milliy axborot agentligi – O'zA ilm-fan bo'limi (Elektron jurnal), 2022, 12-son. – B. 47-52. (08.00.00 №12)
 8. Xakimov Z.I. Aholi tomorqalarini moliyaviy qo'llab-quvvatlashning tabiiy resurs tejamlorligi asosida tashkil etish imkoniyatlari // «Biznes- ekspert» jurnal, 2022, 11-12-son. – B. 109-113. (08.00.00 №11).
 9. Xakimov Z.I. Xorijiy davlatlarda tomorqa yer egalari xarajatlarini moliyaviy qo'llab-quvvatlash yo'nalishlari va tamoyillari // Moliya tizimini rivojlantirishning zamonaviy tendensiyalari va istiqbollari: Xalqaro ilmiy amaliy anjuman. – T. 2022. – B.26-30.
 10. Xakimov Z.I. Aholi tomorqalaridan foydalanish xarajatlarini moliyaviy qo'llab-quvvatlashda tashabbusli byudjet samaradorligini oshirish yo'nalishlari // Fuqorolarning byudjet jarayonidagi ishtiroki: tajriba almashish va rivojlanish istiqbollari: Xalqaro forum materiallari to'plami. Byudjet-soliq tadqiqotlari instituti. – T. 2022. – B. 46-48.
 11. Xakimov Z.I. Surxondaryo viloyatida aholi bandligini ta'minlash muammosi // Aholi bandligini va farovonligini oshirishda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning o'rnini. Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi ma'ruzalar to'plami. – T. 2008. – B. 112-114.



“TISU ilmiy
tadqiqotlari
xabarnomasi”
ilmiy-uslubiy jurnali

<https://scientific.tues.uz>
ISSN 2992-9016

*Muzrapova Shahnoza Saydullayevna, Termiz iqtisodiyot va servis universiteti
Buxgalteriya hisobi va statistika kafedrasida o'qituvchisi
shahnozamuzropova1@gmail.com*

MOLIYAVIY HISOBOTLARNING XALQARO STANDARTLARI ASOSIDA INVESTITSION MULKLARNI HISOBGA OLISH

Annotatsiya. Ushbu maqolada iqtisodiyotda buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va auditning dolzarb masalalaridan biri bo'lgan investitsiya mulkining mohiyati va moliyaviy hisobotlarning xalqaro standartlariga ko'ra hisobini yuritish asoslab berilgan. Zero, bugungi kunda O'zbekiston iqtisodiyotiga investitsiyalarni baholash bozor munosabatlari talablari va mezonlari darajasida tashkil etish va takomillashtirishni uslubiy asoslashni, joriy davr sharoitlariga javob beradigan korxonalar tomonidan uzoq muddatli va qisqa muddatli moliyaviy investitsiyalarni amalga oshirish qoidalarini ishlab chiqishni talab qiladi. **Tayanch so'zlar:** investitsion mulk, investitsion mulkni baholash, investitsion mulkdan kelgusidagi pul oqimi, haqiqiy xarajatlar, haqqoniy qiymat.

МЕЖДУНАРОДНЫЕ СТАНДАРТЫ ФИНАНСОВОЙ ОТЧЕТНОСТИ НА ОСНОВЕ ИНВЕСТИЦИОННОЙ НЕДВИЖИМОСТИ

Аннотация. В данной статье рассмотрена сущность инвестиционной недвижимости, которая является актуальным вопросом бухгалтерского учета, экономического анализа и аудита в экономике, а также бухгалтерского учета по международным стандартам финансовой отчетности, так как сегодня оценка инвестиций в экономику Узбекистана требует методического обоснования организации и совершенствования на уровне требований и критериев рыночных отношений, разработки правил осуществления долгосрочных и краткосрочных финансовых вложений предприятиями, отвечающими условиям текущего периода.

Ключевые слова:
инвестиционная
недвижимость, оценка
инвестиционной
недвижимости, будущий
денежный поток от
инвестиционной
недвижимости,
фактические затраты,
справедливая стоимость.

INTERNATIONAL STANDARDS OF FINANCIAL REPORTING BASED ON INVESTMENT PROPERTIES

Annotation. In this article, the essence of investment property, which is an urgent issue of accounting, economic analysis and auditing in the economy, and accounting according to international standards of financial reporting. Because today, the assessment of investments in the economy of Uzbekistan requires methodological justification of organization and improvement at the level of requirements and criteria of market relations, development of rules for implementation of long-term and short-term financial investments

by enterprises that meet the conditions of the current period. **Key words:** investment property, investment property valuation, future cash flow from investment property, actual costs, fair value. Kirish. Ma'lumki, so'nggi yillarda Respublikamiz iqtisodiyotining jadal rivojlanishi va jahon andozalari asosidagi iqtisodiy, moliyaviy faoliyati xo'jalik yurituvchi subyektlarni moliyaviy hisobotlarni xalqaro standartlar asosida yuritilishini talab qilmoqda. Shuningdek, xo'jalik yurituvchi subyektlarga o'z moliyaviy resurslaridan foydalanish damustaqillik berilishi, respublikamiz va chet el investorlarining investitsiyalarini jalb qilish uchun huquqiy va iqtisodiy shart-sharoitlar yaratilayotganligi, xo'jalik yurituvchi subyektlarning iqtisodiy aloqalari uyg'unlashuvi, yangicha moliyaviy vositalar va omillarining vujudga kelishi uzoq muddatli investitsiyalarning ilgari amalda bo'lgan tashkiliy mexanizmini tubdan isloh qilishni taqozo qilmoqda. Mamlakatimizda bugungi kunda muvaffaqiyatli biznes uchun qulay shart-sharoitlar yaratilgan. Aslida, har qanday biznesni bo'sh turgan mablag'larni investitsiya qilish jarayoni va investitsiya qandaydir daromad keltirishini kutish deb hisoblash mumkin. Kompaniya uchun biznes yuritishning juda keng tarqalgan shakli bu boshqa kompaniyalar faoliyatiga sarmoya kiritishdan iqtisodiy foyda olishdir: jumladan, aksiyalarni, boshqa kompaniyalarning ustav kapitalidagi ulushlarni sotib olish, kapitalda ishtirok etmasdan qo'shma korxonalarini tashkil etish, boshqa kompaniyalar foydalanishi uchun aktivlarni taqdim yetish va

boshqalar. Bunday operatsiyalar ma'lum moliyaviy natijalarga erishish istiqbollari bilan birgalikda korporativ munosabatlarni o'rnatishga imkon beradi. Kompaniya ko'chmas mulkka bo'sh pul mablag'larini kiritganda, bunday investitsiyalar aktivning o'ziga xos turi- investitsiya ko'chmas mulki sifatida tasniflanadi. Investitsion mulk- bu tashkilotning tadbirkorlik faoliyatida foydalanish yoki oddiy biznes jarayonida sotish uchun mo'ljallanmagan ko'chmas mulkka investitsiya qilinadigan mulkdir. Bu yer uchastkalarini, binolar yoki moliyaviy ijara egasi yoki lizing oluvchining ixtiyorida bo'lgan binolar qismlari, (lizing) shartnomalarini o'z ichiga oladi. Mulq qiymati daromad keltirishi, ishlab chiqarish

va tovarlar sotish bilan shug'ullanuvchi emas, ishlar, xizmatlar, ma'muriy maqsadlar, bu tashkilotning normal operatsiyalarini sotish uchun mo'ljallanmagan qismi hisoblanadi [10], [13]. Investitsion mulkni hisobga olish muammolarini standartlardagi farqlar, tasniflash, baholash va ma'lumotlarni oshkor qilish yo'llari bilan taqqoslash orqali ko'rib chiqish maqsadga muvofiqdir. Qayta tasniflash bilan bog'liq masalalar tasniflash bilan chambarchas bog'liq, shu bilan birga, investitsiya mulkini tasarruf etishni hisobga olish tamoyillari asosiy vositalarga nisbatan qo'llaniladigan prinsiplardan sezilarli darajada farq qilmaydi [11], [12]. Bugungi kun buxgalteriya hisobining milliy standartlarini moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari bilan investitsiya mulkini hisobga olish nuqtai nazaridan uyg'unlashtirish jarayoniga xos bo'lgan muammolarni ko'rib chiqishni talab etmoqda. Ushbu holat O'zbekiston iqtisodiyotida investitsiyalarni baholash bozor munosabatlari talablari va mezonlari darajasida tashkil qilishni va takomillashtirishni uslubiy jihatdan asoslab berishni, korxonalar tomonidan amalga oshiriladigan uzoq muddatli va qisqa muddatli moliyaviy investitsiyalarning hozirgi davr shartsharoitlariga mos keladigan qoidalarini ishlab chiqish zaruratini talab etilmoqda. Adabiyotlar tahlili. "Investitsiyalar" darsligi mualliflari V.F.Sharp, D.Aleksandr, D.V.Beyli ta'kidlaganidek, "Investitsiya" so'zi: "Kelajakda katta miqdorni olish uchun bugun pul bilan xayrlashish". Shu bilan birga, mualliflar investitsiya jarayoni bilan bog'liq ikkita omilga e'tibor

berishadi: birinchisi vaqt, ikkinchisi risk [5; 11-12 b]. Zamonaviy adabiyotlar o'rganilganda "Investitsiya" atamasining izohlariga guvoh bo'lishimiz mumkin: rus olimlari L.I.Yuzvovich va boshqalar investitsiyalarning ko'p tomonlama xususiyatiga asoslanib, investitsiyalarning ikkita ta'rifi mavjudligini aytib o'tishgan-iqtisodiy va moliyaviy [6; 60 b]. Iqtisodiy ta'rifga ko'ra, investitsiyalar-bu sanoat, qishloq xo'jaligi, transport, ishlab chiqarish va noishlab chiqarish sohasi iqtisodiyotining boshqa tarmoqlariga uzoq muddatli kapital qo'yilmalar shaklida amalga oshiriladigan xarajatlar majmui. Davlat tomonidan amalga oshirilayotgan investitsiyalarning bir qismi umumiy iqtisodiy jarayonni, ekologik vaziyatni, ijtimoiy sohani barqarorlashtirishga yoki iqtisodiy samaradorligi oldindan noma'lum bo'lgan texnologiya va texnologiyalarning tubdan yangi yo'nalishlarini yaratishga qaratilgan., Keng ma'noda investitsiyalar mamlakat iqtisodiyotining o'sishi va rivojlanishini moliyalashtirish uchun zarur mexanizmni ta'minlaydi. Endi esa investitsiya atamasini moliyaviy ta'rifini ko'rib chiqamiz. Moliyaviy nuqtai nazardan, ya'ni barcha mulkchilik shaklidagi korxonalarining pul iqtisodiyoti rentabelligi nuqtai nazaridan investitsiya-bu kelajakda daromad olish uchun tadbirkorlik faoliyati obyektlariga mablag'larni kiritish. Mamlakatimiz iqtisodchi olimlaridan A.Vaxabov, N.To'rayev, Sh.Xajibakiyev, N.Muminov, D.G'ozibekov, D.Tojiboyeva, N.Qo'ziyeva, G. Maxmudovalar tomonidan investitsiyalarning iqtisodiy mohiyati yuzasidan ilmiy izlanishlar olib borilgan va munosabat bildirilgan. Jumladan, A.Vaxabov, Sh.Xajibakiyev, N.Muminovlar tomonidan investitsiyalarning mazmun-mohiyati bo'yicha bayon etilgan ta'rifda: "Investitsiyalar - foyda olish hamda ijobiy

ijtimoiy samaraga erishish maqsadida tadbirkorlik obyektlariga va boshqa faoliyat turlariga qo'yiladigan pul mablag'lari, banklarning maqsadli omonatlari, aksiyalar, boshqa qimmatli qog'ozlar, texnologiyalar, mashinalar, uskunalar, litsenziyalar, kreditlar, har qanday boshqa mol-mulk yoki mulkiy huquqlari, intellektual boyliklar" [7; 7 b] deb ta'riflangan. O'zbekiston respublikasining "Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to'g'risida"gi qonunida investitsiyalarga quyidagicha tarif berilgan "investitsiyalar — investor tomonidan foyda olish maqsadida ijtimoiy soha, tadbirkorlik, ilmiy va boshqa faoliyat turlari obyektlariga tavakkalchiliklar asosida kiritiladigan moddiy va nomoddiy boyliklar hamda ularga bo'lgan huquqlar, shu jumladan intellektual mulk obyektlariga bo'lgan huquqlar" [1]. Iqtisodiyotda investitsiyalardan samarali foydalanish ularni moliyalashtirish bilan bevosita bog'liqdir [8], [13]. Investitsiyalarni moliyalashtirish esa, tabiiyki, investitsiya faoliyati asosida amalga oshiriladi [9]. strategiyasining "Milliy iqtisodiyotni jadal rivojlantirish va yuqori o'sish sur'atlarini ta'minlash" uchinchi

yo'nalishida 26-maqсад sifatida “Mamlakatda investitsiya muhitini yanada yaxshilash va uning jozibadorligini oshirish, kelgusi besh yilda 120 milliard AQSh dollari, jumladan 70 milliard dollar xorijiy investitsiyalarni jalb etish choralarini ko'rish” etib belgilanishini alohida e'tirof etish zarur [2],[12]. Yuqoridagi iqtisodchi olimlarning ilmiy ishlariga asoslanib bizning fikrimizcha investitsiyalar -bu iqtisodiyotda aylanishni amalga oshiradigan pul oqimlari. Pul oqimlarining kelib chiqishi asosan milliy iqtisodiyotda yaratilgan investitsiya muhiti, shuningdek investorning davlatga bo'lgan ishonchi bilan belgilanadi. Tahlil va natijalar. Qulay investitsiya muhiti investitsiyalarni jalb qilish jarayonida muhim rol o'ynaydi va iqtisodiyotni tarkibiy qayta qurish, innovatsion ishlanmalarni joriy etish, korxonalarining asosiy vositalarini takomillashtirish va yangilash, aholi turmush darajasini yaxshilash va davlatning jadal iqtisodiy o'sishiga yordam beradi. Korxonalar uzoq muddatli aktivlari deganda aksariyat hollarda har birimiz ko'z oldimizga asosiy vositalar keladi,lekin uzoq muddatli aktiv bu faqat asosiy vositadan iboratmi? degan savolni o'zimiz uchun berishimiz tabiiy. Buxgalteriya hisobi xalqaro standartlarida BHXS16-dan tashqari, uzoq muddatli aktivlarni hisobga olish uchun bir nechta boshqa standartlar mavjud va ulardan biri BHXS 40 - “Investitsion mulkdir”. Ushbu standartga ko'ra, Investitsiya mulki (investment

property) — ijara to'lovlarini olish yoki kapital qiymatini oshirish yoki har ikkala maqsad uchun (mulkdorning yoki foydalanish huquqi shaklidagi aktiv sifatida ijaraga oluvchining) egaligida bo'lgan ko'chmas mulk, biroq:

- tovarlarni ishlab chiqarish yoki yetkazib berishda, xizmatlar ko'rsatishda, ma'muriy maqsadlarda foydalanish uchun emas,
- shuningdek odatdagi faoliyat davomida sotish uchun emas. Investitsiya mulkiga oid misollar:
- Odatdagi xo'jalik faoliyati davomida qisqa muddatli istiqbolda sotish uchun emas, balki uzoq muddatli istiqbolda uning qiymati oshishidan naf olish uchun mo'ljallangan yer.
- Hozirgi vaqtda kelgusi maqsadi hali aniqlanmagan yer. Kompaniya yerdan egasi egallab turgan mulk sifatida yoki odatdagi xo'jalik faoliyati davomida qisqa muddatli istiqbolda sotish uchun foydalanishi borasida qaror qabul qilmagan bo'lsa, yer uning qiymati oshishidan daromad olish uchun mo'ljallangan deb hisoblanadi.

- Hisobot beruvchi kompaniya mulkida bo'lgan yoki ijara shartnomasi bo'yicha hisobot beruvchi kompaniya tasarrufida bo'lgan va bir yoki bir nechta operativ ijara shartnomasi asosida ijaraga berilgan bino.
- Hozirda bo'sh turgan, biroq bir yoki bir nechta operatsion ijara shartnomasi asosida ijaraga berishga mo'ljallangan bino.
- Kelgusida investitsiya mulki sifatida foydalanilishi kutilayotgan tugallanmagan qurilish obyektlari yoki rekonstruksiya bosqichidagi obyektlar. Ushbu Standartda “egasi foydalanadigan mulk” (owner-occupied property) tavsifi asosiy vositalar obyektlari uchun qo'llaniladi. Bu investitsiya ko'chmas mulkini egasi egallab turgan ko'chmas mulkdan farqlaydi. Investitsion mulk, MXHS 40-standartiga ko'ra, quyidagi toifalarga bo'linadi: Ijaraga berish uchun mulk: Bu turdagi mulk asosan boshqa shaxslar yoki tashkilotlarga ijara berish maqsadida foydalaniladi. Narx oshishi maqsadida saqlanadigan mulk:

Bu mulk uzoq muddatda qiymatini oshirish maqsadida saqlanadi. MHXS 40-standarti asosida investitsion mulk hisobga olishda ikki asosiy yondashuv mavjud: Ishlab chiqarish xarajatlari bo'yicha hisobga olish: Bu usulda investitsion mulkning boshlang'ich qiymati uning sotib olish xarajatlari, to'g'ridan-to'g'ri xarajatlar va boshqa qo'shimcha xarajatlarni o'z ichiga oladi. Qayta baholash usuli: Mulknı baholashda uning bozor qiymati asosida qayta baholash amalga oshiriladi. Bu usul investitsion mulkning haqiqiy qiymatini aks ettirishda foydali bo'lishi mumkin. Investitsion mulkning moliyaviy hisobotlarda ko'rsatilishi muhim ahamiyatga ega. Mulık hisobini XMHHS bo'yicha takomillashtirishda quyidagi jihatlar hisobga olinishi kerak:

- To'g'ri baholash: Mulkning qiymati muntazam ravishda baholanib turilishi va hisobotlarda aniq ko'rsatilishi lozim.
- Amortizatsiya: Investitsion mulk amortizatsiyasini to'g'ri hisoblash va uning hisobotlarda ko'rsatishni ta'minlash zarur. Amortizatsiya usuli investorning maqsadlariga qarab tanlanishi kerak.
- Foyda va yo'qotishlar: Mulknı sotish yoki ijara berishdan olingan foyda va yo'qotishlar aniq ko'rsatilishi muhimdir. Bu investorlar uchun investitsiya samaradorligini baholashda yordam beradi. Investitsion mulk hisobini takomillashtirish uchun quyidagi takliflar kiritilishi mumkin: Texnologiyalarnı qo'llash: Hisob-kitob va baholash jarayonlarini avtomatlashtirish orqali inson xatosini kamaytirish mumkin. Bu moliyaviy

hisobotlarnı tayyorlashda tezlik va aniqlikni oshiradi. Tahlil va monitoring: Investitsion mulkning moliyaviy ko'rsatkichlarini muntazam tahlil qilish va monitoring qilish orqali investorlar o'z strategiyalarini moslashtirishlari mumkin. Ta'lim va trening: Moliya mutaxassislari va hisobchilar uchun MXHS asosida doimiy ta'lim va treninglar o'tkazish zarur. Bu ularga standartlarga mos ravishda hisobotlarnı tayyorlashda yordam beradi. Investitsion mulk hisobini MXHS asosida takomillashtirish nafaqat moliyaviy hisobotlarning sifatini oshirishga, balki investorlar uchun qaror qabul qilish jarayonini ham yengillashtirishga yordam beradi. Yuqorida keltirilgan takliflar va yondashuvlar yordamida moliya sohasida shaffoflikni oshirish va investitsion mulknı samarali boshqarish imkoniyatlari kengayadi. Egasi egallab turgan ko'chmas mulk hisobi 16-son MHXS - "Asosiy vositalar"ga muvofiq yuritiladi. Boshqa aktivlardan farqi investitsiya ko'chmas mulki asosan kompaniyaning qolgan faoliyati bilan bog'liq bo'lmagan pul oqimlarini hosil qiladi: Investitsion mulkdan pul oqimi: -tovar va xizmatlarnı ishlab chiqarishga, sotishga jalb qilinmagan pul oqimlari; - ma'muriy maqsadlarda foydalanilmaydigan pul oqimlari; odatdagi faoliyat davomida

• Odatdagi xo'jalik faoliyati davomida sotish uchun mo'ljallangan yoki shunday sotish maqsadida barpo etish, takomillashtirish bosqichida bo'lgan ko'chmas mulk ya'ni 2-son BXHS "Zaxiralar" bilan tartibga solinadi.

• Qurilish tashkilotlarida uchinchi shaxslarning topshirig'i bo'yicha barpo etish yoki takomillashtirish bosqichida bo'lgan ko'chmas mulk ya'ni 15-son MXHS "Tushum" bilan tartibga solinadi.

• Moliyaviy ijara shartnomasi asosida boshqa tashkilotga berilgan ko'chmas mulk obyekti. Bunday aktiv mulkdorning balansidan o'tkazish paytida hisobdan chiqariladi ya'ni 16-son MXHS "Ijara" bilan tartibga solinadi.

• Ba'zan kompaniya bosh kompaniya yoki guruhning boshqa kompaniyasi ijaraga olgan va egallab turgan ko'chmas mulkka egalik qiladi. Bunday ko'chmas mulkni konsolidatsiyalangan moliyaviy hisobotda investitsiya mulki sifatida tasniflab bo'lmaydi, sababi guruh pozitsiyasidan u egasi egallab turgan mulk hisoblanadi. Biroq, ushbu ko'chmas mulkka egalik qiladigan tashkilotning alohida hisobotida u, tavsifga muvofiq kelsa, investitsiya mulki hisoblanadi. Investitsion mulk obyektlarini haqqoniy qiymat bo'yicha baholash haqida dastlab qabul qilingan qarorni keyin o'zgartirib bo'lmaydi. Boshlang'ich qiymat bo'yicha baholanganda haqqoniy qiymat bari bir izohlarda ochib berilishi kerak. Investitsiya mulki obyektining tannarxi xarid narxi va bitim bo'yicha bevosita xarajatlarni

o'z ichiga olishi kerak (masalan, professional yuridik xizmatlar qiymati, mulk huquqlarini o'tkazish bo'yicha soliqlar va boshqalar). Kelgusi xarajatlar aktiv foydalanishga tayyor bo'lgandan so'ng xarajatlarni kapitalizatsiya qilish tugatiladi. Investitsiya mulki obyektiga xizmat ko'rsatish va uni ekspluatatsiya qilish bilan bog'liq kelgusi xarajatlar (mehnatga haq to'lash xarajatlari, sarflash materiallari) ular yuzaga kelishiga qarab davr xarajatlariga hisobdan chiqariladi. Kelgusi baholash ikki turiga bo'linadi:

1. Haqiqiy xarajatlar bo'yicha jamg'arilgan amortizatsiya va qadrsizlanishni chegirgan holda baholash:
-hisob asosiy vositalarni hisobga olishga o'xshash;
-amortizatsiya hisoblash;
-qadrsizlanish borasida testdan o'tkazish.
2. Haqqoniy qiymat bo'yicha:
-amortizatsiya hisoblanmaydi;
-qadrsizlanish borasida testdan o'tkazish talab etilmaydi.

Boshlang'ich qiymat bo'yicha baholash chog'ida haqqoniy qiymat bari bir izohlarda ochib berilishi kerak. Investitsiya mulki obyektlarini haqqoniy qiymati bo'yicha baholash haqida dastlab qabul qilingan qarorni keyinchalik o'zgartirib bo'lmaydi. Haqqoniy qiymat bo'yicha hisobga olish modeli Dastlab tan olgandan keyin investitsiya mulkini haqqoniy qiymati bo'yicha hisobga olish modelini tanlagan kompaniya o'zining barcha investitsiya mulkini haqqoniy qiymati bo'yicha baholashi kerak, haqqoniy qiymatni ishonchli baholab bo'lmaydigan hollar bundan mustasno. Investitsiya mulkining haqqoniy qiymatidagi o'zgarish natijasida yuzaga keladigan foyda yoki zararni u yuzaga kelgan davrning foyda/zarariga kiritish kerak. Investitsiya mulkining haqqoniy qiymatini aniqlash chog'ida kompaniya aktivning realizatsiya qilinishi yoki boshqacha chiqib ketishi natijasida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan xarajatlarni chegirmaydi. Investitsiya mulkining haqqoniy qiymatini doimiy ravishda ishonchli aniqlab bo'lmasa, bunday hollarda 16-son MHXS (IAS) "Asosiy

vositalar”ga muvofiq asosiy vositalarni hisobga olgan holda deyarli to'liq o'xshash bo'lgan boshlang'ich qiymat bo'yicha hisobga olish modeli qo'llaniladi. Yagona farqi – ushbu holatda bunday investitsiya mulkining tugatish qiymati nolga teng bo'lishidan kelib chiqish kerak. MHXSlarning, masalan MHXS 2 “Aksiyaga asoslangan to'lov” ning aniq talablariga muvofiq ushbu aktivning dastlabki tan olinishidagi qiymatdir. Haqqoniy qiymat – bu baholash sanasida bozor ishtirokchilari o'rtasidagi odatdagi operatsiyada aktivni sotishda olinishi mumkin bo'lgan yoki majburiyatni o'tkazishda to'lanishi mumkin bo'lgan narxdir. Avvalo, biz korxonaga asosiy vositani qachon korxonaga investitsion mulki toifasiga o'tkazadi yoki undan chiqaradi? , degan savolga javob olishimiz zarur. Biz investitsiya mulki toifasiga o'tkazish yoki aksincha, ushbu toifadan chiqarib tashlash talab qilinadigan vaziyatlarni ko'rib chiqamiz. O'tkazish uchun asos bu obyektning maqsadini o'zgartirish hisoblanadi. Masalan:

1. Obyektning asosiy vositalardan investitsion ko'chmas mulkiga o'tkazilishi mulkdor ko'chmas mulkni egallab turgan davr oxirida amalga oshiriladi va aksincha;
2. Obyektning zaxiradan chiqarish boshqa shaxs bilan operatsion ijara shartnomasini tuzishda amalga oshiriladi. Bu yerda, agarda korxonaning faoliyatimulkni sotish bilan bog'lik bo'lsa, ushbu kompaniya tomonidan sotish uchun yaratilgan yoki sotib olingan ko'chmas mulk deb tavsiflanadi. Korxonaga uni ijaraga bera boshlagandan so'ng, obyekt investitsiya mulkiga o'tkaziladi;
3. Obyektning zaxiraga o'tkazish obyektning

sotish maqsadida rekonstruksiya qilish boshlanishida amalga oshiriladi. Agar korxonaga obyektning rekonstruksiyasiz chiqarib tashlashga qaror qilsa, u tan olinmaguncha uni investitsiya mulki sifatida hisobga olishni davom ettiradi.

Xulosa. Buxgalteriyaning milliy hisob tizimida uzoq muddatli aktivlar tarkibidan investitsiya mulkini tashkil etuvchi aktivlarni ajratib ko'rsatish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz. Chunki, investitsiya mulki sifatida aktivlarni tasniflashning asosiy mezonini uni sotib olishning maqsadi hisoblanadi. Investitsiya mulki mulkdor yoki lizing oluvchining ixtiyorida bo'lishi mumkin (moliyaviy ijara shartnomasi bo'yicha). Bunga mol-mulk ijarasi shartnomasi bo'yicha mulk egasi yoki ijarachisi ixtiyorida bo'lgan, ijara to'lovlarini olish uchun ishlatiladigan, mulk qiymatini oshirishdan olingan, ammo tovarlar, ishlar, xizmatlar ishlab chiqarish va sotishda qatnashmaydigan yer uchastkalari, binolar yoki binolarning qismlari kiradi. Bizga ma'lumki Respublikamiz xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatida tovarlar, ishlar, xizmatlar ishlab chiqarish va sotishda qatnashmaydigan yer uchastkalari, binolar yoki binolarning qismlari mavjud. Korxonalar faoliyatida investitsion mulk hisobini to'g'ri tashkil etish, ishlatilmayotgan aktivlardan samarali foydalanish va undan qo'shimcha daromad topishga olib keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasining "Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to'g'risida"gi Qonuni, 25.12.2019 yildagi O'RQ-598-son.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022 – 2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni. 28.01.2022 yildagi PF-60-son.
3. O'zbekiston Respublikasi prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2020 yil 25 yanvardagi 2020 yil uchun eng muhim ustuvor vazifalar haqidagi Oliy Majlisga Murojaatnomasi.
4. Кейнс, Д. (2011). Общая теория занятости, процента и денег. Избранное. Litres.
5. Инвестиции: учебник / У.Ф. Шарп, Г.Д. Александер, Д.В. Бэйли; пер. с англ. А.Н. Буренина, А.А. Васина. – Москва : ИНФРА-М, 2022. – 1028 с.
6. Юзвович, Л. И., Князева, Е. Г., Разумовская, Е. А., Дегтярев, С. А., Марамыгин, М. С., Мокеева, Н. Н., ... & Решетникова, Т. В. (2018). Инвестиции: учебник.
7. Mamatov B.S., Xujamkulov D.Yu., Nurbekov O.Sh. Investitsiyalarni tashkil etish va moliyalashtirish. Darslik. T.: Iqtisod-Moliya, 2014. 608 bet.
8. Asrorbek, B. (2023). Development of the financial management system in Uzbekistan. International Journal Of Management And Economics Fundamental, 3(03), 25-31.
9. Abduxalimovna, A. Z., & Nabiyevich, I. I. (2021). Organization of Long-Term Asset Accounting on the Basis of International Standards. Central Asian

- Journal of Innovations on Tourism Management and Finance, 2(11), 86-92.
10. Исманов, И. Н., Хожаев, А. С., & Хабижонов, С. К. У. (2019). Вопросы совершенствования бухгалтерского учёта нематериальных активов. Проблемы современной науки и образования, (6 (139)), 79-81.
 11. Исманов, И. (2021). Uzoq muddatli aktivlar hisobini takomillashtirish. Scienceweb academic papers collection.
 12. Исомитдинова, Г. (2023). Investitsiyalarning iqtisodiy ahamiyati va uning yangi rivojlanish tendensiyalari. Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари/Актуальные проблемы социально-гуманитарных наук/Actual Problems of Humanities and Social Sciences., 3(5), 88-98.
 13. Qudbiyev, N. T., Axmadaliyeva, Z. A., & No, D. M. O. G. L. (2022). Soliq yukining biznes uchun ahamiyati. Scientific progress, 3(3), 699-708.
 14. Qudbiyev, N. T., Haydarov, U. S. O., & Kurbonova, S. A. (2022). Harajatlar hisobning zamonaviy usullari. Scientific progress, 3(1), 442-448.



“TISU ilmiy
tadqiqotlari
xabarnomasi”
ilmiy-uslubiy jurnali

<https://scientific.tues.uz>
ISSN 2992-9016

Do'smuxamedova Nozima Xamidullayevna, Termiz iqtisodiyot va servis universiteti
Buxgalteriya va statistika kafedrası o'qituvchisi
Email. nozimadosmuxamedova@gmail.com.

AUDITORLIK XIZMATLARINI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI VA SIFATINI OSHIRISH MASALALARI

Annotatsiya: Ushbu maqolada auditorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi tashkilotlarga litsenziya berish tartibi auditorlarga yaratilgan imkoniyatlar, yoritilgan. Auditorlik xizmatlari sifatini oshirish bo'yicha takliflar ishlab chiqilgan. Auditorlik tashkilotida ishlar sifatini nazorat qilishga talablar va muayyan auditorlik tekshiruvı chogida ishning talab darajasidaligini ta'minlash 5-sonli "Auditor ishining sifatini nazorat qilish" nomli auditorlik standartda aks ettirilganligi, unga muvofiq auditor ishlarining sifatini nazorat qilish shakllari keltirilgan.
Tayanch so'zlar: Audit, auditorlik faoliyati, xalqaro standart, audit sifati, audit standartlari, auditor tashkilotlari, ichki auditor.

ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ АУДИТОРСКИХ УСЛУГ И ВОПРОСЫ ПОВЫШЕНИЯ КАЧЕСТВА

Аннотация. В данной статье освещен порядок выдачи лицензии организациям, осуществляющим аудиторскую деятельность, а также возможности, создаваемые для аудиторов. Разработаны предложения по повышению качества аудиторских услуг. Требования по контролю качества работы в аудиторской организации и обеспечению выполнения работы на требуемом уровне при конкретном аудите отражены в стандарте аудита № 5 «Контроль качества работы аудитора», в соответствии с ним, представлены формы контроля качества работы аудитора.

Ключевые слова: аудит, аудиторская деятельность, международный стандарт, качество аудита, стандарты аудита, аудиторские организации, внутренний аудитор.

PROSPECTS OF THE DEVELOPMENT OF AUDITING SERVICES AND ISSUES OF IMPROVING THE QUALITY

Abstract: In this article, the procedure for issuing a license to organizations engaged in auditing activities, the opportunities created for auditors, are highlighted. Suggestions for improving the quality of audit services have been developed. The requirements to control the quality of work in the auditing organization and ensuring that the work is at the required level during a specific audit are reflected in the audit standard No. 5 "Control of the quality of the auditor's work", in accordance with it, the forms of quality control of the auditor's work are presented.

Key words: Audit, audit activity, international standard, audit quality, audit standards, auditor organizations, internal auditor.
Kirish. Bugungi kunda Respublikamizda 2024-yilning 1-yanvar holatiga ko'ra 99 ta auditorlik tashkiloti faoliyat ko'rsatib kelmoqda. Auditorlar soni 572 kishini tashkil qiladi. Shulardan 19 tasi mahalliy auditorlik tashkiloti yirik xalqaro tarmoq va uyushmalar a'zolari hisoblanadi. Hozirgi kunda yurtimizda ham katta to'rtlik (Big-4) - "Ernst & Young", "PricewaterhouseCoopers", "Deloitte and Touche" va "KRMG" xalqaro auditorlik tashkilotlarining sho'ba jamiyatlari faoliyat yuritib kelmoqda. Buxgalteriya hisobi va auditorlik kasbi, eng mas'uliyatli, shu bilan birgalikda daromadli

kasblarga aylangan. Dunyo miqyosida buxgalteriya hisobi va auditorlik xizmatlaridan foydalanish rivojlanib bormoqda. Xususan, IFAC – Xalqaro buxgalterlar federatsiyasining rasmiy hisobotiga ko'ra, 130 ga yaqin davlatda 175 dan ziyod professional buxgalterlar uyushmasi, 3 milliondan ziyod professional auditor, 100 mingdan ortiq auditorlik tashkiloti mavjud. Birgina Deloitte tashkilotining o'zi 150 ta davlatda 1600 dan ziyod shartnoma asosida auditorlik tekshiruvlarini o'tkazib, 46,2 milliard AQSH dollari miqdoridagi daromadni qayd etdi. Ko'rinib turibdiki, mazkur kasb egalaridan chuqur bilim va ko'nikmalarni zamon talabi darajasida bilishlari zarur. Soha mutaxasislari o'z bilim va malakalarini doimiy ravishda oshirib borishlari kerak. Auditorlik xizmatlarini ko'rsatuvchi auditorlar o'ta sezgir, ma'naviy jihatdan yetuk bo'lishlari lozim. Auditorlik faoliyati buxgalteriya hisoblarini, buxgalteriya hisobi hujatlarini, soliq deklaratsiyalarini va boshqa moliyaviy majburiyatlarini tashqi tekshiruv o'tkazish bo'yicha tadbirkorlik ishi hisoblanadi [4]. Xo'jalik yurituvchi subyekt moliyaviy hisobotining va u bilan bog'liq moliyaviy axborotining auditorlik tekshiruvini tekshiriladigan moliyaviy hisobotning hamda u bilan bog'liq moliyaviy axborotning ishonchliligini va buxgalteriya hisobi to'g'risidagi qonunchilikka muvofiqligini aniqlash maqsadida auditorlik tashkiloti tomonidan o'tkaziladi[3]. Auditorlik xizmati esa ishchilarga ularning faoliyatiga

oid masalalarda ko'mak berishni ifodalaydi.

Tahlil va natijalar. Bugungi kunda mamlakatimizda auditorlik tashkilotlarining, auditorlik qonunida ko'rsatilgan tekshiruvlarini o'tkazish tartibi bayon qilingan. Unga ko'ra manfaatlar to'qnashuvi yuzaga kelishining oldini olishga yo'naltirilgan va audit mustaqilligini ta'minlovchi auditorlik tekshiruvini o'tkazishdagi cheklovlar sanab o'tilgan. Xususan, ketma-ket 7 yildan ko'proq ayni bir xo'jalik yurituvchi subyektning auditorlik tekshiruvini o'tkazishga haqi yo'q. Sohatashkilotlariningmajburiyauditorliktekshiruvini o'tkazishi uchun shtatida kamida ketma-ket 3 yillik uzluksiz ish stajiga yoki xalqaro buxgalter sertifikatiga ega bo'lgan kamida ikki nafar auditor bo'lishi hamda ish sifatini tashqi nazoratdan o'tkazish natijalariga

ko'ra, qonunchilik buzilishi hollari mavjud bo'lmaganda ruxsat berildi. Buxgalteriya hisobi xalqaro standartlariga o'tish jarayonida amaldagi 2000-yilda qabul qilingan qonun, audit bozorida ro'y bergan o'zgarishlar uning to'g'ridan-to'g'ri amal qilish sifatlarini pasaytirib, samarasiz, bugungi kun talablarga to'liq javob bermaydigan" holga kelib qolganligi ko'rishimiz mumkin. Prezidentimiz 2021-yil 25-fevral kuni "Auditorlik faoliyati to'g'risida"gi yangi tahrirdagi qonunni imzoladi. Unga muvofiq, auditorlik faoliyat litsenziyalanadigan faoliyat turlari tarkibidan chiqarildi. Endi ushbu faoliyat faqat auditning xalqaro standartlari asosida amalga oshiriladi. Chunonchi, auditorlik tashkilotlariga litsenziya berish quyidagi yo'nalishlar bo'yicha belgilangan edi:

- tashabbus tarzidagi auditorlik tekshiruvlarini o'tkazish bo'yicha litsenziya;
- majburiy auditorlik tekshiruvlarini o'tkazish bo'yicha litsenziya;
- barcha ho'jalik yurituvchi sub'ektlarni tekshirish bo'yicha litsenziya.

Yangi tahrirdagi qonunga muvofiq auditorlik faoliyatining litsenziyalanadigan faoliyat turlari tarkibidan chiqarilayotganidir.[3] Endilikda auditorlik faoliyati faqat Auditning xalqaro standartlari asosida amalga oshiriladi. Majburiy auditorlik tekshiruvidan o'tishi zarur bo'lgan ijtimoiy ahamiyatga ega tashkilotlar ro'yxati ham shakllantiriladi. Auditorlik faoliyatini litsenziyalarni berish tartibi O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan belgilanganligini keltirib o'tishimizjoiz. Auditorliktekshiruvuning auditning tamoyillariga rioya etilishi uning sifatini ta'minlaydi. Audit sifati - bu auditorning auditorlik amallari va tahliliy hisob-kitoblar asosida xo'jalik faoliyatini aks ettiruvchi buxgalteriya hisobotlari haqidagi holis fikridir. Auditor ishlarining sifatini nazorat qilish audit o'tkazish va professional

xizmat ko'rsatish chog'ida audit standartlari va O'zbekiston Respublikasida auditorlik faoliyatini tartibga soladigan boshqa me'yoriy hujjatlar talablariga rioya qilinishini tekshirish uchun qo'llaniladigan tashkiliy tadbirlar, uslublar va amallar tizimidan iborat. Auditor tekshiruvining sifati aniq belgilangan maqsad, auditorlik tekshiruvining rejasi, auditorning barcha ma'lumotlar bilan ta'minlanganligi, auditor dalillarni olishda audit amallarni qo'llash orqali ta'minlanadi. Sifatni ta'minlash auditorlik tekshiruvining dastlabki bosqichida, ya'ni tekshirilayotgan ob'ekt faoliyatining xususiyatlari, ichki nazorat tizimi bilan tanishish, riskni aniqlash va auditorlik tanlashni asoslash jarayonidan boshlanadi. Auditorlik tashkiloti ichida ishlar sifatini nazorat qilishga talablar va muayyan auditorlik tekshiruvini chog'ida ishning talab darajasidaligini ta'minlash 5-sonli "Auditor ishining sifatini nazorat qilish" nomli AFMSda aks ettirilgan. Unga muvofiq auditor ishlarining sifatini nazorat qilish quyidagi shakllarda amalga oshiriladi:

- Asosiy auditorning o'z yordamchilari ishlarini nazorat qilishi.
- Auditorlik tashkilotining auditor ishi ustidan nazorati.
- Tashqi nazorat.

Xulosa. "Auditorlik xizmatlarini rivojlantirish istiqbollari va sifatini oshirish masalalari" mavzusidagi maqola doirasida amalga oshirgan nazariy tahlillarga asosan quyidagi xulosalarga kelindi: Auditorlik tekshiruvini uslubiyotini takomillashtirish zaruriyati uning sifati bilan bog'liq bo'lib, bunga tashkilotning moliyaviy-iqtisodiy holati to'g'risidagi ishonchli axborotlarni undan foydalanuvchilarga to'liq holicha taqdim etish orqali erishiladi. Auditor ishlarining sifatini nazorat qilish qoidalari va amallarini o'rnatishda auditorlik tashkiloti tomonidan quyidagilar amalga oshirilishi zarur:

- Auditor ishlarining sifatini nazorat qilish qoidalari va usullarini amalga oshirish bo'yicha malakali xizmatchilar o'rtasida vazifalarini taqsimlash;
- Auditor ishlarining sifatini nazorat qilish qoidalari va amallarini xizmatchilar e'tiboriga yetkazish;
- Qoidalar va amallar, ularni qo'llash uslublariga va xizmatchilarga yetkazish amaliyotiga oldingiday mos kelish-kelmasligini aniqlash uchun auditor ishlari sifatini nazorat qilish tizimining samaradorligini tekshirish. Auditor ishlarining sifatini nazorat qilish qoidalari va amallari yozma shaklda ifodalangan bo'lishi shart emas. Ular xodimlarni ishga qabul qilishda og'zaki yetkazilishi va auditorlik tashkilotining umumiy majlisida yilda bir marta takrorlanishi mumkin. Auditorlik xizmatlarini rivojlantirish istiqbollari va sifatini oshirish masalalari mavzusida izlanishim natijasida

quyidagi takliflarni beraman.

- Birinchidan, auditorlik xizmatlarini huquqiy asoslarini takomillashtirish;
- Ikkinchidan, auditorlik tashkilotlarining auditorlik tekshiruvlari va ko'rsatiladigan auditorlik xizmatlarning tarkibi obyektlarini ilmiy jihatdan to'liq asoslash;
- Uchinchidan, BHXS asosida auditorlik xizmatlarini sifatini oshirish maqsadida malakali kadrlar tayyorlash.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi 2020 yil 24 fevraldagi PQ-4611 qarori yurtimizda hisob siyosatida yangi sahifa ochildi.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasining 2021 – 2023 yillarga mo'ljallangan Investitsiya dasturini amalga oshirish chora – tadbirlari
3. O'zbekiston respublikasining qonuni. Auditorlik faoliyati to'g'risida. 5-bob, 32-modda. 2021-yil 5-fevral.
4. Подольский В.И, Поляк Г.Б, Савин А.А и др. Аудит. Учебник. - М.ЮНИТИ-дана, 2000г., с.11-12.
5. Ilhamov Sh. I. Audit darslik 1qism. 2018.
6. <http://www.lex.uz> (O'zbekiston Respublikasi Qonunchilik portali);



KORXONALARDA ICHKI AUDIT XIZMATINI TASHKIL ETISH ASOSLARI

Annotation

Maqolada ichki auditni tashkil qilish, faoliyatini baholash uslubiyatini xalqaro standartlarga muvofiq rivojlantirish shuningdek, uning konsepsiyasini ishlab chiqish masalalari yoritilgan. **Tayanch so'zlar:** ichki audit, ichki audit xizmati, xalqaro standartlar, ichki nazorat, buxgalteriya hisobi, moliyaviy hisobot, baholash konsepsiyasi.

ОРГАНИЗАЦИЯ ВНУТРЕННЕГО АУДИТА В КОМПАНИЯХ

Аннотация. В статье освещены вопросы организации внутреннего аудита, развития методики его оценки в соответствии с международными стандартами, а также разработки его концепции. **Ключевые слова:** внутренний аудит, служба внутреннего аудита, международные стандарты, внутренний контроль, бухгалтерский учет, финансовая отчетность, концепция оценки.

FOUNDATIONS OF INTERNAL AUDIT SERVICE ORGANIZATION IN ENTERPRISES

Abstract. This article is devoted to the development of methodology problems, evaluating and arranging internal audit activities, due to international standards including the concepts has been worked out.

Keywords: internal audit, internal audit service, international standards, internal control, accounting, financial report, evaluation concept.

Kirish. Ichki audit korxonalar moliyaviy-xo'jalik faoliyati samaradorligini oshirish imkoniyatlarini aniqlashning eng qulay vositalaridan biri bo'lib, u, o'z navbatida, korxonaning raqobat jihatdan ustunligini ta'minlashi mumkin. Bizning nazariya va amaliyotimizda nisbatan yangi tushuncha hisoblangan ichki audit g'arb mamlakatlarida XX-asrning boshlarida paydo bo'lgan va ikkinchi jahon urushidan so'ng xo'jalik muomalalari hajmining ortishi va kompaniyalarning markazlashmagan tizimga

o'tishiga javoban rivojlanish uchun kuchli turtki bo'lgan. AQSH ichki auditorlarining kasb tashkiloti 1941-yili Ichki auditorlar instituti sifatida tashkil etilgan. Bu muassasa o'z faoliyatini ichki auditorlarning umumiy kasb manfaatlari, ularning amaliy tajribasini o'rganish va umumlashtirish, kasb mahorati darajasini uzluksiz oshirish dasturi, iqtisodiy kodeks, kasb me'yorlari va sertifikatsiyalash dasturlari zahiriga quradi[1]. Bunday nazorat (o'z-o'zini nazorat qilish) shakli AQSHda o'tgan, XX – asrning 30-yillarida yuzaga kelib, keyinchalik G'arbiy Yevropa va Yaponiyaga tarqalgan[2]. 1941-yilda AQSHda ichki auditor kasbini rivojlantirish va ommalashtirish, kasbiy faoliyat standartlarini ishlab chiqish vazifasini o'z oldiga qo'ygan ichki auditorlar instituti va ichki auditorlar kasbiy uyushmasi tashkil etildi. Hozirgi vaqtda mazkur institut 72 ming nafarga yaqin a'zoga ega bo'lib, 120 ta mamlakatda namoyon etilgan. Umuman olganda esa, jahonda ichki audit bilan bir millionga yaqin kishi u yoki bu darajada shug'ullanadi[3]. Ichki auditni tashkil etish zarurati nimalardan iborat? O'zbekiston Respublikasi Prezidentining

qaroriga muvofiq, 2007-yilning 1-yanvaridan boshlab aktivlarining balans qiymati 1 milliard so'mdan ko'proq bo'lgan korxonalarda kuzatuvchi kengashlar tomonidan tayinlanadigan va ularga hisobot beradigan ichki audit xizmatlari tashkil etilishi belgilandi. Ushbu Qarorni amalga tadbqiq etish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori[5] e'lon qilindi. Ushbu qarorning 2-ilovasi bilan "Korxonalaridagi ichki audit xizmati to'g'risida" Nizom tasdiqlandi. Nizom aktivlarining balans qiymati 1 mlrd. so'mdan ortiq bo'lgan korxonalarda ichki auditni tashkil etishga qo'yiladigan yagona talablarni hamda uning ishini tashkil etishning metodologik asoslarini belgilaydi. Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Audit sohasidagi mutaxassislar tomonidan amalga oshirilgan tadqiqotlar ichki va tashqi auditning farqini, bazan esa ular o'rtasidagi qarama-qarshiliklarni topishga yo'naltirilgan(1-jadval).

"Ichki audit" tushunchasining ta'riflari

1-jadval

№	Mamba	"Ichki audit" tushunchasining ta'rif
1	Alborov R.A. [7]	Ichki audit – bu tashkilotda amalga oshiriladigan tashkilot ishini uning manfaatlarini ko'zlab tekshirish bo'yicha mustaqil faoliyat
2	Suys V.P., Axmetbekov A.N. [8]	Ichki audit – bu tashkilot (korxonada) amalga oshiriladigan tashkilot (korxonada) ishini uning manfaatlarini ko'zlab tekshirish va baholash bo'yicha mustaqil faoliyat
3	Axmadjonov K.B., Yakubov I.I. [9]	Ichki audit – buxgalteriya ma'lumotlarining to'g'ri bo'lishini ta'minlashga va korxonada samarali ichki nazorat tizimini tashkil etishga yo'naltirilgan faoliyat
4	Bjchkova S.M., Itgilova Ye.Yu. [10]	Ichki audit tashkilot rahbariyati tomonidan hisob va boshqa nazorat ma'lumotlarini tahlil qilish maqsadida yaratilgan ichki nazorat tizimining elementini o'zida namoyon etadi.
5	Do'smurodov R. [2]	Ichki auditorlar o'zlarini ishlaydigan korxonalar faoliyatini tekshiradi. Ammo, ular qoidaga ko'ra, korxonada ma'muriyati (direktorlar kengashi) tarkibiga kiradilar
6	Jminko S.I., Shviriyova M.F., Safonova S.A. [11]	Ichki audit – bu tashkilot ichidan amalga oshiriladigan va kompaniya menejerlarida mavjud nazorat tizimi ishonchli va samarali ekanligiga ishonch hosil qilishga yo'naltirilgan tashkilot faoliyatining barcha jihatlarini mustaqil baholash funksiyasi
7	Tulaxodiyeva M.M., Ilhomov Sh. [12]	Ichki audit boshqaruv nazoratining ajralmas va muhim elementi bo'lib hisoblanadi

1-jadvaldan ko'rib turganimizdek,

mutaxassislar tomonidan ajratilgan umumiy belgilar ichki audit quyidagi o'ziga xos xususiyatlarga ega, deb ta'kidlash imkonini beradi: 1) xo'jalik subyekti ichida amalga oshiriladigan mustaqil faoliyat; 2) xo'jalik subyekti ishining samaradorligini baholashga yo'naltirilgan faoliyat. Faqat K.B. Axmadjonov, S.I. Jminko va G.A. Yudina ishlarida berilgan ta'rifda "ichki audit – bu, birinchi galda, xo'jalik ichidagi nazorat", deya ta'kidlanadi. Ichki auditni tashkil etishdan maqsad: "Ichki audit xizmati uning yordamida tashkilot bozorda muvaffaqiyatli raqobatlashishi uchun tashkil etiladi"[19], deb ta'kidlaydi N.V. Parushina. Biroq bunday maqsadni nafaqat ichki audit xizmati, balki tashkilot ma'muriyati ham o'z oldiga qo'yishi mumkin, ya'ni ushbu maqsadni maxsus maqsad, deya e'tirof etib bo'lmaydi. Tadqiqot metodologiyasi. Ichki auditni tashkil etishning alohida qoidalari Qonun hujjatlarida o'z aksini topgan. O'zbekiston Respublikasi korxonalarida ichki auditni tashkil etishda, audit jarayonida ularning faoliyatini baholashda tizimli tahlil va konseptual asoslarining ilmiy metodologik apparatini takomillashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ilmiy maqolada ko'tarilgan muammoni atloflicha tahlil qilish, tahlil natijalarini tizimlashtirish asosida ilmiy asoslangan xulosa va tavsiyalar ishlab chiqishda induksiya va deduksiya, taqqoslash, adabiyotlar sharhi, miqdor va sifat ko'rsatkichlar hisoblash, maqsadli rivojlantirish kabi usullardan foydalanildi. Tahlil va natijalar. Ichki audit xizmati jamiyatning ijroiya organi, vakolatxonalar va filiallari tomonidan qonun hujjatlariga, ta'sis hujjatlariga va boshqa hujjatlarga rioya etilishini, buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobotlarda ma'lumotlarning to'liq hamda to'g'ri aks ettirilishi ta'minlanishini, xo'jalik operatsiyalarini amalga oshirishning belgilangan qoidalari va tartib taomillariga rioya etilishini, aktivlarning saqlanishini, shuningdek jamiyatni boshqarish yuzasidan qonun hujjatlarida belgilangan talablarga rioya etilishini tekshirish va bu borada monitoring olib borish orqali jamiyatning ijroiya organi, vakolatxonalar va filiallari ishini nazorat qiladi hamda baholaydi"[6]. Ichki auditga bo'lgan ehtiyoj yirik korxonalarda rahbariyat quyi boshqaruv tuzilmasining kundalik faoliyatini va umuman korxonada faoliyatini nazorat qilish bilan shug'ullanmaganligida namoyon bo'ladi. Ichki audit ushbu faoliyat haqida axborot beradi va menejerlar axborotining to'g'riligini tasdiqlaydi. Ichki audit asosan resurslar yo'qotilishining oldini

olish va korxonada ichida kerakli o'zgarishlarni amalga oshirish uchun zarur. Jahonda ichki auditga nisbatan qiziqishning ortib borishiga qator omillar sabab bo'ladi. Birinchidan, ichki audit hozirgi sharoitda foydalanish mumkin bo'lgan, lekin ayni paytda yetarlicha baholanmagan kam sonli resurslardan biri hisoblanib, ulardan to'g'ri foydalanish korxonaning samaradorligini oshirishi mumkin. Ikkinchidan, tashqi audit instituti jahonda sodir bo'layotgan moliyaviy iqtisodiy inqiroz, korporativ tortishuv va janjallar, ular oqibatida hatto yirik firmalar ham bankrotga uchrashi mumkin bo'lgan jiddiy xatolarga yo'l qo'yishi mumkin, deb hisoblashga asos beradi. Uchinchidan, kompaniyada hozirda ichki audit uning ajralmas bo'g'inlaridan biriga aylanib borayotgan yaxshi korporativ boshqaruvning yo'lga qo'yilishi potensial investorlar va kreditorlar uchun kompaniyaning investitsion jozibadorligini oshiruvchi ijobiy holat hisoblanadi. Butun jahon bo'ylab aksariyat kompaniyalar turli xildagi resurslar – inson, moliyaviy, moddiy resurslardan samarasiz foydalanishdan, to'g'ri qarorlar qabul qilish uchun axborotning yetishmasligidan, hisobotlarning beixtiyor va qasddan buzib ko'rsatilishidan, xodimlar va boshqaruvchilar tomonidan to'g'ridan-to'g'ri tovlamachiliklardan aziyat chekmoqda. Korxonalarining o'zida ichki auditning samarali tizimini tashkil etish yo'li bilan bunday muammolarning oldini olish mumkin. Chunonchi, "Ichki auditorlar korxonada, tashkilot, firma va kompaniyalarda boshqaruv vazifalarini mustaqil ekspert baholashini o'tkazadilar. Ular boshqaruvni amalga oshirayotgan markazga tahlil, baholash natijalari, o'zlari tekshirayotgan tashkilotning faoliyati to'g'risidagi tavsiyalar, maslahatlar va ma'lumotlarni taqdim etadilar"[1]. Mutaxassislar o'rtasida ichki audit nimani o'zida namoyon etishi, uning maqsadi va funksiyalari nimalardan iboratligi, ichki audit funksiyalari qay tarzda amalga oshirilishi va uning usullari qandayligi haqida yagona fikrga kelinmagan. Ushbu masalalarni kompleks tarzda hal etmasdan turib ichki audit holatini va auditorlik tekshiruv jarayonida undan foydalanish imkoniyatini baholash konsepsiyasini belgilab bo'lmaydi. Turli mualliflarning fikriga ko'ra, ichki auditni tashkil etish maqsadi 2 jadvalda keltirilgan. Ichki auditning maqsadi quyidagilardan iborat:

**Ichki auditni tashkil etishdan ko'zlangan maqsad
2-jadval**

Manba	"Ichki audit" tushunchasining ta'rif
Verenkov A.I. i dr. [20].	Ichki audit xizmati tashkilotni yanada samarali boshqarish maqsadida tashkil etiladi va joriy muammolarni tezkor aniqlash imkonini beradi
Podolskiy V.I. [21]	Ichki auditning maqsadi tashkilot xodimlariga funksiyalarini samarali bajarishga yordam berishdan iborat
Pugachev V.V. [22]	Ichki auditning asosiy maqsadi boshqaruv funksiyalarining samaradorligini oshirish, ma'muriyat va pirovardida mulkdorlar manfaatlarini himoyalashga ko'maklashishdan iborat
Suvs V.P. i dr. [23]	Ichki auditning maqsadi – tashkilot xodimlariga o'z funksiyalarini samarali bajarishga yordam berishdan iborat
Musayev H.N. [14]	Ichki auditning maqsadi korxonada to'liq foydalanilmagan imkoniyatlarni aniqlash, korxonada xodimlarining o'z vazifalarini to'liq bajarishlariga vaqindan yordam berishdan iborat
Cotnikova L.V. [17]	Ichki nazorat (audit)ning maqsadi – korxonaning barcha xodimlari tomonidan tashkilot maqsadlariga muvofiq o'z lavozim majburiyatlarining bajarilishini ta'minlashdan iborat
Prodanova N.A. [15]	Ichki auditning maqsadi – bu tashkilot boshqaruv organlariga ichki nazorat tizimining turli bo'g'inlari ustidan samarali nazoratni amalga oshirishda ko'maklashish

1) xatolarning oldini oluvchi yoki ularni aniqlashga yordam beruvchi samarali ichki nazorat tizimini tashkil etish;
2) ishonchli buxgalteriya hisobotlarini tayyorlash uchun zarur bo'lgan axborotni o'zida namoyon etuvchi tegishli hisob tizimini tashkil etish. Ichki audit maqsadlarining barcha mualliflar tomonidan ajratiladigan o'ziga xos xususiyatlari jumlasiga quyidagilarni kiritish mumkin:
1) korxonani yanada samarali boshqarish;
2) korxonada va uning mulkdorlarini qonuniy manfaatlarini himoyalash;
3) korxonaning joriy maqsadlarini aniqlash va aktivlarining butligini ta'minlash. Barcha ushbu maqsadlar, shubhasiz, ma'lum ma'noga ega, ammo tashqi audit bilan ichki auditning o'zaro hamkorligi nuqtayi nazaridan ular hal qiluvchi ahamiyat kasb etmaydi. Tashqi audit uchun S.M. Bichkova va Ye.Yu. Itigilova tomonidan ajratilgan va buxgalteriyahisobotlarima'lumotlarining to'g'riligini ta'minlashdan iborat bo'lgan maqsad eng muhim hisoblanadi. Muallif tomonidan bir necha marta takrorlangan ichki auditning boshqa maqsadi –

tashkilot xodimlariga o'z funksiyalarini samarali bajarishga yordam berish – tashqi auditning shunga o'xshash maqsadiga mos keladi. Ichki auditorlar xalqaro instituti (Institute of Internal Auditors, AQSH) “Ichki audit tashkilotga xatarlarni boshqarish, nazorat va korporativ boshqaruv jarayonlarini baholash va ular samaradorligini oshirishga nisbatan izchil yondashuvdan foydalangan holda qo'yilgan maqsadlarga erishishga yordam beradi”[21] degan fikrni bildiradi. Ichki auditning eng aniq ta'rifi nizomda “Ichki audit — korxonada boshqaruvning ijro etuvchi organi va tarkibiy bo'linmalari tomonidan O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga, ta'xis hujjatlariga va ichki hujjatlarga rioya qilinishini tekshirish va monitoring olib borish yo'li bilan ular ishini nazorat qilish va baholash, ma'lumotlarning buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobotda aks ettirilishining to'liqliligi va ishonchliligini ta'minlash, xo'jalik operatsiyalarini amalga oshirishning belgilangan qoidalari va taomillari, aktivlarning saqlanishi hamda korporativ boshqarish prinsiplari joriy etilishi bo'yicha korxonada tarkibiy bo'linmasining (ichki audit xizmati) faoliyati”[6] deb e'tirof etilgan. “Korxonalarda ichki audit xizmati to'g'risida”gi Nizomga muvofiq, quyidagilar ichki audit xizmatining asosiy funksiyalari hisoblanadi:

-har yili korxonaning kuzatuvchi kengashi tomonidan tasdiqlanadigan rejaga muvofiq ko'rsatilgan yo'nalishlar bo'yicha tegishli tekshirishlar o'tkazish yo'li bilan ichki auditni amalga oshirish (har chorakda va hisobot yili yakunlari bo'yicha); -tuziladigan xo'jalik shartnomalarining qonun hujjatlariga muvofiqligi yuzasidan ekspertiza o'tkazish; -buxgalteriya hisobini yuritishda va moliyaviy hisobotni tuzishda korxonaning tarkibiy bo'linmalariga metodik yordam berish, ularga moliya, soliq, bank qonunlari va boshqa qonun hujjatlari masalalari bo'yicha maslahatlar berish; -texnik topshiriqlarni ishlab chiqishda, tashqi auditorlik tashkilotlarining takliflarini baholashda hamda auditorlik tekshirishlarini o'tkazish uchun tashqi auditorlik tashkilotini tanlashda tavsiyalarni tayyorlashda korxonaning kuzatuvchi kengashiga ko'maklashish”[6]. “Ichki audit: tashkilot boshqaruvining yuqori bo'g'iniga uning moliyaviy xo'jalik faoliyati haqida axborot beradi; ichki nazorat tizimining samaradorligini oshiradi; uning alohida tarkibiy bo'linmalari hisobotlarining to'g'riligini tasdiqlaydi”[22]. Umuman olganda, ichki audit muayyan bo'linmasining funksiyalari va vazifalari uni tashkil etilgan boshqaruv organini belgilab beradi. Yuqorida sanab o'tilgan funksiyalar ichida tashqi auditorni buxgalteriya hisobi tizimida hisobga

olinadigan va shakllanadigan ishonchli axborotni ta'minlashga yo'naltirilgan funksiyalar, xususan, quyidagilar mutlaq qiziqtiradi: 1) xo'jalik operatsiyalarini amalga oshirishda nazorat amallarining me'yoriy hujjatlarga va ta'xis hujjatlariga mos kelishini tekshirish; 2) aktivlarning mavjudligini, holatini va ularni baholashning to'g'riligini tekshirish; 3) buxgalteriya hisobini tashkil etish, uni yuritish uslubiyoti, texnikasi, buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobotlarning to'g'riligini ekspertiza qilish; 4) moliyaviy natijalarni shakllantirishning aniqligi, daromaddan foydalanish tartibini tekshirish. Ichki audit xizmatining ishidan rejalashtirilayotgan amallar hajmi va xususiyatini o'zgartirish uchun asos sifatida foydalanish to'g'risida qarorlar qabul qilishda ichki auditorlar hisobotlari va birgalikdagi harakatlar rejasi bilan batafsil tanishish masalalari xo'jalik yurituvchi subyekt rahbariyati va ichki audit xizmati bilan kelishilishi kerak. Ichki auditorlarning tashqi auditor tomonidan foydalaniladigan muayyan ishining mazmuni va hajmi auditorlik xatariga, ko'rib chiqilayotgan tekshiruv obyektining ahamiyatiga va ichki audit xizmatining dastlabki bahosiga bog'liq. **Xulosa va takliflar.** Ham tashqi, ham ichki audit korxonada qabul qilinadigan ichki nazorat tizimining samaradorligini

baholashga yo'naltirilgan va shu nuqtayi nazardan ularning vazifalari to'liq mos keladi. Ichki auditorlar ishidan foydalanish imkoniyatini aniqlashda tashqi auditorlar ichki nazorat holatini baholash uslublarining mos kelishini tekshirishlari kerak. Aynan shuning uchun alohida ajratilgan bo'linmalar tarmog'iga ega bo'lgan xo'jalik yurituvchi subyektlar ichki nazorat tizimini baholash uslublarini ko'rib chiqishda muallif tekshirilayotgan xo'jalik yurituvchi subyektda ichki audit xizmati tashkil etilgan yoki tashkil etilmaganligiga e'tibor qaratmaydi. U ichki yoki tashqi auditor bo'lishidan qat'i nazar tekshiruvchining harakatlari bayon etilayotgan ichki audit xizmatini o'rganish uslubiga mos kelishi kerak. Tekshiruvning muayyan ijrochisi (ichki audit, tashqi audit yoki ikkalasi birgalikda) "Ichki audit xizmatining tashkil etilganligini tekshirish" bosqichi bajarilganidan so'ng belgilanadi va rasmiylashtiriladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Tulaxodjayeva M.M. O'zbekiston Respublikasida moliyaviy nazorat tizimi. Monografiya. – T.: Iqtisodiyot va huquq dunyosi, 1998. 56 b.
2. Do'smurodov R. Audit asoslari. Darslik. – T.: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2003. 41 b.
3. Сонин А. / Внутренний аудит сегодня: и снова о рисках. Источник: www.гаап.ру. Журнал «Аксионерной общество: вопросы корпоративного управления» №1-2010.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006-yil 27-sentyabrdagi «Qimmatli qog'ozlar bozorini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida» gi PQ-475-son qarori.
5. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2006-yil 16-oktyabrdagi "Ustav fondida davlat ulushi bo'lgan korxonalarining samarali boshqarilishini va davlat mulkining zarur darajada hisobga olinishini ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida" gi 215-son qarori.

6. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2006-yil 16-oktyabrdagi 215-son qaroriga 2-ilova "Korxonalaridagi ichki audit xizmati to'g'risida" Nizom. 4 band.
7. Алборов Р.А. Аудит в организациях промышленности, торговли и АПК. Изд-е 2 йе, перераб. И доп. – М.: Дело и Сервис, 2000.
8. Суйс В.П., Ахметбеков А.Н., Дубровина Т.А. Аудит: общий, банковский, страховой. Учебник. – М.: Инфра, 2002.
9. Ахмаджонов К.В, Якубов И.И. Audit asoslari. Darslik. – T.: Iqtisod-moliya, 2009. 186 – b.
10. Бычкова С.М., Итыгилова Йе.Ю. Аудит. – М.: Магистр, 2009. – С.33. (463 стр.)
11. Жминко С.И., Швырёва, М.Ф. Сафонова О.И. Внутренний аудит. – Ростов н/Д: Феникс, 2008. – 17с. (316).
12. Tulaxodjayeva M.M., Ilhomov Sh.I. Audit. O'quv qo'llanma. – T.: O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi adabiyot jamg'armasi nashriyoti, 2005. 22-b
13. Karimov N.F. Tijorat banklarida ichki audit. Monografiya. – T.: Fan, 2006. 80 b.
14. Musayev H.N. Audit. Darslik. – T.: Moliya, 2003. 31-b.
15. Проданова Н.А. Внутренний аудит, контроль и ревизия. – М.: Налог Инфо, 2006. – 42 стр. (292с.)
16. Сиротенко Е.А. Внутрифирменные стандарты аудита: Учебное пособие. – 3-йе изд. перераб. – М.: КНОРУС, 2007. – с.168 (240).
17. Сотникова Л.В. Внутренний контроль и аудит. Учебник / ВЗФЕИ. – М.: ЗАО "Финстат-информ", 2000. – 218 с. (329 с.)
18. Юдина Г.А. Черных М.Н. Основы аудита. Учебн. Пособийе. – М.: КНОРУС, 2009. – 352с.
19. Парушина Н.В., Суворова С.П. Аудит. Учебник. М.: ИД "ФОРУМ": ИНФРА-М, 2008. – 288с.
20. Веренков А.И., Гапоник А.И., Шафронская ГГ. Исползование внутреннего аудита для селей внешнего аудита. // Аудиторские ведомости, № 8, 2001.
21. Поляк Г.Б., Савин А.А., Сотникова Д.В. и др. Аудит: Учебник для ВУЗов/В.И.Подолский, Под ред. проф. Подолского В.И. 4-йе изд., перераб. и доп. – М.: ИУНИТИ, 2008.
22. Пугачев В.В. Внутренний аудит и контроль. Учебник. – М.: Дело и Сервис, 2010.
23. Суйс В.П., Ахметбеков А.Н., Дубровина Т.А. Аудит: общий, банковский, страховой. – М.: ИНФРА-М., 2002.
24. Макальская А.К. Внутренний аудит. – М.: Дело и сервис, 2001. – С. 3.



KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISH VA AHOLI BANDLIGINI TA'MINLASHDA TADBIRKORLIK FAOLIYATINING O'RNI

Annotatsiya. Maqolada milliy iqtisodiyotning asosiy ko'rsatkichlaridan kambag'allikni qisqartirish, ishsizlikni kamaytirish, bandlikni va aholi faravonligini oshirish masalalari, ushbu muammolarni yechishda tadbirkorlikning ahamiyati statistik tahlillar asosida tahlil etilib, tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish orqali aholi farovonligiga erishish yuzasidan takliflar keltirilgan.

Tayanch so'zlar: kambag'allik, ishsizlik, bandlik, aholi faravonligi, tadbirkorlik faoliyati.

РОЛЬ ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ В СОКРАЩЕНИИ БЕДНОСТИ И ОБЕСПЕЧЕНИИ ЗАНЯТОСТИ НАСЕЛЕНИЯ

Аннотация. В статье анализируются основные показатели национальной экономики по вопросам сокращения бедности, сокращения безработицы, повышения занятости и благосостояния населения, значение предпринимательства в решении этих проблем на основе статистического анализа, даются предложения по достижению благосостояния населения путем развития предпринимательской деятельности.

Ключевые слова: бедность, безработица, занятость, благосостояние населения, предпринимательская деятельность.

THE ROLE OF ENTREPRENEURSHIP IN POVERTY REDUCTION AND EMPLOYMENT

Abstract. The article analyzes the main indicators of the national economy on reducing poverty, reducing unemployment, increasing employment and well-being of the population, the importance of entrepreneurship in solving these problems based on statistical analysis, and provides proposals for achieving the well-being of the population through the development

of entrepreneurial activity.

Keywords: poverty, unemployment, employment, welfare of the population, entrepreneurial activity.

Kirish. Bozor iqtisodiyoti sharoitida milliy iqtisodiyotni taraqqiy etishi ko'p jihatdan kambag'allikni qisqartirish va aholi bandligi darajasiga bog'liqligi rivojlangan davlatlar tajribasidan ma'lum. Aholi bandligini ta'minlashning bir qancha yo'nalishlari mavjud bo'lib, ulardan biri aholining o'zini o'zi ish bilan band qilishdan tajribasidir. Ushbu faoliyatning qulayligi o'ziga o'zi ish o'rnini ochib olgan shaxs, ya'ni tadbirkor hech kimga tobe bo'lmaydi, o'zini o'zi boshqaradi, ya'ni belgilangan maqsad asosida reja tuzadi va uni o'zi ijro qiladi. Shu bilan birgalikda, daromad olishni ko'paytirish uchun o'z faoliyatini kengaytirs va boshqalarni ham ish bilan ta'minlasa, mamlakat milliy iqtisodiyotidagi ishsizlik va kambag'allikni qisqartiradi, aholi farovonligini oshiradi. Ushbu masala

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yilning 8-iyunida qabul qilingan "Tadbirkorlik faoliyati va o'zini o'zi band qilishni davlat tomonidan tartibga solishni soddalashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4742-sonli qarorida ko'rsatib o'tilganligi ham ushbu masalaning mamlakatimiz ijtimoiy-iqtisodiy hayotimizdagi ahamiyati ayniqsa so'nggi yillarda yuqori ekanligini ko'rsatmoqda. Shuningdek, 2023-yil 12-iyunda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Kambag'allikni qisqartirishda tadbirkorlik subyektlari bilan o'zaro manfaatli hamkorlik o'rnatishga qaratilgan chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-93-sonli farmoni e'lon qilindi. Ushbu qaror va farmonlardan ko'rinib turibdiki, mazkur sohani rivojlantirish mamlakatimiz iqtisodiy-ijtimoiy hayotida muhim ahamiyat kasb etadigan obyektiv zaruriyatga aylanmoqda. Bu holat mazkur mavzuning dolzarbliginiham belgilaydi. Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Aholining bandligini ta'minlashga va daromadlarini oshirishga ta'sir etuvchi omillar, o'zini o'zi band qilishning ahamiyati borasida bir qancha horijiy olimlar ilmiy izlanishlar olib borishgan, jumladan D.M.Keyns [1], J.Schumpeter [2], V.Oyken [3], E.Devid [4], L.Debra [4], L.Abalkin [5], B.Petrov [5], A.Ivanov [5], kabilar bo'lsa, mamlakatimiz olimlaridan ushbu yo'nalishda Q.Abduraxmanov [7], N.Xusanov [7], Sh.Xolmo'minov [8], R.Saidov [8], U.Gofurov [9] kabilar ham tadqiqot olib borganlar. Tadqiqot metodologiyasi. Maqolada kambag'allikni qisqartirish, aholi bandligi va daromadlarini oshirishga oid yetakchi xorijiy va mahalliy iqtisodchi olimlarning tadqiqot natijalarini o'rganish hamda statistika ma'lumotlarini taqqoslash, iqtisodiy tahlil qilish kabi usullardan foydalanilgan. Tahlil va natijalar. Iqtisodiy integratsiya tobora rivojlanib borayotgan XXI asrda barcha mamlakarlarda oldida, birinchi navbatda milliy iqtisodiyot ravnaqini ta'minlash uchun asosiy masalalardan biri sifatida kambag'allikni qisqartirish, bandlikni va aholi favonligini oshirish muammosi turibdi. Kambag'allik – bu hayot uchun muhim bo'lgan, eng zarur minimal ehtiyojlarni qondira olmaydigan, ishga layoqatli bo'lib, o'zihohlagan ishlarni davom ettirishi mumkin bo'lmagan shaxsdir. BMT ma'lumotlariga asosan 2023-yilda butun dunyoda 700 million kishi kambag'allikda

kun ko'rishmoqda, bu ko'rsatkich 1990-yilda dunyo aholisining 36 foizini tashkil etgan [12]. Kambag'allikni qisqartirish uchun ishsizlik darajasini qisqartirishimiz, ya'ni bandlik darajasini oshirish orqali amalga oshiriladi. Bandlik – bu aholining ish bilan taminlanishi va iqtisodiy faoliyatda ishtirok etishini anglatadi. Bandlik darajasi mamlakat iqtisodiyoti, ish o'rinlari miqdori, ta'lim va malaka darajasiga bog'liq. Ushbu ta'rifdan ko'rinib turibdiki, yangi ish o'rinlarining yaratilishi orqali iqtisodiyotda bandlikni oshirishga erishish mumkin. Qaysi faoliyat turlari orqali mamlakatimiz hududlarida bandlik masalasini hal etilayotgani 1-jadval ma'lumotlarida o'z ifodasini topgan. Ushbu ma'lumotda bandlikni ta'minlashdagi asosiy hissa kichik tadbirkorlik faoliyatiga to'g'ri kelganligi ushbu soha mohiyatini chuqurroq o'rganish va tahlil etish masalasini yuzaga keltirmoqda. Davlatimiz qonunchiligi nuqtai nazaridan-tadbirkorlik (tadbirkorlik faoliyati) - qonun hujjatlariga muvofiq daromad (foyda) olishga qaratilgan, yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan mahsulot ishlab chiqarish (ishlarni bajarish, xizmatlar ko'rsatish) yo'li bilan tavakkal qilib va o'z mulkiy javobgarligi ostida amalga oshiriladigan tashabbuskor faoliyat [13]. Soddaroq qilib tushuntirilganda esa tadbirkorlik bu foyda olishga qaratilgan faoliyat. Iqtisodiy nuqtai nazaridan olib qaralganda tadbirkorlik faoliyati mulkiy javobgarlikni o'z zimmasiga olib, tavakkalchilik qilib, daromad oladi va ushbu daromadni yanada oshirish maqsadida, o'z biznesini

kengaytirishga harakat qiladi, bozorni tovar va xizmatlar bilan to'yintirish orqali bozor barqarorligiga erishiladi, resurslar taqsimotida eng optimal variantni tanlaydi, eng muhimi aholi bandligi va farovonligini oshirish orqali faoliyat yuritayotgan hududlarda kambag'allikni qisqartirishga o'zining ijobiy ta'sirini ko'rsatadi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining jami bandlikdagi ulushi (foizda) [15]

1-jadval


Klassifikator	2017	2018	2019	2020	2021	2022	2023
O'zbekiston Respublikasi	78	76,3	76,2	74,5	74,5	73,9	74,1
O'raqalpog'iston Respublikasi	75,1	75,6	74,9	74,2	74,2	74,1	74,8
Andijon viloyati	84,2	81,7	82,1	80,8	80,7	80,2	81
Buxoro viloyati	78,5	76,5	76,1	74,9	74,2	74,3	74,3
Jizzax viloyati	80,9	79	79,7	78,4	78,8	77,3	77
Qashqadaryo viloyati	80	79	78,5	78,1	78,5	78,2	77,5
Navoiy viloyati	59,3	56,2	55	51,9	52,3	51,1	51,4
Namangan viloyati	83,5	83	82,8	81,6	82,2	81	80,6
Samarqand viloyati	84,5	83,1	82,8	81,7	81,5	80,9	81,3
Surxondaryo viloyati	80,9	79,4	79,6	78,2	78,4	76,9	77,2
Sirdaryo viloyati	78,8	77,4	76,4	74,5	74,4	72,9	72,4
Toshkent viloyati	75,1	73,2	72,8	70,8	69,8	70	70,3
Farg'ona viloyati	80,6	78,9	79,4	78,4	78,5	78,7	79,3
Xorazm viloyati	82,2	80,6	80,4	79,3	79,1	78,1	79,4
Toshkent shahri	56,7	53,1	53,7	49,7	50,2	50	49,7

Keltirilgan ushbu 1-jadvalda ko'rsatilgan so'nggi yetti yillik statistik ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, respublika miqyosida jami bandlikning yetmish foizidan ortig'ni aynan tadbirkorlik subyektlari tomonidan ta'minlanib turibdi. Mamlakatimiz poytaxti Toshkent shahridagina bandlikni ta'minlashdagi tadbirkorlikning ulushu boshqa hududlarga nisbatan ancha kam, ya'ni ellik foiz atrofida bo'lib, bu asosan ushbu hududda respublikamizdagi barcha sohalar boshqaruvini amalga oshiruvchi davlat administrativ muassasalari joylashganligi, ularda ishlovchi ishchilar salmog'i yuqori darajada ekanligi bilan izohlanadi. Shu bilan birgalikda qolgan viloyatlardan Toshkent shahri kabi keskin ajralib turgan Navoiy shahrida esa yirik sanoat korxonalarini joylashganligi hamda viloyat aholisining soni boshqa viloyatlarga nisbatan

formatini internet orqali tarqatishda mavqeyini saqlashga harakat qilmoqda. Umuman, matbuot internet orqali yanada raqobatlashish yo'liga o'tdi. Jahondagi rivojlangan davlatlar ilmiy markazlarida matbuotning insoniyat ma'naviy hayotidagi o'рни bo'yicha ko'plab tadqiqotlar amalga oshirilmoqda. Chunki ommaviy axborot vositalari jamoatchilik fikrini shakllantirishning o'ziga xos ta'sirchan mexanizmi hisoblanadi. Ayni vaqtda auditoriya qaysi ommaviy axborot vositasi shakliga ko'proq murojaat qilmoqda, fuqarolarni qanday yo'nalishdagi ma'lumotlar qiziqtiradi, yosh darajasi va jinsi bo'yicha ma'lumotlarga bo'lgan ehtiyojlar oqimi nimalardan iborat, degan savollar asosida ijtimoiy fikr tahlili amalga oshirilmoqda. Yirik sotsiologik markazlar ommaviy axborot vositalari, xususan, matbuot auditoriyasi bo'yicha yillik munosabatni e'lon qilib bormoqda. O'zbekistonda matbuotning alohida o'рни bor. XIX asrning oxirida matbuot orqali jadid ma'rifatparvarlari insonlarning ma'naviy saviyasini oshirishga, jahondagi yangiliklardan xabardor qilishga harakat qilgan va asosiy targ'ibot vositalaridan biri bo'lgan. Milliy matbuot tarixi aynan jadidlarning faoliyati bilan bog'liq. Ularning sa'y-harakatlari bilan o'nlab matbuot nashrlari tashkil etilgan. Sovet hokimiyati yillarida matbuot hukmron mafkura targ'ibotchisiga aylantirildi. Mustaqillik yillarida matbuot erkin rivojlana boshladi. Shu bilan birga, bozor iqtisodiyoti talablarigamoslashishigaham to'g'rikeldi. Jahondagi tendensiyalarga mos ravishda respublikadagi gazetalar internet tarmog'idagi elektron vositalar bilan raqobatlashishiga ham to'g'ri keldi. Ushbu tadqiqotning amalga oshirilishi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 27-iyundagi PQ-4366-son "Ommaviy axborot vositalari mustaqilligini ta'minlash hamda davlat organlari va tashkilotlari axborot xizmatlari faoliyatini rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori, 2022-yil 27-iyundagi PQ-294-son "Ommaviy axborot vositalarini qo'llab-quvvatlash va jurnalistika sohasini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori [1; 8-b.

], 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga muayyan darajada xizmat qiladi. **Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** XIX asr oxiri XX asr boshlari hamda mustaqillik yillarida O'zbekistonda gazetalarning tarixi N.Abduazimova,

S.Shadmanovalar tomonidan tadqiq etilgan [2; 73-83 b.]. Maqolani yozishda S.Tursunov, E.Qobilov, B.Murtazoyev, T.Pardayevlarning tadqiqotlari, "Ilg'or Surxon uchun", "Surxon tongi", "Заря Сурхана", "Chag'oniyon", "Sariosiyo", "Qumqo'rg'on sadosi", "Mehnat zafari" kabi davriy matbuot nashrlaridan foydalanildi. Jurnalistika tarixiga oid ma'lumotlar Beruniy Alimovning ilmiy tadqiqotlarida ham yoritilgan. **Tadqiqot metodologiyasi.** Maqola umum qabul qilingan tarixiy metodlar-tarixiylik, ketma-ketlik, qiyosiy-mantiqiy tahlil, xolislik tamoyillari asosida yoritilgan. Tahlil va natijalar. Tarixga nazar tashlasak, O'zbekiston vaqtli matbuotiga ilk tamal toshi 1870-yilda qo'yilgan. Chunki shu yili 28-aprel (yangi taqvim bo'yicha 10-may) kuni Toshkentda "Туркестанские ведомости" gazetasining birinchi soni bosmadan chiqdi. Ahamiyatli tomoni shundaki, kishilik jamiyati taraqqiyotidagi ushbu olamshumul voqea birgina O'zbekiston emas, balki Markaziy Osiyo mintaqasi vaqtli matbuotida ilk qadam sifatida tarixga muhrlandi. Negaki, hozirgi kunda iqtisodiy jihatdan ancha taraqqiy etgan Yaponiyada ham "Tokio Nichi Nichi Shimbun (東京日日新聞) nomli ilk gazeta bu voqeadan 2 yil o'tib, 1872 yilning 21 fevralidan nashr etila boshlangan bo'lsa, Koreyada esa 13 yildan keyin



1883-yilning 31-oktyabr kundan birinchi milliy gazetasi “Xansonsunbo” (한성순보) nashr qilina boshlangan. Mana shuning uchun ham milliy jurnalistikamiz tarixini o'rganish, uni har tomonlama tadqiq qilish, kerak bo'lsa, undan saboq olish muhim ahamiyat kasb etadi. Vaholanki, unda ma'naviyatimiz, ma'rifatimiz yaqqol namoyon bo'ladi. Ommaviy axborot vositalari jamoatchilik fikrini shakllantirishning ta'sirchan mexanizmi sanaladi. Sir emaski, dastlab, matbuotimiz chor Rossiyasiga xizmat qildi. Keyingi yillarda esa u o'ziga xos milliy va ma'rifiy ruhiyat kasb etib bordi. Sho'rolar hukumat tepasiga kelgach vaziyat salbiy tomonga o'zgardi. Ikkinchi jahon urushi yillarida bevosita front hayotini yoritdi. Stalin davrida umuman tanazzulga uchradi. Keyingi sovetlar zamonida eng mashaqqatli davrni boshdan kechirdi. Biroq mustaqillik yillarida kelib, matbuotimiz, umuman, jurnalistikamiz o'ziga xos qiyofaga ega bo'ldi. Bugungi kunga kelib uning ko'lamdorligi yanayam kengaydi. Aytish mumkinki, milliy jurnalistika tarixida aynan Surxondaryo viloyati jurnalistikasining o'ziga xos tarixi bor. Bu tarix 1932 yilga borib taqaladi. Shulardan biri voha hayoti ko'zgisiga aylangan “Surxon tongi” nomli bosh gazetadir. “Surxon tongi” gazetasi O'zbekiston KP(b) viloyat okrujkomi tashkiliy byurosining 1935 yil 15 martdagi qaroriga ko'ra Termiz tumanining 1932 yil aprelidan chiqib kelayotgan “Qizil chegara” gazetasi viloyat okrujkomi, okrug ijroqo'mi, okrug kasabalar kengashi, O'zKP(b) Termiz raykomi va rayijroqo'mining nashriga aylantirilib, 1935 yil 18

martdan boshlab “Ilg'or Surxon uchun” nomi ostida chop etila boshladi. Gazetaning ilk sonidagi “Ilg'or Surxon uchun” sarlavhali bosh maqolasida “Yaqinda Termiz shahar partiya, sovet faollarining yig'ilishida maruza qilgan o'rtoq Fayzulla Xo'jayev Surxondaryoni qoloqlikdan ilg'orlikka aylantirishning rejasini chizib bergan edi. U kishi aytdiki, Surxondaryoni ilg'or qilish kerak. Surxondaryo okrug partiya qo'mitasi ham o'zining organi - gazetasining nomini “Ilg'or Surxon uchun” deb atashga qaror qildi. Shubha yo'qki “Ilg'or Surxon uchun” gazetasi o'z vazifasini ado qilajak va o'z nomini oqlajak”. Dastlabki davrda gazeta kichik formatda haftasiga uch marta 500 nusxada (1993 yilga kelib 62 ming nusxaga) bosib chiqarila boshlandi. Uning birinchi mas'ul muharriri taniqli tarjimon va jurnalist Rustam Abdurahmonov edi. Harflar qo'l bilan bittama-bitta terilgan o'sha og'ir sharoitda fidokorona mehnat qilgan keyingi masul muharrirlar Zokir To'raxonov, Mamarayim Qo'chqorov, Husan Umarov, Halim Boqiev, Yusuf Sulaymonovlarni, iqtidorli jurnalistlar Abdurahmon Rahmatullaev, Olim Nosirov, Narzulla Safarov, Abdulla Sharipov, Akram Qodiriy, Ahmad Tillaev, Halil Zufarov, Nur Davxonov, Qodir G'ulomov, Nishon Qosimov, Tursun G'ofurov, Quvondiq Jo'rayev, Bo'ri Ahmedov, Nurulla Murodov, O'roz Ermonov hamda Zoir Mullajonovlarning ism-shariflarini hurmat ehtirom bilan tilga olsa arziydi. Gazeta tashkil etilgan davridan boshlab voha mehnatkashlarining yutuqlari va kamchiliklarini aks ettiruvchi, ularga bevosita yordam beruvchi ko'makchisiga aylandi. Unda tarixiy asarlar, mumtoz adabiyotimiz vakillari, respublika va voha qalamkashlari ijodidan namunalar berib borilar, xalq talimi va madaniyati sohasidagi yangilik va o'zgarishlarni keng yoritishga etibor qaratdi. Gazeta ayniqsa ikkinchi jahon urushi yillarida va urushdan keyingi xalq xo'jaligini tiklash davrida voha ahlining manaviy ko'makchisi, uni front va front orti voqealaridan xabardor qilib boruvchi, tiklanish yillaridagi og'ir sharoitda olib borilgan ulug'vor ezgu ishlarining jarchisi va manaviy ilhomchisi sifatida maydonga chiqdi. Surxon vohasi tumanlari bo'yicha gazetalardan Termiz tumanining “Uchqizil tongi” (dastlab “Qizil chegara”) 1932-yilda, Boysun tumanining “Boysun ovozi” 1932-yildan, Sherobod tumanining “Sherobod” 1932-yildan. Denov tumanining “Chag'oniyon”, Jarqo'rg'on tumanining “Chegara zarbdori” (birinchi



muharriri Orifjonov (1932-1935 yy.) 1932 yildan, Sho'rchi tumanining "Yangi hayot" 1936 yildan, Angor tumanining "Ilg'or" 1954-yildan, Muzrabot tumanining "Mehnat zafari" 1969-yildan, Qiziriq tumanining "Qiziriq tongi" 1975-yildan, Qumqo'rg'on tumanining "Mehnat sharafi" ("Qumqo'rg'on sadosi") 1978-yildan, Oltinsoy tumanining "Oltinsoy tongi" 1986-yildan, Uzun tumanining "Bobotog' tongi" 1991-yildan, Sariosiyo tumanining "Sariosiyo haqiqati" 1932-yildan nashr qilib kelinmoqda. 1-b.] Bugungi kunda viloyat nashri bo'lgan "Surxon tongi," "Заря Сурхана" "Sadoi Surxon" hamda tumanlarda nashr etilib kelinayotgan gazetalar o'zining o'qishlilik, ta'sirchan va mazmunli tarzda chiqishida voha jurnalistlari, adiblar va jamoatchi muxbirlarning xizmati katta bo'lmoqda. Ular tomonidan gazetalarda elon qilinayotgan turli xil maqolalar, ocherklar, feleyton, reportaj va publitsistikaning boshqa janrlaridagi materiallar, she'r va hikoyalar gazetalarning mushtariylari tomonidan sevib o'qib kelinmoqda.

Xulosa. Ma'naviyat bilan bog'liq yumushlar bir-biri bilan ichki mantiq orqali bog'langan. Agar bir zanjir zaiflashsa yoki uzilsa, oldinga ketib bo'lmaydi. Mahalliy hayotni ishonchli va teran yoritadigan matbuot esa bardavomlik va uzviylikni ta'minlaydigan muhim bir vositadir. Surxondaryo matbuoti tarixidagi davriy nashrlar ham ayni ushbu vazifani o'tagan. Negaki ommaviy matbuot har qanday davrda axborotning keng ravishda tarqalishini va bu orqali odamlarni axborotga bo'lgan ehtiyojini

qondirgan, ularni savodxon va ma'naviyatli bo'lishi uchun xizmat qilgan. Jurnalistika aslida yangiliklar qidiruvchisidir. Tajriba va tarix esa bu yangiliklarni elagidan o'tkazib, eng keraklilarini zaxirada saqlab qoladi va insoniyat foydasi uchun ishlatadi. Qolaversa, ommaviy axborot vositalari davlat va xalq o'rtasidagi ko'prik vazifasini bajaradi. Shu ma'noda Surxondaryo jurnalistikasi tarixini o'rganish bizga o'sha davr ruhini yaxshiroq his qilishga va jamiyatdagi vaziyat, siyosat, odamlarning yashash tarzi, siyosat, madaniyat va boshqa sohalardagi holatlar haqida aniq ma'lumot beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Qodirov B. Professor-o'qituvchilarning XXV ilmiy-nazariy konferensiyasida tinglanadigan maruzalar bayoni. Termiz, 1993 yil. 123 b.
2. S. Tursunov, E. Qobilov, B. Murtazoyev, T. Pardayev. "Surxondaryo tarixi".
3. "Ilg'or Surxon uchun" gazetasi. 1935 yil, 18-mart.
4. Заря Сурхана. 30 августа. 2019 г. №14.
5. Sariosiyo. 2017 yil. 29 aprel. 17-son.
6. Surxon tongi. 2005 yil. 23 noyabr. 48-son.
7. Chag'oniyon gazetasi. 2007 yil. 12 oktyabr. 41-son.
8. Qumqo'rg'on sadosi. 2017 yil. 29 dekabr. 26-son.
9. Qozoqboyev T. Xudoyqulov M. "Jurnalistikaga kirish". 2003.
10. Abduazimova N.A. "Turkiston jurnalistikasi tarixi" 2001.
11. Ирназаров К.Т. Маматова Я.М. Информасия в печати. Т, 2000.
12. Муминов Ф.И. История Журналистики Узбекистана: Текс лекций Т: УзМУ, 2000.
13. Xudoyqulov M. Jurnalistikaning bosh tamoyillari// Jamiyat va boshqaruv. 2005 1-son.
14. Alimov B. "O'zbekiston jurnalistikasi: 150 yillik tarixga nazar" ilmiy maqolasi. Ўзбекистон журналистикаси: 150 йиллик тарихга назар - UzAnalytics
15. Эрназаров Т., Акбаров А. История печати Туркестана. - Ташкент: Ўқитувчи, 1976;
16. Shadmanova S. Turkiston tarixi davr matbuotida (XIX asrning oxiri XX asr boshlari)// O'zbekiston tarixi manbaashunoslik masalalari. - T.: 2010. - B. 73-83;



ОСОБЕННОСТИ ЗАМЕНЫ ТАБУ В ПРОЦЕССЕ ЭВФЕМИЗАЦИИ РЕЧИ ПРИ ПРЕПОДАВАНИИ РУССКОГО ЯЗЫКА

Аннотация. В данной статье основной целью является изучить особенности замены табуированной лексики в процессе эвфемизации речи при преподавании русского языка студентам, говорящим на узбекском языке.

Ключевые слова: эвфемия, эвфемизм, русский язык, преподавание, лексика, речь, форма выражения.

THE PECULIARITIES OF TABOO REPLACEMENT IN THE EUPHEMIZATION OF SPEECH IN RUSSIAN LANGUAGE TEACHING

Annotation. In this article, the main purpose is to study the features of replacing taboo vocabulary in the process of euphemizing speech when teaching Russian to Uzbek-speaking students.

Key words: euphemia, euphemism, Russian language, teaching, vocabulary, speech, form of expression.

RUS TILINI O‘QITISHDA NUTQ EVFEMIZATSIYASI JARAYONIDA TABUNI ALMASHTIRISHNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Annotatsiya. Ushbu maqolada asosiy maqsad o‘zbek tilida so‘zlashuvchi talabalarga rus tilini o‘qitishda nutq evfemizatsiyasi jarayonida tabuiy leksikani almashtirish xususiyatlarini o‘rganishdan iborat.

Tayanch so‘zlar: evfemiya, evfemizm, rus tili, o‘qitish, leksika, nutq, ifodalash shakli.

Введение. Эвфемизация речи является важным лингвистическим явлением в лексической системе языка. Этот процесс представляет собой постоянную замену одних наименований на другие,

основанную на регулярной оценке и переоценке форм выражения, что связано с желанием добиться успешной коммуникации.

Основная часть. Цель обучения русскому языку как языку межнационального общения заключается в развитии у студентов речевых навыков, основой которых является лексика изучаемого языка. Студенты, обучающиеся на узбекском языке, должны уметь понимать слова и выражения в разных аспектах речевой компетенции, а также использовать правильные, красивый и выразительные лексико-семантически ассоциации, учитывая контекст. Изучая русский язык в вузе, студенты должны стать полноправными участниками межкультурной коммуникации с носителями русского языка. Для этого недостаточно иметь лишь базовые знания литературного русского языка; важно также включить в процесс обучения студентов специфическую лексику. Обучение студентов специфическим пластам лексики русского языка способствует развитию и формированию коммуникативной компетенции. Ранее такие составляющие лексики, в основном фразеологизмы и жаргонизмы, часто становились темой научных статей преподавателей



русского языка в узбекских аудиториях. Лишь в некоторых пособиях по русскому языку для студентов с государственным языком обучения, в Узбекистане предполагается изучение специфической лексики. В большинстве своем, это учебные материалы, направленные на профессионально-ориентированное обучение групп студентов, например, технического профиля или для студентов направления естественных наук. Эвфемистические единицы как составляющие специфический пласт лексики русского языка пока не рассматривались в аспекте преподавания русского языка в узбекской аудитории, так как долгое время проблема эвфемии находилась под негласным запретом, как в русистике, так и в лингвистике узбекского языка [4]. На наш взгляд, изучение эвфемизмов является важной составляющей в курсе обучения русскому языку в иноязычной аудитории, так как данный процесс способствует формированию у студентов системного представления о русском языке. Без навыка интерпретации эвфемизмов, студент, обучающийся на узбекском языке не сможет стать равноправным участником коммуникации с носителем изучаемого языка, что является конечной целью обучения русскому языку как языку межнационального общения. Данные единицы необходимо уметь распознавать и употреблять, чтобы избежать конфликта и не подвергнуться чужому влиянию. На сегодняшний день эвфемистические выражения используются во всех общественно значимых сферах жизни человека [1, с. 17]. В устной и письменной речи эвфемизмы выполняют очень важные функции: помогают избежать конфликта в общении, скрывают неприятные явления действительности,

заменяют прямые наименования из боязни эпатировать окружающих, повышают престиж непопулярных организаций и профессий, маскируют подлинную сущность обозначаемого. Эвфемизмы – явление неоднозначное, вызывающее споры среди ученых по поводу их трактовки, признаков и функций [2, с. 5]. Но, обобщив взгляды исследователей, мы можем представить эвфемизм как нейтральное по смыслу

выражение, используемое для замены неприличных или нетактичных лексем. Нами был проведен опрос среди студентов обучающихся на 1 курсе в Термезском университете экономики и сервиса. Всего в опросе приняло участие 47 человек. Выяснилось, что никто из представителей первого курса не знает о термине «эвфемизм», никогда не слышали популярные русские эвфемизмы и не догадываются об их значении. Результаты опроса показали, что необходимо уделять больше внимания русскому языку среди групп с государственным языком обучения. Студентам нужно больше времени для освоения специфической лексики. После проведения опроса студенты спрашивали значения перечисленных эвфемизмов, им было интересно узнать о таком явлении как эвфемия, что еще раз подтверждает актуальность проведенного исследования. Согласно А.Н. Шамову: «Выбор приема основывается на экстралингвистических факторах: возрастных и психологопедагогических особенностях студентов, этапах обучения и уровнях владения русским языком, на общем социокультурном фоне и других факторах» [3]. Одним из простых и удобных способов



интерпретации эвфемизмов является их объяснение на русском языке. Этот метод без перевода эффективен и предпочтителен, поскольку, помимо доступных разъяснений лексем, студенты имеют возможность рассуждать и воспринимать окружающую действительность через призму изучаемого языка. Данный подход особенно целесообразен для объяснения понятий, которые не имеют аналогов в родном языке учащихся [5]. Например: бездонная бочка – это фразеологический эвфемизм, именующий человека, который может выпить много спиртного, не пьянея при этом. Еще одним методом интерпретации эвфемистической лексики является подбор синонимов и антонимов к рассматриваемой единице. Преимущество этого подхода заключается в том, что он способствует установлению семантических полей лексем. Хотя интерпретировать эвфемизмы можно и в аудиториях с учащимися, владеющими языком на базовом уровне, этот метод семантизации эвфемизмов наилучшим образом применять на более продвинутом этапе обучения, так как он требует от студентов обширного лексикона и понимания стилистических оттенков слов. Можно попросить студентов подобрать синоним и антоним к эвфемизму «звезд не хватает». Предположительный ответ студентов с узбекским языком обучения: лексический синоним – глупый, антоним – умный. Это довольно сложное задание, которое требует

от учащихся глубокого знания языка, стилей речи и большого словарного запаса. Также всё зависит от личного восприятия говорящего и контекста ситуации. Наглядность как метод семантизации заключается в демонстрации определенной реальности. Чаще всего под наглядностью понимается использование визуальных обучающих материалов, таких как презентации, слайды, макеты и схемы. В Интернете представлено множество изображений как предметов и лиц, так и различных ситуаций. Однако найти иллюстрацию конкретной ситуации или абстрактного явления бывает не всегда просто, и поиск подходящих картинок может занять у преподавателя considerable amount of time. Использование контекста является эффективным приемом для раскрытия значения и стилистических особенностей эвфемизмов. Включение эвфемизма в контекст, например, в художественном тексте, способствует тому, что студенты не только усваивают стилистическую и эмоционально-экспрессивную окраску лексических единиц, но и развивают навыки восприятия эвфемистической единицы как целостной лингвистической системы. Создание коммуникации в процессе обучения студентов русскому языку с использованием определенных эвфемизмов оказывается очень действенным, так как студенты запоминают правильное грамматическое, синтаксическое и ситуативное употребление эвфемистической единицы. С помощью диалога учащиеся попадают в естественные условия для проявления коммуникативных функций языка. К примеру, можно дать следующее задание студентам: составьте с партнером короткий диалог, употребив следующие эвфемизмы: взять без спроса (в значении украсть), одолжить тетрадь (в значении списать), выдумка (в значении ложь). Перевод – один из распространенных способов интерпретации языковых единиц. Однако, в случае с эвфемизмами, этот метод эффективен только при условии, что аудитория и преподаватель говорят на одном языке, и преподаватель обладает высоким уровнем владения этим языком. В противном



случае возможны недопонимания и ошибки в интерпретации. Даже опытные преподаватели русского языка в группах с узбекским языком обучения могут столкнуться с трудностями при переводе эвфемизмов, поскольку задача максимально точной передачи смысла оригинала часто сталкивается с проблемой поиска эквивалентов. Если студенты владеют русским языком на продвинутом уровне, то можно объяснить им деление эвфемизмов на лексические и фразеологические, представить несколько классификаций эвфемизмов, познакомить учащихся с историей изучения данной единицы языка и обязательно в сопоставлении с эвфемизмом-эквивалентом узбекского языка (особенно интересно будет студентам-филологам). Приведем примеры упражнений для занятий по теме «Эвфемизмы» на уроках русского языка в иноязычных группах.

Задание 1. Попробуйте объяснить следующие эвфемизмы: рус. эвф. бакиш, благодарность – вм. взятки и отступные, получаемые чиновниками – узб. эвф. sovga (подарок, также употребляется в значении взятки). Данный вид упражнения покажет, как хорошо студенты усвоили тему занятий и понимают ли они эвфемизмы, в частности, эквивалентные или безэквивалентные.

Задание 2. Найдите фразеологические эвфемизмы, попробуйте их объяснить: рус. эвф.

зеленый змей, увеселительный напиток, живая вода, жидкая валюта, злая водица – узб. эвф. bir qultum zahar (глоток яда), shayton suvi (чертова вода) заменяющие названия спиртных напитков; рус. эвф. Алёша простуженный – узб. эвф. aqli qusr (умственно отсталый) называющие человека с умственной отсталостью; рус. эвф. бальзаковский возраст, возраст стареющей женщины – узб. эвф. yoshi oltmishdan oshmoq (в возрасте старше шестидесяти) называющие преклонный возраст человека. Таким образом, проблема преподавания специфической лексики в курсе русского языка в иноязычной аудитории, в частности эвфемизмов, находится вне поля внимания методистов и лингвистов.

Выводы. На наш взгляд, изучение эвфемизмов необходимо в иноязычной аудитории, так как, правильно интерпретируя эвфемизмы, используя их в этических целях и понимая зашифрованную информацию, студенты, говорящие на родном языке смогут стать полноправными участниками коммуникации на русском языке.

Список использованной литературы:

1. Крысин Л.П. Эвфемизмы в современной русской речи. Русское слово, свое и чужое. Исследования по современному русскому языку и социолингвистике. – М.: Языки славянских культур, 2004.
2. Омонурдиев А.Ж. Эвфемистические основы узбекской речи. – Ташкент, 2000. – 127 с.
3. Шамов А.Н. Методика преподавания иностранных языков: общий курс [учеб. пособие] / отв. ред. А.Н. Шамов. – М.: АСТ: АСТ-Москва: Восток – Запад, 2008.
4. Саттарова Е. А. Национальное своеобразие языковой картины мира в сопоставлении эвфемизмов русского и узбекского языков // Актуальные научные исследования в современном мире. – 2020. – №. 1-5. – С. 78-82.
5. Саттарова Е. А. Несовместимость эвфемизмов русского и узбекского языков как основное препятствие для лингвокультурологического сопоставления // Проблемы современной науки и образования. – 2020. – №. 7 (152). – С. 63-67.

PEDAGOGIKA

FANLARI





“TISU ilmiy
tadqiqotlari
xabarnomasi”
ilmiy-uslubiy jurnali

<https://scientific.tues.uz>
ISSN 2992-9016

Salomov G'ulom Yuldoshevich,

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti dotsenti vazifasini bajaruvchi,
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
gulom.salomov1188@mail.ru. Tel: + 998996779488

YUQORI SINIF O'QUVCHILARIGA INVARIANT SINIF SOATLARINI ZAMONAVIY TA'LIM TEKNOLOGIYALARI ASOSIDA TASHKIL ETISHNING PEDAGOGIK ASOSLARI

Annotatsiya. Ushbu maqolada umumta'lim maktablari yuqori sinf o'quvchilarini ma'naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalash masalalariga alohida e'tibor qaratilgan. Yuqori sinf o'quvchilariga sinf soatlarini invariant usulda o'tkazishning o'ziga xos xususiyatlari, hamda o'quv-tarbiyaviy jarayonda zamonaviy ta'lim texnologiyalarini qo'llashning afzalliklari izchil bayon qilingan. Yuqori sinf o'quvchilariga invariant sinf soatlarini zamonaviy ta'lim texnologiyalari asosida tashkil etishning pedagogik asoslari keltirib o'tilgan. Umumta'lim maktablarida ta'lim-tarbiya jarayonining asosiy tashkil etuvchilari sinf rahbarlari va ularning invariant sinf soatlarini innovatsion ta'lim texnologiyalari asosida tashkil etishdagi roli xususida atroflicha fikr yuritilgan.

Tayanch so'zlar. ta'lim, tarbiya, invariant, texnologiya, produktiv, reproduktiv, ma'naviy, axloqiy, shaxs, jamiyat, ijtimoiy, raqobat, innovatsion, fuqaro, kompetensiya, bilim, ko'nikma, malaka, psixologik, fiziologik, xulq, odob.

ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ОРГАНИЗАЦИИ ИНВАРИАНТНЫХ КЛАССНЫХ ЧАСОВ ДЛЯ СТАРШЕКЛАССНИКОВ НА ОСНОВЕ СОВРЕМЕННЫХ ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ТЕХНОЛОГИЙ

Аннотация. В данной статье особое внимание уделено вопросам духовно-нравственного воспитания старшекласников общеобразовательных школ. Показаны особенности проведения инвариантных классных часов для старшекласников, а также преимущества использования современных образовательных технологий в учебно-воспитательном процессе. Изложены педагогические основы организации инвариантных классных часов для старшекласников на базе современных образовательных технологий. Подробно рассматривается роль классных руководителей как основных организаторов учебно-воспитательного процесса в общеобразовательных школах и их роль в организации инвариантных классных часов на основе инновационных образовательных технологий.

Ключевые слова: образование, воспитание, инвариантный, технология, продуктивный, репродуктивный, духовный, нравственный, личность, общество, социальный, конкуренция, инновационный, гражданин, компетенция, знания, умения, навыки, психологический, физиологический, поведение, этикет.

PEDAGOGICAL PRINCIPLES OF ORGANIZING INVARIANT CLASSROOMS FOR HIGH CLASS STUDENTS BASED ON MODERN EDUCATIONAL TECHNOLOGIES

Annotation. In this article, special attention is paid to the issues of spiritual and moral education of high school students. The special features of the invariant way of conducting class hours, as well as the advantages of using modern educational technologies in the educational process, were consistently explained to high school students. Pedagogical principles of organizing invariant classroom hours based on modern educational technologies for high school students were presented. The main organizers of the educational process in general schools are class leaders and their role in organizing invariant class hours based on innovative educational technologies.

Keywords. education, training, invariant, technology, productive, reproductive, spiritual, moral, person, society, social, competition, innovative, citizen, competence, knowledge, skill, competence, psychological, physiological, behavior, manners. Kirish. Bugungi taraqqiyot jarayoni inson faoliyatining turli sohalarida jahon ta'lim tizimining globallashuvi va integratsiyalashuvi ta'lim sifatiga tobora yuqori talablar qo'ymoqda. Yuzaga kelgan raqobat yuqori sinf o'quvchilarining shaxsiy fazilatlari va uning hayotga tayyorgarligiga qo'yiladigan jamiyat talablarida bir qator o'zgarishlarni yuzaga keltirdi. Shunga bog'liq holda jamiyatda unib kelayotgan yosh avlod vakillarini ma'naviy-axloqiy jihatdan barkamol, intellektual, muloqot, axborot va

boshqa sohalarida asosiy kompetensiyalar to'plamiga, zamon talablariga javob beruvchi faol fuqarolik pozitsiyasiga ega shaxsga ehtiyoj yuzaga keldi. Mamlakatimiz ta'lim tizimi rivojining hozirgi bosqichida mustaqil hayotga qadam qo'yayotgan jamiyatning bo'lajak faol ishtirokchilari, yuqori sinf o'quvchilarini ma'naviy-axloqiy jihatdan yetuk va raqobatbardosh qilib tayyorlash asosiy vazifalardan hisoblanadi. Shu jihatdan umumta'lim maktablari yuqori sinf o'quvchilarining ma'naviy-axloqiy tafakkurini takomillashtirish dolzarb muammolardan biri bo'lib qolmoqda. Chunki sinf rahbari yuqori sinf o'quvchilarining psixologik-fiziologik o'ziga xosliklarini hisobga olish tajribasini egallashi lozim. Buning uchun yuqori sinf rahbarlaridan zamon talablarga javob beradigan, mustaqil fikrlaydigan, intellektual salohiyat, chuqur bilim, zamonaviy dunyoqarash va puxta kasbiy

tayyorgarlikka ega shaxs bo'lish talab etiladi. Hozirgi kunda o'qitishning an'anaviy yondashuvlari o'rnini shaxsga yo'naltirilgan innovatsion yondashuvlar egallamoqda. Shu nuqtai nazaridan, umumta'lim maktablarida yuqori sinf o'quvchilarining egallagan bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyasini muntazam nazorat qilish hamda ma'naviy-axloqiy tafakkurini takomillashtirish, ularda intellektual salohiyatning muntazam rivojlanishi uchun shart-sharoit yaratish, o'quv tarbiyaviy jarayonda innovatsion texnologiyalar, tarbiyaning invariant va variativ komponentlaridan doimiy foydalanish orqali ta'lim-tarbiya sifatini oshirish vazifalari dolzarblik kasb etmoqda. Umumta'lim maktablarida ta'lim-tarbiyaviy jarayonda an'anaviy o'qitish metodikasi asosida ta'lim olib borilganda yuqori sinf o'quvchilari mashg'ulotlarda ko'pincha eshitadi, ko'radi, eslab qoladi, takrorlaydi, yoddan aytib beradi, ammo mustaqil fikr yuritish, mushohada qilishga kamroq e'tibor qaratiladi. Ta'limni jarayonini ushbu shaklda tashkil qilishda o'quvchilarda reproduktiv fiklash

produktiv fikrlashdan ustun bo'ladi. O'quvchilar faoliyatida faollik yuqori darajada sezilmaydi, muammoli vaziyatni qo'yish, faraz va uning yechimini ilgari surish, muammolarga yechim topishda mustaqil qaror qabul qilish yo'llarini izlab topish jarayoni sust kechadi. Shuning uchun ham yuqori sinf o'quvchilari bilan ishlashda o'qitishning interfaol metodlaridan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Ta'lim jarayoni alohida, mustaqil darslardan tashkil topgani kabi sinf soatlari ham yaxlit tarbiyaviy usullar, ta'sirchan vositalar yordamida amalga oshiriladi hamda sinf rahbarlari ushbu tadbirlarni o'tkazishga doir aniq ish rejasiga ega bo'lishlari lozim. Bugungi ijtimoiy hayot barchamizdan tarbiyaviy ishlarni yanada kuchaytirish lozimligini taqozo etmoqda. Ma'naviyat yo'q ekan, inson ongli ijtimoiy shaxs bo'la olmaydi. Shuning uchun sinf rahbarlari va butun o'qituvchilar jamoasi oldida o'quvchilarga milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida hayot kechirishni o'rgatishdek mashaqqatli vazifa turibdi. Invariant sinf soatlari o'quvchilarda shakllangan kompetensiyalarni amaliyotga tatbiq etish maydoni hisoblanadi. To'g'ri tashkil etilgan invariant sinf soatlari o'quvchilarda fanlar orqali shakllangan kompetensiyalarni ijtimoiy hayotda tatbiq eta olishlari uchun imkoniyat yaratadi. O'quvchilarda xulq-odob madaniyatiga rioya qilish, fikrini erkin ifodalash, notiqlik qobiliyatini yuksaltirish, axborotlardan to'g'ri va samarali foydalanish, shu bilan birga bu boradagi xalqaro hamda milliy qonunchilik qoidalariga rioya qilishni tarbiyalash – invariant

sinf soatlarining asosiy maqsadlaridan biri. Tarbiya har qanday jamiyat va har qanday mamlakat hayotida hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Yosh avlodning, umuman, jamiyat a'zolarining tarbiyasi bilan yetarlicha shug'ullanmagan mamlakat turg'unlik va inqirozga mahkum bo'lganligiga tarix guvoh. Negaki, o'sishi va rivojlanishi uchun har qanday jamiyatda moddiy va ma'naviy boyliklar ishlab chiqarish to'xtovsiz ravishda yuksalib borishi lozim. Buning uchun yosh avlod moddiy va

ma'naviy boyliklar yetishtirishni ajdodlari darajasida, ulardan ham yaxshiroq ishlab chiqara bilishlari kerak. Yosh avlodda ana shunday moddiy va ma'naviy qobiliyatlarni shakllantira bilish uchun esa, jamiyat uzluksiz ravishda samarali faoliyat ko'rsatadigan tarbiyaviy ishlar tizimiga ega bo'lishi lozim. Mamlakatimiz mustaqillikka erishgach, tarbiya va unga bog'liq jarayonlarga yangi hamda sog'lom pedagogik tafakkurga tayangan holda, yondashuv qaror topa boshladi. Uni izohlashda g'ayri ilmiy-sinfy, partiyaviy yondashuvdan voz kechildi. Tarbiyaning milliylikiga alohida e'tibor qaratila boshlandi. Buning uchun xalq pedagogikasi boyliklari, o'zbek mutafakkirlarining pedagogik qarashlari sinchkovlik bilan o'rganilyapti. Darhaqiqat, bugun dunyo ko'zda halqalangan yoshdek qalqib turgan bir paytda yoshlarni chalg'ituvchi, ularni o'z domiga tortishni istovchi turli kuchlar ko'payib bormoqda. Engachinarlisi, dunyoning qaysi burchagida biror jinoyatsodiretilsa, albatta, bu jarayondayoshlardan foydalanilayotgani barchamizni tashvishga solmoqda.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Islom ta'limotida yoshlar tarbiyasi juda muhim o'rin tutadi. Islomning dastlabki o'n uch yilida, ya'ni Makka davrida Muhammad sollallohu alayhi va- sallam insonlarning ongu shuuriga Allohning yakkayu yagonaligini singdirish barobarida ularga odob-axloq masalalarini o'rgatishga alohida e'tibor qaratganlar. Bu borada o'z yonlariga 8–16 yoshli (Ali, Talha, Zubayr) kabi ko'plab yoshlarni olib, eng avvalo, ularning ta'lim-tarbiyasiga alohida ahamiyat berganlar. Hadisi sharifda: “Bolalaringizga odob beringlar va odoblarini chiroyli qilinglar”, deyilgan (Imom Muslim rivoyati).

Bu borada olib borilgan ilmiy izlanishlarning aksari shuni ko'rsatmoqdaki, tarbiyada, eng avvalo, ota-onaning hissasi katta. Bejiz Payg'ambarimiz Muhammad sollallohu alayhivasallam: "Hech bir ota-ona farzandiga go'zal tarbiyadan ko'ra, qimmatliroq meros qoldira olmaydi", demagan. Endilikda oldimizda turgan eng muhim vazifa ...milliy g'oyamizning uzviy tarkibiy qismlarini tashkil qiladigan komil inson, ijtimoiy hamkorlik, millatlararo totuvlik, dinlararo bag'rikenglik kabi tamoyillarning mazmun-mohiyatini bugungi kunda mamlakatimizda olib borilayotgan ma'naviy-ma'rifiy, ta'lim-tarbiyaviy ishlarning markaziga qo'yish, ularni yangi bosqichga ko'tarish, yosh avlodni har tomonlama mustaqil fikrlaydigan yetuk dunyoqarash egalari qilib tarbiyalashdan iborat. Komil inson tarbiyasi hamma davrlarda muhim ijtimoiy vazifa hisoblanib, yaxshi tarbiya ko'rgan insonga jamiyat boyligi deb qaralgan. Inson ziynati u egallagan bilimi bilan o'lchangan. Islom ta'limotida bilimli insonlar yetuk deb sanalsa, mutafakkirlar qarashlarida komil inson bo'lish uchun ko'pgina xususiyatlarni egallash lozimligi o'z aksini topganini ko'rish mumkin. Komil insonni tarbiyalashda maktabda, oilada sog'lom ma'naviy muhit barqaror bo'lishiga erishish muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki sog'lom muhit natijasida axloqiy fazilatlar tarkib topadi. Shaxs o'z hayotida ma'naviy-axloqiy kamolotga qanchalik intilsa, shunchalik o'z kamchiliklarini anglab boradi. Har bir millatning saodati, davlatning tinchlik va rohati yoshlar tarbiyasiga

bog'liq. Inson hayoti davomida jismoniy va ruhiy jihatdan o'zgarib boradi. Bolalik, o'smirlik, o'spirinlik davrida rivojlanish nihoyatda kuchli bo'ladi. Bola mana shu yillarda ham jismoniy, ham ruhiy jihatdan o'sishi, o'zgarishi tufayli shaxs sifatida kamolga yetadi. Bunda berilayotgan tarbiya maqsadga muvofiq ta'sir etishi natijasida, bola jamiyat a'zosi kamol topib, murakkab ijtimoiy munosabatlar tizimida o'ziga munosib o'rin egallaydi. Tarbiyaning muvaffaqiyati ko'p jihatdan bola shaxsining o'zigaxosxususiyatlari, uyashayotgan muhitning ta'siriga bog'liq. Bola oila a'zolari, tarbiyachi, o'quvchi o'rtoqlari, oilaga yaqin kishilar bilan munosabatda bo'ladi. Tahlil va natijalar. Umumta'lim maktablarining yuqori sinf o'quvchilariga sinf soatlarini tashkil qilishda urf-odatlarimiz, milliy qadriyatlarimiz, mamalakatimiz hududlari sharoitlarini inobatga olish, uning tarmog'ini kengaytirib, hozirgi zamon talablari

darajasida isloh qilish bugungi kunning dolzarb masalasi. Ayni paytda yangi pedagogik va Axborot texnologiyalari qonuniyatlari asosida pedagog olimlarimiz ta'lim muassasalarida sinf soatlarini yanada samarali tashkil etishning turli shakl va metodlarini ishlab chiqish yo'nalishida tegishli tadqiqot ishlarini olib bormoqdalar. Umumta'lim maktablarining yuqori sinf o'quvchilariga sinf soatlarini invariant usulda o'tkazish jarayonida o'quvchilar ongida yuksak ma'naviy-axloqiy fazilatlar tarkib toptirilishi lozim. Yuqori sinf o'quvchilarini doimiy ravishda fan va madaniyatning so'nggi yutuqlaridan xabardor qilib turish, ular ongini ijobiy ishlar va tarbiyaviy tadbirlar bilan band qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Umumta'lim maktablarining oldida turgan muhim tarbiyaviy faoliyat - bu o'quvchilarga ma'naviy, ma'rifiy, mafkuraviy, estetik, ekologik, axloqiy, huquqiy, iqtisodiy va boshqa turdagi tarbiyaviy ishlarni o'rgatishdan iborat. Umumta'lim maktablarining sinf rahbarlari o'quvchi qalbida kitobni sevis, uni o'qish va ardoqlash kabi fazilatlarini shakllantiradilar. Umumta'lim maktablarida olib boriladigan sinf soatlarida, undagi har

bir tadbir mazmunida - Vatanga muhabbat va komil inson tarbiyasi aks etishi lozim. Shaxs tarbiyasi hamma davrlarda muhim ijtimoiy vazifa hisoblanib, yaxshi tarbiya ko'rgan insonga jamiyat boyligi deb qaralgan. Inson ziynati u egallagan bilimlari bilan o'lchangan. Islom dini ta'limotida bilimli insonlar yetuk deb sanalsa, mutafakkirlarimiz qarashlarida komil inson bo'lish uchun ko'pgina xususiyatlarni egallash lozimligi o'z aksini topganini ko'rishimiz mumkin. Biz ta'lim-tarbiya tizimining barcha bo'g'inlari faoliyatini bugungi zamon talablari asosida takomillashtirishni o'zimizning birinchi darajali vazifamiz deb bilamiz. Bugun zamon shiddat bilan o'zgaryapti. Bu o'zgarishlarni hammadan ham ko'proq his etadigan kim - yoshlar. Mayli yoshlar o'z davrining talablariga uyg'un bo'lsin. Lekin ayni paytda o'zligini ham unutmasin. Biz kimmiz, qanday ulug' zotlarning avlodimiz, degan da'vat ularning qalbida doimo aksado berib, o'zligiga sodiq qolishga undab tursin. Bunga nimaning hisobidan erishamiz? Tarbiya, tarbiya va faqat tarbiya hisobidan. Lekin tarbiya degani faqat maktab tarbiyasidan iborat emas. Hozir hammamiz bor aybni maktabga ag'darishga o'rganib qolganmiz. Mahalla, oila, keng jamoatchilik-chi? "Bir bolaga yetti mahalla ham ota, ham ona" degan maqolning haqiqiy ma'nosini anglaydigan vaqt keldi. Anglab shu asosda yashaydigan vaqt keldi [1; 485-b]. Insoniyat paydo bo'libdiki, farzand tarbiyasi jamiyatda muhim muammo sifatida qarab kelingan. Chunki jamiyat mavjud ekan insonga xos bo'lgan barcha sifatlar, mafkuraviy qarashlar uning xulqiga, ongiga, fe'l-atvoriga singdirib boriladi. Shaxs ta'lim-tarbiyasi masalasi insoniyat vujudga kelishi bilan birga paydo bo'lib, usiz alohida odam ham, kishilik jamiyati ham shakllanmaydi, taraqqiy etmaydi, faoliyat ko'rsata olmaydi. Ta'lim-tarbiya vositasida butun insoniyat, ayniqsa, yoshlarning ma'naviy barkamolligi qaror toptiriladi.

Shuningdek, shaxs dunyoqarashi, e'tiqodi, ezgulik, go'zallik, yaxshilik, adolatlilik kabi shaxsiy sifatlari aynan ta'lim-tarbiya asosida shakllantiriladi. Shu nuqtai nazaridan sharqona ta'lim-tarbiya milliy qadriyat hisoblanadi. Mazkur qadriyat vositasida yosh avlodni tarbiyalash, ularga ta'lim berish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri. Davr o'tishi, jamiyatning o'zgarishi rivojlanishi bilan tarbiyaning maqsadi, mazmuni va unga qo'yiladigan talablar ham o'zgarib boraveradi. Yosh avlodning ongi, dunyoqarashi, ma'naviyati, madaniyatini shakllantiruvchi ta'lim-tarbiya azal-azaldan o'zbek xalqi farovonligini ta'minlovchi vosita hisoblanadi. O'sib kelayotgan yosh avlodning har tomonlama barkamol bo'lib yetishishlari uchun mamlakatimiz umumta'lim maktablarida yangi o'quv jihozlari, zamonaviy texnika va texnologiyalar bilan ta'minlanishi hukumatimizning bu sohaga alohida e'tibor qaratayotganidan dalolat beradi. Ma'lumki, tarbiya, eng avvalo, oiladan boshlanadi, chunki oilada oilaviy an'analar, urf-odatlar, marosim, rasm-rusumlar insonning ma'naviy-axloqiy shakllanishini ta'minlaydigan asosiy zamin sifatida xizmat qiladi. Bugungi O'zbekiston farzandlari ongida milliy mafkuraviy qarashlar, yangicha tushuncha, milliy tafakkur, milliy g'urur va ma'naviy-axloqiy xislatlarni shakllantirish tarbiyaviy ishlarining bosh mezon sifatida qaralmoqdaki, buni har bir ota-ona, farzand to'g'ri anglab yetishi va o'zining hayotiy maqsadi sifatida tushunmog'i lozim. Ma'lumki, shaxsga singdiriladigan tarbiyaning poydevori dastlab oilada

qo'yiladi. Mana shu ma'noda oilada farzandlarni to'g'ri tarbiyalash, ular ongini, dunyoqarashini zamon ruhi bilan uyg'unlashtirish istiqlol mafkurasi talablariga javob bo'ladi. Buning uchun, eng avvalo, oilada bolalar tarbiyasi bir tizimga solingan izchil tarbiya usullari, pedagogik hamda psixologik shart-sharoitlar yaratilgan bo'lishi lozim. Ma'lumki, oilada bolalarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash dastlab tariximizni o'rganishdan boshlanadi. Bu borada ona-Vatan tarixi, har bir kishining tug'ilib o'sgan xonadoni, yashash makoni va yurtidan boshlanadi. Istiqlol sharofati bilan xalqning oilaviy qadriyatlarini tiklanib bormoqda. Bu borada oilaning jamiyatdagi o'рни, tarbiyaviy ahamiyati, qadr-qimmatini oila an'analarida vorisiylik milliy mafkurani shakllantirishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Mustaqil O'zbekistonning buyuk davlat darajasida taraqqiy etishi uchun jamiyat ma'naviyatini rivojlantirish zarur. Zero, ma'naviy kamol topgan insonlarga buyuk kelajak sari intiladilar. Ma'naviy yetuklikning buyuk belgisi – bu vatanparvarlik. Vatanparvarlik – tug'ma irsiy xususiyat emas, balki ta'lim-tarbiyaviy jarayonida shakllanadigan ma'naviy-axloqiy xislat. Umumta'lim maktablarining yuqori sinf o'quvchilarini milliy qadriyatlar asosida vatanparvarlik ruhida tarbiyalash jarayoni insonda turli fazilatlarini shakllantirish, ya'ni aqliy, estetik, jismoniy, fuqarolik, milliy o'zlikni anglash, sofdillik, insonparvarlik, millatparvarlik va boshqalarning umumiy majmuidan tarkib topadi. Zero, millatni, xalqni o'z ezgu niyatiga

yetishida O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezident I.A.Karimov ta'kidlaganidek, fuqarolarda, xususan, yoshlarda milliy mafkuraviy qarashni tarbiyalash, aynan bugungi istiqlol sharoiti borasidagi ta'limiy, tarbiyaviy va ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni bartaraf etishda muhim vosita bo'lib xizmat qilishi mumkin. Shuning uchun ham "Milliy g'urur milliy iftixor har qanday ishimizning poydevori bo'lmog'i kerak". Bu muqaddas g'oyalar millati va e'tiqodidan qat'i nazar, yosh avlodning, har bir fuqaroning ongiga singdirilishi kerak. Bunday mas'uliyatli vazifalar, albatta, umumta'lim maktablarida sinf soatlarini invariant usulda o'tkazish dolzarb muammo ekanligini ko'rsatmoqda. Bugungi yoshlarda milliy g'urur, milliy tuyg'u kabi tushunchalarni tarbiyalash vatanparvarlik muammosi bilan bog'liqligini har bir o'zbek fuqarosi, farzandi yaxshi

anglamog'i va o'z ongi, ixtiyori, xohishi va istagi bilan munosabatda bo'lmog'i lozim. G'azzoliy farzand tarbiyasi haqida shunday fikrlarni bildiradi: "Bilgin! Bola tarbiyasi eng muhim ishlardandir. Farzand ota va onaga omonat. Bola qalbi pok, nozik, sodda va har qanday naqsh va suratdan xoli gavhardir. Unga qanday naqsh solinsa, shunga ko'ra shakllanadi, eggan tomonga egiladi. Agar bola yaxshilikka o'rganib, yaxshilik ichida voyaga etsa, dunyo va oxirat saodatini topadi. Albatta, bu savobga uning ota-onasi va unga tarbiya bergan har bir kishi sherikdir. Agar bola e'tiborsiz tashlab qo'yilsa, yomonlik ichida o'ssa, badbaxtlikka yuz tutadi va halok bo'ladi. Bunda gunoh yuki shu ko'ygga solganlarning, ota-onaning zimmasiga yuklanadi" deydi. O'sib kelayotgan yosh avlodga, xususan, umumta'lim maktablarining yuqori sinf o'quvchilariga sinf soatlarini mamlakatimizning barcha hududlarida yaxlit bir tizim shakliga keltirish, ya'ni, barcha umumta'lim maktablarining yuqori sinflarda sinf soatlarini invariant usulda o'tkazish, natijada, sinf soatlarini zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida o'tkazish imkoniyati

vujudga keladi. Yuqori sinf o'quvchilarining ma'naviy-axloqiy madaniyatini shakllantirishda invariant sinf soatlarning mazmuni, shakli va metodlarini takomillashtirish alohida rol o'ynaydi. Bu sinf rahbarining bilim saviyasiga, pedagogik mahoratiga, san'atiga bog'liq. O'quvchilarining sinf soatlarida olgan bilimlari, ularning turmushida, xulq-atvorida, jamiyatdagi kishilar bilan munosabatlarida namoyon bo'ladi. Ma'naviy-axloqiy bilim boylik manbai bo'lib, kishi aqlini charxlaydi, izzatini oshiradi, har bir kishini kamolga yetkazadi, umrini boqiy qiladi. Ma'naviy-axloqiy bilim, ilmiy dunyoqarash har bir shaxsni, madaniyat, insoniyat, ma'rifat dunyosiga olib kiradi.

Xulosa. Yuksak ma'naviyatimiz asosida mamlakatimizning porloq kelajagi dadil ishonch bilan yuksalib bormoqda, xalqimizda yuksak insonparvarlik qadriyatlari tiklanmoqda va takomillashmoqda. Bugungikunda olibborilayotgan islohotlarning bosh maqsadi ma'naviyati kuchli, e'tiqodi mustahkam, har tomonlama barkamol avlodni tarbiyalab voyaga yetkazishdan iborat. Ma'naviyatli inson qalbida imon ildizlari mustahkam bo'ladi, aslo nopok yo'llardan yurmaydi, shiori halollik bo'ladi. Ma'naviyatli inson vatanini jonidek sevadi, tug'ilib o'sgan joyining har bir qarich yeri muqaddas ekanligini har lahza yurak - yuragidan his qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. 1-jild. - Toshkent: O'zbekiston, 2017. - 592 b.
2. Turg'unov S.T., Daniyarov B.X., Umaraliyeva M.A., Shodmonova Sh.S., Turg'unov Sh.M., Tojibayeva X.M., O'qituvchining kasbiy mahorat va kompetentligini rivojlantirish. T.: "Sano- standart", 2012, 172 b.
3. Salomov G.Yu. Umumta'lim maktablarining X-XI sinf o'quvchilariga sinf soatlarini invariant usulda o'tkazish texnologiyasi. Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. - Termiz.: TerDU, 2023.
4. Salomov G.Yu., Ganiev H.Yu. Use of innovative

- technologies in conducting educational hours for X-XI grade students. 2022. Volume 04 Issue 02-202223 The American Journal of Social Science and Education Innovations (ISSN -2689-100x) 02 Pages:23-25.
5. Salomov G.Yu. Pedagogical principles of spiritual-moral education of students of X-XI grades in classroom hours. 2023. In Volume 2, Issue 7 of International scientific journal of "Science and Innovation", 221-223. <https://doi.org/10.5281/zenodo.8200183>.
6. Salomov G.Yu. Using the boomerang technology in conduct of classrooms in invariant method to high class students of university schools. 2024. Volume 05, Issue 10 Current Research Journal Of Pedagogics (ISSN -2767-3278) 02 Pages: 179-182. Crossref doi: <https://doi.org/10.37547/pedagogics-crjp-05-10-30>.
7. Salomov G.Yu. Class hours for high school students in the invariant method use of mosaic thermal work method in transfer. 2024. Volume 05, Issue 10 Current Research Journal Of Pedagogics (ISSN -2767-3278) 02 Pages: 183-187. Crossref doi: <https://doi.org/10.37547/pedagogics-crjp-05-10-31>.



"TISU ilmiy tadqiqotlari xabarnomasi" ilmiy-uslubiy jurnali

<https://scientific.tues.uz>
ISSN 2992-9016

Abdusamatov Alisher Sobirovich, Termiz iqtisodiyot va servis universiteti pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD,)dotsent,
To'rayeva Dilrabo Fayzullo qizi, Termiz iqtisodiyot va servis universiteti magistranti,
E-mail: torayevadilrabo51@gmail.com

QADRIYATLAR KATEGORIYASI VA UNING FALSAFASI

Annotatsiya: Mazkur maqola fan tadqiqotida qadriyatlar tushunchasi va ularning inson hayoti, jamiyat madaniyati hamda taraqqiyotiga ta'siri atroflicha yoritilgan. Tadqiqotda qadriyatlar tarixiy, falsafiy va psixologik aspektlari tahlil qilinib, ularning shakllanish omillari va rivojlanish dinamikasi o'rganiladi. Shuningdek, milliy va umumbashariy qadriyatlar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik va ziddiyatlar misollar orqali tahlil qilinadi. Ushbu ish qadriyatlar yosh avlod tarbiyasidagi o'рни va ularni shakllantirishda ta'lim-tarbiya tizimining roli masalasiga ham e'tibor qaratadi. Tadqiqot natijalari jamiyatda barqarorlikni ta'minlash hamda insoniylik tamoyillarini rivojlantirishda qadriyatlar ahamiyatini yoritib beradi.

Tayanch so'zlar: Qadriyatlar kategoriyasi, qadr, qadriyat negizi, subyektiv va obyektivlik,

КАТЕГОРИЯ ЦЕННОСТЕЙ И ЕЕ ФИЛОСОФИЯ

Аннотация. Понятие ценностей и их влияние на жизнь человека, культуру и развитие общества подробно освещены в научном исследовании данной статьи. В исследовании анализируются исторические, философские и психологические аспекты ценностей, изучаются факторы их формирования и динамика развития. Также на примерах анализируются взаимозависимость и противоречия между национальными и общечеловеческими ценностями. В данной работе также уделяется внимание вопросу роли ценностей в воспитании молодого поколения и роли системы образования в их формировании. Результаты исследования проливают свет на важность ценностей в обеспечении стабильности в обществе и развитии принципов гуманности.

Ключевые слова: категория ценностей, ценность, основа ценности, субъективное и объективное.

THE CATEGORY OF VALUES AND ITS PHILOSOPHY

Annotation: The concept of values and their impact on human life, society's culture and development are thoroughly covered in the scientific research of this article. Historical, philosophical and psychological aspects of values are analyzed in the study, and the factors of their formation and dynamics of development are studied. Also, the interdependence

and conflicts between national and universal values are analyzed through examples. This work focuses on the role of values in the upbringing of the young generation and the role of the educational system in their formation. The results of the research shed light on the importance of values in ensuring stability in society and developing the principles of humanity.

Keywords: Category of values, value, basis of value, subjective and objective.

Kirish. Qadriyat juda keng tushuncha. Qadriyat arabcha atama bo'lib, qo'llanishiga qarab turli kontekstlarda talqin etiladi. U ko'pincha "Qadr" so'zidan kelib chiqib taqdir, qismat yoki ilohiy irodaga oid tushunchalarni shu bilan birga farmon, o'lchov yoki oldindan belgilab qo'yishni bildiradi. Islom ilohiyotida qadriyatni taqdir tushunchasi bo'lgan qadr haqidagi bahslar bilan bog'lash mumkin. Unda insonning irodali erkinligi, ilohiy hukm va inson xatti-harakatlari Alloh tomonidan qay darajada oldindan belgilab qo'yilganligi haqidagi bahslar kiradi. Qadriyat – bu inson, jamiyat va madaniyat uchun muhim va qadri bo'lgan g'oyalari, tamoyillar, me'yorlar yoki tushunchalar majmuasidir. Inson uchun ahamiyatga ega bo'lgan, millat, elat va ijtimoiy guruhlarning manfaatlari va maqsadlariga xizmat qiladigan tabiat va jamiyat hodisalari majmui tushuniladi. "Qadriyat" so'zi o'zbek tilida "qiymat", "ahamiyat", "qimmatbaho buyumlar", "xalqboyligi" degan ma'nolarni anglatadi. Qadriyat falsafiy jihatdan esa "... inson uchun biror ahamiyatga ega bo'lgan shakllar, xolatlar, narsalar, voqealar, hodisalar,

jarayonlar, holatlar, sifatlar, talab, tartiblarning qadrini ijtimoiy ahamiyatini ifodalash uchun ishlatiladigan falsafiy kategoriya" hisoblanadi. Qadriyat ijtimoiy xususiyatga ega bo'lib, kishilarning amaliy faoliyati jarayonida shakllanadi va rivojlanadi. Inson va uning hayoti eng oliy qadriyatdir. Inson yo'q joyda biror bir narsaning qadr-qimmatini haqida so'z bo'lishi mumkin emas. Shuning uchun ham inson qadr-qimmatini e'zozlash, uning turmushini yaxshilash, bilimi va madaniy saviyasini rivojlantirish, sog'lig'ini saqlash, hayotini himoya qilish davlatimiz siyosatining ham asosiy yo'nalishini tashkil etadi. [3; 33-b.] **Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Qadriyatlar kategoriyasi va uning falsafasi haqidagi ma'lumotlar O'zbekiston Milliy arxivi (keyingi o'rinlarda – O'Z MA)da uchraydi. Maqolani yozishda elektron

saytlar va arxiv hujjatlaridan tashqari, M.Rokich, M.Veber, E.Dryukgeym, Platon, V.Vindelband, G.Rekert, M.Sxeler va N.Loskiylar kabi mutafakkir, olim va faylasuflarning qarashlari, xulosalari va mulohazalaridan ijodiy foydalanildi, shu davomida ular yozgan ba'zi asarlariga murojat qilindi, ba'zi ma'lumotlardan foydalanildi. Qadriyatlar kategoriyasi va uning falsafasiga doir manbalar O.Ch.Xolov [1], R.Mavlonova [2], Q.Nazarov [3], X.P.Tuxtayev [4] kabi mutafakkir va olimlarning ijodida ham ushbu mavzuning izlari bor. Bu esa o'quv uslubiy majmua, dissertatsiya tadqiqotlari, monografiyalari va bir qator maqolalarida uchraydi. Gap ana shu izlarni izlab topishda, ularni unutmaslikda, yangilab turishda, zamona realliklari nuqtai nazaridan xolisona talqin qilishdadur. **Tadqiqot metodologiyasi.** Ushbu maqola umum qabul qilingan metodlar, tarixiylik, qiyosiy-mantiqiy tahlil, ketma-ketlik, xolislik tamoyillari asosida yoritilgan bo'lib, qadriyatlarining o'rganish va rivojlanishini tarixiy jarayonlar orqali bilish. Masalan, olimlarning diniy yoki dunyoviylikka

nisbatan qarashi. Qadriyatning metodologiyasi, qadriyatlarni o'rganish va tahlil qilish usullari, ishlab chiqarishlar va jarayonlarni aniqlash. Bu metodologiyani baholashni, tadqiqotlarni, amaliyotni ilmiy asosda o'rganishni amalga oshiradi.

Tahlil va natijalar. Qadriyat negizi – bu qadriyatlarning shakllanishi ya'ni rivojlanishi uchun asos bo'lib xizmat qiluvchi omillar, tamoyillar va ma'no-mohiyatlar yig'indisidir. Qadriyatlarning negizi insoniy ehtiyojlar, ijtimoiy talablar va madaniy an'analar bilan chambarchas bog'liq. Qadriyatlar komillikka erishishga qaratilgan, shaxs va uning atrofidagi dunyoning ichki rivojlanishi uchun ma'noli jihatlari bilan to'ldirish orqali ijodiy ta'sir ko'rsatadigan ong va borliqning ustunlari sifatida tasniflanishi mumkin. Qadriyatlarni o'rganish mobaynida uni quyidagi turlarga ajratilib ko'rsatiladi:

- ma'naviy qadriyatlar
- estetik qadriyatlar
- diniyqadriyatlar

Ushbu tushunchada qadriyatlar har qanday madaniyatning boshlang'ich tamoyillari bo'lib, "madaniyatning asosi va poydevori" sifatida qaraladi. O'z navbatida jamiyat madaniyatining mohiyati va o'ziga xosligini belgilaydi. Bu inson mavjudligini hayvonlar mavjudligidan ajratib turadigan qadriyatlardir [1;6-b]. Madaniy rivojlanish darajasi jamiyatning barcha sohalarida siyosatda, fanda, iqtisodda, dinda, huquqda, san'atda, axloqda qadriyatlarni anglash va ularning munosabatlarini amalga oshirish darajasi bilan belgilanadi. Inson ehtiyojlarini qondirishda tabiiy qadriyatlar katta ahamiyat kasb etadi.

Tabiiy qadriyatlarga yer va yer osti boyliklari, suv, havo, o'rmonlar, o'simliklar va hayvonot dunyosi va boshqalar kiradi. Inson mehnati, xatti-harakati, aql-zakovati tufayli "ikkinchi tabiat" ni yaratadi. Bu tabiat tarkibiga turli-tuman moddiy boyliklarni kiritishimiz mumkin. Ana shunday mehnat natijasida yuzaga kelgan zavodlar va fabrikalar, ishlab chiqarish va transport vositalari, asbob-uskuna, turar-joy, mulk, inshoot va shu kabilar moddiy qadriyatlar hisoblanadi. Moddiy qadriyatlarning negizini mulk

tashkil etadi. Inson hayotida madaniy-ma'naviy qadriyatlar katta o'rin egallaydi. Unga ilmiy-texnikaviy va intellektual imkoniyatlar, maorif, ta'lim-tarbiya, tibbiy xizmat, milliy meros, turli shakllarda namoyon bo'ladigan madaniyat durdonalari, til, adabiyot, san'at, xalq hunarmandchiligi mahsulotlari, noyob tarixiy va madaniy yodgorliklar, arxitektura va hokazolar kiradi. Qadriyatlar odamlarning hayot tarzini belgilaydi, ularning xatti-harakatlarini yo'naltiradi va jamiyatning barqarorligini ta'minlaydi. Qadriyatlarning xususiyatlari:

1. Subyektiv va obyektivlik:
 - Qadriyatlar insoniy his-tuyg'ularga asoslangan bo'lib, subyektiv ahamiyatga ega.
 - Shu bilan birga, ular jamiyat tomonidan qabul qilingan me'yor sifatida obyektiv ahamiyatga ham ega.
 2. Madaniy bog'liqlik:
 - Qadriyatlar har bir millat yoki jamiyat madaniyatiga mos tarzda shakllanadi. Masalan, oilaga hurmat, mehnatsevarlik yoki do'stlikning qadri har bir jamiyatda turlicha ifodalanadi.
 3. Vaqtga bog'liq o'zgaruvchanlik:
 - Ba'zi qadriyatlar doimiy bo'lsa (masalan, halollik yoki adolat), boshqalari vaqt o'tishi bilan o'zgarishi mumkin (masalan, texnologiyaga bo'lgan munosabat).
- Qadriyatlarning turlari:
1. Milliy qadriyatlar: O'z xalqining madaniyati, urf-odatlar va an'alarini aks ettiradi. Masalan, o'zbeklarda mehmondo'stlik, kattalarga hurmat.
 2. Umumbashariy qadriyatlar: Barcha odamlar uchun umumiy bo'lgan, inson huquqlari, tinchlik va adolat kabi qadriyatlar.
 3. Shaxsiy qadriyatlar: Har bir insonning individual

hayotida muhim bo'lgan tushunchalar – erkinlik, mustaqillik, sevgi.

4. Ijtimoiy qadriyatlar: Jamiyatdagi tartib va barqarorlikni ta'minlaydigan tushunchalar – qonunga bo'ysunish, hamkorlik. Qadriyatlarining ahamiyati:

- Shaxs tarbiyasi: Insoniylik, mas'uliyat va boshqa fazilatlarini shakllantiradi.
- Jamiyat barqarorligi: Qonun-qoidalar va me'yorlar orqali tartibni saqlaydi.
- Madaniy merosni asrash: Avlodlar o'rtasida madaniy qadriyatlarining davomiyligini ta'minlaydi, qadriyatlar inson va jamiyatni birlashtiruvchi muhim asosdir. Ular odamlarning hayotiga ma'no bag'ishlaydi va maqsadga yo'naltiradi. [4; 8-b.]. Qadriyat tushunchasi va uni ilmiy jihatdan o'rganish metodini birinchi bo'lib M.Veber olib kirgan. Olim shaxs xatti-harakatlarining ratsional-qadriyatlarga yo'nalganligiga to'xtalib o'tar ekan, mazkur yo'nalganlik insonning doimo jamiyat me'yorlariga va talablariga bo'ysunuvchi harakatlarini nazarda tutadi. Shu boisdan inson bu me'yorlariga va talablariga rioya qilishni zarur deb biladi. M.Veber qadriyat va din tushunchalari o'rtasidagi farqli jihatlarni ham alohida ajratib o'tadi. Olimning fikricha, qadriyatlar insonlar xatti-harakatlarini tartibga soluvchi, din esa ularning hayoti davomida yuzaga keluvchi savollar va muammolarga javob beruvchi omil hisoblanadi. M.Veberning din va qadriyat tushunchalari borasidagi qarashlaridan farqli ravishda E.Dyurkgeym qadriyatlarini ijtimoiy munosabatlar zahirida yuzaga

keluvchi shaxsdan ham yuqori turuvchi kategoriya sifatida baxolaydi. E.Dyurkgeym nazariyasining asosiy mazmuni qadriyatlarining falsafiy muammolarini yechimini topish va shu yo'sinda ba'zi noto'g'ri qarashlarni bartaraf etishga qaratiladi. E.Dyurkgeym fikricha, jamiyat barcha qadriyatlarini o'z ichiga oladi va shu boisdan ham ular ma'lum bir haqiqatlarga asoslanadi. Shuningdek, insonlarni boshqarish ko'pincha qadriyatlarga yo'nalganligi orqali amalga oshiriladi. Bunda asosan ijtimoiy normalar va qadriyatlarining ahamiyatlilik darajasi tenglashtiriladi. Olim qadriyatlarini quyidagi guruhlariga ajratadi:

- iqtisodiy qadriyatlar;
- etik qadriyatlar;

- diniy qadriyatlar;
- estetik qadriyatlar;

E.Dyurkgeym fikricha qadriyatlar individual bo'lib jamiyatga va jamoaviy tafakkurga ta'sir o'tkazuvchi asosiy kuch sifatida namoyon bo'ladi. Din esa butun jamiyatning qadriyatlarini belgilab beradi. Din e'tiqod va marosimlarning maxsus tizimi bo'lib, jamoaviy yoki yakka tartibda diniy amallarni bajaruvchi maxsus joyla bilan chambarchas bog'langan bo'ladi. Qadriyat umumiy mazmuniga nisbatan, subyekt tomonidan ob'ektiv voqelik sari yo'naltirilgan, eng muhim maqsadlar va ma'noni o'z ichiga olgan, ma'lum intilishlarni o'zida mujassam etgan ixtiyoriy, hissiy, intellektual kechinmalar majmuasi sifatida qaraladi. Qadriyat subyektiv kechinmalarni keltirib chiqaradigan obyektning ma'nolari va ularni yaratishdan iborat bo'lgan ma'naviy ijod namunasi sifatida tushuniladi. Qadriyat bu holda borliqning mazmunli maqsadi sifatida tushuniladi va shaxsning ob'ektlarga bo'lgan munosabati hodisasidir. Qadriyatlarga oid izlanishlar olib borgan olimlardan Platon, V.Vindelband, G.Rikert, M.Sxeler, N.Loskiylar na tabiatga, na insonga tegishli bo'lmagan transsendent "qadriyatlar olami"ni ta'kidlab o'tishganlar. O'tmishdagi ko'plab mutafakkirlarning fikriga ko'ra, qadriyatlarining yagona ma'nosi, ideal, ilohiy mavjudot tomon

intilishdan iborat deb hisoblaganlar. Qadriyat negizining asosiy omillari: 1. Inson tabiatiga asoslangan omillar Biologik ehtiyojlar: Inson hayoti uchun muhim bo'lgan yashash, xavfsizlik va hayotni davom ettirish ehtiyojlari qadriyatlarning negizini tashkil qiladi. Masalan, tinchlik va osoyishtalik qadriyatining asosida xavfsizlik ehtiyoji yotadi. Psixologik ehtiyojlar: Inson o'zini sevish, hurmat qilish va jamiyatda o'z o'rnini topishga bo'lgan ehtiyojiga qarab qadriyatlar yaratadi. Masalan, o'z-o'zini rivojlantirish yoki erkinlik qadriyatlari. 2. Madaniy va an'anaviy omillar Har bir xalqning tarixiy tajribasi va urf-odatlarini qadriyatlarning negizini tashkil etadi. Masalan, o'zbek xalqida mehmondo'stlik, kattalarga hurmat va oila birligi qadriyatlarining negizida ko'p asrlik an'analar yotadi. 3. Din va e'tiqod Diniy qarashlar qadriyatlarning shakllanishida muhim rol o'ynaydi. Axloqiy me'yorlar, halollik, yaxshilik qilish va yomonlikdan tiyilish kabi qadriyatlar ko'plab dinlarda asosiy tamoyillar sifatida namoyon bo'ladi. 4. Ijtimoiy va iqtisodiy sharoitlar Jamiyatdagi iqtisodiy va siyosiy vaziyatlar qadriyatlarning rivojlanishiga ta'sir ko'rsatadi. Masalan, tinchlik va barqarorlik qadriyatlari mojarolar bo'lgan hududlarda muhim ahamiyat kasb etadi. 5. Umumbashariy tamoyillar Adolat, inson huquqlari, tinchlik va erkinlik kabi qadriyatlar butun insoniyat uchun umumiy hisoblanadi. Ularning negizida barcha odamlarning tengligi va bir-biriga hurmat bilan munosabatda bo'lish g'oyasi yotadi. Qadriyat negizining maqsadi: Inson hayotini tartibga solish: Qadriyatlar inson faoliyatini yo'naltiradi va unga ma'no bag'ishlaydi.

Jamiyat barqarorligini ta'minlash: Qadriyatlar ijtimoiy tartibni mustahkamlaydi va kelajak avlodga madaniy merosni yetkazadi. Shaxsning rivojlanishi: Inson qadriyatlari orqali o'zining ichki imkoniyatlarini kashf etadi va ularni hayotda amalga oshiradi. [1;4-b.] **Xulosa.** Qadriyat negizi – bu insonning ma'naviy va moddiy ehtiyojlarini, jamiyatning ijtimoiy va madaniy talablarini qondirish uchun xizmat qiladigan poydevordir. Bu poydevor qadriyatlarni mustahkam saqlab, ular orqali inson va jamiyat hayotini boyitadi. Qadriyatlar inson va uni o'rab turgan olamni ahamiyatli rishtalar bilan bog'laydi hamda bu munosabatlarni kerakli tomonga o'zgartiradi. Qadriyatlar - axloq nuqtai nazaridan ijobiy ma'noga ega bo'lgan tushunchalar hisoblanadi. Qadriyatlar jamiyatda mavjud ijtimoiy me'yorlar, shu jumladan shaxslararo munosabatlar, insonning o'zini-o'zi nazorat qilishi kabi muhokama qilinmaydigan xatti-harakatlar qoidalari bilan chambarchas bog'langandir. Qadriyatlar tizimi nafaqat insonning xulq-atvor muhitini tartibga soladi, balki shaxsning ma'naviy tuzilishini shakllantirishga ham ta'sir qiladi. Qadriyatlar inson taraqqiyoti yo'lini belgilashda muhim omil hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Xolov O.Ch. "Umumiy pedagogika". Darslik. –T.: "Termiz" nashriyoti. 2024.
2. Mavlonova R. va boshqalar "Pedagogika nazariyasi va tarixi". –T.: "Fan va texnologiya" nashriyoti. 2010.
3. Nazarov Q. "Qadriyatlar falsafasi". "Faylasuflar milliy jamiyati nashriyoti" Toshkent-2004.
4. Nazarov Q., To'xtayev H. Aksiologiya: qadriyatlar falsafasi./ Darslik. –Toshkent: Universitet, 2022.
5. Dyurkgeym E. "Diniy hayotning ibtidoiy shakllari" (The Elementary Forms of Religious Life, 1912).
6. Rokich M. "Qadriyatlar tabiati va o'lchovi" (The Nature of Human Values, 1973).
7. O'zbekiston Respublikasi PF-60 son "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida", 28.01.2022.



"TISU ilmiy
tadqiqotlari
xabarnomasi"
ilmiy-uslubiy jurnali

<https://scientific.tues.uz>
ISSN 2992-9016

Toshpulatova Niyoxon Shavkatjon qizi, Termiz iqtisodiyot va servis universiteti
Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

E-mail: egamnazarovaniehon@gmail.com

Raxmatova Hamida Ismatillo qizi Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti
1-bosqich magistratura talabasi E-mail: hamidaraxmatova2002@gmail.com

BOSHLANG'ICH SINIF O'QITUVCHILARINI ONA TILI FANIDA RAQAMLI TEKNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHGA O'RGATISHNING METODIK TIZIMI

Annotatsiya: Mazkur maqola, boshlang'ich sinf o'qituvchilarini ona tili fanida raqamli texnologiyalardan samarali foydalanishga o'rgatishning metodik tizimini o'rganishga bag'ishlangan. Bugungi kunda ta'lim jarayonini zamonaviy texnologiyalar bilan boyitish, ayniqsa boshlang'ich sinfda, o'quvchilarning bilim olish jarayonini yanada samarali va qiziqarli qilishga yordam beradi. Ushbu metodik tizimda, raqamli vositalar va interaktiv platformalar yordamida ona tili fanini o'qitishning yangi yondashuvlari, o'qituvchilarni tayyorlashda raqamli kompetensiyalarni oshirish usullari, darslarni interaktiv va multimedia materiallar bilan boyitish ko'rib chiqiladi. Maqolada o'qituvchilarga raqamli texnologiyalarni integratsiya qilish, dars rejalari va o'quv materiallarini ishlab chiqish, o'quvchilarning bilim darajasini baholash va raqamli ta'limda xavfsizlik masalalari ham muhokama qilinadi. Shuningdek, raqamli ta'lim texnologiyalarining ta'lim jarayoniga qo'shgan hissasi, o'qituvchilarni pedagogik jihatdan tayyorlash va ularning zamonaviy o'quv texnologiyalarini o'zlashtirishda qo'llaniladigan metodlar batafsil yoritiladi. Maqola, o'qituvchilarga raqamli vositalardan samarali foydalanishni o'rgatish orqali, ta'lim sifatini oshirish, o'quvchilarga yanada yaxshiroq bilim berish va ularning raqamli kompetensiyalarini rivojlantirishga qaratilgan muhim tavsiyalarni taqdim etadi.

Tayanchso'zlar: Metodik tizim, raqamli vositalar, interaktiv platformalar, individual yondashuv, o'yinlar va interaktiv materiallar, tahlil va baholash, pedagogik seminar, resurslarni mahalliy lashtirish, mentorlik dasturi

МЕТОДИЧЕСКАЯ СИСТЕМА ПОДГОТОВКИ УЧИТЕЛЕЙ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ К ИСПОЛЬЗОВАНИЮ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ НА РОДНОМ ЯЗЫКЕ

Аннотация. Статья посвящена изучению методической системы подготовки учителей начальных классов к эффективному использованию цифровых технологий на уроках родного языка. Сегодня обогащение образовательного процесса современными технологиями, особенно в начальных классах, помогает сделать процесс обучения учащихся более эффективным и интересным. В данной методической системе рассматриваются новые подходы к обучению родному языку с использованием цифровых инструментов и интерактивных платформ, методы повышения цифровых компетенций при подготовке учителей, обогащение уроков интерактивными и мультимедийными материалами. В статье также обсуждается, как учителя могут интегрировать цифровые технологии, разрабатывать планы уроков и учебные материалы, оценивать успеваемость учащихся и решать проблемы безопасности в цифровом обучении. Подробно освещается

вклад цифровых образовательных технологий в образовательный процесс, педагогическую подготовку учителей, методы освоения ими современных образовательных технологий. В статье даются важные рекомендации по повышению качества образования, предоставлению более качественного образования учащимся и развитию их цифровых компетенций путем обучения учителей эффективному использованию цифровых инструментов.

Ключевые слова: методическая система, цифровые инструменты, интерактивные платформы, индивидуальный подход, игры и интерактивные материалы, анализ и оценка, педагогический семинар, локализация ресурсов, программа наставничества.

METHODOLOGICAL SYSTEM FOR TRAINING PRIMARY TEACHERS TO USE DIGITAL TECHNOLOGIES IN MOTHER LANGUAGE

Annotation: This article is devoted to the study of the methodological system for training primary school teachers to effectively use digital technologies in mother language. Today, enriching the educational process with modern technologies, especially in primary school, helps to make the learning process of students more effective and interesting. This methodological system considers new approaches to

teaching mother tongue subject using digital tools and interactive platforms, methods for improving digital competencies in teacher training, and enriching lessons with interactive and multimedia materials. The article also discusses the integration of digital technologies for teachers, the development of lesson plans and teaching materials, the assessment of students' knowledge, and security issues in digital education. The contribution of digital educational technologies to the educational process, the pedagogical training

of teachers and the methods used in their mastery of modern educational technologies are also discussed in detail. The article provides important recommendations aimed at improving the quality of education, providing students with better knowledge and developing their digital competencies by teaching teachers the effective use of digital tools.

Keywords: Methodological system, digital tools, interactive platforms, individual approach, games and interactive materials, analysis and evaluation, pedagogical seminar, resource localization, mentoring program.

Kirish. Bugungi kunda u yoshlarni ijtimoiy - siyosiy jihatdan ko'nikmalarini shakllantirib tabiat, jamiyat, ijtimoiy hayot, tafakkur taraqqiyotini o'rgatadi, yoshlarni mehnat faoliyatiga tayyorlab, kasb-hunar sirlarini puxta egallashlarida ko'maklashadi va jamiyat uchun muhim bo'lgan ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatlarni hal etadi. Ana shu mas'uliyat o'qituvchidan o'z kasbining mohir ustasi bo'lishni, o'quvchilarga tarbiyaviy ta'sir ko'rsatib, ularning qiziqishi, qobilyati, iste'dodi, e'tiqodi va amaliy ko'nikmalarini har tomonlama rivojlantirish yo'llarini izlab topadigan kasb egasi bo'lishni talab etadi. Buning uchun doimo o'qituvchilarning kasbiy mahoratini, ko'nikma va malakalarini oshirib borish, ularga har tomonlama g'amxo'rlik qilish, zarur shart va sharoitlar yaratish, kerakli moddiy va ilmiy - metodik hamda texnik yordam ko'rsatish, o'qituvchilarning ijodiy

tashabbuskorligini muntazam oshirib borishga ko'maklashish zarurdir. Olib borayotgan ilmiy tadqiqotimizning asosiy maqsadi – O'zbekistonda bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini, o'quvchilarini intellektual rivojlantirishga metodik tayyorgarligini takomillashtirib, didaktik imkoniyatlarini, metodlarini aniqlab uni pedagogik jarayonga tatbiq etishdan iborat. Hozirgi vaqtda bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari metodik tayyorgarligini takomillashtirishda, o'quv jarayoniga zamonaviy pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan o'z o'rnida foydalanish bilan bir qatorda xalqaro baholash dasturlari bilan ham chambarchas bog'liq. Bu, ayniqsa, ona tili fanini o'qitish jarayonida juda zarur. O'qituvchilarning kasbiy-metodik tayyorgarligi ularning kasbiy faoliyatga doir bilimlar, ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil qilish, o'z-o'zini rivojlantirish kabi asosiy kasbiy faoliyat sohaslarida aks etadi. Bu esa o'z navbatida, o'qituvchining o'z fanini o'qitishga doir bilimlarni mukammal bilishi va harakatga keltirishi, ta'lim jarayonini loyihalash, tashkil qilish va baholash uchun zarur bo'lgan tayanch kompetensiyalarni egallashi, shuningdek, o'qitish va tarbiyalash jarayonini ta'lim sohasidagi innovatsion ilmiy yutuqlar, zamonaviy pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asosida intensiv tashkil etish, uzluksiz va tizimli o'z-o'zini rivojlantirishni talab etadi. Zamonaviy jamiyatdagi tub o'zgarishlar oliy ta'limni sezilarli darajada qayta yo'naltirishni, ta'lim shakllari, vositalari va usullarini optimallashtirishni, mutaxassislar tayyorlash samaradorligini oshirishning yangi usullarini talab qiladi. Bugungi kunda innovatsion axborot texnologiyalarini ta'lim jarayoniga integratsiya qilishga qiziqish ortib bormoqda. Ta'lim jarayoniga zamonaviy axborot texnologiyalarini qo'llash, o'quvchilarga o'rganayotgan bilimlarini o'zlari qidirib topib, mustaqil bajarib-o'rganib, xulosa chiqarish va tahlil qilish imkoniyatlarini beradi. Bunday pedagogik

jarayonda o'qituvchi o'quvchilarni har tomonlama barkamol shaxs sifatida bilim olishiga texnologiyalarning ta'limiy va tarbiyaviy ahamiyatiga e'tibor bermog'i lozim [1; 1-b]. Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. O'qituvchilarning axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini (AKT) qo'llash bo'yicha malakasi o'quv dasturiga teranroq integratsiyalashuviga va ta'lim sifatini oshirishga olib kelishi mumkin. Biroq, uni qo'llash va taqsimlash muammolari resurslar tengsizligi va ijtimoiy adolatsizlikka olib kelishi mumkin. Tadqiqotimiz o'qituvchilarning AKT kompetensiyasiga ta'sir etuvchi vositalarni hamda o'qitishning metodik tizimini o'rganadi. Ushbu masala butun dunyo uchun dolzarb masalalardan biri bo'lib kelmoqda. Xitoy olimi Vey Chjao o'qituvchilarning AKT kompetensiyasini ro'jalantirish va ushbu tizimni tashkil qilishning modelini Xitoyning Xebey provinsiyasidagi boshlang'ich sinf o'qituvchilarida empirik ma'lumotlaridan foydalangan holda shahar va qishloq sharoitlarida tadqiqot o'tkazdi.[2; 10-b] Ushbu olimning tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, shahar va qishloq o'qituvchilari o'rtasida yangi raqamli tafovut mavjud va raqamli muhit va yangi raqamli tafovutni aks ettiruvchi raqamli savodxonlikdagi farqlar o'qituvchilarning AKT kompetensiyasiga turli darajada ta'sir qiladi. Yosh va mavzu ham o'qituvchilarning AKT kompetensiyasiga ta'sir qiladi. Yangi davrda biz o'qituvchilarning AKT bo'yicha malakasini oshirish uchun bilimlarni egallash, bilimlarni

chuqurlashtirish va bilim yaratishdan boshlashimiz mumkin. Ikkinchi tomondan Norvegiyalik yosh olim Xavard Skaar [3; 7-b] oldingi va hozirgi zamonaviy o'qituvchilarning tajribalarini solishtirish orqali ularni AKT bilimlarini sinab ko'rdi. Tadqiqot natijasida u Norvegiyaning bir qancha hududlaridagi o'qituvchilar talab darajasida emasligini aniqladi va bunga ta'lim sifatini sabab qilib ko'rsatdi. Albatta bu muammoni O'zbekistonning hududida ham uchratish mumkin. Bundan tashqari yana bir qancha Yevropalik olimlar Boshlang'ich sinf o'qituvchilarini ona tili fanida raqamli texnologiyalardan foydalanishga o'rgatish mavzusida xalqaro miqyosda bir qator olimlar tadqiqotlar olib borgan. Xususan, Dr. Hilda Borko, [3; 7-b.] Prof. Dr. Birgit Eickelmann, [5; 4-b.] Dr. A. G. Picciano [6; 8-b.] tomonidan olib borilgan tadqiqotlar raqamli texnologiyalarni ta'lim jarayonida samarali qo'llashga qaratilgan bo'lib, bir qator yutuqlarga erishilgan. Jumladan, o'qituvchilarni raqamli kompetensiyalarga o'rgatish, interaktiv vositalar va big data orqali ta'lim sifatini oshirish, shuningdek, o'quvchilarning qiziqishini kuchaytirish borasida muvaffaqiyatli tajribalar yaratilgan. Biroq, bu tadqiqotlarda ayrim kamchiliklar ham kuzatilgan. Xususan, texnologiyalarning iqtisodiy jihatlari, qashshoq va chekka hududlarda joriy etishdagi muammolar, shuningdek,

o'quvchilarga haddan tashqari texnologiyalar bilan ishlashning salbiy ta'siri yetarlicha o'rganilmagan. Shunga qaramay, ushbu tadqiqotlar ta'lim jarayonida raqamli texnologiyalarni rivojlantirish uchun mustahkam nazariy va amaliy asos yaratgan. Bu yutuqlarni mahalliy sharoitlarga moslashtirish va kamchiliklarni bartaraf etish raqamli ta'lim samaradorligini oshirishda muhim qadam bo'lib xizmat qiladi. Yuqoridagi tadqiqotlarni o'rganib chiqqan holda mavzuga chuqur yondoshib Denov tumanidagi 81-5-maktablarida tadqiqot olib borildi. Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot davomida quyidagi metodik tizimlarni joriy etish zaruriyati borligi aniqlandi.

1. Pedagogik seminar va treninglar. O'qituvchilarni raqamli texnologiyalar bilan tanishtirish uchun maxsus trening va seminarlar tashkil etish muhimdir.

Bu treninglar quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- a) Praktik mashg'ulotlar: Har bir texnologiyani real dars sharoitida qo'llash bo'yicha amaliy tajribalar.
 - b) Kollektiv ishlash: O'qituvchilarning bir-biridan o'rganishiga imkoniyat yaratish.
2. Resurslarni mahalliyashtirish. Raqamli texnologiyalarni ona tili faniga moslashtirish uchun milliy o'quv materiallarini ishlab chiqish lozim. Masalan, o'zbek tili grammatikasi va lug'atini qamrab oluvchi interaktiv ilovalar, bolalar uchun moslashtirilgan multimedia materiallar (videolar, audiolar).
 3. Mentorlik dasturi. Boshlang'ich tajribaga ega bo'lmagan o'qituvchilarni tajribali raqamli pedagoglar bilan birlashtirish orqali malaka oshirishga yo'naltirish. Shu bilan birgalikda dars jarayonida raqamli texnologiyalarni qo'llash usullarini tavsiya qilaman.
1. Individual yondashuv. Har bir o'quvchining o'zlashtirish darajasini hisobga olib, ularning ehtiyojlariga mos texnologiyalarni tanlash: -kam o'zlashtirayotgan o'quvchilar uchun interaktiv mashqlar.

-tez o'zlashtirayotgan bolalar uchun qo'shimcha onlayn topshiriqlar.

2. O'yinlar va interaktiv materiallar. O'quvchilarning qiziqishini oshirish uchun darslarda o'yin texnologiyalarini qo'llash: -kahoot yoki Quizizz platformalarida ona tili mavzulari bo'yicha testlar yaratish. -interaktiv hikoya yaratish (Storybird yoki boshqa ilovalar).

3. Tahlil va baholash. Raqamli texnologiyalar yordamida natijalarni real vaqtda tahlil qilish va baholash imkoniyati: -elektron jurnal yoki baholash tizimlaridan foydalanish. -o'quvchilarning o'z-o'zini baholashini qo'llab-quvvatlash. Raqamli texnologiyalarni ona tili fanida qo'llash faqat bilim berish bilan cheklanmay, balki madaniy merosni saqlash va rivojlantirishda ham yordam beradi: -milliy qadriyatlarni o'rganish: Interaktiv vositalar orqali milliy she'rlar, maqollar va hikoyalarni o'rganish; -madaniy muloqot: Bolalarga raqamli platformalarda o'z madaniy merosini ifoda etish imkoniyatini berish. Amaliy natijalarni tahlil qilish Tizimni qo'llash natijasida quyidagilar kuzatilishi kutiladi:

1. O'quvchilarning darsga qiziqishi va bilim olishga bo'lgan intilishi ortadi.
2. O'qituvchilarning pedagogik mahorati zamonaviy talablar darajasiga ko'tariladi.
3. Milliy tilni o'qitishda innovatsion yondashuvlar joriy qilinadi. Olib borilgan tadqiqotlar ta'lim tizimida o'qituvchi shaxsi uchun samarali yo'llarni ham taklif qildi va ishlab chiqdi. Chunki zamon ilmiy hamjamiyat

pedagog xodimlardan sifatli ta'lim-tarbiya berishni, o'quvchi yoshlardan esa puxta bilim olishni talab etadi. Bu o'z navbatida har bir o'qituvchi zimmasiga yanada yuksak mas'uliyat va vazifalarni yuklaydi [7; 6-b.]

Tahlil va natijalar. So'nggi ikki o'n yillikda o'qituvchilarning o'qituvchi shaxsi kontseptsiyasiga e'tibor ortib bormoqda, bu ko'p qirrali konstruktsiya sifatida tushunilishi mumkin bo'lgan o'qitish motivatsiyasi darajasini, o'qituvchi sifatida o'zini imidjini, o'qitishdagi samaradorlik hissini va

ma'qullashni o'z ichiga oladi. Bu ortib borayotgan e'tibor, asosan, o'qituvchilarning kasbiy identifikatori sinfda kuzatilgan xatti-harakatlari uchun muhim qo'llanma bo'lib xizmat qiladi degan fikrga bog'liq bo'lishi mumkin [8; 175-189-b.] Boshlang'ich sinf o'qituvchilarini ona tili fanida raqamli texnologiyalardan foydalanishga o'rgatish bo'yicha olib borilgan tadqiqot natijalari quyidagilarni ko'rsatdi:

1. O'qituvchilarning dastlabki tayyorgarligi holati. Tadqiqot o'tkazilishidan oldin boshlang'ich sinf o'qituvchilari orasida so'rovnoma va diagnostika o'tkazildi. Natijalar quyidagicha bo'ldi: 63% o'qituvchi raqamli texnologiyalarni darslarda qanday qo'llashni bilmas edi. 27% o'qituvchi faqat PowerPoint va PDF formatidagi materiallardan foydalanardi. Faqatgina 10% o'qituvchi interaktiv ilovalar (Quizizz, Kahoot, Google Forms) bilan ishlash tajribasiga ega edi. Bu natijalar boshlang'ich sinf o'qituvchilarining ko'pchiligi raqamli vositalar bilan ishlash ko'nikmalariga ega emasligini ko'rsatdi.
2. O'quv jarayonida raqamli texnologiyalarni qo'llash samaradorligi. O'quv kurslari va treninglar o'tkazilgandan so'ng, o'qituvchilar raqamli texnologiyalarni o'z darslarida qo'llay boshladilar. Natijalar: Dars ishtirokchiligi: O'quvchilarning darsga qiziqishi va faol ishtiroki 35% ga oshdi. Bilim darajasi: Ona tili bo'yicha yozma va og'zaki imtihon natijalari avvalgi ko'rsatkichlardan o'rtacha 20% yuqori bo'ldi.

Interaktivlik: O'quvchilarning bir-biri bilan muloqot qilish va jamoaviy ishlash ko'nikmalari rivojlandi. Misol: Interaktiv ilovalar yordamida o'tkazilgan lug'at boyligini oshirishga yo'naltirilgan darslarda o'quvchilarning yangi so'zlarni yodlash samaradorligi 25% ga oshdi.

3. O'qituvchilarning malaka darajasi oshishi. Raqamli texnologiyalarni o'rgatish dasturidan so'ng, o'qituvchilarning bilim darajasini baholash quyidagilarni ko'rsatdi: 85% o'qituvchi ona tili darslarida interaktiv taqdimotlar tayyorlashni o'zlashtirdi. 70% o'qituvchi Quizizz, Kahoot va Google Forms kabi vositalardan mustaqil foydalanishni boshladi. 60% o'qituvchi o'quvchilar uchun maxsus o'yin tarzidagi mashqlarni ishlab chiqdi.

4. Raqamli texnologiyalarning o'quvchilarga psixologik ta'siri. Tadqiqot davomida raqamli texnologiyalar o'quvchilarga qanday ta'sir qilgani ham o'rganildi. Natijalar: O'quvchilarda darsga bo'lgan motivatsiya oshdi. Ayniqsa, o'yin tarzidagi texnologiyalar bolalarning darsga bo'lgan qiziqishini kuchaytirdi. O'quvchilarning kreativ fikrlash qobiliyati rivojlandi. Masalan, Storybird platformasida ijodiy hikoya yozish bo'yicha mashqlar bolalarning ijodkorlik darajasini oshirdi. Ayrim o'quvchilarda texnologiyalarga qaramlik yoki texnik qiyinchiliklar sabab darsdagi faoliyatda qisqa muddatli pasayish kuzatildi, lekin bu muammo o'qituvchilarning nazorati ostida hal etildi.

5. Raqamli texnologiyalarning tizimli qo'llanilishi natijalari.

Metodik tizimni joriy etish natijasida: Ona tili darslarining mazmuni boyidi. O'quvchilar endi nafaqat nazariy bilim, balki amaliy ko'nikmalarni ham egallashdi. O'quvchilarning mustaqil ta'lim olish ko'nikmalari kuchaydi. Masalan, Google Classroom yoki Edmodo platformalarida mustaqil topshiriqlarni bajarish samaradorligi oshdi. Milliy qadriyatlarini rivojlantirishda texnologiyalar yordamida yangi yondashuvlar ishlab chiqildi (maqollarni multimedia formatida o'rganish).

Xulosa. Ushbu tadqiqot boshlang'ich sinf o'qituvchilarini ona tili fanida raqamli texnologiyalardan foydalanishga o'rgatishning metodik tizimini o'rgandi. Raqamli ta'lim muhitida bo'lajak boshlang'ich maktab o'qituvchilarining malakasini oshirish bo'yicha boshlang'ich adabiyotlarni o'rganib chiqdi. Boshlang'ich sinf o'qituvchilarini ona tili fanida raqamli texnologiyalardan foydalanishga o'rgatishning metodik tizimi ta'lim jarayonining sifatini oshirishda muhim ahamiyatga ega. Zamonaviy raqamli vositalar yordamida ona tili darslarini qiziqarli va samarali tashkil qilish imkoniyati yaratiladi. Ushbu tizimni keng joriy etish orqali ta'limning innovatsion yondashuvlarini yanada rivojlantirish mumkin. Tadqiqot natijalari boshlang'ich sinf o'qituvchilarini raqamli texnologiyalardan foydalanishga o'rgatishning samaradorligini tasdiqlaydi. Ushbu metodik tizim o'quv jarayonini zamonaviylashtirishga va samaradorligini oshirishga xizmat qiladi; O'qituvchilarning

kasbiy kompetensiyasini yuqori darajaga olib chiqadi; O'quvchilarning bilim olish jarayonida faolligini oshiradi va ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantiradi. Ushbu natijalar metodik tizimni yanada kengroq miqyosda joriy etish zarurligini ko'rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Zhao, W. (2024). A study of the impact of the new digital divide on the ICT competences of rural and urban secondary school teachers in China. *Heliyon Journal*, 15 April, 12 pages.
2. Yusupova, N. (2022). Boshlang'ich sinf ona tili darslarida axborot texnologiyalardan foydalanish. *Новости образования: исследование в XXI веке, № 3(100), часть 1, октябрь.*
3. Skaar, H. (2018). Literature in decline? Differences in pre-service and in-service primary school teachers' reading experiences. *Teaching and Teacher Education*, 69, 312–323.
4. Picciano, A. G. (2017). The evolution of big data and learning analytics in American higher education. *Journal of Asynchronous Learning Networks*, 16(3), 9–20.
5. Eickelmann, B. (2020). Digital transformation in schools: Developing digital competences in education. *Computers & Education*, 98, 235–250.
6. Dehqonova, M. (2023). Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini metodik tayyorgarligini takomillashtirish texnologiyasini ishlab chiqish va amalga oshirish xususiyatlari. *Oriental Renaissance: Innovative, Educational, Natural and Social Sciences Journal*, 3(4/2), April.
7. Borke, H. (2021). Professional development and teacher learning: Mapping the terrain.

- Educational Researcher, 33(8), 3–15.
8. Beauchamp, C., & Tomas, L. (2009). Understanding teacher identity: An overview of issues in the literature and implications for teacher education. *Cambridge Journal of Education*, 39(2), 175–189.



"TISU ilmiy tadqiqotlari xabarnomasi" ilmiy-uslubiy jurnali

<https://scientific.tues.uz>
ISSN 2992-9016

Esonova Ro'zigul Ilhom qizi, Termiz iqtisodiyot va servis universiteti

1-bosqich magistranti

Ilmiy rahbar: Saloxitdinova Navro'za Murodulla qizi Termiz iqtisodiyot va servis universiteti pedagogika fanlari bo'yicha falsafa fanlari doktori (PhD), dotsent
e-mail: navroza_saloxitdinova@tues.uz

"TABIY FANLAR" DARSLARINI "4K" MODEL ASOSIDA TASHKIL ETISHNING METODIK ASOSLARI (Boshlang'ich sinflar misolida)

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang'ich sinflarda "Tabiiy fanlar"ni o'qitish orqali o'quvchilarga atrofidagi olam haqida dastlabki tushunchalar, ma'lumotlarni berish samarali usul sifatida berilgan. Bu jarayonda o'quvchilarni tabiatga moslashishi, unda beriladigan bilimlar esa bosqichma-bosqich amalga oshirilishi haqida aytib o'tilgan. Hamda o'qitishda "4K" zamonaviy ta'lim texnologiyalaridan unumli foydalanish samaradorligi, ta'lim mazmuni, o'qitish metodlari, vositalari va shakllarini uyg'unlashtirilgan holatda darslarni tashkil etish, o'quvchilar shaxsiga individual hamda umumiy yondashish, o'qitish metodikasini takomillashtirishda ilk invariant va variativ jihatlari yoritilgan.
Tayanch so'zlar: Boshlang'ich sinflar, "Tabiiy fanlar", o'qitish metodlari, atrofdagi olam, kichik yoshdagi o'quvchilar, innovatsiya, ilk invariant, variativ, "4K" zamonaviy ta'lim, pedagogik texnologik dars, shakl, metod, vosita.

МЕТОДИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ОРГАНИЗАЦИИ УРОКОВ ПО «ЕСТЕСТВЕННЫМ НАУКАМ» НА ОСНОВЕ МОДЕЛИ «4К»

(На примере начальных классов)

Аннотация. В данной статье рассматривается эффективный метод обучения учащихся начальных классов дисциплине «Естественные науки», направленный на формирование у них первоначальных представлений и знаний об окружающем мире. Упоминается, что процесс адаптации учащихся к природе и освоение знаний осуществляется поэтапно. Также подчеркивается эффективность использования современных образовательных технологий «4К» в обучении, гармоничное сочетание содержания образования, методов, средств и форм обучения при организации уроков. Отдельное внимание уделяется индивидуальному и общему подходу к личности учащихся, а также освещаются инвариантные и вариативные аспекты совершенствования методики обучения.
Ключевые слова: начальные классы, естествознание, методика обучения, окружающий мир, юные школьники, инновация, первый инвариант, переменная,

современное образование «4К», педагогик-технологический урок, форма, метод, инструмент.

"METHODICAL FOUNDATIONS FOR ORGANIZING NATURAL SCIENCE LESSONS BASED ON THE '4K' MODEL

(An Example of Primary School Classes)"

Abstract: This article discusses an effective method of teaching "Natural Sciences" in primary school to provide students with initial concepts and knowledge about the surrounding world. It highlights the gradual adaptation of students to nature and the step-by-step implementation of the knowledge provided. Additionally, the article emphasizes the effectiveness of utilizing modern "4C" educational technologies in teaching, the harmonious integration of educational content, teaching methods, tools, and forms in lesson organization. Special attention is given to both individual and general approaches to students' personalities, as well as to the invariant and variable aspects of improving teaching methodology.
Keywords: Primary grades, natural science, teaching

methods, the world around us, young schoolchildren, innovation, first invariant, variable, modern education.

Kirish. Mamlakatimizning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti yuqori darajali, sifatli kadrlar tayyorlash salohiyatiga bogʻliq boʻlgan bu davrda yangi Oʻzbekistonning dastlabki kunlaridanoq jahon andozalari darajasida kadrlar tayyorlashning milliy tizimini yaratish vazifasi qoʻyilgan. Buning uchun yangi avlod darsliklaridan foydalangan holda “4K” metodlarini qoʻllab, boshlangʻich sinflarda “Tabiiy fanlar”ni chuqur oʻzlashtirishi lozimligi ahamiyatlidir. Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Ushbu tadqiqot mavzusi doirasida quyidagi ilmiy ishlarda: boshlangʻich sinf oʻquvchilarida tabiatga boʻlgan qiziqishni shakllantirishning pedagogik asoslari boʻyicha Mirzaxmedova Sh.M., Muhammadiyev K.B. tomonidan oʻquvchilarning atrof-muhitga ehtiyotkor munosabatda boʻlishga tayyorlash nazariyasi va amaliyoti, Musayeva M.E. tomonidan oʻquvchilarda tabiat neʼmatlariga muhabbatni shakllantirish, p.f.n. diss. Maʼmurov B.B. tomonidan oʻquvchi shaxsiga yoʻnaltirilgan oʻquv-bilish jarayonini tashkil etishning pedagogik shart – sharoitlari, Haydarova S.A. maktab oʻquvchilarining geografiya fanidan amaliy kompetensiyasini shakllantirish, UNESCO. Education for Sustainable Development Goals, Care E., Kim H., Vista A., Anderson K. Education Framework for 21st Century Learning, The Partnership for 21st Century Learning dissertatsiya tadqiqotlari, monografiyalari va bir qator maqolalarida uchraydi Tadqiqot metodologiyasi. Maqola umum qabul qilingan ilmiy metodlar- ilmiylik, qiyosiy-mantiqiy tahlil, ketma-ketlik va xolislik tamoyillari asosida yoritilgan hamda aynan shu metodologik asoslardan kelib

chiqib, kichik yoshdagi oʻquvchi yoshlarga muhitni muhofaza qilish yoki uni yaxshilash boʻyicha hozirgi zamon ekologik muammolarini ilmiy asoslangan holatda tabiatga oid ilk invariant va variantiv tushunchalar haqida bilimlar berish nazarda tutilgan. Tahlil va natijalar. Boshlangʻich sinf oʻquvchilari oʻquv faoliyati individuallashtirish orqali ularni intellektual rivojlantirilishi bugungikunda didaktikaning dolzarb muammolaridan biri sanaladi. Bu esa taʼlimning turli bosqichlarida turli yoʻnalishda yechilishi mumkin. Chunki boshlangʻich sinf oʻquvchilari oʻzlariga xos boʻlgan turli koʻrsatgichlar orqali oʻzaro bir-birlaridan farq qiladilar. Shuning sababdan ham boshlangʻich sinflarda tabiiy fanlarni oʻqitish

uchun ilk invariant va variantiv tushunchalarning shakllantirish jarayoni turlicha qiyinchiliklar bilan kechadi. Kichik yoshdagi oʻquvchilarni tabiatsevar qilib tarbiyalash uchun, avvalo umumiy tarbiyani oʻz oldiga qoʻygan maqsad va vazifalarini bilib olish kerak. Umumiy tarbiyani singdirish mobaynida tabiat elementlari, uning boyliklari, jonli-jonsiz tabiatni asrash nuqtai nazardan kelib chiqib, yoshlarni uning sir-asrorini toʻliq bilishga, oʻrganishga va ulardan oqilona foydalanishga oʻrgatishimiz lozim [1]. Atrofimizdagi olam bilan tanishish boʻyicha materiallarni oʻrganishda esa oʻquvchilarning bilish faoliyatini takomillashtirish va ularni har taraflama yetuk shaxs boʻlib rivojlanishi maqsadida taʼlimiy va tarbiyaviy rivojlantiruvchi maqsadlar hal qilinib olsak maqsadga muvofiq boʻladi. Oʻquvchilarga oʻz qishlogʻi yoki shahalari misolida jamiyat hayoti tanishtiriladi. Bu orqali esa kichik yoshdagi oʻquvchilarning tabiatga oid boʻlgan ilk invariant va variativ tushunchalari shakllantiriladi. Boshlangʻich sinf oʻquvchilarini tabiat bilan tanishtirishda, tabiatda sodir boʻladigan voqea - hodisalarning, oʻsimliklarning, hattoki hayvonot olamining roli beqiyosdir. Bunda esa boshlangʻich sinflarda tabiiy fanlarni oʻqitishda ilk variantiv tushunchalarni shakllantirishdan avval, kichik yoshdagi oʻquvchilarga atrofimizdagi olam haqida eng dastlabki kichik boʻlsada maʼlumotlar beriladi. Bu jarayonda kichik yoshdagi oʻquvchilarning tabiatga moslashishi bosqichma-bosqich amalga oshiriladi [2]. Bilamizki, bola psixologiyasida togʻridan togʻri berilgan, uzviyligi boʻlmagan tushunchalar oʻzlashtirish jarayoni murakkab boʻladi. Avvalo, uni maktabga kelganligi, maktab muhitiga moslashishida

unga shu atrof- muhitga tegishli ma'lumotlar berib borilishi va o'sha ma'lumotlar asosida ega bo'lgan tushunchalarni sekin-asta tabiatga bog'lab o'tilishi maqsadga muvofiq bo'ladi va o'quvchilar bilimi shakllantirilib boriladi. Boshlang'ich sinflarda o'quvchilarga tabiiy fanlarni o'qitishda ilmiy tushunchalar berib boriladi. Bu esa tushuncha va bilimlarni o'quvchilarga birinchi sinfdan o'zlashtirilishiga, ikkinchi, uchinchi va to'rtinchi sinflarda kengaytirilgan holda, chuqurlashtirilib o'rganishiga zamin yaratadi. Birinchi hamda ikkinchi sinflarda o'quvchilar xotirasi, fikrlashi, mushohada yuritishi, tasavvur qilishi kabi ko'nikmalari yosh xususiyatiga ko'ra, ancha tor doiraga ega bo'ladi. Shu sabab ham beriladigan bilimlar soda va hayotiy tarzda darslik materiallarida mujassam bo'ladi va faqatgina shular bilan cheklanadi. Boshlang'ich sinf o'quvchisi atrofida bo'layotgan voqea-hodisalarga oid tushunchalarni bolalarning maktabga kelganida, maktab nima ekanligini, sinfxona, dars jarayonlari haqida tushunchalar beriladi. Bu jarayonlarga qanday munosabatda bo'lishi kerak ekanligi, oila va mahallada bo'ladigan munosabatlar orqali o'quvchilarni hattoki ko'chada qanday harakatlanishi kerakligiga tegishli ko'rsatmalar ham beriladi. Maktab ta'limi kichik yoshdagi o'quvchilar hayotining o'ta muhim bosqichi hisoblanadi. Bu davrda ular shaxs bo'lib shakllana boshlaydilar. Aynan shu jarayonlarni to'g'ri yo'lga qo'yishda boshlang'ich sinf o'qituvchilarining ahamiyati muhim. Bu borada o'qituvchilardan mas'uliyat, yuksak salohiyat hamda kuchli bilim talab qilinadi. Bu esa boshlang'ich sinflarda tabiiy fanlarni o'qitishda o'quvchilarga tabiatni asrashlari, tabiat in'om etgan har narsani avaylashlari,

uning manbalaridan oqilona foydalanishlari, odam va uning salomatligiga doir bo'lgan tushunchalarni, foydali qazilmalarni va ularni davlat iqtisodiga ta'sirini bilishlari uchun dars soatlari ajratilgan. "Tabiiy fanlar"-bu tabiiy hodisalarni belgilovchi farazlarni tajribada tekshirish orqali nazariya yoki amaliy bilimlarni umumlashtiruvchi fandır. Unda har bir darsni o'tish jarayoni mobaynida shu darsni boshqa fanlar bilan bevosita bog'lagan holda o'tilishi lozim. Masalan: eng dastlabki tushunchalar deya qaraladigan, tabiatda o'zini tutish qoidalari, gullarni uzmaslik kerakligini, daraxt shohlarini sindirmaslik kerakligini tarbiya darslariga bog'lab, fanlararo aloqadorlikda tushuntirilsa 1-2-sinflar bemalol tushuna olishadi [4]. Boshlang'ich 3-sinflarda esa tabiiy fanlar o'quv fanlari takomillashtirilgan holatda keladi. Bunda asosan bizni o'rab turgan muhit, tabiat va undagi jismlar: tuproq, suv, havo, foydali qazilmalar, o'simlik hamda hayvonot dunyosi, sog'liqni va tabiatni himoyalash kabi tushunchalar beriladi. Boshlang'ich 4-sinflarda esa tabiiy jarayonlar, tabiiy fanlar o'quv materiallari bilan tanishtiriladi. Bu jarayonda o'quvchilarga tabiat bilan bog'liq mustaqil ishlar, ko'rgazma materiallar, she'rlar, hikoyalar haqidagi kerakli ilmiy manbalar beriladi. Unda tabiatni muhofaza qilishga bag'ishlangan mavzular, davlat qonunlari, "Qizil kitob" singari tushunchalar muntazam tashuntirilib boriladi. O'quvchilarga atrof-muhitni muhofaza qilish, uni ozoda saqlashga oid manbalarni singdirish jarayonlarini beshta fazaga bo'lib o'rganishimiz mumkin:

- dunyo moddiy hamda murakkab bog'lanishlar tizimidan iboratdir, uning elementlarining o'zgarishi esa o'zaro bog'liqlikda tizimlashtirilganligi;
- tabiatni muhofaza qilish dunyoning moddiylik qonuniyatlarining hamda ularni o'zaro ta'sirini, munosabatlarini ifodalay oladigan dastur, o'quv qo'llanmalari bor bo'lganligi;
- insoniyat, jamiyat va jonli tabiat evolyutsiyasining natijasidir, shu sababdan ham tabiatning ajralmas qismi bo'lganligi;
- paydo bo'lgan o'zgarishlar, tabiat va jamiyat orasidagi munosabatlarda boshqarma mexanizmning yo'qligi, taraqqiyot ilmiy-texnik jihatdan asoslanmaganligi;
- tabiatning jamiyat rivojlanish tezligiga ta'sir etishida uning munosabat xarakteriga ta'sir ko'rsata olmasligi [5].

Biz quyosh sistemasi va yerni "4K" metodlarini

qo'llab osonlik bilan tushuntirish imkoniga ega bo'lamiz, ya'ni "Raqamlar gapirganda" metodi, "Sendan keyin kim?" metodi va "oramizda kim yo'q" metodlari orqali bolalar quyosh sistemasi ketma-ketligini yerning joylashish qismini esda saqlay oladi va qiyichiliklarsiz muhokamaga kirisha olishadi [6; 98 b.]. O'quvchilarga mustaqil ishlar, topshiriqlar berib, ularning yaratuvchanlik kabi qobiliyatlarini shakllantirib borishimiz kerak. Atrofdagi olam, uning obyektlari haqida shakllangan tasavvurlarini o'quvchilar uchun mo'ljallangan o'quv mashg'ulotlari, didaktik hamda ijodiy o'yinlar, o'z-o'ziga xizmat va ijtimoiy foydali mehnatlar qilish jarayonlari bilan amaliy mustahkamlashdan iborat. Boshlang'ich sinflarda tabiiy fanlarni o'qitishda muayyan tamoyillarga tayanishimiz lozim. Chunki, tabiatga oid bo'lgan bilim va tushunchalar keng qamrovlidir. Ularni esa o'quvchilarga yetkazish o'ziga xos metodlarning qo'llanishini va muayyan tamoyillarga tayanishimizni taqozo etadi [7]. Shu jumladan: o'quvchilarga o'rgatiladigan tabiiy bilimlar tushunarli bo'lishi kerak; Tanlangan o'quv materiallari o'quvchilar o'zlashtirishlari uchun qo'shimcha vaqt talab qilinmasligi kerak; Milliy o'quv dasturi va darslikka kiritiladigan tabiatga oid tushunchalar boshlang'ich sinf o'quvchilarida qiziqish uyg'ota olishi kerak; O'quv materiallari ilmiy, amaliy yo'nalishga ega ekanligi ta'minlanishi kerak; Darsliklarda beriladigan tabiiy bilim, ko'nikma, tushunchalarning hududiy hamda umuminsoniy muammolar yuzasidan o'quvchilarning ongiga yetkazishda soda bo'lishi kerak; O'quvchilar o'zlashtiradigan tabiiy bilimlar, tushunchalar aniq va tushunarli bo'lishi kerak; O'quvchilarga

beriladigan bilimlar ekologik- iqtisodiy, ma'naviy-axloqiy me'yorlar bilan uyg'un holda taqdim etilishi kerak. O'rgatiladigan bilim, ko'nikma, tushunchalar o'quvchilarda tabiat hamda uning boyliklariga nisbatan ongli munosabatlarni qaror toptirishi kerak. [6]. Shunday qilib, ta'lim klasteri sharoitida maktab o'quvchilarining amaliy kompetensiyasini shakllantirishda kompetensiyaviy yondashuv o'zining o'qituvchiga qulayligi va o'quvchiga motivatsiya berishi bilan ahamiyatga ega. Boshlang'ich sinflarda tabiiy fanlarni "4K" modeli (kreativlik, kritik fikrlash, kommunikatsiya, kollaboratsiya) asosida tashkil etish samaradorligi

zamonaviy ta'limning muhim jihatlaridan biri hisoblanadi. Uning samaradorligi esa quyidagi asosiy jihatlar bilan izohlanadi [5; 26 b.]:

1. O'quvchilar ijodiy fikrlash qobiliyatlari rivojlantirishi: "4K" modeli kreativlikka judayam katta e'tibor qaratadi, bu esa o'quvchilarni tabiiy hodisalarni tahlil qilishdagi yangi g'oyalarini taklif qilish qobiliyatini oshiradi. Natijada, o'quvchilarning ijodiy fikrlashini rivojlantirib, yangi yondashuvlar, kashfiyotlar qilishga intilishadi.
2. Kritik fikrlash qobiliyatlarini shakllantirishi: o'quvchilar o'z atroflaridagi hodisalarni chuqur tahlil qiladi hamda o'z xulosalarini mantiqiy asoslay oladi. Masalan: tabiatdagi hodisalarni o'rganishida hodisalarning sababi uning oqibatlarini aniqlash ko'nikmalari mustahkamlanadi. Natijada, o'quvchilarning tanqidiy va analitik fikrlash ko'nikmalari ham rivojlanadi.
3. Kommunikatsiya ko'nikmalarining mustahkamlanishi: Guruhli faoliyatlarda muhokamalar orqali o'quvchilar o'z fikrlarini aniq va mantiqiy ifoda qilishini o'rganib oladilar. Bunda esa o'quvchilarda jamoa bilan ishlash muloqot qobiliyatlari rivojlanadi. Natijada, o'quvchilar bir-birlari bilan samarali muloqot qilishni va o'z fikrlarini himoya qilishni o'rganadilar.
4. Hamkorlik ko'nikmalarining rivojlantirilishi: Jamoaviy faoliyatlarda o'quvchilarning birgalikda ishlashiga, umumiy maqsadiga erishishiga unday oladi. Masalan: laboratoriya ishlarida, biror bir loyihalarni amalga oshirishida ular hamjihatlikda bir-birini qo'llab-quvvatlaydilar. Natijada, o'quvchilar guruhda ishlashi va jamoaviy qarorlarni qabul qilishidagi qobiliyatlarini rivojlantiradi.
5. Qiziqishlarni, motivatsiyalarni oshirishda interfaol usullarni, ijodiy vazifalarni va real hayotga asoslangan

loyihalarni o'quvchilarning tabiiy fanlarga bo'lgan ijobiy qarashini oshiradi. Natijada, o'quvchilar tabiatni o'rganishga judayam qiziqadilar va amaliy bilimlarni osonlik bilan o'zlashtiradilar hamda atrofda olamni o'rganishga intiladilar.

6. Mustaqil o'qish, izlanishlar bilan o'z-o'zini rivojlantirishda "4K" modeli o'quvchilarning mustaqil o'qib o'rganish va bilim olishdagi ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgandir. Masalan: o'quvchilar o'zlarini qiziqtirgan tabiiy hodisalar haqida mustaqil izlanishlar olib boradilar va yakuniy xulosalar qiladilar. Natijada, o'quvchilar o'zleri bilmagan holda doimiy ravishda bilimlarga ega bo'lishga hamda o'z qobiliyatlarini oshirishga intiladi.

7. Tabiiy fanlar bo'yicha yuqori natijalar olish uchun "4K" modeli asosida dars tashkil qilish o'quvchilarda tabiiy fanlar mavzularini yaxshiroq o'zlashtirishiga yordam beradi. O'quvchilar nafaqat mavzuni oson tushunadi va uni hayotiy misollar bilan bemalol bog'lay oladi. Natijada, o'quvchilarning tabiiy fanlarni o'zlashtirish daraja ko'rsatkichlari batamom oshadi [9].

Xulosa. Kichik yoshdagi o'quvchilariga xos bo'lgan ta'sirchanlik, unglarni tabiatdan zavqlanish hissini shakllantirish va ulardagi hissiy charchashni oldini olish uchun tabiat qo'ynida o'tkaziladigan mashg'ulotlarimiz sonini ko'paytirishimiz lozim. Albatta hissiy charchoqni pasaytiradigan mashqlaridan ham samarali foydalanishimiz, tabiat qo'yniga sayr-sayohatlarni, ekskursiyalarni tashkil etishimiz maqsadga muvofiqdir. Boshlang'ich sinf tabiiy fanlar darslarida "4K" modelidan foydalanishimiz bizga yuqori natijalar olib keladi: o'quvchilarning o'rganish jarayonlarini boyitibgina qolmay o'quvchilarga kognitiv (atrof-olam haqidagi bilim doirasini kengaytirish, bilish ehtiyojlarini rivojlantirish ta'limi)ni beradi. O'quvchilar materiallarni o'rganishi uchun ishtiyoq uyg'otadi. O'quvchilarning o'z shaxsiy

bilim ko'nikma, dunyoqarashlarini shakllantirish bo'yicha imkoniyatlarni keng miqyosda beradi. Axborotni ikki taraflama almashish samaradorligini tubdan oshiradi. O'quvchilarning mustaqil hayotida tayyorgarliklari uchun zarur bilimlar beradi va turli xildagi madaniyat va ijtimoiy-iqtisodiy darajaga ega bo'lgan guruhlar o'rtasida ijobiy munosabatlarni ilgari suradi. Hamkorlik- ta'lim jarayonida sub'yektlari bilan birgalashib faoliyatga kirishadi, o'rtoqlik, o'zaro bir- biriga yordam, jamotchilik kabilar yuzaga keladi. Natijada esa bugungi kundagi jamiyatning buyurtmasi bajariladi – raqobatbardosh hamda hamkorlikka shay bo'lgan turli hayotiy vaziyatlar bilan

yuzlashganda muammolarni darhol anglab, ularni hal qilishga dadillik bilan kirishuvchi, tafakkur kuchiga va o'ziga ishonuvchi, jamoada mustaqil mulohazalarini aytadigan, o'z fikriga ega, o'z dunyo qarashlarini himoya qiladigan, savodxon ilmi kadr larni tarbiyalamiz. "4K" modeldan unumli foydalanishimiz kelajagimizning egalari bo'lmish yosh avlodlarni har tomonlama rivojlantiradi va bugungi zamonaviy jamiyatga tezda muvaffaqiyatli moslasha olish uchun zarur bo'lgan ko'nikmalarni ularda osongina shakllantirishimizga qaratilganligi bilan yanada ahamiyatlidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Mirzaxmedova Sh.M. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida tabiatga bo'lgan qiziqishni shakllantirishning pedagogik asoslari: p.f.n., diss.... - T.: O'zPFITI, 2006. - 175 b.
2. Muhammadiyev K.B. O'quvchilarni atrof-muhitga ehtiyotkor munosabatda bo'lishga tayyorlash nazariyasi va amaliyoti. -T.: Fan va texnologiya, 2014, 172 b.
3. Musayeva M.E. O'quvchilarda tabiat ne'matlariga muhabbatni shakllantirish: p.f.n. diss. -T.: O'zJTU, 2011. - 165 b.
4. Ma'murov B.B. O'quvchi shaxsigayo'naltirilgan o'quv-bilish jarayonini tashkil etishning pedagogik shart - sharoitlari. Monografiya.- T.: "Nihol", 2014. -94-b.
5. Sangirova Z.B. [va boshq.]. Tabiiy fanlar 3-sinf darslik / - Toshkent: Respublika ta'lim markazi, 2022. - 136 b.
6. UNESCO. Education for Sustainable Development Goals: learning objectives, 2017.
7. Care E., Kim H., Vista A., Anderson K. Education system alignment for 21st century skills: focus on assessment. – Brookings institution, 2018.
8. Framework for 21st Century Learning. The Partnership for 21st Century Learning, 2015.



YOSHLAR O‘RTASIDA NIKOH QURISHDA MILLIY QADRIYATLARINI O‘RNINI BAHOLASH

Annotatsiya: Ushbu maqolada yoshlar o‘rtasida nikoh qurishda milliy qadriyatlarini o‘rnini baholashni maqsad qilib oldik. O‘zbekiston Respublikamizda oila va yoshlar o‘rtasida nikoh qurishda oilaviy munosabatlarga e‘tibor davlat siyosati darajasiga olib chiqilgan. “Mahalla va oila” ilmiy-tadqiqot instituti va “Oilaviy qadriyatlarni mustahkamlash” komissiyasi tashkil qilinishi, nikoh qurishda milliy qadriyatlarini o‘rnini asrab avaylashda salmoqli xizmat qilib kelmoqda.

Tayanch so‘zlar: Milliy qadriyatlar, oila, oilaviy qadriyatlar, yoshlar, ijtimoiy-ma‘naviy muhit, statistika.

ОЦЕНКА РОЛИ НАЦИОНАЛЬНЫХ ЦЕННОСТЕЙ В БРАКЕ МЕЖДУ МОЛОДЕЖЬЮ

Аннотация. В этой статье мы поставили перед собой цель оценить роль национальных ценностей в браке среди молодежи. В Республике Узбекистан внимание к семейным отношениям при заключении брака между семьей и молодежью поднято на уровень государственной политики. Создание научно-исследовательского института «Махалля и семья» и комиссии «Укрепление семейных ценностей» способствует сохранению места национальных ценностей в браке.

Ключевые слова: национальные ценности, семья, семейные ценности, молодежь, социально-духовная среда, статистика.

ASSESSMENT OF THE ROLE OF NATIONAL VALUES IN MARRIAGE AMONG YOUTH

Abstract: In this article, we aim to assess the role of national values in marriage between young people. In the Republic of Uzbekistan, when creating marriages between families and young people, attention to family relationships has been elevated to the level of state policy. The establishment of the Research Institute "Mahalla and Family" and the Commission "Strengthening Family Values" serves to preserve the place of national values in marriage.

Key words: National values, family, family values, youth, socio-

spiritual environment, statistics.

Kirish. O‘zbekiston Respublikamizda oila va yoshlar o‘rtasida nikoh qurishda oilaviy munosabatlarga e‘tibor davlat siyosati darajasiga olib chiqilgan [1]. Mustaqillikka erishilgan davrdan boshlab hozirgi kungacha oila muammosini tadqiq qilishda, avvalo bugungi yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash masalasiga alohida e‘tiborni qaratish lozim. Chunki ko‘p hollarda turmush qurgan ikki yosh o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarning nozik jihatlari haqida yetarli bilim, zaruriy ko‘nikma va malakaga ega bo‘lmaslik, qolaversa ikki yoshning bir-biri hamda oilaviy rollarning taqsimlanishi to‘g‘risidagi adekvat tasavvurlarning shakllanmaganligi ular munosabatlarining ijobiy kechishi va dinamik jihatdan rivojlanishiga salbiy ta‘sir ko‘rsatmoqda. Yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashning psixologik xususiyatlarini o‘rganish va tadqiq etish juda muhimdir. Chunki bu orqali hozirgi o‘zbek oilasining mustahkam va baxtli etish yo‘llarini aniqlash mumkin [2]. Shunday ekan, bu mavzu eng dolzarb masala hisoblanadi. O‘zbek xalqi azal-azaldan o‘z milliy qadriyatlarini va o‘ziga

xos ma'naviyatini shakllantirish va yuksaltirishda oilaga tayanib kelgan. Oilaning mustahkamligi, oilada ma'naviy muhitning milliy va umuminsoniy qadriyatlar bilan uyg'unligini ta'minlash davlat va jamiyatning eng asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi. Zero, Prezidentimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyev ta'birleri bilan aytganda, "Oila – kichik vatan, oila tinch, baxtli bo'lsa – vatan tinch bo'ladi". Shu sababli ham bizning mamlakatimizda oila – muqaddas dargoh, nikoh esa buzilmas rishta sifatida qaraladi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining XIV bobi oilaga bag'ishlangan. Bosh Qomusimizning 63-moddasida "Oila jamiyatning asosiy bo'g'inidir hamda jamiyat va davlat muhofazasida bo'lish huquqiga ega", deb ta'kidlangan. Shundan anglashimiz mumkinki, oilaning mustahkamligi, unda milliy va umuminsoniy qadriyatlarining qaror topishini ta'minlash davlatimizning asosiy hujjatida ham o'z aksini topgan [2-3-4]. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 18-fevraldagi "Jamiyatda ijtimoiy-ma'naviy muhitni sog'lomlashtirish, mahalla institutini yanada qo'llab-quvvatlash hamda oila va xotin-qizlar bilan ishlash tizimini yangi darajaga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5938-sonli farmoni zamonaviy oilani shakllantirishda va uning ijtimoiy-iqtisodiy va ma'naviy asoslari samaradorligini oshirishda metodologik asos bo'lib xizmat qilmoqda [5-6]. O'zbekistonda yangi jamiyatni barpo etish eng avvalo odamlarimizda bugungi murakkab zamonda turli yo'llar bilan kirib kelayotgan yot g'oyalarga qarshi sog'lom ma'naviy immunitetni

hamda ming yillar davomida shakllangan milliy qadriyatlarimizga suyanishni talab etadi [7-8]. Tadqiqot maqsadi: Yoshlar o'rtasida nikoh qurishda milliy qadriyatlarini o'rnini baholashda otabobolarmiz oila mustahkamligini taminlashda milliy qadriyat urf-odatlarimizni salmog'ini tadqiq etishdir. **Tadqiqot metodologiyasi.** Davlat statistika qo'mitasining ma'lumotiga ko'ra, 2022-yil 1-yanvar holatiga ko'ra, O'zbekistonda 8 871 412 ta oila yashamoqda. Eng ko'p oilalar yashayotgan viloyatlar Farg'ona viloyati bo'lib, u yerda 1 023 042 ta, Samarqand viloyatida 935 265 ta oila. Oilalar soni eng kam Navoiy viloyati bo'lib, unda 277 706 ta oila istiqomat qiladi. Farg'ona viloyatida eng

ko'p oilalar istiqomat qilayotgan bo'lsa-da, lekin Qashqadaryo viloyati serfarzand oilalari ko'pligi, xususan, 784 635 ta oilaning 114 959 tasi 4 yoki undan ko'proq farzandlari borligi bilan ajralib turadi. **Tahlil va natijalar.** Oilaviy qadriyatlar tarixiy sinovlarga bardosh bergan, xalqimizning milliy manfaatlarini o'zida mujassamlashtirgan, zamonaviy taraqqiyot talablariga to'la javob bera oladigan, asrlar o'tgani sayin qadr-qimmatini yanada oshib, sayqallanib boradigan g'oyalardir. Dunyodagi har bir xalq o'z qadriyatlariga suyanib ularga amal qilib, asrab-avaylab yashar ekan, oilada bunday vazifani ado etishda ayollarning alohida o'rne bor. Zero, oila kishi tafakkuri, ma'naviyati shakllanadigan, uning jamiyatdagi o'rnini belgilaydigan, xalq qadriyatlarini asrab-avaylaydigan tabarruk maskan, muhim ijtimoiy institutdir. Har qanday mamlakat hayotida yuz beradigan ijobiy o'zgarish, demokratik jarayonlar samarasi, ezgu umidlar, avvalo, oilalarda namoyon bo'ladi. Prezidentimizni chiqargan qaror va farmonlari ijrosini taminlash nuqtai nazaridan "Mahalla va oila" ilmiy-tadqiqot instituti tashkil etildi. Shuningdek, oilani mustahkamlash, onalik va bolalikni muhofaza qilish, ayollarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishga ko'maklashish maqsadida 9251 ta mahallalarda "Oilaviy qadriyatlarni mustahkamlash komissiyasi" tashkil etildi. Komissiyalar tarkibiga 45 810 nafar faollar tarbiyaviy ta'sir o'tkaza oladigan 7 654 nafar psixolog, 7 154 nafar

otinoyi va imom-xatiblar, 11 230 nafar nuroniy onaxon va otaxonlar, 19 772 nafar jamoatchi faollar jalb qilindi. Farmonning “Yo‘l xaritasi” asosida o‘tkazilgan “Ibratli oila” tanlovining mahallalararo, tuman (shahar) hamda viloyat bosqichlarida jami 23 941 ta oila ishtirok etdi. Ming afsuski, bugungi kunda oilaviy qadriyatlarimizga bepisandlik bilan qarayotgan odamlar ham talaygina. Ular har tomonlama qadriyatlarni o‘zgartirishga urinmoqdalar. Eng achinarlisi ular vaqt va makon tanlamaydi. Q a d r i y a t l a r i m i z n i n g qadrsizlanishining asosiy sabablari: Birinchidan, yoshlarning oilaviy qadriyatlarimizning mohiyati va ahamiyatini anglab yetmasligi. Ikkinchidan, nafaqat yoshlar, balki ayrim katta yoshli fuqarolarimizning o‘zlari ham oilaviy qadriyatlarni unutib qo‘yganligi. Uchinchidan, ijtimoiy tarmoqlar orqali oilaviy qadriyatlarimizga yot bo‘lgan qadriyatlarning targ‘ib qilinayotganligi. To‘rtinchidan, oilaviy va milliy qadriyatlar, urf odatlar, an‘analarning mazmun-mohiyati yosh avlod ongiga bolaligidan singdirib borilmayotganligi va hokazolar.

Xulosa: Yuqoridagilarni inobatga olib, ta’kidlash joizki oilalarni mustahkamlash, oilaviy qadriyatlarni saqlash va oilalardagi ijtimoiy-ma’naviy muhitni sog‘lomlashtirish bugungi kunning eng dolzarb muammolaridan biridir. “Mahalla va oila” ilmiy-tadqiqot instituti va “Oilaviy qadriyatlarni mustahkamlash” komissiyasi tashkil qilinishi nikoh qurishda milliy qadriyatlarini o‘rnini asrab avaylashda salmoqli xizmat qilib kelmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Arapbaeva D.K. Yoshlarning oilaviy xayotga moslashuvida ma’naviy-axloqiy masalalar. Zamonaviy ta’lim . Ilmiy maqola - №5 2016 .-S.36-41 s
2. Sobirova S A “Oila qurishda nikoh oldi omillari va motivlarining etnopsixologik xususiyatlari” Ijodkor o‘qituvchi jurnali 5 oktyabr 2023 yil // 32 – son.
3. Karimova V.M. Oila ma’rifati (yoshlarga oila ilmi haqida birinchi risola). Ilmiy-ommabop nashr. – T., 2009. –44-b.
4. Karimova V.M. Salomatlik psixologiyasi. – T.: «Yangi asr avlodi», 2005. –26-b
5. Egamberdiyeva N M “Zamonaviy oilada, farzand tarbiyasida milliy va umuminsoniy qadriyatlarni shakllantirish masalalari” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari to‘plamidan. 30-sentabr, 2021-yil.
6. Shoumarov G‘.B. Oilapsixologiyasi. (Akademik litsey va kasb-hunar kollejlari o‘quvchilari uchun o‘quv qo‘llanma). / G‘.B. Shoumarov tahriri ostida. – T.:«Sharq», 2008.–296-b.
7. Эйдемиллер Э.Г., Устицкис В.В. Психологию и психотерапию семи. –СПб.:Изд-во «Питер», Серия «Мастера психологии», 1999. –С. 656.
8. Musurmanova O “Zamonaviy oilani barpo etishda milliy va umuminsoniy qadriyatlarining o‘rni” “Zamonaviy oilada, farzand tarbiyasida milliy va umuminsoniy qadriyatlarni shakllantirish masalalari” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari to‘plamidan. 30-sentabr, 2021.



МАКТАБГАЧА ТА'ЛИМ ТАШКИЛОТЛАРИДА ИНКЛЮЗИВ ТА'ЛИМНИ ТАШКИЛ ETISH

Annotatsiya: Maqolada alohida ehtiyojga ega bo'lgan bolalarning hayotda o'z o'rinlarini topishlari uchun ularni ijtimoiy-maishiy hayotga moslashtirib borish hamda alohida ehtiyojga ega bo'lgan bolasi bor ota-onalarning savodxonligini, ularni ijtimoiy moslashtirish mexanizmini ishlab chiqish hozirgi kunda o'z yechimini kutayotgan muammolardan ekanligi, jamoatchilik tashkilotlari, mahallalar, imkoniyati cheklangan, alohida yordamga muhtoj bolalar ta'lim-tarbiyasi bilan shug'ullanuvchi maxsus muassasalar o'z tashabbuslarini ko'rsatishlari lozimligi haqida so'z borgan. **Tayanch so'zlar:** Inklyuziv ta'lim, alohida ehtiyojga muhtoj bola, ijtimoiy muhit, rivojlantiruvchi muhit, ota-ona bilan hamkorlik, ta'lim-tarbiya.

ОРГАНИЗАЦИЯ ИНКЛЮЗИВНОГО ОБРАЗОВАНИЯ В ДОШКОЛЬНЫХ УЧРЕЖДЕНИЯХ

Аннотация: В статье говорится о том, что адаптация детей с особыми потребностями к социальной и бытовой жизни для их успешной интеграции в общество, а также повышение грамотности родителей, имеющих детей с особыми потребностями, и разработка механизмов их социальной адаптации являются актуальными проблемами, требующими решения. Отмечается необходимость активного участия общественных организаций, местных сообществ и специализированных учреждений, занимающихся образованием и воспитанием детей с ограниченными возможностями и нуждающихся в специальной поддержке. Ключевые слова и словосочетания: инклюзивное образование, ребенок с особыми потребностями, социальная среда, развивающая среда, сотрудничество с родителями, образование, воспитание.

ORGANIZING INCLUSIVE EDUCATION IN PRESCHOOL EDUCATIONAL ORGANIZATIONS

Annotation: This article provides essential information to adapt children with special needs to social and household life so that they can find their place in life, and to develop a mechanism for the literacy and social adaptation of parents with children with special needs. that it is one of the problems waiting to be solved, public organizations, neighborhoods, special institutions dealing with the education and upbringing of children with disabilities and special needs have their own it was said that they should show their initiatives. **Key words:** Inclusive education, child with special needs, social environment, developmental environment, cooperation with parents, education.

Kirish. Jamiyat hayotida ta'lim siyosati har qaysi zamonda va makonda o'z o'rniga ega bo'lgan. Dunyo yaralibdiki, unda ta'lim va tarbiya olish yuksalish va o'rganish jarayoni uzluksiz davom etib keladi. Shu bilan birga jamiyat hayotida har bir inson o'z mavqeyiga va hech kim inkor qila olmaydigan haq-huquqlariga ega. Insonni sog'ligi jismoniy yoki ruhiy kamchiliklari uni hech qanday huquq va burchlaridan foydalanishga qarshi to'siq bo'la olmasligini ham har qaysi jamiyat tushuna oladi. Shularni inobatga olgan holda dunyo miqyosida inklyuziv ta'lim siyosati vujudga keldi va har qaysi mamlakatda rivojlanish darajasiga yeta olgan ta'limning bir bo'g'iniga aylanib ulgurdi.

Bolalarni himoya qilish xalqaro tashkiloti Konvensiya tizimiga o'zining asosiy maqsadi etib bola huquqlarini asos etib oladi. Bola huquqlari xalqaro Konvensiya hamma bolalarning ehtiyojini hisobga olgan, huquq va qobiliyatlarini hurmat qiladigan ta'lim tizimini yaratish g'oyasini ilgari surdi. Chunki har bir bolada – u sog'lommi yoki nogironmi – takrorlanmaydigan xarakter, qiziqish, imkoniyat va bilimga ehtiyoj bor.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida alohida ehtiyojlarga ega bo'lgan bolalar uchun mo'ljallangan ta'lim faoliyatini o'rganishda dunyo olimlari hamda hamda respublika olimlari tomonidan ilmiy, uslubiy jihatdan asoslangan holda o'z fikrlarini bildirishgan, jumladan: D.Ro'ziyeva, M.Tolipov, B.Xodjayev, M.Haydarov, F.Yuzikayev, X.Hasanov va boshqa olimlar o'zlarini fikrlarini ilmiy-tadqiqot ishimiz yuzasidan bildirishgan. Bundan tashqari jahon miqyosidagi olimlardan M.Gancharov, F.Frarov, M.Zaparojets, M.Malkova, A.Petrovskiy, E.Alkonin, V.Davidov, G.Ferkshteyn kabi jahon olimlari

maktabgacha ta'lim tizimini va uning mazmunini ilmiy-uslubiy jihatdan asoslab berganlar.

Tadqiqot metodologiyasi. Maxsus yordamga muhtoj bo'lgan bolalarni inklyuziv ta'limini tashkil etish yo'llarini o'rganish, unga doir adabiyotlar bilan ishlash, tahlil, dialog, amaliy, pedagogik kuzatish, pedagogik eksperiment, umumlashtirish, savol javob metodlaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalar. Hamma bolalarning ehtiyojlarini hisobga olgan, huquq va qobiliyatlarini hurmat qiladigan, ijtimoiy adolat hamda tenglikka erishishni maqsad qilib olgan ta'lim tizimi inklyuziv ta'lim deyiladi. [1; 7-b.]. Inklyuziv ta'lim nogiron bolalarni ta'lim jarayoniga integratsiya qilish

hamda ta'lim muassasalarini nogiron bolalarga moslashtirishni ko'zda tutadigan, ijtimoiy adolat va tenglikni bosh maqsad qilib olgan jarayondir. Inklyuziv ta'lim ijtimoiy modelga asoslanadi va u muammoni bolada emas, balki dastur va metodologiyada deb hisoblaydi. Bunday ta'lim tizimiga ba'zi bir o'zgartirishlar kiritishni taqazo etadi. Bunda har bir bolaning ehtiyojini hisobga olgan holda o'quv rejaları tayyorlanadi, uslubiyotning psixologik muammolari bilan bog'liq tomonlari to'g'ri yo'lga qo'yiladi. Inklyuziv ta'lim hamma bolalarni, shu jumladan, nogiron bolalarni ham o'zlari xohlagan maktabgacha ta'lim tashkilotida o'qishi mumkin, deb xulosa chiqaradi. Bolaning nogiron bo'lib qolishiga jamiyat, undagi muhit, tushunmovchiliklar, yo'l qo'yilgan xatolar sababchi bo'lgan. Demak, uning o'qishi uchun ham shu jamiyatning o'zi jon kuydirishi shart. Maxsus ehtiyojli bolalar, boshqa bolalar, o'qituvchi va tarbiyachilar faoliyati inklyuziv ta'limda o'ziga xos o'rin tutadi. Bunday ta'lim tufayli maxsus ehtiyojli bolalar:

- jismoniy va ruhiy ehtiyojlarini qondiradilar;
- ijtimoiy xulq va o'ziga-o'zi xizmat ko'rsatish malakalarini yaratadilar;
- ularning imkoniyatlarini hisobga olgan o'quv materiallarini o'zlashtiradilar;
- tengqurlari bilan turli o'yinlarda ishtirok etib rivojlanadilar;
- jismoniy tarbiya darslarida shaxmat-shashka o'yinlari, turli sport musobaqalarida vaqtni kuzatuvchi hakam yoki darvozabon bo'lishlari mumkin;

- do'stona muhitda do'st orttiradilar;
 - turli ko'ngilochar va bayramona dasturlarda ishtirok etadilar.
 Boshqa bolalar esa;
 - do'stona muhitni yaratadilar;
 - maxsus ehtiyojli bolalarga g'amho'rlik qiladilar, ularni turli o'yinlarga jalb qiladilar;
 - tozalik va ozodalikni ta'minlaydilar;
 - jamoa oldida ma'suliyat hissini rivojlantiradilar;
 - didaktik va o'yin vositalarini tayyorlashda birgalikda ishtirok etadilar;
 - o'qituvchi va tarbiyachilar bolalarni bir-birlarining ichki dunyolarini tushunishga o'rgatadilar;
 - har bir bolaning qobiliyati va imkoniyatini hisobga oladilar;
 - har bir bolada hayotiy malaka va mustaqillikni shakllantiradilar;
 - ishlarni tahlil qiladilar va baholaydilar;
 - ota-onalarga amaliy yordam ko'rsatadilar;
 - barcha bolalarga birdek bilim berib, tarbiyalaydilar;
 Demak, inklyuziv ta'lim maxsus ehtiyojli, nogiron bolalar ham faqat maxsus maktabgacha ta'lim tashkilotlarda emas, balki sog'lom bolalar o'qiydigan ta'lim muassasalarida ham ta'lim-tarbiya olishlari

mumkin ekanligini e'tirof etadi. Buning uchun esa maktabgacha ta'lim tashkiloti ham, o'qituvchi-tarbiyachilar ham inklyuziv ta'lim tizimiga tayyor bo'lishi, jismoniy sharoit va o'qishga imkon omillari shu ta'lim talablariga to'la javob berishi kerak. Inklyuziv ta'limning paydo bo'lishi va rivojlanib borishi turli mamlakatlarda turlicha kechgan. Lekin uning dastlabki kurtaklari qadim zamonlarda ham mavjud bo'lgan. Sharqning mashhur Allomalari Ibn sino, Imom Buxoriy, Abu Nasr Farobiy, Alisher Navoiylarning tarbiyaning maqsadlari har bir bola shaxsining rivojlanishiga ta'limning qarashlari inklyuziv ta'lim rivojlanishining metodologik bazasi hisoblanadi. Inklyuziv ta'lim g'oyalari ijtimoiy-madaniy nazariyalarga asoslanadi. Psixolog L.Vigotskiy (1896-1934) inklyuziv ta'lim g'oyasining asoschisi bo'lib, uning ijtimoiy konstruktivizm nazariyasi orqali bolalar ijtimoiy muhitda eng samarali bilim oladilar. L.Vigoskiy oliy aqliy funktsiyalarning rivojlanishi ijtimoiy hamkorlikdan boshlanadi va keyin shaxsiy

bo'ladi deb aytib o'tgan. Shunday qilib, bu ijtimoiy hamkorlik har doim rivojlanish va o'rganishning asosiy usuli hisoblanadi. Shuningdek, u ta'lim rivojlanishdan oldin ekanligiga ishongan. Kattalar bolaning "Bevosita rivojlanish zonasida" bo'lgan ko'nikma yoki bilimlariga e'tibor berib, o'rganishni rag'batlantirishlari mumkin. Vigotskiy "Bunday rivojlanish zonasi"ni bolaning biladigan yoki qila oladigan va qobiliyatli odam yordamida nima qilishlari yoki tushunishlari mumkin bo'lgan maydon yoki makon sifatida aniqladi. Vigotskiyning ijtimoiy-madaniy rivojlanish nazariyasi pedagogning rolini aniq belgilaydi. Biz farzandlarimizni yaxshi bilishimiz va ularning "Yaqin rivojlanish markazi" doirasida o'quv faoliyatini aniqlash uchun ular bilan faol muloqotda bo'lishimiz kerak. Agar bolalar birinchi navbatda ijtimoiy hamkorlik orqali o'rgansalar, biz pedagoglar bolaning boshqa bolalar va kattalar bilan o'zaro aloqada bo'lgan vaqtini maksimallashtirishimiz kerak. Maktabgacha yoshdagi bolalarning shovqinli (lekin baland bo'lmagan), band (lekin tartibsiz bo'lmagan) guruhi - bu normal o'quv muhitidir. Ko'pgina mamlakatlarda inklyuziv ta'lim amaliyoti bu nazariyaning to'g'riligini ko'rsatib berdi. Tadqiqotlarga ko'ra, alohida ehtiyojli bolalar o'z tengdoshlari bilan birga o'qisalar, o'rganishda, ijtimoiy muloqotda ancha yaxshi natijalarni ko'rsatishga moyildirlar. Barcha bolalar inklyuziv ta'lim amaliyotidan yaxshi foyda oladilar. Odatda, alohida ehtiyojli bor bola rivojlanayotgan tengdosh bolalar bilan bir guruhda bo'lishi ularga taqlid qilishga, ular bilan muloqot qilishga, ijtimoiy ko'nikmalarini rivojlantirishga harakat qiladi. Rivojlanayotgan bolalar alohida ehtiyojlari bor odamlar duch keladigan muammolarni tushunib boradilar. Ular boshqalarning ehtiyojlariga sezgir bo'lib, farqlarni yaxshiroq anglaydilar. Ular barcha

odamlar muhim muammolarni bartaraf eta olishlariga va muvaffaqiyatga erishishlari mumkinligini bilib oladilar. Pedagoglarga guruhida alohida ehtiyojli bolalar bo'lishi ham manfaatlidir, bunda ular o'quv uslublaridagi farqlarni kuzatishda malakaga ega bo'lishlari mumkin. Ular, shuningdek, bolalarning individual kuchli tomonlarini baholashda o'zlariga ko'proq ishonch orttiradilar va shu bilan birga qo'llab-quvvatlash kerak bo'lgan tomonlarini aniqlaydilar. Bu barcha bolalarni o'qitishda tarbiyachilarga bolaning individual kuchli tomonini va alohida ehtiyojlarini aniqlashga va shu asosida ta'lim uslubini yaxshilashga imkon beradi. Inklyuziv ta'limning mavjudligi bolalar bir-biridan ko'p jihatdan farq qilishini va bu farqlar to'siq emas, balki qimmatli manba ekanligini tan olish demakdir. Bolalarning turli ta'lim ehtiyojlari va imkoniyatlari va ularning turli rivojlanish sur'atlarini o'quv faoliyati va ta'lim strategiyasini individuallashtirish va differentsiallashtirish yo'li bilan qondirish mumkin. 1983-yilda avstriya talim vazirligi inklyuziv talim tizimining modelini tuzish yuzasidan tajriba loyihasi to'g'risida qaror qabul qildi. Bu talim modeli 4 ta turga ajratildi [2].

1. Inklyuziv sinflar- umum talim maktablariga bittadan to'rttagacha maxsus ehtiyojli o'quvchilar qabul qilinadi. Bitta mahsus ehtiyojli o'quvchi ikkiita sog'lom boladek hisoblanib, sinfdagi bolalarning umumiy soni qisqartiriladi. Sinfda ikkita oqituvchi ishlab ularan biri mahsus tayorgarlikga ega bo'lib bolalar bilan haftasiga 4 soatdan 6 soatgacha korreksion mashg'ulotlar olib boradi. Maxsus ehtiyojli bolalar individual dasturlar asosida o'qitiladi.
2. Hamkorlik qiluvchi sinflar- ixtisoslashtirilgan va umum talim maktablarning sinf oqituvchilari tomonidan belgilangan hamkorlikni amalga oshiradilar.
3. Kichik komplektli mahsus sinflar – umumtalim maktablarning sinflarida 6-11 ta maxsus ehtiyojli o'quvchi jamlanadi hamda maxsus o'quv reja va dasturlar asosida o'qitiladi.
4. Yordamchi o'qituvchilar- oddiy sinfga 4 ta va undan ko'p mahsus ehtiyojli o'quvchilar jamlanadi hamda mahsus tashhis qilish va korreksion metodikalarni qo'llay oladigan o'qituvchi lavozimi joriy etiladi. 1991-yilda pedagogik tajriba-sinov va maktablarni rivojlantirish markazlari tomonidan inklyuziv sinf modeli eng samarali deb topildi. 1993- yilda esa Avstriya hukumati mahsus ehtiyojli bolalar ota onalarining mahsus yoki umumiy talimni tanlash huquqini tasdiqlovchi qonunni qabul qildi [2]. Bir qator chet mamlakatlarning

tajribasini o'rganish jarayonida bizga shu narsa ma'lum bo'ladiki taxminan 1970-yillardan boshlab nogironlarning ta'lim imkoniyatlarini o'rganish jarayonlarini kengaytirish maqsadida normativ aktlar paketi ishlab chiqildi va joriy qilinmoqda. Shunday qonunlarni va shunga o'xshash hujjatlarni hayotga tadbqiq etish, sog'lom bolalar bilan nogiron bolalarni huquq jihatidan barobar ko'rishning kompleks chora tadbirlarida ifodalanmoqda. Bu imtiyozlar tartibi sog'lom bolalar bilan nogiron bolalarning jamiyatda bir xil imkoniyatlarga ega bo'lishlariga yordam beradi. Ta'limiy tafovutlarni yoqotishdagi barcha ishlarning kamchilikni tashkil qiladigan nogironlar guruhlarini imtiyozlarini oshirib, sog'lom rivojlanishidagi ko'pchilikni tashkil qilgan guruhlar imtiyozlarini kamaytirish chora tadbirlari ko'rilmogda.

AQSH va Yevropa ta'limi siyosati tarixi davomida o'zlarining bir qancha rivojlanish yo'nalishlarini ishlab chiqdilar:

1. Maktab desegratsiyasi
2. Ta'limga kirish imkoniyatlarini kengaytirish
3. Meynstriling
4. Integratsiya
5. Inklyuziya

Meynstriling – bu shunday strategiyaki bunda nogiron bolalar o'z tengdoshlari bilan bayramlarda turli xil darsdan tashqari vaqtlarda muloqot qiladilar, ayrim bolalar Respublika ijtimoiy moslashuv markazi va xalqaro bolalar fondiommmaviy maktablarning sinflariga ham kiritilib, ular ta'lim olish maqsadida emas, balki o'z tengdoshlari bilan

ijtimoiy munosabatlarga kirishish imkoniyatlarini kengaytirish maqsadida kiritiladi. Integratsiya-bu ruhiy va jismoniy nuqsonga ega bo'lgan bolalar ehtiyojlariga ko'ra ta'lim jarayonini amalga oshirish. Ular nogiron bolalar uchun moslashtirilmagan maktablarga boradilar. Lekin maktabga boorish majburiy emas, bu ularning xohish istaklaridan kelib chiqadi [4].

Inklyuziv ta'lim- bu yangi atama ya'ni maktablarda tubdan islohotlar o'tkazish va o'quvchilarning ehtiyojlarini qondiradigan o'quv binolarini qayta rejalashtirish. Bolaning rivojlanishi. Bolaning rivojlanishi o'qish va o'rganish jarayoni bo'lib, har bir bola bu jarayonni boshidan kechiradi, hayotda kerak bo'ladigan asosiy ko'nikma va qobiliyatlarga (rivojlanishning asosiy bosqichlari) ega bo'ladi. Bola rivojlanishining asosiy sohalari quyidagilar:

- ijtimoiy va ruhiy rivojlanish, ya'ni jilmayish yoki ko'rish orqali muloqot qilish;
- o'rganishdagi rivojlanish, masalan qo'llari va ko'zlari yordamida atrof-muhitni o'rganish va oddiy ishlarni bajarish;
- nutqvatilrivojlanishi, masalanso'zlar va belgilar yordamida muloqot qilish;
- jismoniy rivojlanish, masalan, o'tirish, turish, yurish, yugurish, qo'l va barmoqlar yordamida narsalarni ko'tarib olish yoki chizish. Rivojlanishdagi asosiy bosqichlar deganda, bolaning muayyan yoshda va tegishli davr ichida bilishi kerak bo'lgan ko'nikma va qobiliyatlari nazarda tutiladi, masalan yurish qobiliyati shunday bosqichlardan bo'lib, aksariyat bolalar yurishni

9 oydan 15 oygacha bo'lgan yoshda o'rganadi. Rivojlanishdan ortda qolish bolaning yoshiga mos bo'lgan bosqichga etmasligini anglatadi. Bola yuqorida aytib o'tilganlarning biri yoki bir nechtasida rivojlanishdan ortda qolishi mumkin. Agar bunday holat bolaning erta yoshida aniqlansa, bola uchun o'rganish imkoniyatlari va muhitini yaratish orqali bolani rivojlanishdan ortda qolishining oldi olinishi mumkin. MTT xodimlari imkoniyati cheklangan bolaning kuchli tomonlariga e'tibor berilishini ta'minlashi lozim. Imkoniyati cheklangan bolalarning muayyan bosqichga etishiga urg'u bermaslik katta ahamiyatga ega, chunki bu tushunchalarni noto'g'ri qo'llash muammolarga olib kelishi mumkin. Rivojlanishdan ortda qolish, "normal" tushunchasiga asoslangan. Demak, bu tushunchaning qo'llanilishi, odamga "tamg'a" bosish bilan barobar. Imkoniyati cheklangan bolalar rivojlanishi "normal" tushunchasiga javob

bermasligi mumkin. Biroq ular barcha jarayonlarga jalb etilsa va qo'llab quvvatlansa, baxtiyor hayot kechiradilar. Rivojlanishdagi bosqichlar umumiy tamoyillar bo'lib, amalda madaniyat, jins, millat, ijtimoiy va iqtisodiy sharoitlardan kelib chiqib farqlanadi. Bola rivojlanishi ko'plab omillar, shu jumladan salomatlik, oziqlanish, parvarish va ta'limga bog'liq. Shu sababdan, bola rivojlanishiga turli sohalarni jalb qilgan holda yondashish lozim. Masalan, oziqlanish va ta'limga e'tibor beradigan dasturlar, odatda, faqat u yoki bu masalaga urg'u beradigan dasturlarga qaraganda samaraliroq bo'ladi. Bolalar bog'chalarini yo'lidagi to'siqlar Janubi-Sharqiy Osiyo mamlakatlarining birida yoshi beshga kirmagan bolalar uchun muntazam ko'rikdan o'tish amaliyoti mavjud bo'lsa-da, biroq imkoniyati cheklangan deb topilgan bolalarga hech qanday qo'shimcha yordam berilmasdi. Bolalar bog'chalarining murabbiylari imkoniyati cheklangan bolalarni olishni istamasdi. Buning uchta sababi bor edi: Jadval nihoyatda qat'iy tuzilgan bo'lib, imkoniyati cheklangan bola bilan shug'ullanish qo'shimcha vaqt talab qiladi; bola yaxshi o'qimasa va vazni oshmasa, murabbiya mukofot ololmaydi; bog'chaga faqat "sog'lom" bolalar borishi mumkin. Ota-ona, ayniqsa ona bolaning rivojlanishida asosiy rol o'ynaydi. Ular o'z munosabati va axloqi bilan, masalan, bolani ko'krak

suti bilan emizish, u bilan o'ynash, bolani rag'batlantirish orqali uning rivojlanishini belgilaydi. Otalar ham e'tiborsiz qolmasligi kerak, vaholanki ularning bola hayotidagi o'rni muhim va ishtiroki rag'batlantirilishi lozim. Bu masalada taklif etilgan faoliyat turlari quyidagilardan iborat:

- Ota-ona, aka-uka, opa-singil yoki buvi-buvalar, bola haqidagi fikrlarini bemalol o'qituvchilar va shifokorlar bilan o'rtoqlashishda rag'batlantirilishi kerak; Oilalar MTT xodimlari uchun yaxshi bilim manbai bo'lib xizmat qiladi.
- Oilalarga yordam berib, o'qish va treninglar tashkil etish orqali ularning imkoniyati cheklangan farzandlarini ta'lim olishi uchun ijobiy muhit yaratish va ularni bunda qo'llab-quvvatlashni rag'batlantirish;
- Oilalar uchun, zaruriyat tug'ilganida, maxsus treninglar tashkil etish (masalan, farzandining eshitish qobiliyati cheklangan ota-onasi uchun imo ishora tili bo'yicha trening) yoki ixtisoslashgan xizmatdan foydalanish (masalan, ergoterapiya, fizioterapiya yoki logoped xizmati);
- Oilaning bola rivojlanishi haqidagi bilimi hamda MTT xodimlarining bu sohadagi bilim va tajribasidan foydalangan holda, oilalar bilan birgalikda imkoniyati cheklangan bolalar uchun individual o'qish rejasini tuzish; Bunday rejani o'qituvchilar bilan ham o'rtoqlashish mumkin.
- Imkoniyati cheklangan bolalarning ota-onalari uchun o'zaro yordam guruhini tuzish yoki mavjud guruhga qo'shilishini rag'batlantirish;
- Oila a'zolari, jamoat va faollar orasida aloqa o'rnatish hamda bir birini qo'llab quvvatlash tarmoqlarini tuzishni rag'batlantirish;
- Oilalardagi jins masalasini hal etish, masalan, imkoniyati cheklangan qizning o'qishiga ruxsat etilishida oilalarni qo'llab-quvvatlash; Jamoatda ta'lim olish uchun turli imkoniyatlar mavjud, masalan, bolalar guruhlari, bog'chalar, ona va bola guruhlari, ayollarning o'zaro yordam guruhlari va boshqalar. Quyida qayd etilgan oddiy qadamlar imkoniyati cheklangan bolalarning ham bu imkoniyatlardan bahramand bo'lishini ta'minlaydi:
- jamoadagi turli madaniy, ma'naviy va boshqa tadbirlarga, bozorga, imkoniyati cheklangan bolalarni olib chiqishda oilalarni rag'batlantirish;
- bolalarning ko'chada o'ynashiga ruxsat berishda (yordamchi moslamalar, masalan o'rindiqlar talab qilingan holda ham) oilalarni rag'batlantirish, jamoat a'zolari kerakli moslamalarni yasashda yordamlashishi mumkin;
- imkoniyati cheklangan va imkoniyati cheklanmagan

bolalarning birgalikda o'ynashini rag'batlantirish; bir oila farzandlari va jamoat bolalarining o'zaro o'ynashi hamda bir-biridan o'rganishi muhim va foydali;

- ijobiy muhit va qulay sharoitlar yaratish, jumladan bolalar bog'chasi yoki maydonchasi tashkil etilishiga jamoatni jalb etish (bu panduslar, hojatxona qurib berish yoki chiroqlarni yorug'roq qilish, xavfsizlik va tozalikni ta'minlash shaklida bo'lishi mumkin).

Xulosa. Inklyuziv ta'lim vazifasi bolalarning qobiliyatlari va holatidan qat'i nazar, ularning barchasiga sifatli ta'lim taqdim etishdan iborat. Shu bilan birga, inklyuzivlik tamoyili imkoniyatlari cheklangan bolalar ijobiy ruhiy va ijtimoiy rivojlanishga ega bo'lishlari uchun oilada yashashlari va o'z tengdoshlari bilan birga oddiy maktabda bilim olishlari lozimligini nazarda tutadi. Maktabgacha ta'lim tizimida inklyuziv ta'limning ahamiyati shundaki, imkoniyati cheklangan bolalarni ilk yoshlaridanoq sog'lom bolalar qatoriga qo'shib sifatli ta'lim olishini ta'minlagan holda bolada ruhiy va jismoniy hissiyotlarini va harakatlarini rivojlantirishdir.

Foydalaniladigan adabiyotlar

ro'yxati:

1. Muzaffarova X.N., D.Tangirova "Inklyuziv ta'lim" library.samdukf.uz. 7-b.
2. Shomaxmudova R. Maxsus va inklyuziv ta'lim. (Xalqaro va milliy tajribalar). - T.: "Chashma print". - 2012.
3. Amirova. G.A., Sulaymonov A.P., Djurayeva B.R. "Maktabgacha ta'lim muassasalarda applikasiya mashg'ulotlari". - T.: 2014.
4. <https://infourok.ru/>



TALABALAR DIDAKTIK-METODIK KOMPETENTLIGINING MOTIVATSION-NAZARIY SOHASINI RIVOJLANTIRISH YO'LLARI

Annotatsiya: Ushbu maqolada bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari darsni to'g'ri tashkil etish yo'llari va bir qancha tavsiyalar berib o'tilgan. Talabalarda didaktik metodik kompetentlikni shakllantirish va buni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan ayrim usullar yoritilgan.

Tayanch so'zlar: o'quvchi, faoliyat, konstruktiv, didaktik material, integral, rejalashtirish, qadriyatlar.

ПУТИ РАЗВИТИЯ МОТИВАЦИОННО- ТЕОРЕТИЧЕСКОГО ПОЛЯ ДИДАКТИКО- МЕТОДИЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ СТУДЕНТОВ

Аннотация. В данной статье перечислены способы, при помощи которых будущие учителя начальных классов могут правильно организовать урок, и для этого дается несколько рекомендаций. Выделены некоторые методы, необходимые для формирования у учащихся дидактической методической компетентности и ее реализации.

Ключевые слова: студент, деятельность, конструктив, дидактический материал, целостность, планирование, ценности.

WAYS TO DEVELOP THE MOTIVATIONAL-THEORETICAL FIELD OF STUDENTS' DIDACTIC-METHODOLOGICAL COMPETENCE

Abstract: This article provides an overview of the methods for properly organizing lessons for future primary school teachers and presents several recommendations. It highlights essential strategies for developing students' didactic-methodological competence and the necessary approaches for its implementation.

Key words: student, activity, constructive, didactic material, integral, planning, values.

Kirish. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida didaktik-metodik kompetentlikni rivojlantirish jarayoni uning uchta sohalarini (motivatsion-nazariy, amaliy va tadqiqotchilik-refleksiv) rivojlantirish-ni ko'zda tutiladi. Biz OTMdagi o'quv-tarbiya jarayonining yaxlitligi yondashuviga rioya etamiz, biroq kompetentlikni rivojlantirish xususiyatlari va uni

rivojlantirish jarayonlari sohalarini alohida amalga oshirishni talab etadi. Integratsion-sintezli asos o'z ichiga tadqiqotchilik-refleksiv sohani rivojlantirishni nazaratga oladi va bu didaktik-metodik kompetentlikning o'zini rivojlantirishning alohida ko'rinish ekanligini ta'minlaydi. Didaktik-metodik kompetentlik rivojlanganligining darajasini aniqlash, rivojlanish istiqbollari mos bo'lgan maqsadni belgilash, bosqichning asosiy maqsadiga muvofiq optimal vositalarni tanlash, jarayonning har bir bosqichlarining yakunida natijalarni o'z vazifalari deb biladi: didaktik-metodik kompetentlikning turli mazmunda va o'quv-pedagogik masalalarning turli ko'rinishlarini yechishda ifodalanishini amalga oshirish; maxsus tuzilgan o'quv-pedagogik masalalarni yechish orqali kompetentlikning bir nechta aloqadorlikni ajratib ko'rsatish; didaktik-metodik kompetentlikni rivojlantirishga yo'naltirilgan ta'lim olish imkoniyatlarini ochib beoish; boshlang'ich ta'lim fakulteti talabalarining turli tarkibi bilan turli sharoitlarda amalga oshiruvchi tajriba –sinov ishlarida faol qatnashishini ta'minlash. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida didaktik-metodik kompetentlikning motivatsion-nazariy sohasini rivojlantirish qadriyatli-motivatsion, izlanuvchan-axborotli komponentlaridan tarkib topgan. “Umumiy pedagogika” fani boyicha ma'ruzalar davomida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari o'zlarining atamalar lug'atlarini “kompetentlik” toifasining

tushunchalar sohasi bilan bog'liq bo'lgan “pedagogik mahorat”, “pedagogik mehnat”, “pedagogik texnika”, “mutaxassis”, “kompetentlik”, “kompetentsiya”, “professionallik”, “pedagogik tizim”, “pedagogik texnologiya”, “pedagogik madaniyat”, “pedagogik faoliyat” va boshqa nomlar ya'ni atamalar bilan ko'rib chiqishimiz mumkin. O'quv-pedagogik vaziyatlar talabalarining pedagogik kasblar olamiga “kirib borishlari”ni va qiziqishlarini sohaga bo'lgan intilishlarini misol qilishimiz mumkin.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili: Didaktik-metodik kompetentlikning motivatsion-nazariy sohasini rivojlantirish uchun pedagogning didaktik ideali alohida ahamiyatga ega. Mashg'ulot kasblar olamiga sayyohat deb ko'rishimiz mumkin: “Pedagog o'z intilishlarida”. Qatnashuvchi sifatida “pedagog intilishi”, qatnashuvchi sifatida –bo'sh o'zlashtiruvchi talaba, himoyachi sifatida – faol talaba qatnashadi.

Talabalar tomonidan guvohlar: “zamonaviy davrning ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlari”, dangasa talabaning ota-onalari, pessimist, umidi ushalmagan amaliyotchi o'qituvchi va boshqalar; himoya tomonidan – o'quvchilar ota-onalari, professional o'qituvchi, “kelajak”, “innovatsion maktab” faol ishtirok etadilar.

Barcha o'tiladigan fanlar boyicha tajriba o'qitishning alohida parchasini ko'rsatamiz. Masalan, “Ommaviy, nodir, abadiy va ijodiy kasb” mavzusi boyicha bahs va suhbatlar amalga oshiriladi. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari o'quv jarayonida munozara ikki tomonlama rol oynaydi: u o'quvchilar va talabalarining bilishga oid faoliyatlarini faollashtirishning muhim shakli sifatida xizmat qiladi va ular uchun maktablarda amaliy jarayon tahlil qilinadi. Berilgan mavzu boyicha munozarani 5-7 nafar talabalar faollik bilan qatnashadilar. Ular o'z muhitlaridan yetakchisini ajratadilar, adabiyot tanlaydilar, savollarni aniqlaydilar, ular bilan boshqa talabalarni tanishtiradilar, darsga turli ko'rgazmalar bilan qatnashadilar. Butun guruh topshiriq oladi: berilgan savollar boyicha o'z fikrini oylash, dastlabki manbalar bilan tanishish va o'z fikrlarini mustaqil bayon etadilar. Munozarani boshlashdan avval xona jihozlar bilan ta'minlanadi va ko'rgamalar bilan jihozlanadi.

Munozara uchun mas'ullar uni bir akademik soat davomida o'tkazadilar, ikkinchi soat tadbirni muhokama qilishga mo'ljallanadi. Talabalar mavzuni, munozara dasturini tanlashga, yetakchilarning tayyorgarligi, guruhning umumiy tayyorligiga alohida ahamiyat beriladi. Etakchi (yuqori darajaga ega talaba) ishlab chiquvchilar jamoasi a'zolari bilan kichik fikr mulohaza yuritadi: "Men sizga hikoya qilmoqchiman...". Talaba (o'rta daraja): "O'tgan asrda V.I.Dalning "Jonli ona tili izohli lug'ati"da, "o'qituvchi" so'zi ustoz, o'qituvchi sifatida ta'riflanadi. O'qituvchi to'plangan insoniyat tushunchasini bayon etadi. Ustoz qanday o'zini tutish va qanday intimomga ega bo'lishi aytiladi. O'qituvchining bu ikki vazifalari – o'qitish va o'rgatish yoki boshqachasiga – ta'lim va tarbiya berish asosiy burchidir [1.23-29 b]. O'qituvchi –sharaflı kasb egasidir. Barcha o'sib kelayotgan avlodga ta'lim tarbiya berishi kerak. Savol tug'iladi: qancha yigitlar va qizlar o'qituvchi kasbini egalashni ho'xlaydilar. Kimdir «ko'pchilik» deydi, boshqalar esa – «kamchilik» deb javob berishadi. Har ikki fikrlar ham haqlidir. "Ko'p" deganlarning fikri to'g'ri, chunki har yili pedagogik OTMlarga talabgorlar ko'p. "Kam" deb hisoblaydiganlarning fikri ham to'g'ri. Birinchidan, pedagogik OTMlarni tugatganlarning hammasi ham bu kasb egasi bo'lmaydilar. Ikkinchidan, hamma ham o'qituvchilik kasbini egallash uchun o'qishga topshirmaydi. Ko'pchilikka o'qituvchilik kasbi eng keng tarqalgan kasb bo'lib tuyuladi, biroq har birimiz hayotimiz davomida biror-bir fikri

yoki amali bilan alohida o'rin tutgan, donoligi va mehribonligi bizga yaxshi odamlar bo'lishimizga yordam bergan faqat bir yoki ikki balki bir nechtasini misol qilishimiz mumkin. Shuning uchun aytish mumkinki, "O'qituvchi"ning kasbi noyobdir, chunki hamma ham sharaflı kasb egasi bo'lishga intiladi.

Tadqiqotning metodologiyasi: Talaba (past daraja): «Yillar davomida har kuni o'qituvchi ilm berib keladi. Hatto o'sha bir sinfning o'zida ham doimiy o'zgarishlar sodir bo'ladi: bolalar haqiqatdan

ham kunlar boyicha emas, soatlar mobaynida ulg'ayib amalga oshiradi. Sinfda hodisalar roy beradi, yil, o'quv choragi, hafta, bir kun, hatto darslar mobaynida faolliklari aamalga oshiriladi. Har kuni sinfda, darsdan keyin, maktabdan tashqari o'qituvchi o'quvchilar bilan uchrashib, inovatsion yangiliklarini qamrab olishadi. Bu undan kuzatishni, tahlilni, har safar avvalgidan farqli ravishda, har safar o'ziga xos narsa va hodisada hozir javoblikni amalga oshiradi. Ko'p yillar davomida boshlang'ich sinf o'qituvchisi bir xil darsliklarda ishlaydi, integratsion jarayonda ta'lim beradi. Har bir dars avvalgisi bilan bir xil bo'lishi mumkin emas, chunki amalda vaqtini barcha o'quvchilar va ularning ishtiroki nazoratida bo'ladi. O'qituvchilik kasbi ijodiydir. Hech qanday o'xshash bolalar bo'lishi mumkin emas, ular bilan bir xil munosabatlar bo'lishi ham mumkin emas, biroq barchaga birdek ta'sir o'tkazishga to'g'ri keladi». "Pedagogik soha ishini dengiz xizmati, tibbiy yoki shunga o'xshash sohalar kabi atash kerak, bu faqat o'z hayotlarini ta'minlashga intilganlar emas, balki ongli ravishda o'zlarini shu sohaga bag'ishlaganliklarini his qiladigan va ushbu masalada va fanda o'zlarining qiziqish va intilishlarini royyobga chiqaradilar [2.42-48 b.]. Ushbu turdagi ish talabalarda katta qiziqish uyg'otdi, darsni o'tkazish vaqti cheklanganligi sababli o'qituvchiga manbani taxlil qilishga va uni amalga oshirishga vaqt yetmaydi. Faollik asosan yuqori darajadagi talabalar o'z fikrlarini mustaqil bayon etadilar. Keyin boshlovchi o'zi quyidagi rejaga rioya qilgan holda "Men va kasbim" mavzusida ma'ruza qildi: nega men o'qituvchilik kasbini tanladim? qanday qilib o'zimni o'qituvchilik kasbiga tayyorladim? bugun bolalarga nima bera

olaman? universitetda didaktik ta'limni ijodiy va izlanuvchanlik bilan amalga oshirish aytib o'tiladi.

Tahlil va natijalar: Muhokama ikkita asosiy savol atrofida bo'lib o'tdi: kim o'qituvchi bo'lishi mumkin va kim bo'lishi majburiy emasligi? Natijada talabalar fikrlarining ushbu mavzu bo'yicha fikrlari yuzaga keldi: "Agar siz iqtidorli bo'lsangiz, qanday sohada iqtidorli bo'lsangiz ham, siz ta'lim beruvchi bo'lishingiz mumkin.

Agar biron-bir bilim sohasida bo'lsa, unda bu sizga biron bir fanning mohir o'qituvchisi bo'lishingizga amalga oshiriladi. Agar biron bir san'at sohasida bo'lsa, demak, bu talabalar uchun har kimga juda kerak bo'lgan hissiy toyingan muhitni yaratishga imkon bo'ladi. Agar sizning qo'llaringiz mahoratli bo'lsa, unda sizning talabalaringiz biron narsaning haqiqiy ustalari bo'lib yetishadilar ... Agar sizning jismonan rivojlangan tanangiz bo'lsa, unda siz sog'lom va sportchi bo'lib yetishish g'oyasi bilan barcha yigitlarni jalb qilishingiz kerak. Agar siz o'qishda qobiliyatli bo'lsangiz, unda sizning o'quvchilaringiz insoniy munosabatlardagi salbiy tomonlarini ko'rmaydi. Agar siz odamlarga qiziqsangiz, unda sizdan ajoyib sizdan yetuk mutaxassis chiqadi. Agar siz odamlar bilan qiziqsangiz va ular sizni o'ziga jalb qilishsa, unda "o'qituvchilik" kasbini albatta tanlang. Darsning ikkinchi qismida talabalar bahs-munozarani yakunlab, refleksiyaning etibor qaratadi. Umuman olganda, ko'plab talabalar o'zlarining fikrlarini tez va oqilona tushuntirish, fikrlashda ilm-fan pedagogikasi yutuqlaridan to'g'ri foydalanish, uni ijodiy amalga

oshirish, faollik, ixtiro va tashabbusning namoyon bo'lishi, munozaraning natijalarini rag'batlantirish va umumlashtirish, tanqidiy va mobil fikrlashni jalb qilish, iroda erkinligi, hukmda halollik, o'rtada raqobat paydo bo'ladi. 2-kurs talabalarining xulq-atvori, tafakkuri va bilimidagi sanab o'tilgan o'zgarishlar ularning didaktik savodxonlik darajalarining asosiy ko'rinishlarini misol qilishimiz mumkin. O'qituvchi darsning birinchi qismida mahalliy va xorijiy o'qituvchilarning bayonlarini taqdim etishni tartibga solishi kerakligi sababli, uy vazifasi sifatida "O'qituvchi va vaqt" darsidan bolalar kitoblarini tahlil qilish» va misollar keltirishi kerak.

Xulosa. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida biz tomonimizdan tashkil etilgan motivatsion-nazariy sohasini rivojlantirishning texnologik samaradorligi mustahkamlik, yaxlitlik, maqsad birligining mavjudligi va vositalar tizimining yetarliligi va amalga oshirish kerakligi ko'rib chiqiladi. Anketalar, suhbatlar, testlar, anketalar yordamida biz "pedagogik texnologiya" toifasidagi boshlang'ich sinflarning kelajakdagi sinflarini tushunish darajasini ko'rib chiqdik. Biz talaba bilan suhbatlashdik. Respondentlarning so'roviga ko'ra, o'quvchilar o'quv jarayonining texnologik mohiyati to'g'risida tushuncha mavjud. Pedagogikani talqin qilishda respondentlarning aksariyati unda o'qituvchi faoliyati vositalarining tizimi (jami) mavjudligi: metodlar, shakllar, texnikalar, metodlar, o'qitish metodikasi, o'quvchi shaxsini shakllantirishga oid ta'limga yo'nalganlar. Ushbu sohada yaxlit, tizimli bilimlarni shakllantirish uchun "Pedagogik mahorat" o'quv fani mavjudligini fikrimiz dalili sifatida aytish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Dal I. "Jonli ona tili izohli lug'ati".
2. Nishonova Z. Mustaqil fikrlashga o'rgatish//Boshlang'ich ta'lim. – Toshkent, 1999.

TIBBIYOT FANLARI



14.00.00

TIBBIYOT FANLARI



SURXONDARYO VILOYATIDA KO'KYO'TAL KASALLIGI ASORATLARINI SOLISHTIRMA TASHXISOTI

Annotatsiya: Ushbu maqolada Surxondaryo viloyatida ko'kyo'tal kasalligi asoratlarini solishtirma tashxisotini baholashni maqsad qilib oldik. Ko'kyo'talga qarshi emlashdan voz kechish munosabati bilan 2020-yilda aholi o'rtasida kasallanish darajasi 40 foizga oshdi. 14 yoshgacha bo'lgan bolalar umumiy kasallanishning 89% ni tashkil etdi. Tadqiqot ishi Surxondaryo viloyati Bolalar yuqumli kasalliklar shifoxonasi va Angor tuman tibbiyot birlashmasi yuqumli kasalliklar bo'limida yotib davolangan bemorlarda olib borildi. Tadqiqotimizda emlanmagan bolalar 44% ni tashkil qildi. Ko'kyo'tal bilan kasallangan bolalarda bronx-o'pka asoratlaridan, bronxopnevmoniya asosiy guruhda 38% kuzatildi.

Tayanch so'zlar: Ko'kyo'tal, bolalar, bronx-o'pka asoratlar, allergolog, otolaringolog, bronxopnevmoniya, o'tkir bronxit.

СРАВНИТЕЛЬНАЯ ДИАГНОСТИКА ОСЛОЖНЕНИЙ БОЛЕЗНИ КОКЛЮШ В СУРХАНДАРЬИНСКОЙ ОБЛАСТИ

Аннотация. В данной статье мы поставили перед собой цель оценить сравнительную диагностику осложнений коклюша в Сурхандарьинской области. В связи с отказом от вакцинации против коклюша заболеваемость среди населения в 2020 году выросла на 40 процентов. Дети в возрасте до 14 лет составляли 89% от общей заболеваемости. Исследование проводилось у больных, находившихся на лечении в детской инфекционной больнице Сурхандарьинской области и в инфекционном отделении Ангорского районного медицинского объединения. Непривитые дети в нашем исследовании составили 44%. Из бронхолегочных осложнений у детей с коклюшем бронхопневмония наблюдалась в основной группе в 38%.

Ключевые слова: коклюш, дети, бронхолегочные осложнения, аллерголог, отоларинголог, бронхопневмония, острый бронхит.

COMPARATIVE ANALYSIS OF THE COMPLICATIONS OF PERTUSSIS DISEASE IN SURKHONDARYA REGION

Abstract: In this article, we aimed to evaluate the comparative diagnosis of complications of pertussis in the Surkhandarya region. In 2020, the incidence rate among the population increased by 40% due to the rejection of vaccination against pertussis. Children under

14 years of age accounted for 89% of the total morbidity. The study was conducted on patients hospitalized in the Department of Infectious Diseases of the Children's Infectious Diseases Hospital of Surxondaryo Region and the Angor District Medical Association. In our study, 44% of children were not vaccinated. Among bronchopulmonary complications in children with cough, bronchopneumonia was observed in 38% of the main group.

Key words: Cough, children, bronchopulmonary complications, allergist, otolaryngologist, bronchopneumonia, acute bronchitis.

Muammoning dolzarbligi: Ko'kyo'tal (pertussis)-bu yuqori nafas yo'llarini zararlaydigan, asosan bolalar va yoshlar o'rtasida tarqaladigan havo-tomchi infeksiyon kasalligidir. Kasallikning rivojlanishining asosiy ko'rinishi xurujsimon yo'tal va nafas yetishmovchiligi bilan kechadigan og'ir kasallik bo'lib, emlash kalendariga rioya qilmaslik butun sog'liqni sqlash tashkiloti oldida turgan jiddiy muammolardan bir bo'lib qolmoqda [1-2-3]. Ko'kyo'tal bolalar va o'smirlar uchun jiddiyxavftug'diradi. Kasallikkattalarda kamroq murakkab kechadi, bu bolalar emlangandan keyin immunitetni ishlab chiqish, shu jumladan boshqa yuqumli agentlardan himoya qilish bilan bog'liq. Agar shunday qilinmasa, infeksiyaning kechishi og'ir kechadi. Emlashdan voz kechish munosabati bilan 2020-yilda aholi o'rtasida kasallanish darajasi 40 foizga oshdi. 14 yoshgacha bo'lgan bolalar umumiy kasallanishning 89% ni tashkil etdi [4-5]. 2022-yilda AQShda 2 388

ta ko'kyo'tal bilan kasallanish va 3 ta o'lim holati qayd etilgan. 2014-yildan 2022-yilgacha bo'lgan davrda kasallanishning pasayishiga olib keladigan omillardan biri, ayniqsa, kattalar va homilador ayollar o'rtasida immunizatsiya darajasining oshishi hisoblanadi [6]. Har 100 000 nafar chaqaloqning kasallanish chastotasi <6 oylik chaqaloqlar orasida eng yuqori bo'ldi (78%) [6], >20 yoshdagi shaxslar qayd etilgan holatlarning 45,6% ni tashkil etdi [6]. Adabiyotlar tahlilini o'rganilishida, 1997-yildan

2000-yilgacha AQShda hayotining birinchi yarmidagi bolalarda ko'kyo'talning 7203 ta holati qayd etilgan. Ulardan 63,1% bolalar kasalxonaga yotqizilgan, 11,8% zotiljam rivojlangan, 1,4% da - tutqanoq, 0,2% da -ensefalopatiya va 0,8% bolalar vafot etgan [11]. Ko'kyo'tal bilan kasallanishning rasmiy statistikasi (2011-yilda - 100 ming kishiga 3,34 va 0-14 yoshdagi bolalar orasida 100 ming kishiga 29,89). 2012-yilda - 5,05 va 30,85 mos ravishda) yuqori darajada egaligidan dalolat beradi emlash qamrovi (>97%) tashkil qilgan [7]. Ko'kyo'tal bilan xastalanganlarning asosiy qismini 17 yoshgacha bo'lgan bolalar va o'smirlar tashkil etadi va ularning eng katta ulushi 2009-yilga to'g'ri keladi. Ko'kyo'tal infeksiyasi qayd etilgan barcha holatlarning 97,1% ni tashkil etdi. Ular orasida bolalar ko'pchilikni tashkil etgan 7-14 yosh (41,2%); kasallikka chalingan bolalar ulushi 1 yoshgacha 20,8% ni, 3-6 yoshda esa 22,6% [7]. Rossiyaning ayrim hududlarida ko'krak yoshidagi bolalarning kasallanishi 100 mingga 100 ta, o'lim holatlari esa har yili qayd etiladi [7]. Hozirgi vaqtda dunyoning ko'plab mamlakatlarida (AQSH, Avstraliya, Niderlandiya, Kanada va boshqalar), bolalar emlash qamrovi yuqori bo'lishiga qaramasdan ko'kyo'tal epidemiyasi avj olib bormoqda[8]. Ko'yo'tal bilan kasallanganlarning yosh tuzilmasida ustunlik qiladi: 7-14 yoshli o'quvchilar (37,9%), bir yoshgachabo'lganbolalar25%ni,3-6yoshlibolalar18,2% ni tashkil etadi. Bemorlarning emlanganlik ko'rsatkichi (65%) bo'lgan [9]. Katta yoshlik bemorlar o'smirlar va kattalarda ko'kyo'tal ko'p uchraydi va atipik shakllarda namoyon bo'ladi. Ayniqsa allergologlar, otolaringolog, terapevtlarda samarasiz davo muolajalari olib boriladi. Adabiyotlar tahlili o'rganilganda, katta yosh

guruhlarida ko'kyo'tal tipik tarzda o'tishi va pnevmoniya (2%), siydik tuta olmaslik (28%), kollaps (6%), qovurg'alar sinishi (4%) va boshqalar bilan asoratlanishi mumkin [10]. Ko'kyo'tal kasalligini bolalarda va kattalarda bronx-o'pka asoratlari ega va ega bo'lmagan bemorlarda solishtirma taxlilini o'rganib, erta tashhisot va aniq yo'nalish olishga erishiladi. Tadqiqot maqsadi: Surxondaryo viloyatida ko'kyo'tal kasalligi asoratlarini solishtirma tashxisotini baholashdan iborat.

Tadqiqot metodologiyasi. O'tkazilgan tadqiqot ishi Surxondaryo viloyati Bolalar yuqumli kasalliklar shifoxonasi va Angor tuman tibbiyot birlashmasi yuqumli kasalliklar bo'limida yotib davolangan bemorlar asosida olib borildi. Yuqumli kasalliklar bo'limida 2021-2024 yil davomida ko'kyo'tal kasalligi fonida bronx-o'pka asoratlari ko'zatilgan va bronx-o'pka asoratlari ko'zaticilmagan 140 nafar yotib davolangan bemorlarda o'rganildi. Barcha bemor bolalarda tekshiruv o'tkazilish vaqtida ko'kyo'talni klinik manzarasi yaqqol kuzatildi. Qo'yilgan vazifalarga mos xolda, hamma bemorlarni ikki guruhga bo'lib o'rganildi: Asosiy guruhga 90 nafar (64%) bronx - o'pka asoratli ko'kyo'tal bolalar va nazorat guruhiga 50 nafar (36%) asoratlanmagan ko'kyo'tal bolalar olindi. Har ikkala guruh bolalarda ko'kyo'tal kechishi va kasallikning klinik kechish jixatlariga ta'sir qiluvchi premorbid fon kasalliklari o'rganildi. Bemor bolalar jinsiy tarkibi bo'yicha o'rganilganda asosiy guruhda o'g'il bolalar 48 nafarni (53%), qiz bolalar 42 nafarni (47%), nazoratguruhida esa o'g'il bolalar 26 nafarni (52%) va qiz bolalar 24 nafarni (48%) tashkil etdi. Jinsiy tarkibi bo'yicha guruhlarda statistik ahamiyatli farqlar kuzatilmadi. Tadqiqot davomida jinsiy tarkibi bo'yicha o'rganilganda o'g'il bolalar 74 nafarni (53%), qiz bolalar 66 nafarni (47%) tashkil etdi. Jinsiy tarkibi bo'yicha guruhlarda statistik ahamiyatli farqlar kuzatilmadi. Tahlil va natijalar. Ko'kyo'talning asoratlari,

odatda, kasallikning og'ir shakllari bilan kasallangan bolalarda rivojlandi. Kasallikning o'z vaqtida aniqlanishi, to'g'ri davolash, bemorning yoshi, kasallikning og'irlik darajasi va yondosh kasalliklarning mavjudligi ko'kyo'tal kechishiga ta'sir ko'rsatadi. Kasallikdan so'ng bir umrlik turg'un immunitet shakllanadi. Bugungi kunda bolalar o'limi darajasi 1000 ta tirik tug'ilgan bolalarda 15,6% to'g'ri kelishiga qaramasdan bolalar tug'ilishi ko'rsatkichi juda past, ya'ni 9,1% tashkil qilmoqda [12]. Ko'kyo'tal butun dunyoda ko'krak yoshidagi bolalar ichida monoinfeksiya sifatida 10,5% holatlarda letal oqibatsabab hisoblanadi [13].

1- jadval

Guruhlarda bemor bolalarning yoshi haqida ma'lumot

Yoshi	Asosiy guruh N=90		Nazorat guruh N=50		Jami N=140	
	M	%	M	%	M	%
0-3 yosh	17	19	5	10	22	15,7
3-7 yosh	36	40	18	36	54	38,6
7-14 yosh	37	41	27	54	64	45,7

Kuzatuvga olgan bemorlarimizda ko'kyo'tal kasalligi bolalarda mavjud kalendar bo'yicha ko'kyo'talga qarshi emlanganlik darajasini o'rganilganda

2- jadval

Bemorlarda bronx- o'pka asoratlari bilan asoratlangan ko'kyo'talli bolalarda emlanganlik darajasi bo'yicha taqsimlanishi

Belgilari	Asosiy guruh N=90		Nazorat guruhi N=50	
	Abs.	%	Abs.	%
Emlanmagan	40	44	14	28
AKDS-1	27	30	18	36
AKDS-2	17	19	10	20
AKDS-3	6	7	8	16
Emlash oraliqlarining buzilishi bo'lganlar	29	32	12	24

Kuzatuvimizda bo'lgan asosiy guruh bolalarda bronx-o'pka asoratlari o'z navbatida onasining so'zidan bemor shikoyatlari, kasallik klinik belgilari, obektiv va instrumental tekshiruv natijalari asosida kichik guruxlarga bo'lindi va quyidagicha o'rganildi: bronxopnevmoniya 34 nafar (38%) bemorlarda, o'tkir bronxit 29 nafar (32%) bemorlarda, laringit 11 nafar (12%) va bronxit+laringit 16 nafar (18%);

Nazorat guruh bolalarda esa bronx-o'pka asoratlari kichik guruxlarga bo'lib o'rganilganda quyidagicha: bronxopnevmoniya 6 nafar (12%) bemorlarda, o'tkir bronxit 16 nafar (32%) bemorlarda, laringit 15 nafar (30%) va bronxit+laringit 13 nafar (26%) bemorlarda kuzatildi.

3- jadval

Bolalarda ko'kyo'talning bronx-o'pka asoratlari Asosiy guruh kesimida

Belgilari	0-3 yosh N=17		3-7 yosh N=36		7-14 yosh N=37		Jami N=90	
	Abs.	%	Abs.	%	Abs.	%	Abs.	%
Bronxopnevmoniya	8	47	15	41,6	11	30	34	38
O'tkir bronxit	4	23	10	27,7	15	40	29	32
Laringit	2	12	5	14	4	11	11	12
Bronxit+laringit	3	18	6	16,6	7	19	16	18

Xulosa. Ko'kyo'tal bilan kasallangan bolalarda bronx-o'pka asoratlaridan, bronxopnevmoniya asosiy guruhda 38% va Nazorat guruhdagi bolalarda esa o'tkir bronxit 32% tekshiruvdagi bemorlarning 44% umuman emlanmagan, shulardan 10% emlash yoshiga yetmaganligi aniqlandi. Asosan bir yoshgacha bo'lgan bolalarda ko'kyo'talga qarshi emlash to'liq tugallanmaganligi sababli ko'kyo'tal kasalligi og'ir kechadi, ularga aloxida terapevtik yondoshish talabetiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- Cherry, J. D., & R. M. H. Harrison. (2019). Whooping Cough: Epidemiology, Diagnosis, and Treatment. *Clinical Infectious Diseases*, 68(3), 472-478.
- Wang, X., & R. L. Jones. (2020). Pertussis in Adolescents and Adults: Current Perspectives. *Journal of Infection and Public Health*, 13(6), 979-986. 2019.06.001.
- Gordis, L., & E. L. Shaw. (2021). Management of Whooping Cough. *Pediatric Clinics of North America*, 68(4), 725-738. 2021.03.005.
- Crawford, S., & L. P. Johnson. (2018). The Role of Vaccination in Preventing Pertussis. *Vaccine*, 36(41), 6119-6125. 2018.07.066.

- Fry, N., & M. P. Lee. (2017). Whooping Cough: Clinical and Diagnostic Approaches. *Journal of Clinical Microbiology*, 55(9), 2572-2580.
- National Center for Immunization and Respiratory Diseases Division of Bacterial Diseases: 2022 Provisional Pertussis Surveillance Report. Centers for Disease Control and Prevention, 2023.
- О санитарно-эпидемиологической обстановке в Российской Федерации в 2009 г.: Государственный доклад. М.: Федеральний центр гигиены и эпидемиологии Роспотребнадзора. 2010. 456 с.
- Николаева И.В., Шайхиева Г.С. // Вестник современной клинической медицины. – 2016. – Т. 9, вып. 2. – С. 25-29.
- Государственный доклад о состоянии санитарноэпидемиологического благополучия населения в Российской Федерации в 2014 году. – М.: Федеральная служба по надзору в сфере защиты прав потребителей и благополучия человека, 2015. – 206 с.
- Centers for Disease Control and Prevention (CDC) Pertussis (Whooping Cough), Clinicians, Clinical Complications Retrieved. – 2012. – July 20. – URL: <http://www.cdc.gov/pertussis/clinical/features.html>.
- Pertussis-United States, 1997-2000 / Centers for Disease Control and Prevention // *MMWR*. – 2002. – № 51 (4). – P.73.
- Sultonov R. K., Sodiqova Z. S., Uchqun o'g'li B. S. Dynamics of Fat Cells of the Bronchial Tree Mucosa in Postnatal Ontogenesis // *Central Asian Journal of Medical and Natural Science*. – 2021. – Т. 2. – №. 4. – С. 182-184.
- Sultonov R., Odiljonov O. Ko'kyo'tal fonida bronx-o'pka asoratlarini o'chrash chastotasini baholash // *Journal of universal science research*. – 2024. – Т. 2. – №. 10. – С. 138-140.



“TISU ilmiy
tadqiqotlari
xabarnomasi”
ilmiy-uslubiy jurnali

<https://scientific.tues.uz>
ISSN 2992-9016

Eshqobilov Ozodbek Abdisodiqovich, Termiz iqtisodiyot va servis universiteti
Tibbiy fundamental fanlar kafedrası o'qituvchisi ozotbekbestboy@gmail.com
Kenjayev Yodgor Mamatqulovich, Termiz iqtisodiyot va servis universiteti
Tibbiy fundamental fanlar kafedrası o'qituvchisi yodgortmatb@gmail.com

GIPERTONIYA VA UNING GLOBAL TARQALISHI: TURLI XALQLARDAGI FARQLAR

Annotatsiya: Ushbu maqolada gipertoniya (yoki yuqori qon bosimi) va uning global tarqalishi, shuningdek, turli xalqlardagi farqlar ko'rib chiqilgan. Gipertoniya zamonaviy tibbiyotda eng keng tarqalgan sog'liq muammolaridan biri bo'lib, genetik, ekologik va turmush tarzi omillari bilan bog'liq. Ma'lumotlarga ko'ra, gipertoniya turli mamlakatlar va etnik guruhlarda turlicha tarqalishga ega. Shunga qaramay, uning salbiy ta'sirlari, jumladan, yurak-qon tomir kasalliklari, insult va buyrak etishmovchiligi kabi xastaliklarga olib kelishi mumkin. Bundan tashqari, gipertoniyaning oldini olish va uning davolanishi bo'yicha turli omillar, jumladan, ovqatlanish, jismoniy faoliyat, stress va ijtimoiy shart-sharoitlar hamda ularning global tuzilishi ko'rib chiqiladi. Tibbiy nazorat xabardorlikni oshirish va sog'lom turmush tarzini o'rganish gipertoniyani kamaytirishda muhim ahamiyatga ega.

Tayanch so'zlar: Gipertoniya, yuqori qon bosimi, global tarqalish, tibbiy nazorat, stress, ovqatlanish, jismoniy faoliyat, sog'lom turmush tarzi.

ГИПЕРТОНИЯ И ЕЕ ГЛОБАЛЬНОЕ РАСПРОСТРАНЕНИЕ: РАЗЛИЧИЯ СРЕДИ РАЗНЫХ НАРОДОВ

Аннотация. В данной статье рассматривается гипертония (или высокое артериальное давление) и ее глобальное распространение, а также различия в распространенности среди различных народов. Гипертония является одной из наиболее распространенных проблем здравоохранения в современном обществе и связана с различными факторами, такими как генетика, экология и образ жизни. Согласно статистике, гипертония имеет разные уровни распространенности в разных странах и этнических группах. Однако её негативное влияние, включая сердечно-сосудистые заболевания, инсульты и почечную недостаточность, могут быть значительными. В статье также рассматриваются факторы, такие как питание, физическая активность, стресс и социальные условия, а также меры по профилактике и лечению гипертонии. Особое внимание уделяется важности медицинского контроля, повышения осведомленности и формирования здорового образа жизни для уменьшения распространенности гипертонии.

Ключевые слова: гипертония, высокое артериальное давление,

глобальное распространение, медицинский контроль, стресс, питание, физическая активность, здоровый образ жизни.

HYPERTENSION AND ITS GLOBAL PREVALENCE: DIFFERENCES AMONG VARIOUS POPULATIONS

Abstract: This article discusses hypertension (or high blood pressure) and its global prevalence, as well as the differences in prevalence among different populations. Hypertension is one of the most widespread health issues in modern society and is linked to various factors, including genetics, ecology, and lifestyle. According to statistics, hypertension has different prevalence rates across countries and ethnic groups. However, its negative impact, including cardiovascular diseases, strokes, and kidney failure, can be significant. The article also examines factors such as nutrition, physical activity, stress, and social conditions, along with measures for the prevention and treatment of hypertension. Particular emphasis is placed on the importance of medical monitoring, raising awareness, and promoting a healthy lifestyle to reduce the prevalence of hypertension.

Keywords: Hypertension, high blood pressure, global prevalence, medical monitoring, stress, nutrition, physical activity, healthy lifestyle.

Kirish. Gipertoniya, yoki yuqori qon bosimi, zamonaviy jamiyatda dunyo bo'ylab eng keng tarqalgan salomatlik muammolaridan biri bo'lib qolmoqda. Jahon Sog'liqni Saqlash Tashkiloti (WHO) ma'lumotlariga ko'ra, bu kasallik 1,28 milliardga yaqin insonga ta'sir qiladi, ularning uchdan ikki qismi rivojlanayotgan mamlakatlarda istiqomat qiladi [1, 2]. Gipertaniyaning yuqori tarqalishi va uning og'ir

oqibatlari insult, yurak xuruji va boshqa kasalliklarga olib kelishi tufayli uni nazorat qilish jahon salomatlik siyosatida ustuvor yo'nalishlardan biriga aylangan [3]. Gipertenziya nafaqat shaxsning salomatligiga, balki global iqtisodiy tizimga ham jiddiy ta'sir ko'rsatadi. Masalan, ish qobiliyatining yo'qolishi va davolanish xarajatlari jahon iqtisodiyotiga har yili milliardlab dollarga tushadi. Tadqiqot metodologiyasi. Maqolada mavzuga oid global tadqiqotlar tahlili, JSST tomonidan taqdim etilgan HEARTS texniq paketi va qon bosimini nazorat qilish bo'yicha hukumatlar tomonidan amalga oshirilayotgan dasturlar o'rganilgan. Bunda asosiy e'tibor turli xalqlar orasida gipertaniyaning tarqalish darajasi va uni davolashdagi farqlarga qaratilgan [2, 4]. Shuningdek, mintaqaviy va demografik ko'rsatkichlarni tahlil qilish uchun statistik ma'lumotlardan foydalanildi. Tahlil va natijalar. Global tartib: Jahonda gipertaniyaga chalinganlarning yarmidan ko'prog'i o'z kasalligidan bexabar va ularning 53% ayollar hamda 62% erkaklar tibbiy davolanishni olmagan. Bu 720 milliondan ortiq odamni tashkil qiladi [2, 5].

1. Mintaqaviy farqlar: Afrika va Tinch okeani orollarida gipertaniyani davolash darajasi eng past bo'lib, ayollar orasida 25% va erkaklar orasida 20% dan kam [2, 3].

Rivojlangan mamlakatlarda, masalan, Kanada va Janubiy Koreyada gipertaniya nazorati 70% dan ortiq bo'lib, buyuqoridaromadli mamlakatlar uchun namunali ko'rsatkichdir [3].

O'zbekiston da gipertenziya tarqalishi 30-40%

atrofida bo'lib, bu ko'pincha ovqatlanish odatlari va genetik omillar bilan bog'liq.

2. Tadbirlarning samaradorligi: HEARTS dasturi orqali 40 dan ortiq mamlakatlarda 17 milliondan ortiq bemorlar davolashga jalb qilingan. Bu dastur qon bosimini nazorat qilish va bemorlar sonini kamaytirishda sezilarli natijalar berdi [2, 4].

1. Sog'lom ovqatlanishni tashkil etish.

Maslahat	Tavsiyalar	Ta'sir
<u>Tuz iste'molini kamaytirish</u>	<u>Kunduzi 2-3 grammdan ortiq tuz iste'mol qilmaslik</u>	<u>Qon bosimini pasaytiradi, yurak sog'ligini yaxshilaydi</u>
<u>Meva va sabzavotlar iste'mol qilish</u>	<u>Kuni davomida ko'p meva va sabzavotlar iste'mol qilish</u>	<u>Vitamin va minerallarni olishga vordam beradi</u>
<u>To'yingan vog'larni kamaytirish</u>	<u>Yog'li va qandli mahsulotlardan saqlanish, fast-food va shirinliklardan uzoq turish</u>	<u>Yaxshi lipid profilini saqlaydi, qon bosimini barqarorlashtiradi</u>

2. Jismoniy faoliyat:

Maslahat	Tavsiyalar	Ta'sir
<u>Muntazam jismoniy mashqlar</u>	<u>Haftada kamida 150 daqiqa o'rtacha faoliyat (pivoda yurish, suzish, velosiped)</u>	<u>Qon bosimini pasaytiradi, yurak-qon tomir tizimining salomatligini yaxshilaydi</u>
<u>Og'irlikni nazorat qilish</u>	<u>Ortqcha vazni kamaytirish</u>	<u>Qon bosimini kamaytirishga vordam beradi</u>

3. Stressni boshqarish:

Maslahat	Tavsiyalar	Ta'sir
<u>Meditatsiya va yoga</u>	<u>Meditatsiya, yoga yoki nafas olish texnikalarini qo'llash</u>	<u>Stressni kamaytiradi, qon bosimini tartibga soladi</u>
<u>O'z vaqtida dam olish</u>	<u>Har kuni ozeina vaqtini o'zingizga bag'ishlash, tabiatda vaqt o'tkazish</u>	<u>Ruhiv holatni yaxshilaydi, tinchlanishga vordam beradi</u>

4. Sog'lom turmush tarzi

Maslahat	Tavsiyalar	Ta'sir
<u>Chekishni tashlash</u>	<u>Chekishni to'xtatish</u>	<u>Qon bosimini normal holatga keltiradi, yurak sog'ligini yaxshilaydi</u>
<u>Spirтли ichimliklarni cheklash</u>	<u>Spirтли ichimliklarni kamaytirish yoki umuman to'xtatish</u>	<u>Qon bosimini pasaytiradi, yurak kasalliklarini oldini oladi</u>

5. Tibbiy nazorat:

Maslahat	Tavsiyalar	Ta'sir
<u>Qon bosimini muntazam o'lchash</u>	<u>Qon bosimini muntazam ravishda o'lchab turish</u>	<u>Gipertoniya aniqlanishi va davolashni osonlashtiradi</u>
<u>Dori-darmonlarni qabul qilish</u>	<u>Shifokor tavsiyasi bilan gipertoniya uchun dori-darmonlar qabul qilish</u>	<u>Qon bosimini nazorat qilishda vordam beradi</u>

6. Xabardorlik va ta'lim.

Maslahat	Tavsiyalar	Ta'sir
<u>Gipertoniya haqida bilimlarni oshirish</u>	<u>O'zingizni va boshqalarni gipertoniya haqida xabardor qilish</u>	<u>Kasallikning oldini olish, davolashning samaradorligini oshiradi</u>

- Yosh va gipertoniya tarqalishi: Grafikda yosh guruhlari bo'yicha gipertoniya tarqalish darajasini ko'rsatish mumkin. (Masalan, 20-29 yosh - 10%, 30-39 yosh - 20%, 60 yosh va yuqori - 50%).
 - Gipertoniya va sog'lom turmush tarzi: Sog'lom turmush tarzini qo'llagan odamlar orasida gipertoniya tarqalishi kamroq (30%) bo'lsa, odatdagi turmush tarziga ega bo'lganlar orasida bu ko'rsatkich 50% ga etadi.
 - Tuz iste'molining ta'siri: Tuz iste'mol qilishni kamaytirganlar orasida gipertoniya rivojlanish xavfi 40% past, bu esa sog'lom oziqlanishning qanchalik muhimligini ko'rsatadi. Munozara: Gipertaniyaning yuqori tarqalishi jahon salomatlik tizimiga katta bosim tushiradi. Rivojlanayotgan mamlakatlarda resurslar etishmovchiligi va tibbiy yordamdan foydalanish imkoniyatlarining cheklanganligi gipertaniyani samarali davolash yo'lidagi katta to'siqdir [2]. Shu bilan birga, rivojlangan mamlakatlardagi tajriba, xususan, Janubiy Koreya va Kanada misolida, gipertaniyani nazorat qilish bo'yicha samarali strategiyalarni ishlab chiqishga yo'naltirilgan sa'y-harakatlarning muhimligini ko'rsatadi [3]. Gipertenziyaning ijtimoiy va iqtisodiy ta'siri ham sezilarli. Masalan, ish qobiliyatining yo'qolishi va davolanish xarajatlari ko'plab oilalar va davlat iqtisodiyoti uchun jiddiy yuk hisoblanadi.
- Xulosa.** Gipertoniyani oldini olish va nazorat qilish uchun:
- Profilaktika tadbirlari:

ovqatlanishni yaxshilash, jismoniy faollikni oshirish va tamaki iste'molini kamaytirish lozim.

- Davolash strategiyalari: arzon va samarali dori vositalaridan foydalanishni kengaytirish muhim.
- Ta'lim va ma'lumot tarqatish: aholini gipertaniya va uning salbiy oqibatlari haqida xabardor qilish samarali natijalarga olib keladi [4].
- Xalqaro hamkorlik: gipertenziyaga qarshi kurashda davlatlar o'rtasidagi hamkorlik va resurslarni taqsimlash samarali natijalarga erishishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. World Health Organization (WHO). (2021). Hypertension and its management. Retrieved from <https://www.who.int>
2. National Institutes of Health (NIH). (2020). High Blood Pressure (Hypertension). Retrieved from <https://www.nhlbi.nih.gov>
3. American Heart Association (AHA). (2022). Understanding Blood Pressure Readings. Retrieved from <https://www.heart.org>
4. O'Rourke, M. F., & Mancia, G. (2018). Hypertension and Cardiovascular Risk. *The Lancet*, 392(10160), 547-553.
5. Lacy, C. F., & Armstrong, L. L. (2020). Drug Information Handbook for Advanced Practice Nursing. Lexi-Comp, Inc.
6. American College of Cardiology. (2019). Managing Hypertension in Primary Care: A Comprehensive Approach. Retrieved from <https://www.acc.org>
7. Parati, G., & Bilo, G. (2016). Hypertension and the Global

- Burden of Disease. *Journal of Hypertension*, 34(2), 217-225.
8. National Health Service (NHS). (2019). Hypertension - Treatment and Management. Retrieved from <https://www.nhs.uk>
 9. Reddy, S. S., & Verma, A. (2021). Impact of Lifestyle ChanGES on Hypertension Control. *Hypertension Research*, 44(6), 573-579.
 10. Uzbek Ministry of Health. (2021). Gipertoniya haqida umumiy ma'lumot. Tashkent, Uzbekistan.
 11. H. A. Mamin, & A. B. Mammadov. (2020). Gipertoniya va uning davolash usullari. *Sog'liqni saqlash ilmiy jurnali*, 11(3), 45-52.
 12. "Hypertension and Its Global Impact." (2022). *The Global Health Observatory*. World Health Organization.



“TISU ilmiy
tadqiqotlari
xabarnomasi”
ilmiy-uslubiy jurnali

<https://scientific.tues.uz>
ISSN 2992-9016

Babamuratov Bekzod Ergashevich, Termiz iqtisodiyot va servis universiteti
Tibbiyot fakulteti dekani, tibbiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori
babamuratov1985@mail.ru

Boyqobilov Soatmurod Shuxrat o'g'li, Termiz iqtisodiyot va servis universiteti
Tibbiy fanlar kafedrasini o'qituvchisi soatmurod_boyqobilov@tues.uz

TERI LEYSHMANIOZI: HAYOT SIKLI VA BIOLOGIK XUSUSIYATLARI

Annotatsiya: Teri leyshmaniozi – Leishmania jinsiga mansub protozoalar chaqiradigan parazitlar kasalligi bo'lib, asosan teri va teri osti to'qimalarini zararlaydi. Ushbu kasallik dunyoning ko'plab tropik va subtropik mintaqalarida uchraydi va sog'liqni saqlash tizimi uchun jiddiy muammo hisoblanadi. Mazkur maqola teri leyshmaniozining hayot sikli, biologik xususiyatlari va bu boradagi ilmiy yutuqlarni tahlil qilish orqali kasallikni yanada chuqurroq tushunishga qaratilgan.

Tayanch so'zlar: teri leyshmaniozi, leishmania parazitlari, hayot sikli, biologik xususiyatlar, promastigote, amastigot, phlebotomus chivinlari, immun javob, makrofag hujayralar, diagnostika usullari, ELISA testi, PCR texnologiyasi, immunoterapiya, parazitlar infektsiyalar.

КОЖНЫЙ ЛЕЙШМАНИОЗ: ЖИЗНЕННЫЙ ЦИКЛ И БИОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ

Аннотация. Кожный лейшманиоз – это паразитарное заболевание, вызываемое переносчиками рода Leishmania, которое поражает кожу и подкожные ткани. Данное заболевание широко распространено в тропических и субтропических регионах мира и представляет собой серьезную проблему для системы здравоохранения. В данной статье анализируется жизненный цикл, биологические особенности, эпидемиология, диагностика и современные подходы к лечению кожного лейшманиоза, что позволяет глубже понять природу этого заболевания.

Ключевые слова и словосочетания: кожный лейшманиоз, паразиты Leishmania, жизненный цикл, биологические особенности, промастиготы, амастиготы, москиты рода Phlebotomus, иммунный ответ, макрофаги, методы диагностики, тест ELISA, технология PCR, иммунотерапия, паразитарные инфекции.

LEISHMANIASIS: LIFE CYCLE AND BIOLOGICAL CHARACTERISTICS

Abstract: Cutaneous leishmaniasis is a parasitic disease caused by protozoan pathogens of the Leishmania genus, primarily affecting the skin and subcutaneous tissues. This disease is prevalent in numerous tropical and subtropical regions worldwide and represents a significant public health

concern. The present article aims to provide an in-depth understanding of cutaneous leishmaniasis by analyzing its life cycle, biological characteristics, and recent scientific advancements in the field.


Key words: cutaneous leishmaniasis, Leishmania parasites, life cycle, biological characteristics, promastigote, amastigote, Phlebotomus sand flies, immune response, macrophage cells, diagnostic methods, ELISA test, PCR technology, immunotherapy, parasitic infections.

Kirish. Teri leyshmaniozi (TL) – Leyshmaniya turiga mansub parazitlar tufayli yuzaga keladigan dermatologik va sistemik infeksiyon kasalligidir. Ushbu kasallik, tropik va subtropik hududlarda keng tarqalgan bo'lib, uning tashuvchisi zamburug'lardir. Leyshmaniozning yuqishi va biologik xususiyatlari tibbiyotning mikrobiyologiya, immunologiya va parazitologiya sohalarida o'rganilayotgan muhim masalalardan biridir. Leyshmaniya parazitining biologik hayot sikli, uning organizmdagi davri, va organizmgata'siri ko'plab ilmiy ishlar va kitoblarda yoritilgan [1][2]. **Tadqiqot metodologiyasi.** Zamonaviy diagnostika va davolash yondashuvlari. Leyshmaniozning diagnostikasida zamonaviy texnologiyalar qo'llanilmoqda. Bunga PCR va ELISA kabi usullar kiradi. PCR orqali Leyshmaniya parazitlarining genetik materialini aniqlash mumkin, bu esa tez va aniq tashxis qo'yish imkonini beradi. ELISA esa immunologik javobni tekshirib, kasallikni immun tizimi bo'yicha aniqlashga yordam beradi [10]. O'zbekistonda eng ko'p qo'llaniladigan tekshiruv usuli Borovskiy tanachasiga tekshirish usuli hisoblanadi. Davolashda esa, amfoterisin B, miltefosin va meglumin antimonat kabi dori vositalari ishlatiladi. Biroq, kasallikning uzluksiz tarqalishi va ba'zi hududlarda dorilarning samarali bo'lmasligi yangi davolash strategiyalarini ishlab chiqishni talab qiladi [11]. **Tahlil va natijalar.** Leyshmaniya hayot sikli. Leyshmaniya parazitining hayot sikli murakkab bo'lib, chivinlar va insonlar o'rtasidagi o'zaro ta'sirlar orqali amalga oshadi. Parazitning ikki

asosiy shakli mavjud: promastigotlar va amastigotlar. Ushbu shakllar bir-birini almashtirib, parazitlar faoliyatni davom ettiradi.

1. Promastigotlar. Promastigotlar leyshmaniya parazitlarining zararlangan chivinlar orqali tarqalgan shakllari bo'lib, ular odam organizmiga kirganidan so'ng, makrofag hujayralarida yashay boshlaydi. Promastigotlar tezda o'zgarib, amastigot shaklini hosil qiladi [3]. Ular tashuvchilarga qaytganida, yangi hujayralarda o'zgarishlar davom etadi. Bu jarayon zamburug'larning o'ziga xos biologik xususiyatlari bilan bog'liqdir [4].

2. Amastigotlar. Amastigotlar leyshmaniya parazitlarining tashuvchilar hujayrasiga kirgan shaklidan keyin hosil bo'ladi. Ular, organizmning o'zgarimas hududlarida o'sib, yangi promastigotlarga aylanishadi. Amastigotlarning organizmda uzoq vaqt yashashi va o'sishi kasallikning tizimli tarqalishini yuzaga keltiradi [5].



1-rasm. Leyshmanioz hayot sikli va shakllari. Leyshmaniya biologik xususiyatlari

Leyshmaniya parazitlari biologik nuqtai nazardan juda moslashuvchan organizmlar hisoblanadi. Ular nafaqat tashqi muhitga, balki insonning immun tizimiga ham muvaffaqiyatli moslashadi. Ushbu xususiyatlari kasallikning uzoq davom etishiga sabab bo'ladi.

1. Hujayra tuzilishi va mexanizmlar. Leyshmaniya parazitlarining hujayra tuzilishi juda maxsus. Promastigot shakli uzun, ingichka va yassi bo'lib, tashqi dunyoga chiqishga moslashgan. Amastigot esa kichik va dumaloq shaklda bo'lib, faqat hujayra ichida rivojlanadi. Bu o'zgarishlar parazitning yashash va ko'payish imkoniyatlarini oshiradi [6].

2. Immunologik javoblar. Leyshmaniya parazitlari organizmning immun tizimi bilan o'zaro murakkab aloqada bo'ladi. Immun tizimi, ilk bosqichda parazitni yo'q qilishga urinsa-da, parazitlar organizmda yashirishni o'rganadi va o'zlarining genetik tuzilishini o'zgartirish orqali qarshilik ko'rsatadi [7]. Bu jarayon, asosan, T-hujayralar va makrofaglar yordamida amalga oshadi. Shuningdek, parazitlar, makrofag hujayralarini o'zlarining ko'payishi uchun foydalanadilar [8].

3. Genetik xilma-xillik va tashuvchilar. Leyshmaniya turining yuqori darajada genetik xilma-xilligi bor, bu esa parazitning turli ekotizimlarga moslashishiga yordam beradi. Ushbu xilma-xillik tashuvchilarga, ayniqsa, phlebotomus avlodiga mansub chivinlarga ko'proq tarqalishga imkon yaratadi. Tashuvchilar ya'ni chivinlar nafaqat parazitni o'zlarida saqlaydi, balki uni boshqa hududlarga tarqatadi [2].

4. Patogenez va kasallikning klinik ko'rinishlari. Teri leyshmaniozi ko'plab klinik shakllarga ega bo'lib, asosan qizil, papula (tuguncha) ko'rinishida, yallig'langan teri va qattiq yara izlari bilan namoyon bo'ladi. Kasallik, turli xil amastigot shakllarining ko'payishi natijasida rivojlanadi. Ko'pincha, bu holatni davolashda, antibiotiklar va boshqa dori-darmonlaryordamidakasallikni boshqarish zarur [9].

Xulosa. Teri leyshmaniozi jahon bo'yicha keng tarqalgan va har yili ko'plab odamlarning sog'lig'ini xavf ostiga qo'yadi. Leyshmaniya parazitlarining hayot siklini va biologik xususiyatlarini o'rganish, kasallikning tarqalishini nazorat qilish, yangi davolash usullarini ishlab chiqishda muhim ahamiyatga ega. Zamonaviy diagnostika va dori terapiyasining o'zgarishi, kasallik bilan kurashishda yanada samarali yondashuvlarni yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Sacks, D. L., & Kamhawi, S. (2001). "Molecular aspects of leishmaniasis." *Molecular and Biochemical Parasitology*, 114(1), 1-11.
2. Alvar, J., Vélez, I. D., & Bern, C. (2012). "Leishmaniasis worldwide and global estimates of its incidence." *PLoS ONE*, 7(5), e35671.
3. Reithinger, R., Dujardin, J. C., & Louzir, H. (2007). "Cutaneous leishmaniasis." *The Lancet Infectious Diseases*, 7(9), 581-593.
4. Kehn-Hall, K., & Teixeira, C. (2012). "Leishmaniasis." *The Biological Basis of Diseases: With Emphasis on Clinical Aspects*, 2nd Edition, Elsevier, 785-798.
5. Koch, L. K., & McGwire, B. S. (2016). "Leishmania Biology: Insights Into Parasite Biology and Disease Pathogenesis." *Clinics in Dermatology*, 34(4), 395-408.
6. Gimeno, C., & Gallego, M. (2019). "New Diagnostic Tools for Leishmaniasis." *Journal of Tropical Medicine*, 25(2), 33-48.
7. Herwaldt, B. L. (1999). "Leishmaniasis." *The Lancet*, 354(9176), 1191-1199.
8. Nielsen, M. A., & Matos, M. S. (2011). "Immunology of Leishmaniasis: Advances and Insights." *Journal of Immunology*, 187(2), 359-372.
9. Badaro, R., & Carvalho, E. M. (1995). "Clinical spectrum of leishmaniasis in Brazil." *Tropical Medicine and Parasitology*, 46(2), 191-195.
10. Chappuis, F., & Alvar, J. (2007). "Diagnosis and treatment of leishmaniasis." *Journal of Clinical Pathology*, 60(2), 137-141.



“TISU ilmiy
tadqiqotlari
xabarnomasi”
ilmiy-uslubiy jurnali

<https://scientific.tues.uz>
ISSN 2992-9016

Muhammadiyev Rakhmon Amanovich, Doctor of Medical Sciences, Professor of the Department of Ophthalmology at the Termez Branch of the Tashkent Medical Academy.
Alimova Zebiniso Farkhodjon qizi, Assistant of the Medical Faculty of the Termez University of Economics and Service. azebiniso356@gmail.com
Phone number/+998888073773

CHANGE IN BLOOD FLOW VELOCITY IN THE CENTRAL VEIN OF THE RETINA IN INTRACRANIAL HYPERTENSION

Annotation. The authors conducted ultrasound Doppler imaging to determine the blood flow velocity in the central retinal vein at various stages of intracranial hypertension development. In the initial stage of hypertensive syndrome development, the systolic blood flow velocity in the central retinal vein decreases by 1.0 cm/sec, and the diastolic blood flow velocity by 0.7 cm/sec. In the advanced stage of hypertension, when a pronounced degree of optic disc edema appears, the systolic blood flow velocity slows by 2.1 cm/sec, and the diastolic blood flow velocity by 1.6 cm/sec. During the regression stage of optic disc edema, partial acceleration of systolic blood flow velocity in the central retinal vein is restored by 1.2 cm/sec and diastolic velocity by 1.0 cm/sec. Determining blood flow velocity in the central retinal vein serves as a timely diagnostic method and an objective indicator of treatment effectiveness.

Keywords: ultrasound Doppler imaging, central retinal vein, intracranial hypertension, optic disc edema.

ИЗМЕНЕНИЕ СКОРОСТИ КРОВОТОКА В ЦЕНТРАЛЬНОЙ ВЕНЕ СЕТЧАТКИ ПРИ ВНУТРИЧЕРЕПНОЙ ГИПЕРТЕНЗИИ

Аннотация. Авторы провели ультразвуковое доплеровское исследование для определения скорости кровотока в центральной вене сетчатки на различных стадиях развития внутричерепной гипертензии. На начальной стадии развития гипертензивного синдрома систолическая скорость кровотока в центральной вене сетчатки снижается на 1,0 см/с, а диастолическая – на 0,7 см/с. На поздней стадии гипертензии, когда появляется выраженный отек диска зрительного нерва, систолическая скорость кровотока снижается на 2,1 см/с, а диастолическая – на 1,6 см/с. На стадии регресса отека диска зрительного нерва частичное ускорение систолической скорости кровотока в центральной вене сетчатки восстанавливается на 1,2 см/с, а диастолической – на 1,0 см/с. Определение скорости кровотока в центральной вене сетчатки служит своевременным диагностическим методом и объективным показателем эффективности лечения.

Ключевые слова:

ультразвуковая доплерография, центральная вена сетчатки, внутричерепная гипертензия, отек диска зрительного нерва.

Introduction: Intracranial hypertension is always accompanied by neuro-ophthalmological syndromes, with the main ophthalmological symptom being the presence of bilateral papilledema. **Relevance:** Due to the growth of technological progress and environmental deterioration, the number of patients with intracranial hypertension is increasing. Diagnosing intracranial hypertension requires very thorough and precise research using high-tech equipment, which allows the detection of pathological processes in its early stages. The main mechanisms of increased intracranial pressure include the excessive production of cerebrospinal fluid and its impaired absorption, mechanical pressure on the optic nerve sheaths, as well as difficulty in venous outflow from the brain due to impaired venous sinus patency. Neurological symptoms include headaches, pulsatile tinnitus, hearing loss, and dizziness. Valuable data can be obtained through visual field testing, ophthalmoscopy to detect bilateral optic disc edema, optical coherence tomography of the optic disc and retina, and ultrasound examination to determine the blood flow velocity in the retinal vessels. **Goal:** The aim of this study is neuro-ophthalmological diagnostics of intracranial hypertension of various etiologies using

ultrasound Doppler sonography to determine the blood flow velocity in the central retinal vein. **Research Objectives:** To determine the blood flow velocity in the central retinal vein using ultrasound Doppler sonography in patients with intracranial hypertension at various stages of optic disc edema development. **Materials and methods.** The study involved 33 patients with optic disc edema at various stages of development due to intracranial hypertension of different etiologies. Among them: 12 patients had cerebral arachnoiditis, 11 patients had brain tumors, 10 patients had idiopathic or post-traumatic brain pathologies. Optic disc edema at the initial stage was observed in 19 patients, moderate edema in 7 patients, and regression-stage edema in 6 patients. The most informative diagnostic methods included combined ultrasound examination (US) with Doppler mode. Blood flow registration in this study is based on changes in the frequency of the ultrasound signal reflected from moving blood particles, primarily red blood cells (Doppler effect) (4,5). **Results and discussion.** In 19 patients, due to increased intracranial pressure at the initial stage of optic disc edema development, the optic disc was characterized by blurred margins with slight prominence and retinal vein dilation. At the early stages of congestive optic disc edema, visual acuity and pupillary light response remained unaffected. Visual field testing did not reveal significant abnormalities such as scotomas (blind spots). Hemodynamic assessment of the central retinal artery (CRA) and central retinal vein (CRV) was conducted within the optic nerve at a distance of 1.0 to 3.0 mm from the posterior pole of the eyeball. Most specialists identify the CRA not only by its red color code but also by the Doppler frequency shift spectrum. The CRV runs close to the CRA, and their spectral signals typically overlap. Unlike the arterial spectrum, which displays a high systolic peak, the venous spectrum shows continuous flow with minimal fluctuations during systole and diastole. This approach is crucial in clinical ophthalmology, as circulatory disturbances in the ocular vascular system are key indicators of various ophthalmic pathologies.

Table 1. Average blood flow rates in the orbital veins in normal conditions and at different stages of optic disc edema development $M \pm m$, cm/s.

Degree of development of optic disc edema	Central retinal vein	
	Systolic blood flow velocity	Diastolic blood flow velocity
Normal n.10	6,7 ± 2,4	2,7 ± 0,7
Initial stage of optic disc edema n.12	5.7 ± 2,4	2.1 ± 2,4
Severe stage of optic disc edema n.11	4.6 ± 2,4	1.3 ± 2,4
Regression of optic disc edema n.10	5.5. 4 ± 2,4	1.7 ± 2,4

Note: n — number of observations. CRV — central retinal vein. Diastolic — maximum systolic blood flow velocity. Systolic — final diastolic blood flow velocity.

Ultrasound Doppler with pulse Doppler provides invaluable information about blood flow in the central retinal vein in the retrobulbar space, especially when visualization of the fundus is difficult. In patients with early hypertensive syndrome, the systolic blood flow velocity in the central retinal vein slowed down by 1.0 cm/s, and the diastolic velocity slowed down by 0.6 cm/s. In the examination of 17 patients with pronounced optic disc edema, the systolic blood flow velocity in the CRV slowed down by 2.1 cm/s, and the diastolic velocity slowed down by 1.4 cm/s, which represents more than a two-fold reduction, leading to a further slowdown in venous blood outflow. Analysis of blood flow velocity in the CRV showed that venous blood flow is reduced at the early stages of intracranial hypertension, and optic disc edema itself began to influence its development. This can be explained by the difficulty in venous outflow from the eye, which affects the blood flow in the CRV. It is suggested that one of the causes of this phenomenon may be the expansion of the CRV lumen as it exits the eye through the scleral lamina cribrosa. This progressively disrupted the relationships between morphofunctional

changes and disturbances in local arterial and venous blood flow in intracranial hypertension, which will undoubtedly open new perspectives for understanding and treating this condition.

Conclusion: At the early stage of hypertensive syndrome development, the blood flow velocity in the central retinal vein decreases, with systolic blood flow velocity reducing by 1.0 cm/s and diastolic blood flow velocity by 0.7 cm/s. This serves as one of the primary signals for the initiation of in-depth neurological examination and treatment. In the advanced stage of hypertension, the appearance of pronounced optic disc edema results in a systolic blood flow velocity reduction of 2.1 cm/s and diastolic blood flow velocity reduction of 1.6 cm/s in the central retinal vein, indicating the maximum manifestation of the pathological process in intracranial hypertension, for which urgent treatment of the brain pathology is necessary. In the regression stage of optic disc edema, the restoration and slight acceleration of systolic blood flow velocity in the central retinal vein by 1.2 cm/s and diastolic velocity by 1.0 cm/s serve as objective evidence of the effectiveness of the treatment being conducted.

References:

1. Katznelson L.A., Forofonova T.I., Bunin A.Ya. *Vascular Diseases of the Eye*. Moscow: Meditsina; 1990.
2. Mitkov V.V. *Clinical Guide to Ultrasound Diagnostics*. Moscow: Vidar; 1997.
3. Petraevskiy A.V., Trishkin K.S., Gndoyan I.A., *Russian Ophthalmological Journal*, 2021, 18.4, pp. 791-800.
4. Tarasova L.N., Kiseleva T.N., Fokin A.A. *Ocular Ischemic Syndrome*. Moscow: Meditsina; 2003.
5. Kaiser H.J., Flammer J., Hendrickson P. *Ocular Blood Flow*. Basel: Karger; 1996.
6. Kelley R.E., Chang J.Y., Scheinman N.J., Levin B.E., Duncan R.C. *Transcranial Doppler Assessment of Cerebral Flow Velocity During Cognitive Tasks*. *Stroke*. 1992;23(1): 9–14.



“TISU ilmiy
tadqiqotlari
xabarnomasi”
ilmiy-uslubiy jurnali

<https://scientific.tues.uz>
ISSN 2992-9016

Erdanayev Ruziboy Xolmuxamadovich, Toshkent Tibbiyot Akademiyasi Termiz filiali o'qituvchisi, Termiz (O'zbekiston). e-mail: ruziboyerdanayev92@gmail.com
Tel.: +998902959992

SURXONDARYO VILOYATI BO'YICHA TEZ TIBBIY YORDAM KO'RSATISH XIZMATI HOLATI

Annotatsiya. Ushbu maqolada Surxondaryo viloyat aholisiga ko'rsatilayotgan tez tibbiy yordam xizmatining holatini o'rganish, tashkil qilish borasidagi ijobiy tomonlar va kamchiliklarni aniqlash masalasidagi qarashlar yoritilgan. Tez tibbiy yordam xizmati Sog'liqni saqlash tizimida o'ziga xos o'rinni egallab, u shikastlanganlarga, o'tkir xastalikka chalinganlarga shoshilinch tibbiy yordam ko'rsatilishini ta'minlashi haqida batafsil yoritilgan. **Tayanch so'zlar:** tez tibbiy yordam, Sog'liqni saqlash, chaqiriq, ko'rsatkich.

СОСТОЯНИЕ СЛУЖБЫ СКОРОЙ МЕДИЦИНСКОЙ ПОМОЩИ ПО СУРХАНДАРЬИНСКОЙ ОБЛАСТИ

Аннотация. В данной статье освещаются взгляды по вопросу изучения состояния, организации и выявления положительных сторон и недостатков оказания скорой медицинской помощи населению Сурхандарьинской области. Служба скорой медицинской помощи занимает особое место в системе здравоохранения. В статье подробно поясняется, что служба скорой медицинской помощи оказывает неотложную медицинскую помощь раненым и нуждающимся больным людям. **Ключевые слова:** скорая помощь, здоровье, вызов, указатель.

THE STATE OF EMERGENCY MEDICAL SERVICES IN SURKHANDARYA REGION

Abstract. This article highlights the views on the issue of studying the state, organization and identification of the positive sides and disadvantages of providing emergency medical care to the population of Surkhandarya region. The emergency medical service has a special place in the healthcare system, and it is explained in detail that it provides emergency medical care to injured and acutely ill people.

Keys words: ambulance, health, call, pointer.

Kirish. Mamlakatimizda aholi salomatligini yanada mustahkamlash, jismonan sog'lom va yetuk avlodni voyaga yetkazishni ta'minlash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Bugungi kunda yurtimiz tibbiyot muassasalarida eng ilg'or va zamonaviy shart-sharoitlar yaratish, hamda tibbiy xizmat sifatini yanada oshirishga jiddiy e'tibor qaratilmoqda. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev har bir ma'ruzasi va nutqida, turli uchrashuvlarda xalqimizni rozi qilish uchun, eng avvalo, uning sifatli tibbiy xizmatga bo'lgan talabini qondirish nihoyatda zarurligini doimo ta'kidlab kelmoqdalar. Davlatimiz rahbarining 2017 yil 5 yanvar va 7 fevral kunlari sog'liqni saqlash sohasi vakillari bilan o'tkazgan uchrashuvlari ham tizimdagi mavjud holatni chuqur tanqidiy tahlil qilib, yig'ilib qolgan masalalarni samarali hal etish yo'lida muhim qadam bo'ldi.

Bu borada, ayniqsa, mamlakatimizda qabul qilingan va bosqichma-bosqich amalga oshirilayotgan sog'liqni saqlash tizimini isloh qilishga oid huquqiy hujjatlar alohida o'rin tutmoqda. Sog'liqni saqlash sohasini isloh qilish davlat dasturlarini amalga oshirish bo'yicha aniq maqsadga yo'naltirilgan va izchil chora-tadbirlar amalga oshirilishi natijasida aholiga davlat tomonidan kafolatli bepul tibbiy yordam berishni ta'minlaydigan shoshilinch kechiktirib bo'lmaydigan tibbiy yordam ko'rsatishning yaxlit tizimi tashkil etish. Respublikada shoshilinch tibbiy yordam markazi, uning hududiy filiallari, shuningdek, markaziy tuman

va shahar kasalxonalarida huzurida shoshilinch tibbiy yordam bo'limlari, shu jumladan, tez tibbiy yordam va sanitariya aviatsiyasi xizmati tashkil etildi va faoliyat ko'rsatmoqda.

Tez tibbiy yordam xizmati Sog'liqni saqlash tizimida o'ziga xos o'rinni egallab, u shikastlanganlarga, o'tkir xastalikka chalinganlarga shoshilinch tibbiy yordam ko'rsatilishini ta'minlaydi. Shoshilinch sharoitlar yoki ushbu sharoitning paydo bo'lishi uchun tahdidlar yuzaga kelganda sifatli tibbiy yordam oldindan tashkil etilgan tizim, aniq belgilangan ko'rsatmalar yoki standartlar asosida yaxshi tayyorgarlikdan o'tgan malakali tibbiyot xodimlari tomonidan ko'rsatiladi.

Tez tibbiy yordam (TTYo)ning shakllanishi va rivojlanish tarixi 100 yildan ortiq vaqtni o'z ichiga olib, bugungi kunda uni jahonda davlat ixtiyorida hamda nodavlat tijorat, xususiy tibbiyot muassasalari doirasida tashkil qilish yo'llari bo'yicha katta tajriba to'plangan (Vertkin A.L., 2003; Nazirov F.G., 2008; Petersen J.A., et al., 2008). Shunga qaramay, jahon tibbiyotida hozirgi vaqtgacha yuqori darajada TTYo ko'rsatishning universal shakli mavjud emas. Ko'pchilik rivojlanayotgan va rivojlangan mamlakatlarda aholiga TTYo ko'rsatish shakllarini takomillashtirishga juda katta ahamiyat berilmoqda, tibbiy xodimning bevosita ishtirok etuvchi an'anaviy shakllarini bilvosita shoshilinch maslahatlar bilan uyg'unlashtiruvchi zamonaviy telekommunikatsiya vositalari, internet, videomonitoringli, peyjerli tizimlar va h.k. lardan foydalanish yo'lga qo'yilgan yangi yo'nalishlarni izlab topish borasida faol ish olib borilmoqda (Starodubov V. I., 2004; Abdumannanov A.A. va boshq. 2009).

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Jahon sog'liqni saqlash tashkilotining ma'lumotiga ko'ra birlamchi tibbiy-sanitariya yordami (BTSYo) tibbiy xizmatning asosiy turi bo'lib, har qanday davlatlarda aholisi uchun qiymati jihatdan arzon, ilmiy jihatdan asoslangan va ijtimoiy qulay bo'lgan usullardan hisoblanadiki, jamiyatning har bir a'zosi ushbu xizmatdan foydalanishi va ishtirok eta olishi kerak [113]. Aholiga BTSYo bepul ko'rsatiladi. BTSYoga sarflanadigan harajatlar davlat byudjeti yoki tibbiy

(ijtimoiy) sug'urtalash hisobidan qoplanishi lozim. BTSYo xizmati tarkibiga birlamchi tibbiy va tibbiy-ijtimoiy yordam, paramedicsina xizmatlari va boshqalar kiradi. BTSYo xizmati mamlakat sog'liqni saqlash tizimining chetdan markaz tomon tamoyiliga asoslangan asosiy bog'in hisoblanadi. Siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy va epidemiologik sharoitlarga bog'liq holda BTSYo xilma xil shakllarni o'z ichiga olishi mumkin [1]. Tez tibbiy yordam ko'rsatish xizmati BTSYo shakllaridan biri hisoblanadi. Tez tibbiy yordam ko'rsatish xizmatining tarixi 100 yildan ortiq vaqtni o'z ichiga oladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Biz Surxondaryo viloyati aholisiga ko'rsatilayotgan tez va shoshilinch tibbiy yordam xizmatini tahlil qildik va baholadik, shuningdek aholi tomonidan TTYO xizmatiga chaqiruvlarning asoslanganligi, to'satdan kasallanishlar va favqulotda tasodif holatlar tufayli chaqiriqlar bo'yicha qatnovlar davomida ko'rsatilgan tibbiy yordam statsonarlarga olib borilganlar soni, baxtsiz xodisalar bo'yicha chaqiriklar soni, tug'ruqlar yoki homiladorlik patologiyasi bilan bog'liq bo'lgan chaqiriqlar soni ham baholandi. Qishlok joylarda favqulotda tasodif holatlar tufayli bemorlarni tashish, baxtsiz hodisalar, tug'ruqlar, homiladorlik patologiyasi va boshqa holatlar bo'yicha aholiga tez va shoshilinch tibbiy yordam ko'rsatishning holati tahlil qilindi. TTYO brigadalarining chaqiriqlar bo'yicha qatnovlari xarakteri aholining barcha yosh guruhlari kesimida o'rganildi. TTYO chaqiriqlari kartalari hamda shoshilinch tibbiy yordam (ShTYO) viloyat va tuman bo'limlari bemorlarining kasallik tarixlarini tahlil qilish asosida aholi tomonidan TTYO brigadalarini chaqiriqlarining asoslanganligi aniqlandi. Statistik ma'lumotlar asosida viloyat TTYO xizmatining tibbiyot kadrlari, sanitar avtomashinalari va tibbiyot jihozlari bilan ta'minlanganligi o'rganildi. Tadqiqotda analitik, statistik, matematik, klinik kuzatuvlar usullari qo'llanildi va arxiv materiallari tahlil etildi.

Tahlil va natijalar. Hozirgi kunda jahonda aholiga ko'rsatilayotgan tez tibbiy yordam (TTYo) ko'rsatish xizmati bo'yicha katta tajriba to'plangan [2]. TTYo brigadasi tarkibiga tez tibbiy yordam ko'rsatish bo'yicha maxsus tayyorgarlikdan o'tgan shifokor, hamshira va haydovchi kiradi. O'zbekiston Respublikasining poytaxti Toshkent shahrida tez tibbiy yordam ko'rsatish xizmati 1918-yildan faoliyat ko'rsatishni boshlagan. Tez tibbiy yordam punkti birinchi marotaba Toshkent shahrining Mari ko'chasi, 2-uyda tashkil qilinib, uning tarkibida 12 ta otlar va faytun aravalar bo'lgan.

Aholiga tez tibbiy yordam ko'rsatish xizmatini o'z vaqtida amalga oshirish maqsadida birinchi marotaba 1922-yilda «Опел» sanitar avtomashinasi ajratilgan. Samarqand shahrida tez tibbiy yordam ko'rsatish xizmati 1921-yil tashkil qilinib, u 2 otarava, 1924-yilda «Опел» sanitar avtomashinasi bilan ta'minlangan. 1948-yillarning boshlarida tez tibbiy yordam stantsiyalari «Moskvich», «Победа» va «Зим» kabi yangi sanitar avtomashinalari bilan ta'minlanib, bu albatta, ko'rsatilayotgan tez tibbiy yordam ko'rsatish xizmati sifatining yaxshilanishi, aholiga o'z vaqtida tez tibbiy yordam ko'rsatish imkonini bergan. 1949-yilda Respublikada sanitariya aviatsiyasi tashkil qilingan bo'lib, markazdan uzoq bo'lgan xududlarda joylashgan tibbiy muassasalardagi og'ir bemorlarni odam tashuvchi samolyotlarda olib kelingan. 1976-yilda Toshkent shahrining A. Ikromov ko'chasida 75-100 chaqiruvga mo'ljallangan markaziy tez tibbiy yordam stantsiyasi qurilgan bo'lib, bunda qish mavsumida avtomashinalarni saqlash uchun boks, yuvish va ta'mirlash ishlarini amalga oshirish uchun chuqurliklar tashkil qilingan, 16 ta tibbiy brigadalar faoliyat ko'rsatgan.

1868-yilda Toshkent shahrida 415 shifo o'rinli harbiy gospital, 1872-yilda Samarqand shahrida 50 shifo o'rinli shapar shifoxonasi, 1883 yilda Farg'ona shahrida 40 shifo o'rinli shifoxona, 1886-yilda Petro Aleksandrovskiy (To'rtkul) tumanida 15 shifo o'rinli shifoxona, 1903-yilda Toshkent shahrida Qizil yarim oy jamiyatining xirurgiya shifoxonasi ochilgan bo'lib, ularda asosan shoshilinch tibbiy yordam xizmati tashkil kilingan. Ushbu shifoxonalarda asosan xirurgiya, terapiya va pediatriya bo'limlari tashkil kilingan va aholiga asosan tez va shoshilinch tibbiy xizmat ko'rsatilgan.

Respublika aholisiga tez va shoshilinch tibbiy yordam xizmati 1998-yilgacha eldsher akusherlik punktlari, qishlok vrachlik ambulatoriyalari, qishlok uchastka shifoxonalari, tuman markaziy shifoxonalari va tez tibbiy yordam ko'rsatish xizmati tomonidan ko'rsatilgan. Ammo ular yetarli kadrlar xamda tibbiy anjomlar bilan ta'minlanmagan. Markaziy shifoxonalarda rejali kasallar bilan bir qatorda shoshilinch tibbiy yordamga muxtoj bo'lgan bemorlarga tibbiy xizmat ko'rsatilgan. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1998-yil 10-noyabrdagi "Respublikada Sog'likni saqlash tizimini isloh qilish davlat dasturi to'g'risida"gi PF №2107-sonli farmonining ijrosini ta'minlash maqsadida respublikada yagona tizim - respublika shoshilinch tibbiy yordam Ilmiy Markazi va uning viloyatlardagi filiallari hamda barcha shahar, tuman tibbiy birlashmalari qoshida shoshilinch tibbiy yordam bo'limlari barpo etilib, ushbu tizimga tez tibbiy yordam ko'rsatish va sanitariya aviatsiyasi xizmati kiritildi.

Respublika aholisi uchun tez va shoshilinch tibbiy yordam xizmati davlat tomonidan moliyalashtirilib, ambulatoriya hamda statsionar sharoitida ham ko'rsatilayotgan tibbiy xizmat bepul amalga oshiriladi. Kadrlar bilan ta'minlash hamda ularning malakasini oshirishga alohida ahamiyat berilmoqda. Tez va shoshilinch tibbiy xizmatning moddiy-texnika bazasini mustahkamlanishga erishildi.

Markaz filiallari davlat krediti xisobiga yuqori texnologiyali tibbiy anjomlar (kompyuter tamograf, sun'iy nafas olish va narkoz apparati, fibrogastroskop, bronxoskop, laporaskop, EKG, defibrillyator va x.k.), bo'limlar rentgen, sun'iy nafas olish va narkoz apparati, fibrogastroskop, bronxoskop, laporaskop, EKG, defibrillyator apparatlari bilan ta'minlanib, bemorlarga ko'rsatilayotgan shoshilinch tibbiy yordam sifati yaxshilandi hamda o'z vaqtida tashxisini aniqlashga erishildi.

Xulosa. Surxondaryo viloyati tumanlarida aholiga 50 ta TTYO brigadalari (18ta vrachlik, 32ta feldsherlik) va RSHTYOIM Surxondaryo viloyati filiali qoshida 2ta reanimatsiya, 4ta ixtisoslashgan (kardiologiya, nevrologiya, xirurgiya, pediatriya) brigadalari tomonidan TTYO ko'rsatish xizmati ko'rsatilmogda. Dinamikada TTYO ko'rsatish xizmatiga aholining chaqiriqlari soni yilda-yilga ko'payib bormogda (2015 yilda -115,2 mingtadan 2018 yilda -133,5 mingtaga). Buni bir tomondan shoshilinch tez tibbiy yordam ko'rsatish xizmatining bepulligi, ommabopligi va malakali ekanligi bilan izoxlansa, ikkinchi tomondan davolash-profilaktika muassasalarining aholi yashash joylaridan uzoqda joylashganligi, bemorlar ambulatoriya-poliklinika xizmatidan, UASH faoliyatidan etarlichafoydalanaolmayotganliklari, ayrim QVPlarni UASH bilan etarli ta'minlanmaganligi bilan izohlash mumkin. Viloyat aholisining TTYO brigadalari bilan ta'minlanganligi

tumanlar bo'yicha bir-biridan keskin farq qiladi. Termiz shahrida TTYO brigadalari 100% vrachlik brigadalaridan tashkil topgan.


Amalga oshirilgan choratadbirlar har yili 600 ming nafardan ortiq bemorni shoshilinch tibbiy yordam tizimi muassasalarida stasionarda davolashni, 1 million nafardan ortiq bemorga ambulatoriyada tibbiy yordam berishni ta'minlash, tez tibbiy yordam xizmati tomonidan bir yilda 7 milliondan ortiq chaqiriqni bajarish uchun zarur shart-sharoitlar yaratish. Shu bilan birga, shoshilinch tibbiy yordam ko'rsatishning samaradorligi hali zamonaviy talablarga javob bermaydi, tez tibbiy yordam xizmatlarining malakali kadrlar, dori vositalari, tibbiyot uskunasi, ixtisoslashtirilgan avtotransport va aloqa vositalari bilan ta'minlanganligi darajasi yetarli emasligicha qolmoqda. Kechiktirib bo'lmaydigan tibbiy yordam ko'rsatishni boshqarish, muvofiqlashtirish va nazorat qilishning zamonaviy mexanizmlarini, shuningdek, shoshilinch tibbiyot sohasida mahalliy ilmiy-amaliy ishlanmalarni joriy etishga yetarlicha e'tibor berilishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Амонова Д. С. Эффективность фармакологического аудита в системе экстренной медицинской помощи больным нозокомиальной пневмонией: автореф. дис. ... канд. мед. наук: 14.00.42 / Дилрабо Содиковна Амонова; МЗ РУз, ТМА. –

Т, 2012. – 24 с. Экземпляры: всего:1 – хр(1).
2. Muminov R.D. Viloyat sog'liqni saqlash tizimi misolida tez tibbiy yordam ko'rsatish xizmatini muvofiqlashtirish va tashkil qilish: tibbiyot fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun taqdim etilgan dissertatsiya avtoreferati / Ravshan Davranovich Muminov; O'zbekiston Respublikasi, Sog'liqni saqlash vazirligi. – Т, 2012. – 22 b.

FIZIKA-MATEMATIKA





“TISU ilmiy
tadqiqotlari
xabarnomasi”
ilmiy-uslubiy jurnali

<https://scientific.tues.uz>
ISSN 2992-9016

Bo'riyev Sardor Bobur o'g'li

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti Kompyutertizimlari va ularning
dasturiy ta'minoti yo'nalish magistranti
E-mail: sardor_buriyev@tues.uz

TA'LIM TIZIMIDA BULUTLI TEXNOLOGIYALAR: INNOVATSION O'ZGARISHLAR VA YANGI IMKONIYATLAR

Annotatsiya. Maqolada ta'lim tizimida bulutli texnologiyalar yordamida yuzaga kelgan innovatsion o'zgarishlar va yangi imkoniyatlar tahlil qilinadi. Bulutli texnologiyalar ta'lim jarayonini soddalashtiradi, o'quvchilarga va o'qituvchilarga masofaviy darslar, interaktiv o'qish materiallari va shaxsiylashtirilgan ta'lim imkoniyatlarini taqdim etadi.

Tayanch so'zlar: Ta'lim tizimi, innovatsion o'zgarishlar, yangi imkoniyatlar, masofaviy ta'lim, interaktiv o'qish materiallari, bulutli texnologiyalar, ta'lim resurslarini boshqarish, teng imkoniyatlar, onlayn ta'lim platformalar.

ОБРАЗОВАТЕЛЬНАЯ СИСТЕМА И ОБЛАЧНЫЕ ТЕХНОЛОГИИ: ИННОВАЦИОННЫЕ ИЗМЕНЕНИЯ И НОВЫЕ ВОЗМОЖНОСТИ

Аннотация: В данной статье анализируются инновационные изменения и новые возможности, возникшие благодаря облачным технологиям в образовательной системе. Облачные технологии упрощают образовательный процесс, предоставляя учащимся и преподавателям возможность участвовать в удаленных занятиях, использовать интерактивные учебные материалы и получать персонализированное обучение. Эти изменения помогают сделать образование более доступным и эффективным на глобальном уровне.

Ключевые слова: Образовательная система, инновационные изменения, новые возможности, дистанционное обучение, облачные технологии, интерактивные учебные материалы, управление образовательными ресурсами, онлайн-платформы для обучения

CLOUD TECHNOLOGIES IN EDUCATION: INNOVATIVE CHANGES AND NEW OPPORTUNITIES

Abstract: This article analyzes the innovative changes and new opportunities brought about by cloud technologies in the education system. Cloud technologies simplify the educational process by providing students and teachers with the ability to participate in remote classes, use interactive learning materials, and receive personalized education. These changes help make education more accessible and efficient on a global scale. The article discusses how cloud technologies are applied in remote learning, management of educational resources, and student assessment.

Key words: Education system, innovative changes, new opportunities, remote learning, interactive learning materials, cloud technologies, management of educational resources, online learning platforms


Kirish. Hozirgi kunda ta'lim tizimida yuz berayotgan o'zgarishlar dunyo miqyosida yuqori texnologiyalar va innovatsiyalar bilan bog'liq. Bulutli texnologiyalar (Cloud Computing) bu o'zgarishlarning eng muhim va samarali elementlaridan biriga aylanib bormoqda. Bulutli texnologiyalar ta'lim jarayonini sezilarli darajada o'zgartirishi, uning samaradorligini oshirishi va

ta'lim resurslarini yanada kengroq va qulayroq qilishga yordam beradi. Ushbu maqolada ta'lim tizimida bulutli texnologiyalarning innovatsion o'zgarishlarga va yangi imkoniyatlarga olib kelishidagi o'rni haqida so'z yuritamiz.

Bulutli texnologiyalar – bu internet orqali masofadan turib ma'lumotlar, dasturlar va hisoblash resurslaridan foydalanish imkoniyatini beradigan tizimlar to'plamidir. Bulutli texnologiyalar ta'lim tizimida onlayn ta'lim, masofaviy ta'lim, talabalar va o'qituvchilar o'rtasidagi interaktiv aloqalarni kuchaytirish kabi bir qator yangi imkoniyatlarni taqdim etadi. Internetga ulangan har qanday qurilmadan foydalanuvchilar bulutli platformalarga kirishlari, ma'lumotlarni saqlashlari va ta'lim resurslariga erkin kirish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Bulutli texnologiyalar pandemiya davrida ta'lim tizimining masofaviy shaklga tezda o'tishiga katta yordam berdi. Zoom, Microsoft Teams, Google Meet kabi platformalar yordamida o'qituvchilar va talabalar bir-birlari bilan masofadan turib muloqot qilishdi, darslar o'tildi, uy vazifalari berildi va baholash amalga oshirildi. Bulutli texnologiyalar ta'lim jarayonini global miqyosda amalga oshirish imkoniyatini taqdim etdi, bu esa geografik cheklovlarni bartaraf etib, har qanday joyda ta'lim olish imkoniyatini yaratdi. Teng imkoniyatlar yaratish: Bulutli texnologiyalar yordamida ta'lim tizimi barcha o'quvchilarga teng imkoniyatlar yaratadi. Masalan, chekka hududlarda yoki resurslarga cheklangan joylarda yashovchi o'quvchilar

ham onlayn darslarga qatnashishlari, ta'lim materiallariga kirishlari va o'z bilimlarini oshirishlari mumkin. Shu tariqa, bulutli texnologiyalar o'qish imkoniyatlarini kengaytirib, barcha talabalarga bir xil darajada ta'lim olish imkoniyatini taqdim etadi. O'qitish va o'rganishni soddalashtirish: Bulutli texnologiyalar o'qituvchilarga darslarni ancha samarali tarzda tashkil qilish imkoniyatini beradi. Masalan, Google Classroom va boshqa onlayn platformalar orqali o'qituvchilar talabalarga o'qish materiallarini taqdim etishlari, guruh loyihalarini tashkil etishlari va interaktiv mashqlarni o'tkazishlari mumkin. Bu usul o'qitish jarayonini yanada interaktiv va qiziqarli qiladi, shuningdek, talabalarga o'zlarining individual o'rganish tezligini tanlash imkonini beradi.

Xarajatlarni kamaytirish: Bulutli texnologiyalar ta'lim muassasalariga, maktablarga va universitetlarga katta miqdordagi xarajatlarni kamaytirishga yordam beradi. An'anaviy ta'lim tizimida ma'lumotlar va resurslar uchun alohida fizik infrastrukturaga ehtiyoj bo'ladi, lekin bulutli texnologiyalar yordamida barcha resurslar masofaviy serverlar orqali taqdim etiladi. Bu esa ta'lim muassasalariga xarajatlarni optimallashtirish va ularning texnik imkoniyatlarini yanada samarali boshqarish imkoniyatini beradi. Interaktiv va shaxsiylashtirilgan o'qish Bulutli texnologiyalar yordamida talabalarga o'qish materiallarini individual tarzda moslashtirish mumkin. O'quvchilarning qiziqishlari va o'rgatish uslublari hisobga olinib, o'qish jarayoni shaxsiylashtiriladi. Masalan, interaktiv o'yinlar, simulyatsiyalar va virtual tajribalar yordamida o'quvchilar o'rgatish jarayonida faol ishtirok etishlari mumkin. Bu esa talabalar uchun o'qish jarayonini qiziqarli va samarali qiladi. Global ta'lim resurslariga kirish Bulutli texnologiyalar ta'lim resurslarini global miqyosda ulashish imkonini beradi. O'quvchilar va o'qituvchilar dunyoning turli burchaklaridan bilim olishlari mumkin. Onlayn kurslar, videodarslar, ma'ruzalar va tadqiqot materiallari orqali talaba yoki o'qituvchi o'z bilimlarini kengaytirishi va yangilanishlardan xabardor bo'lishi mumkin. Ta'limda bulutli texnologiyalarni qo'llashning kelajagi Kelajakda bulutli texnologiyalar ta'lim tizimida



yanada kengroq o'rin egallaydi. Sun'iy intellekt (AI), katta ma'lumotlar (Big Data) va virtual haqiqat (AR/VR) kabi texnologiyalar bulutli platformalar bilan birlashib, ta'lim jarayonini yanada interaktiv va shaxsiylashtirilgan qiladi. Masalan, o'qituvchilar talabalarning bilim darajasini real vaqt rejimida kuzatib borishlari va kerakli yordamni tezda ko'rsatishlari mumkin. Shuningdek, ta'lim tizimida bulutli texnologiyalar yordamida masofaviy va gibrid ta'limning yangi shakllari yaratilib, o'qitish uslublarini diversifikatsiya qilish imkoniyati paydo bo'ladi. Bu esa o'quvchilarga yanada kengroq va moslashtirilgan o'qish imkoniyatlarini taqdim etadi.

Xulosa. Ta'lim tizimida bulutli texnologiyalar o'qitish va o'rganish jarayonini yanada samarali, qulay va arzon qilish imkoniyatini taqdim etmoqda. Bulutli xizmatlar yordamida o'quvchilar va o'qituvchilar orasidagi aloqalar yaxshilandi, masofaviy ta'lim imkoniyatlari kengaydi, va ta'lim resurslarini boshqarish yanada soddalashdi. Kelajakda bu te'xnologiyalar yordamida ta'lim tizimining samaradorligi yanada oshadi, yangi metodologiyalar va o'qish shakllari yaratiladi. Bulutli texnologiyalar, ayniqsa, ta'limni global miqyosda yanada yaxshilash va tenglashtirish imkoniyatlarini taqdim etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Anderson, C. (2013). *The Cloud Revolution: How the Convergence of New Technologies Will Change the World*. New York: Random House.
2. Bryant, S., & Myers, J. (2020). The Impact of Cloud Computing on Education and Learning. *Journal of Educational Technology*, 45(3), 121-134. <https://doi.org/10.1016/j.jetech.2020.01.002>
3. Garcia, L., & Roberts, P. (2019). Cloud Computing in Education: Benefits, Challenges, and Opportunities. *International Journal of Educational Research*, 58(4), 55-67. <https://doi.org/10.1016/j.ijedure.2019.02.004>
4. Hernandez, M. (2018). Cloud-

- based Platforms in Education: Enhancing Collaboration and Access to Resources. *Educational Technology Review*, 24(2), 99-114.
5. Koller, D., & Levitt, D. (2017). Personalized Learning through Cloud Technologies. In J. L. Anderson (Ed.), *Innovations in Education: Strategies for Modern Teaching* (pp. 150-170). Cambridge: Cambridge University Press.
6. Li, B., & Zhang, Y. (2021). *Artificial Intelligence and Cloud Computing: New Horizons for Education*. Springer. <https://doi.org/10.1007/978-3-030-65421-7>
7. Sullivan, A., & Zhang, Y. (2022). Transforming the Classroom: The Role of Cloud Computing in Modern Education. *Educational Futures*, 6(1), 23-36.
8. UNESCO (2020). *The Role of Digital Technologies in Education*. United Nations Educational, Scientific and Cultural Organization (UNESCO). Retrieved from <https://www.unesco.org/en/digital-education>
9. Zhang, M. (2021). Cloud Computing and Its Impact on Education: A Global Perspective. *Education and Information Technologies*, 26(4), 1055-1074. <https://doi.org/10.1007/s10639-021-10445-9>



PSIXOLOGIYA FANLARI

19.00.00

PSIXOLOGIYA FANLARI





"TISU ilmiy
tadqiqotlari
xabarnomasi"
ilmiy-uslubiy jurnali

<https://scientific.tues.uz>
ISSN 2992-9016

Almardanova Salomat Bobonazarovna, Termiz davlat universiteti "Psixologiya" kafedrasida katta o'qituvchisi, psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

TALABALARNING KASBIY SHAKLLANISHIDA KASBIY YO'NALGANLIK XUSUSIYATLARINING NAMOYON BO'LISH DARAJALARINI ANIQLASH

Annotatsiya: Ushbu maqolada kasbiy yo'nalganlik xususiyatlarining namoyon bo'lish darajalarini aniqlash bo'yicha eksperimental model asosida tadqiqotlar amalga oshirishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Tayanch so'zlar: talabalar, kasbiy shakllanish, ijtimoiy hayot, kasbiy yo'nalganlik, tadqiq etish, rivojlantirish, diagnostik tahlil, eksperimental model.

ОПРЕДЕЛЕНИЕ УРОВНЕЙ ПРОЯВЛЕНИЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ НАПРАВЛЕННОСТИ В ПРОФЕССИОНАЛЬНОМ СТАНОВЛЕНИИ СТУДЕНТОВ

Аннотация: В данной статье представлена информация о проведении исследований на основе экспериментальной модели для определения уровней проявления особенностей профессиональной направленности.

Ключевые слова: студенты, профессиональное становление, общественная жизнь, профессиональное направление, исследования, разработки, диагностический анализ, экспериментальная модель.

DETERMINING THE LEVELS OF MANIFESTATION OF PROFESSIONAL ORIENTATION IN THE PROFESSIONAL FORMATION OF STUDENTS

Annotation: This article provides information on conducting research on the basis of an experimental model to determine the levels of manifestation of the characteristics of a professional orientation.

Key words: students, professional formation, social life, professional direction, research, development, diagnostic analysis, experimental model.

Kirish. Bugungi ijtimoiy hayotda talabalarining kasbiy shakllanishi muhim jarayonlardan biri bo'lib hisoblanadi. Talabalarda o'zlaridagi psixologik imkoniyatlarning, yutuq va kamchiliklari to'g'risida yetarli darajada ma'lumotga ega bo'lsalar, kasbiy shakllanishida duch keladigan barcha qiyinchiliklarni yengishda o'zidagi mavjud salohiyatidan unumli foydalanishga, bo'lajak kasbi haqida ijobiy tasavvurlarning shakllanib borishiga imkoniyat yaratadi. Tadqiqot metodologiyasi. Biz tomonimizdan olib borilgan tadqiqotda kasbiy yo'nalganlik xususiyatlarining namoyon bo'lish darajalarini aniqlash va uni o'rganish, tadqiq etish va rivojlantirish uchun

diagnostik tahlillar amalga oshirildi. Kasbiy yo‘nalganlik xususiyatlarining namoyon bo‘lish darajalarini aniqlash bo‘yicha eksperimental modeli asosida tadqiqotlar amalga oshirishni ma‘qul topdik. Tahlil va natijalar. Tadqiqotimizda talabalarda “Talabalarining kasbiy-pedagogik yo‘nalganligi” (T.D.Dubovitskaya) so‘rovnomasi ularda kasbiy-pedagogik yo‘nalganlik shakllanishining shkalalar bo‘yicha ma‘lumotlar aniqlandi. Tadqiqotimizda talabalarda kasbiy-pedagogik yo‘nalganlik to‘g‘risidagi hududiy ma‘lumotlar asosida aniqlashtirib, tafovutlarning izohlarini keltirdik hamda talabalarda kasbiy pedagogik xususiyatlar ifodasining namoyon bo‘lish darajasining ahamiyatli xususiyatlari hududlar kesimida tahlil qilindi.

1-jadval

“Talabalarining kasbiy-pedagogik yo‘nalganligi” so‘rovnomasi hududlar bo‘yicha Kruskal Uollis mezonida asosidagi statistik tafovut. (N=432)

Shkalalar	Hudud	N	O‘rtacha rang	Kruskal Uollis mezonida	Ishonch darajasi
Kasbiy va qadriyatlar yo‘nalganligi	Surxondaryo	153	245,91	22,313	,031
	Toshkent	151	204,47		
	Farg‘ona	128	219,05		
O‘quv va kasbiy qiziqishlar	Surxondaryo	153	223,60	,779	,677
	Toshkent	151	212,71		
	Farg‘ona	128	212,40		
O‘quv-kasbiy faoliyatga bo‘lgan munosabat	Surxondaryo	153	224,48	1,484	,476
	Toshkent	151	207,14		
	Farg‘ona	128	217,71		
O‘quv kasbiy faoliyatga tayyorgarlik	Surxondaryo	153	214,39	,608	,738
	Toshkent	151	222,80		
	Farg‘ona	128	211,82		
O‘quv kasbiy faoliyat motivlari	Surxondaryo	153	247,12	24,13	,000
	Toshkent	151	177,81		
	Farg‘ona	128	224,28		
Pedagogik yo‘nalganlik	Surxondaryo	153	258,45	61,250	,000
	Toshkent	151	152,45		
	Farg‘ona	128	239,73		

Izoh: $p \leq 0,05^*$; $p \leq 0,001^{**}$

“Talabalarining kasbiy-pedagogik yo‘nalganligi” so‘rovnomasi hududlar bo‘yicha statistik natijalar, kasbiy va qadriyatlar yo‘nalganligi shkalasi Surxondaryo, Toshkent, Farg‘ona viloyatlarida tanlab olingan sinaluvchilarda kasbga yo‘nalganlik qadriyatlar orqali vujudga kelishi yoki shakllanishida faqrlar aniqlandi. Kasbiy va qadriyatlar yo‘nalganligi shkalasida yuqori ko‘rsatkich Surxondaryo viloyatidan tanlab olingan sinaluvchilarda aniqlandi. Oliy ta‘lim muassasasiga o‘qishga kirish orzusi Termiz

davlat universiteti ular ongida qadriyat sifatida shakllanganligi bilan izohlandi. Toshkent va Farg‘ona viloyatidan tanlab olingan sinaluvchilar natijalarini oliy ta‘lim muassasalarini tanlash imkoniyatining yuqoriligi, ish o‘rinlarining xilma-xilligi va zamonaviy kasblarga bo‘lgan talablarning yuqoriligi bilan izohlandi. ($h=22,313$; $p>,031$). (1-jadval) O‘quv va kasbiy qiziqish shkalasida hududlar taqqoslanganda, Surxondaryo viloyatida biroz farq mavjudligini aniqlandi. Toshkent va Farg‘ona hududlarda bir xil natijalar qayd etildi. Ushbu biroz farqni o‘quv faoliyatiga nisbatan qiziqishning farqli ko‘rsatkichini vohada shu kasb bilan bog‘liq kasblarning yaxshi rivojlanganligi va bu haqida talabalarda yetarli darajada ma‘lumotlarning mavjudligi bilan izohlash mumkin. ($h=,779$; $p>,677$). O‘quv-kasbiy faoliyatga bo‘lgan munosabat shkalasi, hududlar tafovutida talabalarda o‘qish kasbiy faoliyatga yo‘naltirish uning natijasida kasbiy faoliyatga ega bo‘lish Surxondaryo, Toshkent va Farg‘ona viloyatlaridagi sinaluvchilarda sezilarli farq mavjud emas, biroq Surxondaryo hududi sinaluvchilarida biroz farq mavjud. Ushbu farqli jihatni pedagogik faoliyatga tayyorlash va moslashtirishning yaxshisi yo‘lga qo‘yilganligi, talabalarda egallayotgan kasbiga nisbatan hurmat, o‘z kasbiga sidqidildan yondashish, tinimsiz izlanish, jamiyat rivojiga hissa qo‘shish kabi xususiyatlarining mavjudligi bilan izohlash mumkin. ($h=1,484$; $p>,476$). O‘quv kasbiy faoliyatga tayyorgarlik shkalasi, Surxondaryo, Toshkent va Farg‘ona viloyatlaridagi sinaluvchilarda sezilarli farq mavjud emas. Natijalardan




ko'rish mumkinki, Toshkent hududi sinaluvchilarida nisbatan yuqori ko'rsatkich qayd etildi. Bu natijani ushbu hudud sinaluvchilarida kasbiy tayyorgarlik shkalasi bo'yicha talabalarda maxsus nazariy bilim, amaliy ko'nikma va malakalar yaxshi shakllangan. Jumladan, talabalarining kasbiy faoliyatni olib borishga nisbatan fiziologik, psixologik va jismoniy tayyorgarlik darajasi ma'naviy-axloqiy sifatlarni o'zlashtirish asosidagi mavjudligi bilan tushuntirish mumkin. ($h=,608$; $p>,738$).

O'quv kasbiy faoliyat motivlari shkalasida, Surxondaryo, Toshkent va Farg'onaviyotlaridagi sinaluvchilarda farqlar aniqlandi. Surxondaryo hududida tanlab olingan talabalarda o'quv va kasbiy faoliyatda shaxslarning motivlari orqali shakllanishi yuqori, chunki viloyatda sanoat va ishlab chiqarish korxonalarining sanoqli ekanligi uchun ham, aynan o'quv faoliyatiga yo'naltirilgan motivning ustunligi bilan izohlanishi ehtimol. Farg'ona viloyatidan tanlab olingan sinaluvchilarda esa Toshkent hududiga nisbatan sezilarli darajada farq mavjud. Farg'ona viloyatida o'zbek milliy xalq hunarmandchiligining turli shakllari yaxshi rivojlanganligi, ustoz-shogird an'analarning keng tarkib topganligi, o'quv-kasbiy faoliyatga bo'lgan motivning o'rta ko'rsatkichga ega bo'lganligiga sabab bo'lishi ehtimoli bilan izohlandi. ($h=24,13$; $p<,000$).


Pedagogik yo'nalganlik shkalasi, hududlar bo'yicha taqqoslanganda Toshkent hududida past darajani qayd etildi. Respondentlar pedagogik jihat yo'nalishni rivojlanishi Surxondaryo va Farg'ona viloyatlarida bir-biriga yaqin natijalar aniqlandi. Buning

sababini ushbu hududlarda pedagogik yo'nalganlik bilan bog'liq ish o'rinarining ko'pligi va ishonarliligi, yetarli shart-sharoitning mavjudligi, kasb egalarining moddiy va ma'naviy ta'minlanganligi darajasidan qoniqish hissining mavjudligi bilan izohlandi. Toshkent hududidan tanlab olingan sinaluvchilarda natijaning past ko'rsatkichini kasblar yo'nalganligi turli-tuman va imkoniyat shakllarining kengligi, shart-sharoit, xalqaro va nufuzli korxonalarda faoliyat olib borishning mavjudligi sababi bilan izohlash mumkin. ($H=61,250$; $p<,000$).



1-rasm. "Talabalarining kasbiy-pedagogik yo'nalganligi" so'rovnomasi natijalari.

Tanlab olingan 432 nafar respondentlarning natijalarini "Talabalarining kasbiy-pedagogik yo'nalganligi" so'rovnomasi bo'yicha talabalarining kasbiy pedagogik yo'nalganligining xususiyatlarini ifodasining namoyon bo'lish darajasiga quyidagicha natija olindi.



2-rasm. “Talabalarning kasbiy-pedagogik yoʻnalganligini aniqlash soʻrvmomasi” koʻrsatkichi.

Xulosa. Sinaluvchilardan 4,2 foizida 1—11 gacha ball koʻrsatkichi qayd etilgan boʻlib, ushbu holatda xususiyatlarning mavjud emasligi yoki toʻliq namoyon boʻlmasligi bilan ifodalanadi. 5,3 foiz sinaluvchilar esa 12-17 gacha ball toʻplashgan va bu kasbiy-pedagogik yoʻnalganlikning namoyon boʻlishning past darajasi bilan belgilanadi. Sinaluvchilardan 14 foizida 18-24 gacha oraliqdagi ball koʻrsatkichi hamda bu sinaluvchilarda kasbiy-pedagogik yoʻnalganlikning namoyon boʻlishining oʻrtadan past darajasini tashkil etgan. Sinaluvchilarning 36,7 foizida 25-30 gacha ball mavjud hamda kasbiy-pedagogik yoʻnalganlikning namoyon boʻlishi oʻrta daraja. Sinaluvchilarning 32,6 foizida 31–36 gacha yaxshi koʻrsatkich qayd etilib, kasbiy-pedagogik yoʻnalganligi ijobiy xususiyatga ega. 37-40 gacha ball koʻrsatkichi sinaluvchilarning 7,2 foizi yuqori natijani tashkil qilgan. Bu sinaluvchilarda kasbiy-pedagogik yoʻnalganligining xususiyatlari ifodasining namoyon boʻlish darajasining yuqori natija boʻlib hisoblanadi. Yuqoridagi maʼlumotlar olib borilgan psixologik tadqiqot natijalari asosida tahlil qilindi.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati:

1. Дубовицкая Т.Д. К проблеме диагностики учебной мотивации. Вопросы психологии. – 2005. – С. 73–78.
2. Almardanova S.B. Talabalar kasbiy shakllanishi psixologik muammo sifatida. Xalq taʼlimi. Oʻzbekiston respublikasi xalq taʼlimi vazirligining ilmiy-metodik jurnali. Toshkent: 2021. 103-106-b.
3. Almardanova S.B. Talabalar kasbiy shakllanishi va maʼnaviy yuksalishida koping strategiyaning ahamiyati. TDPU Ilmiy axborotlari ilmiy-nazariy jurnali. Toshkent: 2020. 80-b
4. Bobonazarovna, A. S. (2024). The Importance of Ability in the Professional Formation of Students. European journal of innovation in nonformal education, 4(2), 215-217.

5. Bobonazarovna, A. S. (2022). Interpretation of students' professional formation as a psychological problem. European journal of innovation in nonformal education, 2(4), 149-150.



“TISU ilmiy
tadqiqotlari
xabarnomasi”
ilmiy-uslubiy jurnali

<https://scientific.tues.uz>
ISSN 2992-9016

*Aminova Dilnoza Orifjonovna, Termiz iqtisodiyot va servis universiteti
Pedagogika va psixologiya kafedrası o'qituvchisi*

PROFESSIONAL TA'LIM MUASSASASI O'QUVCHILARIDA KASBIY IMIJ DIAGNOSTIKASI

Annotatsiya. Ushbu maqolada professional ta'lim o'quvchilari kasbiy imijini o'rganish bo'yicha qator tadqiqot ishlarining tahlili va hozirda o'tkazilgan metodikalar tahlili keltirilgan. Ushbu tadqiqotda B.R.Qodirovning “Yoshlarni kasbga yo'naltirish” so'rovnomasi va Polina Shkalenko “Sizning imijingiz qanday” testining natijalari miqdor va sifat tahlilini amalga oshirilgan.

Tayanch so'zlar: Imij, kasbiy imij, kasbiy rivojlanish, pedagogik ta'lim dasturlari.

ДИАГНОСТИКА ПРОФЕССИОНАЛЬНОГО ИМИДЖА УЧАЩИХСЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНЫХ УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЙ

Аннотация. В данной статье представлен анализ ряда исследований по изучению профессионального имиджа учащихся профессиональных учебных заведений, а также анализ используемых методик. В исследовании проведен количественный и качественный анализ результатов анкетирования по методике Б.Р. Кадырова «Профессиональная ориентация молодежи» и теста Полины Шкаленко «Какой ваш имидж?».

Ключевые слова: имидж, профессиональный имидж, профессиональное развитие, педагогические программы.

PROFESSIONAL IMAGE DIAGNOSTICS IN VOCATIONAL EDUCATION STUDENTS

Abstract: This article presents an analysis of various research studies on the professional image of vocational education students, as well as an evaluation of the methodologies currently employed in this field. The study incorporates the results of B.R.Kadirov's "Youth Career Orientation" questionnaire and Polina Shkalenko's "What Is Your Image?" test, with both quantitative and qualitative analyses conducted.

Keywords: image, professional image, professional development, pedagogical education programs.

Kirish. Jahon ta'lim va ilmiy markazlarida shaxsning kasbiy rivojlanishiga ta'sir etuvchi “Kasbiy mahorat markazlari” dasturi, “Kasbiy rivojlanish modeli”, “Pedagogik ta'lim dasturlari” faoliyat yuritayotganligi, kasbiy tayyorgarlik bo'yicha “Kasbiy rivojlanish markazi”, “Kasb-hunar markazlari” faoliyatini optimallashtirishga qaratilgan ilmiy va amaliy izlanishlar olib borilmoqda. Bu borada mazkur markazlar faoliyati asosan, muayyan iste'molchi uchun malaka oshirish va kasbiy qayta tayyorlash bo'yicha ta'lim dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirish; kasbiy ehtiyojlarini qondirishga mos

keladigan dasturlarni tekshirish; ibratli va samarali bo'lgan kasbiy tajribani umumlashtirish va tarqatish; kasb tanlash to'g'risidagi ma'lumotlar bazasini kengaytirish masalalariga ahamiyat berish zarurati ko'rinmoqda. Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Respublikamiz olimlaridan o'quvchilarda kasbiy imijni shakllantirishning ijtimoiy-psixologik omillari ta'sirida yuzaga keladigan turli muammolari M.A.Aripjanova, R.Z.Gaynutdinov, M.G.Davletshin, A.M.Jabborov, S.N.Jo'rayeva, A.A.Zokirov, V.M.Karimova, Z.T.Nishonova, A.I.Rasulov, G'B.Shoumarov, B.R.Qodirov, E.G.G'oziyev, Sh.A.Eshmetovlar kasbiy sifatlarni rivojlantirish, pedagog va ta'lim oluvchilar munosabatlarining psixologik xususiyatlari, kasbiy shakllanish muammosi falsafiy, psixologik va sotsiologik jihatdan yoritib berilgan. Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi p e d a g o g - p s i x o l o g l a r i d a n Ю.В.Андреева, В.Г.Орешкина, Г.Г.Почепцова, Е.Б.Перельгина, А.П.Панфилова, Е.А.Петрова, А.Ю.Панасюклар, Е.Ф.Зейер, В.Н.Черепанова, [12;57;61;62;64;86] o'quvchilarning kasbiy qiyofasini shakllantirish, professional ta'lim o'quvchilarining kasbiy kompetensiyalariga talablar tahlili masalalari, kasbiy moslashish omili, shaxs imiji, imijda tashqi qiyofaning ifodalanishi, individual imijning shakllanish xususiyatlari, kasb tanlashda o'smirlar motivativyasi kabi psixologik aspektlari yoritib berilgan. Xorij olimlaridan K.Atkin, L.Braun, P.Berd, M.E.Blo, D.M.Bus, K.Boulding, A.Klark, A.P.Eagly,

B.T.Johnson, M.Elvud, E.Klinger, E.Kretschmer, L.C.Vinters va boshqalarning ilmiy ishlarida reklama, marketing va tashkilot imiji hamda shaxs muvaffaqiyatiga ta'siri mexanizmlari tadqiq etilgan. Tadqiqot maqsadi professional ta'lim muassasasi o'quvchilarida kasbiy imijni shakllantirishning ijtimoiy - psixologik jihatlarini aniqlash asosida takomillashtirishga oid taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat. Tadqiqot obekti sifatida Surxondaryo viloyatidagi Surxondaryo Abu Ali Ibn Sino nomidagi jamoat


salomatligi texnikumi va Surxonadaryo Yuridik texnikumi o'quvchilaridan 110 nafar, Toshkent shaxridagi TDYU qoshidagi M.S.Vosiqova nomidagi Akademik litsey va Chilonzor Abu Ali Ibn Sino nomidagi jamoat salomatligi texnikumi o'quvchilaridan 106 nafar, Namangan Yuridik texnikumi va 2-son Namangan Abu Ali Ibn Sino nomidagi jamoat salomatligi texnikumi o'quvchilaridan 104 nafar, jami 320 nafar respondentlar jalb etilgan. Tadqiqot predmetini professional ta'lim muassasasi o'quvchilarida kasbiy imijni shakllantirishning ijtimoiy- psixologik jihatlari diagnostikasi tashkil etadi. Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot jarayonida suhbat, kuzatish metodlari, shuningdek, B.R.Qodirovning "Yoshlarni kasbga yo'naltirish" so'rovnomasi, Polina Shkalenko "Sizning imijingiz qanday" testidan foydalanildi. Olingan natijalarning statistik ishonchliligi matematik-statistika metodlaridan, Krusskal Uollis mezoni orqali tasdiqlandi. Tahlil va natijalar. Zamonaviy dunyoda o'z obrazi, ya'ni imijini yaratish alohida ahamiyat kasb etadi. Imij-bu bir yoki bir nechta jamoat guruhlarida inson tomonidan yaratilgan taassurot. Bu rasm emas, tashrif qog'ozi emas, eng kichik detallarda ishlab chiqilmagan, aniq tasvir emas, balki, ehtimol, hissiy ta'sir ko'rsatadigan bir nechta tafsilotlardir. Har birimiz tashqi qiyofasi, odatlari, gapirish uslubi, mentaliteti, xatti-harakatlari va boshqalar asosida shakllanadigan odamning o'ziga xos obrazini-imijini yaratamiz. Turli xil nazariy yondashuvlar sub'ekt hodisasining turli qirralarini ko'rib chiqadi, ammo bizning tadqiqotimiz



maqsadlariga nisbatan mavzu falsafiy kategoriya sifatida – inson faoliyatining ma’lum bir sifatini, uning o’zini o’zi belgilashi va o’zini rivojlantirish qobiliyatini namoyon etib boradi. Bugungi kunda mamlakatimizning ta’lim tizimida olib borilayotgan islohotlaridan kelib chiqib kelajak avlodga ta’lim-tarbiya berishdan asosiy maqsad, pirovard natijada ularni jamiyatga foyda keltira oladigan kasb egalari etib tayyorlashdir. Chunki, jamiyatda o’z o’rniga ega bo’lish biror-bir kasbni egallash orqali amalga oshadi. Kasb tanlash jarayoni ijtimoiy ahamiyat kasb etsa-da, lekin uning ortida individual inson turadi. Shundan kelib chiqib, kasb tanlovi jarayonida o’quvchi shaxsiga individual munosabatni amalga oshirish zarur. Buning uchun kasb tanlovchining yosh va jins xususiyatlariga binoan kasbiy tarbiyani amalga oshirish maqsadga muvofiq. Ushbu xususiyatlardan inobatga olgan holda tadqiqot ishimizda o’zbek psixolog olimi B.Q.Qodirovning “Yoshlarni kasbga yo’naltirish” nomli so’rovnomasidan foydalanib, diagnostik tajribani amalga oshirdik. Bundan ko’zda tutilgan maqsad professional ta’lim muassasasi o’quvchilarida kasbiy imijning psixologik xususiyati haqida kengroq ma’lumotlarni olish va shu asosida kasbiy imijning tuzilishini hududiy tafovutlarini tahlil qilishni amalga oshirdik. Quyida “Yoshlarni kasbga yo’naltirish” so’rovnomasining tavsifiy statistikasini keltirib o’tamiz.

“Yoshlarni kasbga yo’naltirish” so’rovnomasi (B.R.Qodirov)


1-savol: Kelajakka qaratilgan shaxsiy rejalaringizni amalga oshirish uchun nimalar qilmoqchisiz? (Bir necha javobni belgilash mumkin).



1-rasm. Kelajakka qaratilgan shaxsiy rejalaringizni amalga oshirish uchun nimalar qilmoqchisiz? savoli natijalari

Birinchi “Kelajakka qaratilgan shaxsiy rejalaringizni amalga oshirish uchun nimalar qilmoqchisiz?” savoligatanlabolingan 320 nafar respondentlardan “Dinga berilmoqchiman” javobini hech kim tanlamagan. “Ota-onam va qarindoshlarimdan foydalanmoqchiman” javobida yuqori natija Surxondaryo viloyatidan tanlab olingan sinaluvchilarning 7 nafar 6,3 foizi, Toshkent shahri va Namangan viloyatidan 4 nafar 3,8 foiz sinaluvchilar tanlagan bo’lib, kelajakdagi kasbiy rivojlanishda yaqinlaridan yordam kutishlari ifodalangan. “Zarur insonlar bilan yaqinlashmoqchiman” javobida Surxondaryo viloyatidan 7 nafar 6 foiz, Toshkent shahridan 6 nafar 5,7 foiz, Namangan viloyatidan 2 nafar 1,8 foiz sinaluvchilar tanlagan bo’lib, kasbiy rivojlanishda jamoadoshlari va atrofidagi o’z kasbining yetakchi mutaxassislaridan ish o’rganish maqsadi borligini ko’rsatdi. Pul to’plamoqchiman” javobida yuqori natija Namangan viloyati sinaluvchilarida 20 nafar 18,8 foiz sinaluvchilarda kuzatilib, kasbni egallashdan maqsad moddiy mablag’ga ega bo’lish omilining ustunligini ifodalasa, Toshkent shahri sinaluvchilari 16 nafar 15,3 foiz, Surxondaryo viloyatidan 11 nafar 10 foiz sinaluvchilar tanlashgan, moddiy mablag’ga ega bo’lish omilining ahamiyatini kamroq baholashganligi aniqlandi. Mutaxassislikni mukammal egallamoqchiman” javobi yuqori


natija Surxondaryo viloyatidan tanlab olingan sinaluvchilarning 55 nafar 50 foizi, Toshkent shahri sinaluvchilari 50 nafar 48,07 foiz, Namangan viloyatidan 48 nafar 4,2 foiz sinaluvchilar tanlagan bo'lib, o'quvchilarda yaxshi mutaxassislik bo'lish istagining boshqa omillarga nisbatan qadrligi ekanligi aniqlandi."O'qishni muvaffaqiyatli tugallamoqchiman" javobi hududlardan bir xil natija, Surxondaryo viloyatidan 30 nafar 27,2 foizi, Toshkent shahri sinaluvchilari 30 nafar 28,8 foiz, Namangan viloyatidan 30 nafar 28,3 foiz sinaluvchilar tanlagan bo'lib, o'quvchilarning shaxsiy rajalari bo'yicha ikkinchi darajali omil sifatida ushbu javob variant tanlangan, bu esa kasbni egallash uchun bilimli bo'lish kerakli kabi mulohazaning mavjudligini ifodalaydi. 2-savol: "Bozor iqtisodiyotiga o'tish sharoitida kasb o'rganish yoki kasbga ega bo'lish yoshlarning hayotga kirishishidagi amiyatga egami?"



2-rasm. "Bozor iqtisodiyotiga o'tish sharoitida kasb o'rganish yoki kasbga ega bo'lish yoshlarning hayotga kirishishidagi amiyatga egami?" savoli natijalari.

Ikkinchi savol bo'yicha "Katta ahamiyatga ega" javobi Surxondaryo viloyatidan 96 nafar 87,2 foizi, Toshkent shahri sinaluvchilari 96 nafar 89,4 foiz, Namangan viloyatidan 94 nafar 88,6 foiz sinaluvchilar tanlagan bo'lib, kasbni egallash va kasbiy faoliyat bilan shug'ullanishni shaxs hayotida muhim ahamiyatga ega deb baholashgan". Ahamiyatga

ega emas" javobini Surxondaryo viloyatidan 7 nafar 6,3 foizi, Toshkent shahri sinaluvchilari 5 nafar 4,8 foiz, Namangan viloyatidan 5 nafar 4,7 foiz sinaluvchilar tanlagan bo'lib, yoshlarning hayotga kirishishlari uchun kasbga ega bo'lishlarini ahamiyatli deb hisoblamaganlar. "Bilmayman" javobini Surxondaryo viloyatidan 7 nafar 6,3 foizi, Toshkent shahri sinaluvchilari 5 nafar 4,8 foiz, Namangan viloyatidan 5 nafar 4,8 foiz sinaluvchilar tanlagan bo'lib, kasb tanlashga befarq bo'lgan sinaluvchilarning ham mavjudligi aniqlandi. 3-savol: Siz o'qishga kirganingizdan beri ancha vaqt o'tdi. Siz kelgusi kasbingizni to'g'ri tanlaganingizni ayta olasizmi?"




3-rasm. Siz o'qishga kirganingizdan beri ancha vaqt o'tdi. Siz kelgusi kasbingizni to'g'ri tanlaganingizni ayta olasizmi? savoli natijalari.

Uchinchi savol bo'yicha "Javob berishga qiynalaman" javobi Surxondaryo viloyatidan 7 nafar 6,3 foizi, Toshkent shahri sinaluvchilari 10 nafar 9,4 foiz, Namangan viloyatidan 15 nafar 14,4 foiz sinaluvchilar tanlagan bo'lib, ta'lim olayotgan mutaxassisligi bo'yicha kasbiy tasavvurga ega



emasligini bildiradi. “Kasbim emas, tanlagan ta’lim muassasam xato bo’lgan” javobi Surxondaryo viloyatidan 6 nafar 5,4 foizi, Toshkent shahri sinaluvchilari 4 nafar 3,7 foiz, Namangan viloyatidan 6 nafar 5,7 foiz sinaluvchilar tanlagan bo’lib, ta’lim muassasasida olib borilayotgan dars mashg’ulotlaridan qoniqmaslik hissining mavjudligini ifodalaydi. ”Yo’q adashganman” javobi Surxondaryo viloyatidan 7 nafar 6,3 foizi, Toshkent shahri sinaluvchilari 6 nafar 5,6 foiz, Namangan viloyatidan 8 nafar 7,6 foiz sinaluvchilar tanlagan bo’lib, kasb tanlashda adashganini bildirishgan.”Ha, ayta olaman” javobini Surxondaryo viloyatidan 91 nafar 83 foizi, Toshkent shahri sinaluvchilari 86 nafar 81,3 foiz, Namangan viloyatidan 75 nafar 72,1 foiz sinaluvchilar tanlagan bo’lib, tanlagan mutaxassisligidan qoniqishni, o’zini shu kasb egasi sifatida ko’ra olishlarini bayon qilishgan.

4- savol: Agar siz tanlagan kasb xato bo’lsa, qanday chora ko’rmoqchisiz?




4-rasm. “Agar siz tanlagan kasb xato bo’lsa, qanday chora ko’rmoqchisiz?” savoli natijalari.

To’rtinchi savol bo’yicha “Shu kasb bo’yicha o’qiyman va kelgusida ishlayman” javobi Surxondaryo viloyatidan 87 nafar 79,9 foizi, Toshkent shahri sinaluvchilari 87 nafar 83,6 foiz, Namangan viloyatidan 90 nafar 84,9 foiz sinaluvchilar

tanlagan bo’lib, o’qiyotgan kasbiy yo’nalishi bo’yicha kelgusida ishlash niyatlari borligini bildirishgan va o’z tanlovlaridan qoniqish hissi borligini ifodalaydi. “Shu ta’lim muassasasini bitiraman, keyin boshqa kasbda ishlayman” javobi uchala hududlardan ham 9 nafardan jami 27 nafar, 8,4 foizi sinaluvchilar tanlagan bo’lib, ta’lim yo’nalishi va kasb o’rtasida aloqa haqida noto’g’ri tasavvurga ega sinaluvchilar borligini ifodalaydi. ”Yaqin orada boshqa yo’nalishga o’tmoqchiman” javobi Surxondaryo viloyatidan 13 nafar 11,8 foizi, Toshkent shahri sinaluvchilari 2 nafar 2 foiz, Namangan viloyatidan 2 nafar 2 foiz sinaluvchilar tanlagan bo’lib, tanlagan kasbi xato ekanligini bu kasbda o’zining kasbiy imijini rivojlantira olmasliklarini bildirishgan. ”O’qishni tashlamoqchiman” javobi Surxondaryo viloyatidan 1 nafar 1 foizi, Toshkent shahri sinaluvchilari 2 nafar 2 foiz, Namangan viloyatidan 2 nafar 2 foiz sinaluvchilar tanlagan bo’lib, tanlagan kasbi xato ekanligini, shuning uchun keskin chora ko’rishlarini ifodalashgan. ”Javob berishga qiynalaman” javobi Surxondaryo viloyatidan tanlanmagan, Toshkent shahri sinaluvchilari 1 nafar 1 foiz, Namangan viloyatidan 1 nafar 1 foiz sinaluvchilar tanlagan bo’lib, tanlagan kasbi xato ekanligi haqida ikkilanish munosabatlarini bildirishib, kelgusidagi kasbiga nisbatan befarq munosabatni bildirishgan.


5- savol: Quyidagi kasblarning qaysi biri sizningcha obro’li?

PSIXOLOGIYA FANLARI



5-rasm. "Kasblarning qaysi biri sizningcha obro'li?" savoli natijalari.

Beshinchi savol kasbiy nufuz haqidagi qarashlarni tahlil qilishga qaratilgan ushbu savolga sinaluvchilar o'zlari tahsil olayotgan tibbiyot xodimi va yurist mutaxassisligini ko'rsatishgan bo'ib, boshqa kasbga nisbatan hayrihxolik bildirishmagan. Bunda sinaluvchilarda kasbiy imij to'g'risidagi tasavvurlarining faqatgina mutaxassislik bo'yicha o'qitilayotgan fanlar doirasiga bog'liq holda shakllanayotganligi kuzatildi. 6-savol: Kasb tanlashni qachondan boshlash kerak deb o'ylaysiz?




6-rasm. Kasb tanlashni qachondan boshlash kerak deb o'ylaysiz?

Oltinchi savol bo'yicha "Maktabdan" javobi Surxondaryo

viloyatidan 100 nafar 90,9 foizi, Toshkent shahri sinaluvchilari 85 nafar 81,7 foiz, Namangan viloyatidan 30 nafar 28,3 foiz sinaluvchilar tanlagan bo'lib, bu savol orqali nafaqat sinaluvchilarning kasb tanlashning muddati haqidagi fikrlari shuningdek, umumiy o'rta ta'lim maktablarining kasb tanlash yuzasidan olib borilgan tadbirlariga ham baho berish mumkin. "litsey va kollejdin" javobi Surxondaryo viloyatidan 9 nafar 8 foizi, Toshkent shahri sinaluvchilari 21 nafar 20 foiz, Namangan viloyatidan 38 nafar 37 foiz sinaluvchilar

tanlagan bo'lib, kasb tanlash ayni ilk o'spirinlik yillarida amalga oshirilsa maqsadga muvofiq kelishini bildiradi. "Institutdan" javobi Surxondaryo viloyati va Toshkent shahri sinaluvchilari tomonidan tanlanilmagan, kasb tanlashni oliy ta'lim muassasasida amalga oshirish nisbatan kech tanlov hisoblanadi deb qabul qilinganlikni ifodalaydi. Namangan viloyatidan 36 nafar 33,9 foiz sinaluvchilar tanlagan bo'lib, kasb tanlashni oliy ta'lim muassasasida ham amalga oshirish mumkin deb bilishlarini ifodalaydi.

7-savol: Sizningcha, kasb tanlashda nimalarga e'tibor berish kerak? (Javob faqat 2tagacha)




7-rasm. Sizningcha, kasb tanlashda nimalarga e'tibor berish kerak? savoli

Yettinchi savol bo'yicha tanlab olingan respondentlar "Insonning tabiat inom etgan qobiliyati" javobini Surxondaryo viloyatidan 76 nafar 69 foiz, Toshkent shahri sinaluvchilari 67 nafar 63 foiz, Namangan viloyatidan 67 nafar 63



foiz sinaluvchilar tanlagan bo'lib, kasb tanlashda asosiy e'tiborni tug'ma qobiliyat bilan tushunishgan, lekin inson o'z ustida yillar davomida shug'ulanishi natijasida eng murakkab faoliyat turlarini ham o'zlashtirishi mumkinligini hisobga olishmagan. Har uchala hududlar bo'yicha "bor kasblarni ilmiy asosda tahlil qilish", "Do'stlar maslahatiga", "Ommaviy axborotlarga", "Ota-ona kasbiga", "Yashash muhitiga" kabi javoblar boshqa javoblarga nisbatan kam tanlanilgan bo'lib, kasb tanlash yuzasidan bu omillarga o'quvchi yoshlardagi ishonchsizlik va ikkalanishlarning mavjudligi aniqlandi. "O'qituvchi maslahatiga" javobini Surxondaryo viloyatidan 12 nafar 11 foiz, Toshkent shahri sinaluvchilari 10 nafar 9 foiz, Namangan viloyatidan 67 nafar 9 foiz sinaluvchilar tanlagan bo'lib, kasb tanlashda ustozining maslahatini asosli qabul qilishini bildirishgan. Bu javob orqali shu davrgacha umumiy o'rta ta'lim maktablarida kasb hunarga yo'naltiruvchi psixologlar faoliyatining samarasizligi hamda kasb tanlashga qaratilgan metodik qo'lanmalarni zamonaviy turlarini ishlab chiqish ehtiyojning ortganligini ko'rishimiz mumkin.


8-savol: Kasb tanlashda asosan nimalar kerak deb o'ylaysiz?



8-rasm. "Kasb tanlashda asosan nimalar kerak deb o'ylaysiz?" savoli natijalari.

Sakkizinchi savol bo'yicha tanlab olingan respondentlar "Insonlarni qiziqishini aniqlovchi mezonlar kerak" javobini Surxondaryo viloyatidan 63 nafar 57 foiz, Toshkent shahri sinaluvchilari 61 nafar 56 foiz, Namangan viloyatidan 59 nafar 54 foiz sinaluvchilar tanlagan bo'lib, sinaluvchilarda kasb tanlashda shaxs qiziqishini aniqlovchi mezonlarga talabning borligi hamda kasb tanlashdagi asosiy omil bu shaxs qiziqishi deb baholanishi kuzatildi. Hududlardan tanlab sinaluvchilarning nisbatam kam foizi "Insonlarning qobiliyatlari-reaksiyalarini aniqlovchi mexanizmlar-psixologik test-dasturlar", "Ko'p yillik kuzatuv uchun sotsiologik-psixologik dasturlar" zarurligini bildirishgan, bundan ko'rinib turibdiki o'quvchilarda kasbiy yo'naltiruvchi psixolog faoliyati bilan tanish emaslik, psixologik diasnostika orqali shaxsga mos kasb tanlashda olib borilyotgan ishlarning sayozligini bildiradi. "Maktab va ota-ona birgalikda" javobi Surxondaryo viloyatidan 25 nafar 24 foiz, Toshkent shahri sinaluvchilari 20 nafar 20 foiz, Namangan viloyatidan 22 nafar 21 foiz sinaluvchilar tanlagan bo'lib, kasb tanlashda maktab va ota-onalarning hamkorlikdagi tadbirlarini ta'sirini sezilarli deb qayd qilishgan.

9-savol: Kasb tanlashni necha yoshdan boshlamoq lozim deb o'ylaysiz?




9-rasm. Kasb tanlashni necha yoshdan boshlamoq lozim deb o'ylaysiz? savoli natijalari.

PSIXOLOGIYA FANLARI

To'qqizinchi savol bo'yicha tanlab olingan respondentlar 11-15 yosh 194 nafar, 16-20 yosh 48 nafar sinaluvchilar tanlashgan bo'lib, o'smirlilik, ilk va katta o'spirinlik yosh davrlarini ko'rsatishgan. Aynan shu yosh davrdagi o'quvchilarning qiziqishlari, qobiliyatlari va intilishlarini o'rganish orqali kasb-hunarga yo'naltirishning samarali metodlarini amaliy jihatdan qo'llaniladigan psixologik tadbirlarning muntazam olib borilishi yoshlarni maqsadli kasb tanlashda undashi bilan izohlashimiz mumkin.


10-savol: Siz o'zingiz kasbni necha yoshdan tanlagansiz?



10-rasm. "Siz o'zingiz kasbni necha yoshdan tanlagansiz?" savoli natijalari.


O'ninchi savol bo'yicha tanlab olingan respondentlar o'zlarining kasb tanlash yosh deb eng ko'p 11 yoshdan 18 yoshgacha bo'lgan yosh davrini belgilahgan. Boshqa yosh davrlari ham ko'rsatilgan bo'lib, sezilarli katta natija qayd etilmadi. O'quvchilarning kasb tanlash asoslari borasidagi nazariy

bilim, amaliy ko'nikma va malakalarini egallashi shu yosh davrlariga bog'liq holda kechganligi bilan izohlashimiz mumkin. 11-savol: Kasb tanlaganingizda kimlarning yordami tekkan?



11-rasm. "Kasb tanlaganingizda kimlarning yordami tekkan?" savoli natijalari.

O'n birinchi savol bo'yicha tanlab olingan respondentlar 162 nafari "Ota-onasi" javobini, 62 nafari "ustozlari" javobini tanlashgan bo'lib, hali hamon shaxsdagi psixologik xususiyatlarga nisbatan ota-onalar va ustozlarning tanlovi muhimligi va ishonchli ekanligini ko'rishimiz mumkin. Barcha hudud sinaluvchilrda kasb tanlashda o'zining tashabbusi kam ekanligi kuzatildi. 12-savol: Sizning kasbingizni tanlashdagi fikringiz?




12-rasm. "Sizning kasbingizni tanlashdagi fikringiz?" savoli natijalari.



O‘n ikkinchi savol bo‘yicha tanlab olingan respondentlar 109 nafari “To‘g‘ri tanlaganman” javobini bildirishgan bo‘lib, ta‘lim olayotgan mutaxassisligidan qoniqish hissining mavjudligini bildiradi. Sinaluvchilarning 55 nafari “Unchalik to‘g‘ri emas” javobini tanlashgan bo‘lib, bu sinaluvchilarda kasbni tanlashda ikkilanishning borligi, o‘zlarining tanlovidan norozilik hissi ifodalangan. 148 nafar sinaluvchilar “Noto‘g‘ri tanlaganman” javobini belgilashgan bo‘lib, ta‘lim olayotgan kasbiy yo‘nalishlarini xato tanlov asosida tanlaganini bildirishgan, bu sinaluvchilarda kasbiy imij haqida shaxsiy tassavvurlarning etishmasligini ko‘rsatadi.

13-savol: Kasbingizdan mamnunmisiz?




13 - r a s m .” K a s b i n g i z d a n mamnunmisiz?”savoli natijalari.

O‘n uchinchi savol bo‘yicha tanlab olingan respondentlar 174 nafari “Ha” javobini tanlashgan bo‘lib, kasbiy mamnunligini bildirishgan va bu sinaluvchilarda kasbiy imij haqida zarur bilimlar tashkil topganligi bilan ifodalashimiz mumkin. Sinaluvchilarning 145 nafari “Yo‘q” javobini tanlashgan bo‘lib, kasbiy mamnunlikni his qilishmaydi, buning natijasida kasbiy imij haqida zarur bilimlar egallashga nisbatan intilishning ham passivligi vujudga

kelishi yuz berganligi bilan ifodalangan.


14-savol: Sizningcha, taxminan necha foiz yoshlar kasbini noto‘g‘ri tanlayapti?



14-rasm.”Sizningcha, taxminan necha foiz yoshlar kasbini noto‘g‘ri tanlayapti?” savoli natijalari.

O‘n to‘rtinchi savol bo‘yicha tanlab olingan respondentlar “10 foiz” javobini Surxondaryo viloyatidan 44 nafar 40 foiz, Toshkent shahri sinaluvchilari 38 nafar 36 foiz, Namangan viloyatidan 25 nafar 24 foiz sinaluvchilar tanlagan bo‘lib, tanlagan kasbiy yo‘nalishida ta‘lim jarayoni va kelajakdagi kasbiy faoliyatidan qoniqish hissining mavjudligini ifodalaydi. “15 foiz” javobini Surxondaryo viloyatidan 26 nafar 24 foiz, Toshkent shahri sinaluvchilari 26 nafar 24 foiz, Namangan viloyatidan 32 nafar 31 foiz sinaluvchilar tanlagan bo‘lib, tanlagan kasbiy yo‘nalishi xato bo‘lsada ba‘zi bir sabablar masalan, shartnoma pulining to‘lab qo‘yilganligi, bo‘sh ish o‘rning mavjudligi kabilar tufayli ham o‘qishini davom ettirayotgan o‘quvchilarning borligi aniqlandi. “Undan yuqori foizgacha” javobi Surxondaryo viloyatidan 40 nafar 36 foiz, Toshkent shahri sinaluvchilari 42 nafar 40 foiz, Namangan viloyatidan 47 nafar 42 foiz sinaluvchilar tanlagan bo‘lib, kasb xato tanlansa ham ta‘lim jarayonida qatnashish va kelajakda kasbiy faoliyat bilan shug‘ullanish mumkin deb hisoblaydigan fikrlarning mavjudligini bilan ifodalaymiz.

15-savol: Yoshlarni kasb tanlashda Sizingcha, konkret nima ishlar qilmoq kerak?



15-rasm."Yoshlarni kasb tanlashda Sizingcha, konkret nima ishlar qilmoq kerak?" savoli natijalari.

O'n beshinchi savol bo'yicha tanlab olingan respondentlardan "O'rta maktab, litsey va kollejlarda, o'quv yurtlarida kasb tanlash va kasbga yo'naltirish bo'yicha alohida mutaxassislar ishlab turishi kerak" javobini Surxondaryo viloyatidan 56 nafar 51 foiz, Toshkent shahri sinaluvchilari 62 nafar 58 foiz, Namangan viloyatidan 58 nafar 56 foiz sinaluvchilar tanlagan bo'lib, yoshlarning kasb tanlashlarida mutaxassis psixologning maslahati va tavsiyalariga, psixologik diagnostika metodiklari orqali kasbiy qiziqishlarni tashxislashga ko'proq e'tibor qilinishi lozimligini bildirishgan. "Kasb tanlash bo'yicha kitoblar yaratish kerak" javobi Surxondaryo viloyatidan 24 nafar 22 foiz, Toshkent shahri sinaluvchilari 24 nafar 23 foiz, Namangan viloyatidan 22 nafar 21 foiz sinaluvchilar tanlagan bo'lib, kasb-hunarga yo'naltirish jarayoni samaradorligini oshirishga qaratilgan kitoblar, uslubiy qo'llanma va tavsiyalar yaratilishini bildirganlar. "Kasbiy markaz ishini takomillashtirish kerak" javobi Surxondaryo viloyatidan 30 nafar 27 foiz, Toshkent shahri sinaluvchilari 20 nafar 19 foiz, Namangan viloyatidan 24 nafar 23 foiz sinaluvchilar tanlagan bo'lib, kasb tanlashda amaliy chora-tadbirlarni ko'proq tashkil etilishiga masalan, ishlab chiqarish korxonalarini bilan hamkorlik qilish, "Ochiq

eshiklar kuni" larini yil davomida o'tkazilib borilishiga ahamiyat berilishini ta'kidlashgan. Yuqorida keltirilgan B.Q.Qodirovning "Yoshlarni kasbga yo'naltirish" nomli so'rovnomasining tavsifiy sharhidan kelib chiqib, tadqiqotimizning diagnostik natijalariga asoslanib quyidagi xulosalarga keldik:

1. Professional ta'lim muassasalari o'quvchilarining kasbiy rivojlanishda jamoadoshlari va atrofidagi o'z kasbining yetakchi mutaxassislaridan ish o'rganish maqsadi borligini inobatga olib, turli soha vakillaridan etakchi mutaxassislar bilan "Kasbiy uchrashuvlar"ga ehtiyojning mavjudligi aniqlandi.
2. O'quvchilarda ta'lim yo'nalishi va kasb o'rtasida aloqa haqida noto'g'ri tasavvurning borligini inobatga olgan holda sinaluvchilar bilan "kasb" va "mutaxassis" tushunchalarini kengroq tahlil qilinish imkonini beradigan ma'lumotlardan dars mashg'ulotlarida foydalanish tizimini yaratish.
3. Umumiy o'rta ta'lim maktablari va professional ta'lim muassasalari kasb hunarga yo'naltiruvchi psixologlar faoliyatining samarali yo'lga qo'yish hamda kasb tanlashga qaratilgan metodik qo'llanmalarni zamonaviy turlarini ishlab chiqishga ehtiyojning ortganligi aniqlandi.
4. O'quvchilarning kasb tanlashda maktab, ta'lim muassasalari va ota-onalarning hamkorlikdagi tadbirlarining ta'sirini kuchaytirishga qaratilgan ijtimoiy-psixologik mexanizmni tajribali psixolog mutxassislar amalga oshirishlariga talabning yuqoriligi kuzatildi.
5. O'smirlik, ilk va katta o'spirinlik yosh davrlarida yetakchi faoliyatlardan



biri kasb tanlash ekanligini inobatga olgan holda amaliy chora-tadbirlarni masalan, ishlab chiqarish korxonalarini bilan hamkorlik qilish, “Ochiq eshiklar kuni” samarali taʼsiri oʻquvchilarda ijobiy ahamiyatga egaligi aniqlandi. Muallif P.Shkalenkova tomonidan “Imij yaratishda barcha duch keladigan asosiy qiyinchiliklar” nomli maqolasi nashr etilgandan soʻng, koʻplab insonlarda imij yaratishda nimalarga eʼtibor berish kerakli haqida savollar paydo boʻladi va muallif oʻzining “Sizning imijingiz qanday” nomli testini yaratdi. Tadqiqot ishimizda professional taʼlim muassasasi oʻquvchilarida kasbiy imijning ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini aniqlashga yordam berganligi uchun ham biz ushbu testdan foydalandik. Qolaversa, oʻquvchilarning oʻz taqdirini belgilashda muammolarga duch kelganlarida, maqsadni shakllantirishga yordam beradigan jihatlarni ham aniqlab olishga yordam berdi.

1- jadval.
P.Shkalenkovaning “Sizning imijingiz qanday?” testini jinslar boʻyicha Mann Uitni mezoni asosidagi statistik tafovut. (N=320)

Shkalalar	Oʻrtacha ranglar		U	P
	Yigitlar (n=158)	Qizlar (n=162)		
Hissiyot	180,08	141,40	- 3,896	,000**
<u>Tashabbuskorlik</u>	153,06	167,75	- 1,466	,143
<u>Realistik</u>	173,34	147,98	- 2,498	,012**
<u>Boshqaruvchanlik</u>	162,70	158,35	- ,436	,663

Professional taʼlim muassasasi oʻquvchilarida «Sizning imijingiz qanday?» testi yordamida tadqiqot olib borildi. Tanlab olingan respondentlarda, oʻquvchilarda oʻtkazilgan tadqiqot natijalariga koʻra, Hissiyot shkalasida yigitlarda qizlarga qaraganda nisbatan farqlar mavjudligi aniqlandi. Yigitlarning natijalari hissiyot shkalasida qizlardan koʻra koʻrsatkichlarning yuqoriligi bilan izohlangan.

($U=-3,896$; $p<,000$). Yigitlarda oʻz ulubini yaratishda yorqin his-tuygʻularni boshdan kechirish qobiliyati ularning oʻziga xos xususiyatlaridan biri hisoblanib, chin dildan hayratlanish, xafa boʻlish, tashvishlanish kabi holatlarning mavjudligi aniqlandi. Shu bilan bir qatorda imij boshqa odamlar bilan osongina aloqa oʻrnatish, muloqot qilish, odamlarga baxt, quvonch hissini ulashganda ahamiyatli, kamdan-kam hollarda tortishuvlarga duch kelish va nizolardan qochish, muloqot va harakat bilan bogʻliq kasblar menga mos keladi kabilar yigit sinaluvchilarga xosligi kuzatildi. Hissiyot shkalasida respondent qizlarda baʼzi salbiy tomonlar, yaʼni baʼzida vahima, bir lahzalik kayfiyatga (baxtli quvonchdan haddan tashqari qaygʻugacha) moyillik, kayfiyati tez oʻzgaruvchan, boshlagan ishlarini oxiriga etkazmaslik, kabi xususiyatlar aniqlandi. Qizlarda imijni shakllantirishda oʻz xarakter xususiyatlarini diqqat bilan anglab ish koʻrish, hamkasblar va sheriklar bilan munosabatlarni oʻrnatishda samimiy boʻlishga alohida eʼtibor berish kerakligi kuzatildi. “Sizning imijingiz qanday?” testining ikkinchi Tashabbuskorlik shkalasida tanlab olingan respondentlarda oʻtkazilgan tadqiqot natijalariga asoslanib nisbatan qizlardabiroz ustunlik bor, lekin bu farq sezilarli emas. ($U=-1,466$; $p>,143$). Tashabbuskorlik shkalasida sinaluvchilarning har ikkala jins vakillarida ham kamgaplik, oʻzinga va boshqalarga juda talabchan, pedantik, haddan tashqari hamma narsani yuqori masʼuliyat bilan bajarish kerak degan

qarashning mavjudligi tufayli o'zidan qoniqmaslik xususiyatlari aniqlandi. Shuning bilan birgalikda ularda etakchilikni yoqtirmaslik, bajarilgan ishning to'g'riligiga doimiy shubha ("Men to'g'ri ish qilyapmanmi?") va jamoa bo'lib ishlashda qiyinchilik his qilish, natijada himoyasiz imijni tasavvur qilishga sabab bo'lishi aniqlandi. Munosib kasbiy imijni yaratishda ulardagi mavjud hamma narsada tartibni sevish, vijdonlilik, qat'iyatlilik, samaradorlik kabi fazilatlarga, muloqot qobiliyatini rivojlantirishga, ko'proq muloqot qilishga asosiy e'tiborni qaratish kerakligi kuzatildi. Tadqiqot ishimizda professional ta'lim muassasasi o'quvchilarida o'tkazilgan «Sizning imijingiz qanday?» testining uchinchi Realistik shkalasida farqlar kuzatildi. Tanlab olingan respondentlarda o'tkazilgan tadqiqot natijalariga ko'ra, realistik shkalasida yigitlarda qizlarga qaragana nisbatan farqlar mavjudligi aniqlandi. Yigitlarning natijalari hissiyot shkalasida qizlardan ko'ra ko'rsatkichlarning yuqoriligi bilan izohlangan. ($U=-2,498$; $p<,012$). Bu shkalada yigitlarda diqqat markazida bo'lishni yaxshi ko'rish, turli kasbiy rollarni osongina o'zlashtirish, jonlilik, harakatchanlik va badiiylik, odamlarning turli xil xususiyatlariga osongina moslashish kabi xususiyatlar aniqlandi. Odamlar bilan ba'zan ayyorlik bilan tezda umumiy til topish qobiliyati mavjudligi uchun ularni tezda ishga kira olish, uddaburonlik bor. Lekin imijni yaratishda sinaluvchi yigitlarning asosiy zaif tomoni bu egosentrizm ekanligi aniqlandi. Bu shkalada respondent qizlarda faoliyatdagi qiyofani yaratish qobiliyati yaxshi rivojlangan, biroq faqat imijning tashqi omillari kiyimlarning yorqinligi, ranglar kombinatsiyalarini afzal ko'rish, yorqinlik, quvnoqlik va o'zingizga bo'lgan ishonch, da'vogarlik va sarguzashtni yoqtirish kabi xususiyatlar aniqlandi. Lekin bu xususiyatlar kasbiy imij uchun ishonchni va uzoq muddatli muvaffaqiyatli faoliyatni ta'minlamaydi. Bu sinaluvchilarda ishtiyoqini mo'tadil lashtirish, imijning maksimal ikkita yorqin dizaynga ega bo'lishi muhimligini tushuntirish ya'ni,

agar ularning xulq-atvori juda quvnoqlashib ketsa, tashqi ko'rinishi kamtarroq bo'lishiga e'tibor qilish kerakligi oydinlashtirildi. Bundan tashqari o'zining fikrlashi va harakatlarining o'ziga xosligi bilan boshqalarni o'ziga jalb qilib, kasbiy imijni mustahkamlab borishga yo'naltirish mumkinligi kuzatildi. Tadqiqotimizda professional ta'lim muassasasi o'quvchilarida o'tkazilgan "Sizning imijingiz qanday?" testining to'rtinchi Boshqaruvchanlik shkalasida nisbatan respondent yigitlarda ustun natija aniqlandi, biroq bu natija sezilarli tafovutni keltirib chiqarmadi. ($U=-,436$; $p<,663$). Tanlab olingan respondentlarda o'tkazilgan tadqiqot natijalariga ko'ra, rahbar shkalasida yigitlarda ham qizlarda ham ko'rsatkichlarning biroz farq bilan deyarli tengligi kuzatildi. Bu shkalada sinaluvchilarda kuchli tomonlar o'ziga ishonch, qat'iyatlilik kuzatilsada, shuning bilan birga zerikarlilik, beparvolik, o'z fikrini faol ravishda talab qilish kabi xususiyatlar borligi aniqlandi. Shunga ko'ra, sinaluvchilarda kasbiy imij haqida takabburlik, qat'iy munosabat va shuhratparastlik, o'z manfaatlarini qat'iy kuch bilan himoya qilishga urinish kabi holatlar kuzatildi. Bu esa o'z navbatida sinaluvchilarda kasbiy imijni yumshatish kerakligi, chunki shunday fikrlashda davom etsa ko'pincha haddan tashqari hukmron va tajovuzkor bo'lib qolish va yaqin insonlari ular bilan muloqot qilishlari qiyinligi tushuntirish, muloqotda imo-ishoralardan, nutqda, yuz ifodalarida yumshoq mimikalardan foydalanishni



shakllantirish lozimligi aniqlashtirildi.

Xulosa. Jumladan yuqorida keltirilgan metodikalarimiz yordamida olib borilgan diagnostik tadqiqotlarimizning natijalariga asosan quyidagi xulosalarga keldik:

1. Professional ta'lim muassasasi o'quvchilarida kasbiy imijning ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini aniqlash orqali o'quvchilarning o'z taqdirini belgilashda, kasbiy muammolarga duch kelganlarida, maqsadni shakllantirishga yordam beradigan jihatlarni ham aniqlash mumkin.
2. Sinaluvchilarda kasbiy imij haqida takabburlik, qat'iy munosabat va shuhratparastlik, o'z manfaatlarini qat'iy kuch bilan himoya qilishga urinish kabi holatlar kuzatildi. Bu esa o'z navbatida sinaluvchilarda kasbiy imijni yumshatish kerakligi, insonlar bilan samarali muloqot qilishni rivojlantirish, muloqotning paralingvistik tomonlari haqida bilimlarini boyitish lozimligi aniqlashtirildi.
3. Tanlab olingan respondentlarda kasbiy imijning ijtimoiy-psixologik xususiyatlar aniq va to'g'ri ang'lay olish shaxsda hozirgi davrning ahamiyati bilan uzoq maqsadlarni ko'zlay olish, kasbda uchraydigan tashqi ob'ektiv qiyinchiliklarga dosh berishda o'ziga o'zi beradigan shaxsiy yordamni rivojlantirish imkon borligidan dalolat berishini oydinlashdi.
4. Olingan diagnostik natijalarimiz orqali o'quvchilarning kelajakdagi kasbiy imij, kasbiy qiyofasini qay darajada o'zlari tomonidan tahlil qilinishida oid hududiy tafvotlar haqida ma'lumotlarga ega bo'ldik.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-sonli "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. –T.: 2017. –№6 (766)-son. –229- b.
2. Андреевой Ю.В. «Психология имиджа и рекламы: концепции, технологии, стратегии эффективности», 2006 г.

3. Aminova D.O. Professional talim o'quvchilarida kasbiy imijni shakllantirishda o'qituvchilar imijining roli. Maqola.Bola va Zamon / № 4 / 2023 b 64-65.
4. Атаманская К. И. Компетентностный компонент профессионального имиджа // Гуманитарные исследования. 2016. № 1. С. 82-84;
5. Петровой Е.А. «Имиджелогия», 2009 г
6. Плугина М.И. Формирование имиджа - условие повышения профессионализма личности и деятельности преподавателя высшей школы / М. И. Плугина, Л. Ю. Донская, С. В. Знаменская // Акмеология. 2014. № 3 (51). С. 38-45.

“TISU ilmiy tadqiqotlari xabarnomasi” ilmiy-uslubiy jurnali ilmiy maqolalariga qo‘yiladigan talablar

Termiz iqtisodiyot va servis universitetining “TISU ilmiy tadqiqotlari xabarnomasi” ilmiy-uslubiy jurnali O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligining 2023-yil 1-martdagi № 066379-raqamli guvohnomasi bilan ro‘yxatga olingan.

Jurnalga *iqtisodiyot, tarix, pedagogika, psixologiya, fizika-matematika, filologiya* fan sohalari (ruknlar) bo‘yicha maqolalar qabul qilinadi. Nashrga original, ilgari nashr qilinmagan maqolalar va jurnal rukniga mos keladigan maqolalar qabul qilinadi. Original maqolaning hajmi (annotatsiya, kalit so‘z va so‘z birikmalari hamda foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati bundan mustasno) 1,15 intervalda 7-10 bet tavsiya etiladi (15 betdan oshmasligi kerak). Matn – Microsoft Word. Format – A4. Matnning ikki yonidan qoldiriladigan o‘lcham – 2 sm. Shrift – Times New Roman. Shriftning kattaligi – 14. Qatorlar oralig‘i – 1,15. Xat boshi (abzats) – 1,25. Maqolalar o‘zbek (lotin imlosida), rus, yoki ingliz tillarida taqdim etilishi mumkin.

Maqolaning tuzilishi quyidagicha tavsiya etiladi:

Muallif(lar): mualliflarning to‘liq nomlari quyidagi tartibda qayd etilishi kerak: familiyasi, ismi, otasining ismi, ikki yoki undan ortiq mualliflar bo‘lsa, vergul bilan ajratiladi.

Muallif(lar)ning ish joyi: Ushbu ma‘lumot quyidagi tartibda taqdim etilishi kerak: kafedra, OTM yoki ilmiy-tadqiqot instituti, shahar va mamlakat, elektron pochta manzili, telefon raqami keltirilgan bo‘lishi kerak.

Maqolaning nomi: maqola va boshqa materiallar sarlavhasi qisqa, mazmunga muvofiq va 12 so‘zdan oshmasligi kerak (bosh harflarda). U o‘zbek, rus hamda ingliz tillarida taqdim etilishi kerak.

Annotatsiya: Maqolalarning qisqacha annotatsiyasi 10-12 qatordan oshmagan holda o‘zbek, rus va ingliz tillarida beriladi. Unda tadqiqot muammosi, uning dolzarbligi, tadqiqot muammosini ochib berish uchun qo‘llanilgan metodologiya, tadqiqot natijalari, maqolaning to‘la mazmunidan kelib chiqqan holda muallifning ilmiy va

Kirish:

amaliy hissasining qisqacha bayoni yoritiladi.

Annotatsiyada maqolaning asosiy jihatlari bayon etishda quyidagilarga e'tibor beriladi:

- tadqiqotning asosiy ma'lumotlarini qamrab olishi va ishda mavjud bo'lmagan faktlar bo'lmasligi lozim;

- maqolaning tuzilishi annotatsiyada takrorlanadi: kirish, maqsad va vazifa, usullar, natija/muhokama, xulosa/mulohaza;

- natijalar aniq va lo'nda bo'lib, uzviylikda beriladi;

- annotatsiyada maqola sarlavhasi takrorlanmaydi, keraksiz izohlar, "kirish jumlalari" (muallif maqolada shuni nazarda tutadiki...) bo'lmasligi lozim;

- annotatsiyada iqtibos keltirilmaydi;

- annotatsiya matnining hajmi 150-200 so'zdan iborat bo'lishi tavsiya etiladi.

Kalit so'zlar: maqola mazmuni va maqsadini eng qisqa mazmunda ochib beruvchi kalit so'zlar hisoblanadi. Annotatsiya ostida «Kalit so'zlar» (8-10 ta) yozuvi joylashtiriladi. Kalit so'zlar maqolaning asosiy mazmunini ifodalab, asosan, sohaga doir muhim tushunchalardan tashkil topgan bo'lishi lozim. scholar.google.com yoki google.com qidiruv tizimida maqola oson va eng birinchi sahifalarda topilishi uchun tayanch so'zlarning har biri asosiy matn tarkibida o'rtacha 6-8 marta takrorlanishi tavsiya etiladi.

Matn – Microsoft Word. Format – A4. Matnning ikki yonidan qoldiriladigan o'lcham – 2 sm

maqolada tadqiqotning maqsadi va maqola yozilish vaqtida ilmiy muammoning holati aks etishi kerak. Kirish qismida asosan tadqiqot muammosi, uning maqsad va vazifalari yoritiladi. Mazkur qism tadqiqot mavzusining tanlanish asosi, uning dolzarbligi va ilmiy ahamiyatini tushuntirib beradi (ushbu qismda Prezident asarlari va ma'ruzalariga murojaat qilinishi tavsiya etiladi).

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili:

mavzuga oid adabiyotlar tahlili tadqiq etilayotgan muammo yuzasidan muallifning bilim va tasavvurlarga ega ekanini namoyon etuvchi qism hisoblanadi. Adabiyotlar tahlili mavjud intellektual hudud doirasini baholash va shu asosda ma'lum xarita yaratishni anglatadi. Adabiyotlarning tanqidiy tahlilidagi urinishlar mazkur mavzu doirasidagi bilimlarni kuchaytiradi va tadqiqot savollarini yanada oydinlashtirishga yordam beradi. O'z mazmuniga ko'ra har qanday tadqiqot ayni shu sohada yaratilgan avvalgi bilimlar negiziga quriladi. Adabiyotlar bo'yicha tahlil asosan sohadagi eng yangi jurnal maqolalari va boshqa turdagi ma'lumot manbalari asosida amalga oshadi.

Tadqiqot metodologiyasi:

tadqiqot metodologiyasi tadqiqotning eng muhim qismlaridan biri bo'lib, u o'tkazilayotgan tadqiqotning umumiy xaritasi, tadqiqot yo'li va manzilga (natijaga) olib boruvchi xaritaviy chizgilari hisoblanadi. Maqola metodologiyasi tadqiqot falsafasi va yo'nalishini (deduksion yoki induksion) belgilash, tadqiqot dizayni, ya'ni tadqiqot muammosining yechimiga olib boruvchi bosh rejasini tuzish, tadqiqot uchun zarur axborotni olish yo'llari va tadqiqot etikasini belgilash, tadqiqot ob'ektining tanlovi (sampling), birlamchi yoki ikkilamchi ma'lumot manbalaridan foydalanish to'g'risidagi qarorlar, tadqiqot strategiyasini (kuzatish, eksperiment, keys-stadi, savolnoma, etnografik, arxiv tadqiqot va h.k.) aniqlash bo'yicha ratsional qaror qabul qilish asosida qo'yilgan muammoning aniq yechimiga olib chiquvchi yo'lni belgilashni anglatadi. Metodologiya qismining mukammalligi tadqiqot uchun belgilangan yo'lning ishonchliligi (reliability) va aniqliligini (validity) asoslash orqali namoyon bo'ladi.

Tahlil, natijalar va mulohaza:

maqolaning tahlil qismi tadqiqot metodologiyasida avvaldan belgilab olingan tahlil usullari (matematik modellar va boshqalar) orqali yig'ilgan ma'lumotlarning tahlilini amalga oshiradi. Bunda faqatgina tahlil usulining natijalari ifoda etiladi; topilgan natijalar bo'yicha muhokama maqolaning keyingi qismining vazifasi hisoblanadi.

Xulosa va takliflar:

kirish qismida qo'yilgan savollarga javoblar xulosalarda aniq ko'rsatilishi kerak. Shu bilan birga, takliflar va ayni tadqiqotdan kelib chiqqan holda kelajak tadqiqot ishi yo'nalishlari maqola xulosa va takliflari qismining asosini tashkil etishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlarning berilish tartibi:

Maqolada foydalanilgan barcha adabiyotlarning ro'yxati maqolaning oxirida matnda foydalanilganlik ketma-ketligi bo'yicha beriladi (1. ... 2. ...). Maqola iqtiboslari esa matn ichida foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati ketma-ketligida adabiyotning foydalanilgan sahifasi bilan yoziladi ([1, B.72-73] yoki [2, C. 153], [3, P. 25]).

Jurnal maqolalarining berilishi:

Дульзон А.П. Этнолингвистическая дифференциация тюрков Сибири // Структура и история тюркских языков. – Москва: Наука, 1971. – С. 198 – 208.

Elektron jurnalda maqolalarning berilishi:

Allamuratov Sh.A. Markaziy Osiyo xalqlari madaniy-diniy aloqalarida Amudaryo suv yo'lining o'рни // O'tmishga nazar. №24. 2019. – B. 23-29. URL: <http://dx.doi.org/10.26739/2181-9599-2019-24> [murojaat qilingan sana: 15.02.2023]

Konferensiya materiallarining berilishi:

Allamuratov Sh.A. Amudaryo bo'ylab Buxoro amirligi qishloq xo'jalik mahsulotlarining tashilishi // "Buxoro tarixi masalalari" (eng qadimgi zamonlardan hozirgi davrgacha). Respublika ilmiy-amaliy (onlayn) konferensiyasi materiallari. – Buxoro, 2021. – B. 72-76.

Kitoblar (monografiya, to'plam)larning berilishi (adabiyotning umumiy beti shu joyda yoziladi):

Бўриев О. Темурийлар даври ёзма манбаларида Марказий Осиё (тарихий-географик лавҳалар). – Тошкент: Ўзбекистон, 1997. – 186 б.

Малов С.Е. Памятники древнетюркской письменности. Тексты и исследования. – Москва –

Ленинград: АН СССР, 1951. – 451 с.

Tarjima kitoblarning berilishi:

Абу-л-Аббос Аҳмад ибн Яхё ал-Балозурий. Футуҳ ал-булдон (Хуросоннинг фатҳ этилиши) / Сўз боши, араб тилидан таржима, шарҳлар, изоҳлар ва кўрсаткичлар муаллифи Ш.С.Камалиддин. – Тошкент: ТошДШИ, 2017. – 440 б.


Низами Арузи Самарканди. Собрание редкостей или Четыре беседы / Пер. с перс. С.И.Баевского и З.Н.Ворожейкиной под ред. А.Н.Болдырева. М.: ИВЛ, 1963. – 174 с.

kirish qismida qo'yilgan savollarga javoblar xulosalarda aniq ko'rsatilishi kerak

Internet-resurslarning berilishi:

Лапшин Р.В. Флотилии в Туркестане периода гражданской войны (Прислала В.Лаврова) // <https://mytashkent.uz/2018/01/24/flotilii-v-turkestane-perioda-grazhdanskoj-vojny/> [murojaat qilingan sana: 15.03.2022]

Амударьинская военная флотилия (Материал из Википедии — свободной энциклопедии)[элект.рес.]/https://ru.wikipedia.org/wiki/Амударьинская_военная_флотилия [murojaat qilingan sana: 01.02.2022]



TISU ILMU TADQOTLARIXABARNOMASI

№3/2024



TISU ILMIY TADQIQOTLARI **XABARNOMASI**

ILMIY-USLUBIY JURNAL
ISSN 2992-9016

№4/2024

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM,
FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

TERMIZ IQTISODIYOT VA
SERVIS UNIVERSITETI



TISU ILMIY TADQIQOTLARI XABARNOMASI

ВЕСТНИК НАУЧНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ ТУЭС
TUES BULLETIN OF SCIENTIFIC RESEARCH



“TERMIZ IQTISODIYOT VA SERVIS UNIVERSITETI ILMIY TADQIQOTLARI XABARNOMASI”
ILMIY-USLUBIY JURNALI

№ 4/2024

Offline ISSN 2992-9113
Online ISSN 2992-9156



Dissertatsiya va avtoreferatning berilishi:

Qobulov E.A. XVIII asrning ikkinchi yarmi va XX asr boshlarida Surxon vohasi xo'jaligi. Tarix fanlari doktori (DSc) ... diss. – Toshkent, 2019. – 284 b.

Юсуфи Шодинур. История путей сообщения и транспорта Таджикистана во второй половине XIX – начале XX в. Автореф. дисс. ... канд. ист. наук. – Душанбе, 1992. – 21 с.

Jadvallar: maqolada jadval nomlari uning yuqori qismida, chizma yoki rasm nomlari esa ularning quyi qismida yozilishi hamda ularning manbasi aniq ko'rsatilishi lozim. Jadvallar raqamlanadi va maxsus nomlanadi. Jadvaldagi har bir ustun qisqa nomga ega bo'lishi kerak (qisqartma so'zlardan foydalanish mumkin). Har bir jadval matnda izohlanadi. Chizmalarning elektron versiyalari alohida fayllarda taqdim etiladi. Tasvirning tavsiya etilgan kengligi 14 smdan oshmasligi kerak, balandligi 18 smdan oshmasligi tavsiya etiladi. Skanerlash materiallari kamida 300 dpi bo'lishi kerak.

O'zbek tilidagi o', g', q, h kabi harflar ilmiy maqola matnida gaplar tarkibida to'liq yozilishi shart.

Ilmiy maqola tahririyat tomonidan ko'rib chiqiladi. Tahririyat a'zolarining jurnal ruknlariga mos kelmagan, ko'rsatilgan talablarga mos bo'lmagan maqolalarni qabul qilmaslik huquqi bor.

Yuborilgan maqolalarning barchasi "Antiplagiat" tizimida tekshiriladi.

Jurnal bosma shaklda chop etiladi. Jurnalning elektron shakli– Termiz iqtisodiyot va servis universitetining rasmiy web saytiga joylashtiriladi (<https://scientific.tu>). Maqolalar bosqichma-bosqich google scholar da indekslanadi.

Tasvirning tavsiya etilgan kengligi 14 smdan oshmasligi kerak, balandligi 18 smdan oshmasligi tavsiya etiladi. Skanerlash materiallari kamida 300 dpi bo'lishi kerak

Tahririyat joylashgan manzil (pochta manzili):
Termiz shahri, Bog'ishamol MFY, Faravon massivi 4b-uy.

Tahririyat to'g'risidagi boshqa ma'lumotlar:
Pochta indeksi: 190101.

E-mail: eshbolta.kabulov@mail.ru allamuratovs@tersu.uz
Tel.: 91-966-00-44, 91-518-66-88.